



O'zbekiston Respublikasi
oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“O'ZBEK TILI MILLIY VA TA'LIMIY KORPUSINING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI”

**mavzusidagi
Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari**

(2023-yil 5-may)



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEK TILI MILLIY VA TA’LIMiy KORPUSINING
NAZARIY VA AMALIY MASALALARI”**

mavzusidagi

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

materiallari

(2023-yil 5-may)

Toshkent – 2023

O‘zbek tili milliy va ta’limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari /
Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. –
Toshkent: ToshDO‘TAU, 05.05.2023. – 238 b.

Mazkur to‘plamdan o‘zbek tilining milliy korpusi hozirgi holati natijalari, muammolari, vazifalari, o‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish masalalari, amaliy filologiya yo‘nalishlari istiqbollari, o‘zbek tili ta’limida korpuslardan foydalanish, tabiiy tilga avtomatik ishlov berish muammolariga oid materiallar joy olgan.

Ushbu ilmiy to‘plamdan korpuslingvistikasi, pedagoglar, amaliy filologiya sohasi mutaxassislari, tadqiqotchilar, magistrantlar va sohaga qiziquvchi talabalar foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir:

B.Mengliyev – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

S.Muhamedova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili ta’limi fakulteti dekani, filologiya fanlari doktori, professor.

B.Elov – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kompyuter lingvistikasi va raqamli texnologiyalar kafedrasi mudiri, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI MILLIY VA TA’LIMiy KORPUSINING
NAZARIY VA AMALIY MASALALARI**

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari

(2023-yil 5-may)

Toshkent – 2023

TASHKILIY QO‘MITA

Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Jamoliddinova Odinaxon Rustamovna (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Zaripov Rafiqjon Ergashboy o‘g‘li (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

TAHRIR HAY‘ATI

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich

Islomov Ikrom Xushboqovich

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna

Zaripov Rafiqjon Ergashboy o‘g‘li

Elova Dilrabo Qudratillayevna

Murtazayev Abror Odilovich

Musulmonova Kamola Husniddin qizi

TABRIK SO‘ZI

Assalomu alaykum, hurmatli ustozlar, kompyuter lingvistlari va korpus lingvistikasi sohasida faoliyat yuritayotgan tadqiqotchilar!

Ma’lumki, azaldan milliy til qadri, davlat tili ravnaqi, uni jahon tillari qatorida iste’molda bo‘lishini ta’minlash masalalari doimo kun tartibida bo‘lib kelgan. Keyingi yillarda buning siyosat darajasiga ko‘tarilishi tilimizga davlat miqyosida e’tiborning nechog‘li yuksak ekanligidan dalolat beradi. Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish Konsepsiyasi”da belgilangan davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash ustuvor yo‘nalishidagi o‘zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma’lumotlarni o‘zida jamlagan elektron ko‘rinishdagi o‘zbek tili milliy korpusini yaratish va o‘zbek tilini internet jahon axborot tarmog‘ida ommalashtirish, unda munosib o‘rin egallashini ta’minlash vazifalarining ko‘rsatib berilishi siz aziz mutaxassislarga katta mas’uliyat bo‘ldi. Shu o‘rinda faxr ila ta’kidlash joizki, o‘zbek tili ta’limiy korpusi, ayniqsa, o‘zbek tili Milliy korpusining aynan o‘zbek tili va adabiyoti dargohida yaratilishi boshqa tur til korpuslari mushtarakligini ta’minlash, bu borada faoliyat yuritayotgan mutaxassislarni jipslashtirishga zamin yaratadi. Aynan shu maqsadda tashkil etilgan “O‘zbek tili milliy va ta’limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari” mavzusidagi mazkur respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi davomida yuqorida tilga olingan masalalar yechimlarining topilishi, ularning bajarilishida muhokama davrasiga aylanishi, milliy tilimizni raqamli texnologiya orqali rivojlantirishga shaylangan tadqiqotchilar uchun tajriba olish, malakalarini oshirish maydoniga aylanishi muqarrar va bu kelajakda ko‘plab o‘zbek tilining faol qo‘llanilishiga omil bo‘luvchi kompyuter dasturlarining yaratilishiga zamin bo‘ladi. Ko‘p yillik talab va ehtiyoj asosida, ona tilimizni avaylab-asrash, boyitish, undan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish yo‘lida sizlarga shijoat, tashabbuskorlik, ummondan ham qamrovi keng ilm hamroh bo‘lsin.

**Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va
adabiyoti universiteti rektori,
filologiya fanlari doktori, professor**

**MILLIY KORPUS – O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISHGA
INNOVATSION YONDASHUV**

Assalomu alaykum aziz konferensiya ishtirokchilari! Milliy korpus milliy til xazinasini demakdir. Bugungi kunda dunyo miqyosida til o‘rgatish tizimi korpuslarga yo‘naltirilayotganligi ham – fikrimizning dalili. Shuning uchun ta’lim korpuslari, sheva matnlari korpuslari, poetik matnlar korpusi, og‘zaki, ilmiy, rasmiy matnlar korpusi kabi qator mikrokorpuslarning tuzilayotganligi ahamiyatli. O‘zbek tili korpusini yaratishga hanuz qo‘l urilmayotganligi achinarli holat. Til korpusiga ehtiyoj sezadigan mutaxassislardan yana biri – kundalik ish jarayonida yozma va og‘zaki nutq jozibasiga tez-tez murojaat etuvchilar: gazeta va jurnal muharriri, jurnalist, radio va televidenie xodimlari. Chunki bu mutaxassislar ma’lum bir so‘z, ibora yoki gapning qo‘llanish holati, darajasi, kim, qachon ilk marta bu gapni qo‘llaganligi, qanday uslub uchun xoslanishini bilishga grammatika bilan shug‘ullanuvchi olimdan ko‘ra ko‘proq ehtiyoj sezadi. Korpusdan tashqari hech qanday axborot banki bu kabi savollarga zudlik bilan javob berishi mumkin emas. Shuning uchun korpus lingvistikasi tadqiqotchilari korpuslar jurnalist, muxbir, muharrir, o‘qituvchi hamda dasturchi uchun maxsus yaratila boshlangan, degan xulosaga ham kelishadi. Biz bugungacha darslik, ilmiy grammatika va lug‘atga qanday tayangan bo‘lsak, zamonaviy soha vakillari korpusga shu qadar ehtiyoj sezishadi, undan foydalanishadi. O‘zbek tili dunyoning rivojlangan tillari qatorida turadi. Afsuski, tilimizning ichki imkoniyatlari axborot texnologiyalari tizimida yetarli darajada ishga solinmayapti. Yurtimizda o‘zbek tili korpuslari yaratish ishlari endi debocha bo‘lib turibdi. Bu ona tilimizning axborot texnologiyalari tili sifatida, shuningdek, milliy korpus shaklida global korpuslar to‘riga ulanib, jahonga yuz tutishiga monelik qilyapti. Bu sohada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari o‘zbek korpus lingvistikasining nazariy asoslarini ishlab chiqish, namuna sifatida bir-ikki korpus lavhasi yaratish jarayoni bosqichida turibdi, xolos.

O‘zbekistonda amaliy tilshunoslikning bir yo‘nalishi sanalgan o‘zbek korpus lingvistikani rivojlantirish uni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish, kompyuter va korpus lingvistikasi markazi yoki laboratoriyasini tashkil etish hamda unga mutaxassislarni birlashtirish orqali amalga oshishi mumkin. Bu borada universitet olimlari tomonidan olib borilayotgan tizimli ishlar tahsinga sazovor. “O‘zbek tili milliy va ta’limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi va jamoaning ishlariga omad tilaymiz!

Isajon Sulton,

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri maslahatchisi

Assalomu alaykum, hurmatli anjuman ishtirokchilari! Avvalo, o'zbek tilining nufuzini oshirish borasida mamlakatimizda keyingi yillarda olib borilayotgan islohotlar birin-ketin o'z samarasini ko'rsatmoqda. Til o'zini lug'atlarda namoyon qiladi. Shu ma'noda, o'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan 20 dan ortiq umumiy va sohaviy lug'atlar yaratildi. Galdagi asosiy masalamiz – Milliy til korpusini yaratishdir. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 6084-sonli farmonining 6-bandida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy ta'lim muassasalarining filologiya ta'lim yo'nalishlarida «Kompyuter lingvistikasi», «Amaliy filologiya» yo'nalishlarini tashkil qilish, o'zbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma'lumotlarni o'zida jamlagan elektron ko'rinishdagi o'zbek tili milliy korpusini yaratish vazifalari qo'yilgan edi. Buning amaliy natijasi sifatida jamg'arma tomonidan o'zbek tili milliy korpusini yaratish bo'yicha amaliy loyihalar e'lon qilindi.

Bundan tashqari Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti olimlari tomonidan keng miqyosda milliy til korpusini ishlab chiqish ishlari olib borilmoqda. "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" amaliy loyihasi doirasida o'zbek tilining korpusi ishlab chiqildi. Olimlarning bunday tashabbuskorligini biz, albatta, qo'llab-quvvatlaymiz! Korpus katta hajmli lug'atlarni tuzish uchun manba vazifasini o'taydi. Vaqt o'tishi bilan korpus turli lingvistik yo'nalishlar uchun ahamiyatli bo'lishi bilan kuchli informatsion resursga aylandi. Korpus asosida kompyuter yordamida lug'atlar avvalgiga nisbatan tezlik bilan tuziladi va qayta ishlanadi. Shu yo'l bilan ish boshlanishidan tugash jarayonigacha (nashrgacha) tilni aks ettirib turadi, lug'at maqolasi "eskirish"ga ulgurmaydi. Tilning zamonaviy holatini aks ettiruvchi korpus turli davrlarda yashab ijod etgan ijodkorlarning mualliflik korpuslari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Korpusning so'zshunoslik sohasidagi ahamiyati shundaki, so'zning qo'llanish davri va chastotasini aniqlashda hech qanday vosita korpusga tenglasha olmaydi. Korpus lingvistikasining keyingi taraqqiyot bosqichida statistik tadqiq metodi kompyuter tarjimai, nutqni sintezlash va tanish, aniqlash, orfografik tekshiruv kabi lingvistik amallarni bajarishda qo'l kela boshladi. Yaqin orada til o'rganayotgan o'quvchi yoki uning biror jihatini tadqiq etayotgan kishining bugungi kunda lug'atga bo'lgan ehtiyoji korpusga ko'chishi shubhasiz.

Konferensiya ishiga omad tilayman!

Jamoliddinova Odina Rasulovna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

**1. SHO'BA. O'ZBEK TILINING MILLIY KORPUSI: NATIJALAR,
MUAMMOLAR, VAZIFALAR**

O'ZBEK TILI KORPUSSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI

MENGLIYEV Baxtiyor

ToshDO'TAU, Amaliy filologiya kafedrası mudiri,
filologiya fanlari doktori, professor

Milliy korpus milliy til xazınası demakdir. Undan lingvist, leksikograf, komp'yuter lingvistlari, dasturchi, muharrir, tarjimon, jurnalist, noshirlar, olim, o'qituvchi, ta'lim oluvchilar va boshqa har qanday soha mutaxassisi keng foydalanadi. Foydalanishda deyarli kasbiy tabaqalanishga yo'l qo'ymaydigan til korpuslari barcha soha vakillarini birday qiziqtirishi tabiiy. Ayniqsa, ona tili va chet tillarni o'qitish hamda o'rganish borasida korpuslarning o'rni beqiyos. Bugun dunyo miqyosida til o'rgatish tizimi korpuslarga yo'naltirilayotgani ham fikrimiz dalilidir. Shuning uchun ta'lim, sheva matnlari, poetik matnlar, og'zaki, ilmiy, rasmiy matnlar korpuslari kabi qator mikrokorpuslarning tuzilayotgani e'tiborga molik. Biroq o'zbek tili korpusini yaratish ishlari hanuz ortga surilmoqda.

Til ma'naviy merosimizni asrash va boyitishning asosiy vositasi hisoblanadi. Tillarni saqlab qolish milliy ma'naviyatni saqlab qolish demakdir. Zero, asl ma'naviyat faqat milliy shakldagina mavjud bo'ladi.

YUNESCO hisob-kitobiga ko'ra, bugungi kunda mavjud 6 mingtacha tilning qariyb yarmi yaqin vaqtda o'zining oxirgi sohiblaridan ham ajralishi mumkin. O'lik tilga aylanayotgan bu tillarni saqlab qolish insoniyat oldidagi eng o'tkir muammolardandir. 1999-yil 17-noyabrda YUNESCO Bosh anjumani e'lon qilgan Xalqaro ona tili kuni 2000-yilning fevralidan boshlab har yili lisoniy va madaniy taraqqiyot hamda ko'p tillilikni ta'minlashga ko'maklashish maqsadida nishonlab kelinadi. BMT Bosh assambleyasi o'z rezolyusiyasida 2008-yilni Xalqaro tillar yili deb e'lon qildi.

Mamlakatimizda tilga e'tibor ma'naviyatga e'tiborning ustuvor yo'nalishlaridan biri darajasiga ko'tarildi. Shu bois ona tilimizni avaylab-asrash, boyitish, undan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga, o'zbek tilining zamonaviy axborot-kommunikasiya tizimida keng qo'llanishiga erishish kechiktirib bo'lmaydigan, dolzarb vazifaga aylandi. Chunki ona tilimizning jahonga chiqishiga erishish milliy ma'naviyatni takomillashtirish va yuksaltirishning asosiy yo'llaridandir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari tilning funksional imkoniyatlaridan foydalanish borasida benihoya keng qulayliklar eshigini ochdi. Kompyuter tarjiması, tahriri, tahlili, elektron lug'atlar va tezaurus(til xazınası)lar fikrimiz tasdig'idir. Ayniqsa, zamonaviy elektron lug'atlar tuzish va ulardan foydalanish madaniyatini shakllantirish til imkoniyatini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Yurtimizda o'zbek tili korpuslarini yaratish qoniqarli emas. Bu sohada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari o'zbek korpus lingvistikasining nazariy

O‘zbek tili milliy va ta’limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

asoslarini ishlab chiqish, namuna sifatida bir-ikki korpus lavhasi yaratish jarayoni bosqichida turibdi, xolos.

Milliy korpus – to‘la ma’noda milliy boylik. Uni yaratish bir universitet yoki tadqiqot markazining ishi emas. Buning uchun katta lingvistlar va dasturchilar jamoasi zarur. Shuning uchun kelajakda bajarilajak ishlarning strategiyasini aniq belgilash, mamlakat ilmiy salohiyatidan unumli va samarali foydalanish uchun kuchlarni to‘g‘ri taqsimlash, ularni moliyalashtirish ishlarini optimallashtirish dolzarb vazifa bo‘lib turibdi. Fursatdan foydalanib O‘zR Vazirlar Mahkamasi Davlat tilini rivojlantirish departamenti, O‘zR OO‘MTVga quyidagi takliflar bilan murojaat qilishni lozim topdik:

1. O‘zaro hamkorlikda O‘zbek tilining milliy korpusini 2024-yilgacha yaratish dasturi va yo‘l xaritasini ishlab chiqish lozim;

2. Milliy korpusning tarkibiy qismlari bo‘lgan “O‘zbek tilining ta’limiy korpusi”, “O‘zbek xalq shevalari korpusi”, “O‘zbek tilining badiiy matnlari korpusi”, “O‘zbek tilining rasmiy matnlari korpusi”, “O‘zbek tilining ilmiy matnlari korpusi”, “O‘zbek tilining gazeta korpusi”, “Mumtoz matnlar korpusi”, mualliflik korpuslari, “O‘zbek jadid asarlari korpuslari”, o‘zbek tilining parallel korpuslarini yaratishni mamlakat OO‘Yu va ilmiy tadqiqot markazlariga taqsimlash, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAUni bu boradagi faoliyatni muvofiqlashtiruvchi muassasa sifatida belgilash zarur;

3. O‘zbek tilining milliy korpusi yaratilishini uning tegishli tarkibiy qismlari muammolaridan kelib chiqqan holda Davlat tilini rivojlantirish departamenti mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish tizimini shakllantirish va yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq;

4. O‘zR VMning Davlat tilini rivojlantirish departamenti shafeligida O‘zbek tili Milliy korpusining yaratilishi va takomillashtirib borilishi muammolarini uzluksiz va tizimli muhokama qilib, tegishli tavsiyalarni berib boradigan “O‘zbek tilining Milliy korpusi Doimiy anjumani”ni tashkil etish juda ham zarur;

5. Aniq strategiya (mo‘ljal) va samarali taktika asosida kuchlarni to‘g‘ri yo‘naltirish uchun mamlakat madaniy taraqqiyotida ulkan voqelik bo‘ladigan O‘zbek tili milliy korpusini yaratish va uni muttasil takomillashtirib borish uchun maxsus ilmiy-tadqiqot markazi (instituti)ni tashkil etish lozim.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, O‘zbek tilining milliy korpusi rivojlanayotgan o‘zbek tilining oynasi sifatida tildagi eskirishni sekinlashtiradigan va yangilanishni tezkor ta’minlab boradigan, globallashtirish va milliy tillar halokatga yuz tutayotgan shiddatli davrimizda ona tilimizning yashab qolishiga kafolat vazifasini o‘taydi. Bu bilan muqaddas ona tilimizni yaqin kelajakda raqamlashmagan va korpusi yaratilmagan tillar duchor bo‘ladigan o‘lim xavfidan omon saqlab qolishga o‘z hissamizni qo‘shamiz. Zotan, milliy tilsiz millat yo‘qolishga mahkum.

**O'ZBEK TILI KORPUSLARI SEMANTIK KENGAYTMASIDA "BOSH"
LEKSEMASINING SEMANTIK IZOHLARIDAN FOYDALANISH
XUSUSIDA**

AXMEDOVA Dildora

f.f.f.d. (PhD), BuxDU doktoranti

daxmedova77@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek tili korpuslari semantik kengaytmada so'zning o'z va ko'chma ma'nosini izohlashda foydalanuvchi uchun qulaylikka erishish masalasi yoritilgan. "Bosh" leksemasining semantik izohlarini semantik kengaytmada ifodalash usuli ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: korpus, annotatsiyalash, semantik kengaytma, lug'at maqolasi, kengayish/kichrayish funksiyasi, ma'lumotlar bazasi.

Abstract: in this article, the issue of achieving convenience for the user in interpreting the literal and figurative meaning of the word in the semantic extension of the Uzbek language corpora is covered. The method of expressing the semantic explanations of the lexeme "head" in the semantic extension is shown.

Keywords: corpus, annotation, semantic extension, dictionary article, expand/collapse function, database.

Lingvistik korpuslarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ma'lum bir birlik haqida (korpus imkoniyatidan kelib chiqqan holda) turli xildagi axborot/ma'lumotni olish imkoniyati mavjud. Chuqur annotatsiyalangan korpuslarda istalgan so'z tanlansa, bu so'z haqida fonetik, morfologik, leksik, grammatik va boshqa ma'lumotlarni olish imkoni paydo bo'ladi. Bunday ma'lumotlar sirasida semantik ma'lumotlar alohida o'rin tutadi. Korpus tarkibidagi so'zning semantik ma'lumot beruvchi qismi uchun semantik kengaytma atamasi qo'llaniladi.

O'TILda shunday hajman katta maqolalar uchraydiki, 10 ga yaqin sahifani egallaydi. Tarkibida bitta BOSh SO'Z, shu so'z ishtirokida hosil qilingan qo'shma so'zlar, ibora va boshqa birliklar keltirilgan, izohlangan. Bunday katta lug'at maqolasini bitta semantik kengaytmaga joylashtirishda foydalanuvchi uchun tushunarliklik, aniqlik, qisqalik, lo'ndalik, to'liq ma'lumot berish kabi tamoyillarga amal qilish lozim. Buni O'TILning 1-jildi 313-333-betlarida keltirilgan **BOSh** so'zi bilan boshlanuvchi lug'at maqolasi misolida ko'rib chiqamiz. Ushbu lug'at maqolasida BOSh so'zining o'z va ko'chma ma'nosining izohi keltirilgan; BOSh so'zi ishtirokida hosil qilingan qo'shma so'z va iboralar ham izohi bilan keltirilgan. Ammo ular aralash holatda berilgan. Quyida ularni qo'shma so'z, erkin birikma va ibora kabi guruhlarga ajratamiz:

Turg'un birikma yoki tarkibli turdosh ot	Ibora
bosh harf; bosh gap; bosh maqola;	boshga tushgan (yoki kelgan); boshda bor; boshdan kechir(il)gan (yoki o'tgan);

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

bosh to'g'on; bosh barmoq ayn. boshmaldoq; bosh xotin; jon boshiga; so'qqabosh; boshi berk ko'cha; boshi-keti yo'q (yoki ko'rinmaslik); avval boshi; bir boshdan; xat (yoki satr) boshi; qayta boshdan; ayol (yoki xotin) boshi bilan; beva (yolg'iz) boshi bilan	boshiga yog'ilgan ayn. boshga tushgan; boshiga solmoq; boshim kal, ko'nglim nozik; bosh og'ritmoq (yoki qotirmoq); boshiga kelmoq; Bir yostiqa bosh qo'ymoq Bir yoqadan bosh chiqarmoq Biror ishning boshini ushlamoq (yoki tutmoq) Bosh burmoq Boshga bitgan balo q. bitmoq Boshga qo'ymoq ayn. boshiga ko'tarmoq Boshga qo'ndirmoq Boshi bog'liq Boshi buzuv yoki buzuv bosh Boshiga yetmoq Boshiga ko'tarmoq Boshiga suv quymoq Boshiga uradimi? Boshiga chiqib (yoki minib) olmoq Boshiga o'tqazib qo'ymoq Boshida yong'oq (yoki tosh) chaqmoq Boshida kaltak (yoki tayoq) sinmoq Boshidan zar quymoq Boshida qolmoq Boshi yostiqa tegmoq Boshi ketmoq Boshi ko'kka (yoki osmonga) yetmoq Boshing toshdan bo'lsin Boshini aylantirmoq Boshini bog'lamoq Boshini bukmoq Boshini yemoq ayn. boshiga yetmoq. Boshini ikkita qilmoq (yoki qo'shmoq) Boshini silamoq Boshini tikmoq Boshini xam qilmoq Boshini qovushtirmoq. Boshini qotirmoq (yoki og'ritmoq) Boshi ochiq 1) paranji yopinmaydigan; ochiq; 2) unashtirilmagan, uylanmagan yoki ajralishgan. Boshi chiqmaslik Boshi qorong'i Boshi qotmoq (yoki shishmoq)
--	---

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

	Bosh ko'tarib yurmoq Bosh olib ketmoq Bosh og'gan tomonga ketmoq Bosh og'rig'i Bosh suqmoq (yoki tiqmoq) Bosh tortmoq Bosh to'lg'amoq ayn. bosh tortmoq Bosh urmoq Bosh ustiga Bosh egmoq Bosh qashimoq Bosh qo'shmoq Ishi boshidan oshib yotibdi Katta boshini kichik qilib Mening senga boshim qorong'umidi? Oyog'iga bosh qo'ymoq Erkak boshi bilan [1; 2006:333-339]
--	--

Semantik kengaytmada ham BOSH SO'Z va uning turli ma'nolari izohi kengayish/kichrayish funksiyasi orqali beriladi hamda "turg'un birikma yoki tarkibli turdosh ot", "ibora" kabi oynalar qo'yiladi. Shu oynalar ochilganda foydalanuvchi ushbu katta ro'yxatni ko'rishi, istagan birlikning ma'nosini yana boshqa kengaytma orqali ularning izohini ko'rishi mumkin bo'ladi. Bunda semantik kengaytma ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

BOSH 1 Tananing bo'yindan yuqorigi, oldingi (odamda, hayvonlarda) qismi; kalla. Bosh kosasi (anat.). Bosh miya. Bosh kiyimlar magazini.

BOSH [ko'chma ma'nolar](#)

BOSH 2

BOSH [iboralar](#)

Boshga tushgan (yoki kelgan); [ko'proq](#)

boshda bor; [ko'proq](#)

boshdan kechir(il)gan (yoki o'tgan); [ko'proq](#)

boshiga yog'ilgan ayn. boshga tushgan; [ko'proq](#)

boshiga solmoq; [ko'proq](#)

boshim kal, ko'nglim nozik; [ko'proq](#)

bosh og'ritmoq (yoki qotirmoq); [ko'proq](#)

boshiga kelmoq; [ko'proq](#)

Bir yostiqqa bosh qo'ymoq [ko'proq](#)

Bir yoqadan bosh chiqarmoq [ko'proq](#)

Biror ishning boshini ushlamoq (yoki tutmoq) [ko'proq](#)

Bosh burmoq [ko'proq](#)

Boshga bitgan balo q. bitmoq [ko'proq](#)

O‘zbek tili milliy va ta’limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Semantik kengaytmadagi [ko‘proq](#) belgisi kengayish/kichrayish funksiyasini bajaradi. “Iboralar” havolasi tanlanganda, iboralar ro‘yxati ochiladi, istalgan iboraning yonida turgan [ko‘proq](#) belgisi tanlanganda uning ma’nosi ochiladi.

Demak, lug‘at maqolasi hajman katta bo‘lganda kengayish/kichrayish funksiyasi ishga tushiriladi, lug‘at maqolasida izohlanayotgan birliklar guruhlanadi va guruh holida keltiriladi (an’anaviy lug‘atda bunday birliklar aralash holatda berilgan).

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘zbek tili korpuslari semantik kengaytmasining leksik ma’lumotlar bazasi tub leksema, ajratib yoziladigan qo‘shma so‘z, qo‘shib yoziladigan qo‘shma so‘z, ko‘chma ma’noda qo‘llanuvchi erkin birikma, turg‘un birikma, tarkibli (birikma shaklidagi) nomlar kabi ichki ma’lumotlar bazasidan tashkil topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 1-jild. – Toshkent: O‘zME, 2006. – 680 b.
2. <https://ziyouz.uz/kutubxona/ziyouz/lugatlar/>
3. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-ou/ozbekiston-milliy-entsiklopediyasi-davlat-ilmiy-nashriyoti-uz/>
4. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-ou/ozbekiston-milliy-entsiklopediyasi-uz/>.

O'ZBEK TILIDAGI TURLI TUZILISHLI SO'ZLARNI LEMMALASH
USULLARI

ELOV Botir

*ToshDO 'TAU, Ijtimoiy-gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari fakulteti
dekani, t.f.f.d., dotsent*

XAMROYEVA Shahlo

*ToshDO 'TAU, Kompyuter lingvistikasi va raqamli texnologiyalar kafedrası
dotsenti, f.f.d.*

XUSAINOVA Zilola

ToshDO 'TAU tayanch doktoranti.

Annotatsiya. Lemmatizatsiya - so'zning asosiy morfologik shaklini (lemmasini) topish jarayoni. Bu ko'plab tabiiy tillarni qayta ishlash (Natural Language Processing, NLP) va ma'lumot olish (Information Retrieval, IR) vazifalarini hal qilishdagi muhim dastlabki qadamdir. O'zbek tilining morfologiyasi, aglutinativ jihatlari boyligi sababli leksik ma'noliligi tufayli lemmatizatsiya murakkab vazifa hisoblanadi. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi turli tuzilishli so'zlarni lemmalash usullari taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: Lemmatizatsiya, stemming, qidiruv tizimlari, morfologik tahlil, turli tuzilishli so'zlar, qo'shma so'z, juft so'z, takror so'z.

Abstract. Lemmatization is the process of finding the main morphological form (lemma) of a word. This is an important first step in solving many Natural Language Processing (NLP) and Information Retrieval (IR) problems. Lemmatization is a complex task due to the lexical meaning of the Uzbek language due to the richness of its morphology and agglutinative aspects. This article presents methods of lemming words with different structures in the Uzbek language.

Keywords: Lemmatization, stemming, search engines, morphological analysis, words with different structures, compound word, double word, repeated word.

Kirish

O'zbek tili korpusidan axborotni qidirish jarayonini tezlashtirish va aniq natijalarni olish uchun korpusni sezilarli darajada qisqartirish kerak. Axborotni qidirish jarayonining dastlabki ishlov berish bosqichi korpus hajmini kamaytirish bilan shug'ullanadi [B.Elov, Sh.Hamroyeva, D.Elova. 2022]. Axborotni qidirish vazifasining aniqligini oshirish uchun *nomuhim so'zlarni o'chirish, stemming* va *lemmatizatsiya* kabi ko'plab dastlabki ishlov berish bosqichlarini bajarish kerak. **Stemming** jarayonida so'zdan *prefiks* yoki *postfiksni* olib tashlash orqali so'zning flektiv shakllari hosil qilinadi [B.B.Elov, Sh.M.Hamroyeva, O.X.Abdullayeva, Z.Y.Xusainova, N.U.Xudayberganov. 2023:43]. **Lemmatizatsiya** – bu so'z uchun bir xil yoki tegishli ma'noga ega bo'lgan normallashtirilgan lug'at so'zini yaratish jarayonidir. Lemmatizatsiya – matndagi so'zlarning kanonik shakllarini aniqlash

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

jarayoni bo'lib, har qanday NLP tizimining muhim komponenti va tabiiy tilni tushunishga tayanadigan aksariyat ilovalar uchun asosiy qayta ishlash bosqichi. Lemmatizatsiya stemmerdan ko'ra aniq va kerakli natijalarni beradi [I.Boban, A.Doko, S.Gotovac. 2020:349].

Lemmatizatsiya – bu so'zning turli xil flektiv shakllarini bitta element sifatida tahlil qilish uchun guruhlash jarayoni. U so'zning normallashtirilgan shaklini yoki lemma deb ataladigan so'zning lug'at shaklini aniqlash uchun ishlatiladi. Leksema bir xil ma'noga ega bo'lgan barcha shakllarning (lug'at bosh so'zlari deyiladi) birlashmasi bo'lib, lemma esa leksemani ifodalovchi tayanch shakl sifatida tanlangan so'zdir. Stemming va lemmatizatsiya jarayonlarini ikkalasi ham ma'lumot olish vazifasidagi muhim qayta ishlash bosqichlari hisoblanadi. Lemmatizatsiya bosqichi qidiruv tizimlariga kalit so'zlarni topishda yordam beradi va indeks fayllari hajmini kamaytirishga imkon beradi. Lemmatizatorni yaratish uchun ushbu tabiiy til lug'atini to'g'ri va to'liq shakllantirish kerak.

Odatda bu jarayonda *lug'atlar, morfologik tahlil va so'z turkumlariga ajratish* kabi amallardan foydalaniladi. Stemming va lemmatizatsiya o'rtasidagi farq shundaki, oxirgisi kontekstni oladi va so'zni lemmaga aylantiradi, stemming esa so'nggi (ba'zan so'z boshidagi) bir nechta belgilarni kesib tashlaydi. Bu esa ko'p hollarda noto'g'ri ma'no va imlo xatolariga olib keladi. Stemming jarayonida, odatda, so'zlardagi qo'shimchalarini kesib tashlaydigan evristik amaldan foydalaniladi (1-jadval).

1-jadval. Stemming va lemmatizatsiya jarayonlari

so'zshakl	stem	lemma	asos
kelajagimiz	kelajag	kelajak	kelajak
o'quvchilar	o'quv	o'quvchi	o'qi
borib ketdi	bor ket (2ta)	borib ketmoq	bor ket (2ta)
ega bo'lishdi	ega bo'l (2ta)	ega bo'lmoq	ega bo'l (2ta)
taqillatdi	taqilla	taqillamoq	taq
undami	un	u	u
keldilar	kel	kelmoq	kel
uyda	uy	uy	uy
har birimiz	har bir (2ta)	har bir	har bir (2ta)

O'zbek tilida so'z tarkibining odatiy strukturasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

“O'zak + so'z yasovchi + lug'aviy shakl + sintaktik shakl”

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari


Grammatik vositaning joylashishidagi tartib, izchillik uning ma'no va grammatik xususiyati bilan bog'liq bo'lib, quyidagi ketma-ketlikda shakllantiriladi:

- 1) yangi lug'aviy ma'no hosil qiluvchi;
- 2) lug'aviy ma'noga ta'sir qiluvchi;
- 3) lug'aviy ma'noga ta'sir qilmaydigan, lekin so'zni bog'laydigan vosita qo'shiladi.

Qo'shimchaning joylashuvidagi me'yoriy holat ba'zan buziladi:

opa-lar-im / opa-m-lar, ayt-di-ng-lar / ayt-di-lar-ing.

O'zbek tilida **qo'shimcha morfemalar** o'zakdan keyin ketma-ket qo'shiladi. Morfotaktika qoidalarini so'zshaklda morfema va allomorflarning qanday ketma-ketlikda joylashuvini aniqlaydi. Quyida lemmatizatsiya jarayoni ko'rsatiladi¹:



1-rasm. Lemmatizatsiya jarayoniga namunalar

STEMMING

qishlog'im → qishlog'
etagi → etag
shunaqa → shun
bunday → bun
ikkovimiz → ikk
ayblov → ayblo
taroq → taro
shahrimiz → shahr
singlim → singl
o'rnig → o'rn
nonni → non
shuhratim → shuhrat
maktabdan → maktab
olaning → olam

LEMMATIZATSIYA

qishlog'im → qishloq
etagi → etak
shunaqa → shu
bunday → bu
ikkovimiz → ikki
ayblov → aybla
taroq → tara
shahrimiz → shahar
singlim → singil
o'rnig → o'rin
nonni → non
shuhratim → shuhrat
maktabdan → maktab
olaning → olam

2-rasm. Stemming va lemmatizatsiya o'rtasidagi farq


E'tibor berilishi lozim jihat shuki, stemming va lemmatizatsiyani farqlash lozim. Chunki ko'pincha o'zbek tilida stemming va lemmatizatsiya natijasi bir xildek ko'rinadi, ammo ular batamom farqli jarayonlar sanaladi: stemming o'zakdan

¹ <http://uznatcorpara.uz/uz/Lemmatizer>

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

qo'shimchani kesish, lemmatizatsiya esa o'zakning lug'atdagi variantini aniqlash jarayonidir. Yuqoridagi 2-rasmda stemming va lemmatizatsiya jarayoni tahliliga misollar keltirilgan.

O'zbek tilida so'zlar tuzilishiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:



3-rasm. O'zbek tilida so'zlarning tuzilishiga ko'ra tasniflanishi

2-jadval. Sodda so'zlarga namuna

Sodda tub	Sodda yasama
lola	o'qituvchi
maktab	ilmli
ona	vatandosh
matematika	tinchlik
ildiz	haydovchi

Sodda tub va sodda yasama so'zlar

Sodda tub va sodda yasama so'zlar odatda bitta lemmaga teng. Bu so'zlarni lemmalash uchun faqat shakl yasovchi qo'shimchalarni kesib tashlash kifoya.

Qo'shma so'zlar

Qo'shma so'zlarning lemmasini aniqlashda quyidagi qoidalarga rioya qilinadi:

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

- Qo'shib yoziladigan qo'shma so'zlar lemmasi shakl yasovchi qo'shimchalarni *kesib tashlash orqali hal aniqlanadi*.
- Ajratib yoziladigan qo'shma so'zlarni lemmalashda *lug'atga asoslaniladi*.
- Tarkibli atoqli otlar ajratib yoziladi va NER hisoblanadi: *Katta Farg'ona, Yangi O'zbekiston, Birlash Millatlar Tashkiloti, Jahon Sog'liqni Saqlash tashkiloti, Milliy Tiklanish partiyasi, Soliqni saqlash vazirligi*.

3-jadval. Qo'shma so'zlarning shakliga ko'ra tasniflanishi

Qo'shib yoziladigan	Ajratib yoziladigan
Qo'shma ot: <i>boltayutar, xontaxta, belkurak, xonqizi</i>	Qo'shma fe'l: <i>javob bermoq, ishlab chiqmoq, olib kelmoq, taklif etmoq</i>
Qo'shma sifat: <i>kitobsevar, uchburchak, sho'rtumshuq, balandparvoz, tezpishar, ertapishar, cho'rtkesar</i>	Qo'shma ravish: <i>bir yo'la, bir muncha, bir talay</i> Qo'shma olmosh: <i>ana shu, mana bu, har bir</i>

Qo'shma fe'l bilan shaklan o'xshash birlik mavjud, bu iboralar. Iboralar tarkibiga ko'ra quyidagi tuzilishga ega:

- 1) $W_1 + W_2$
- 2) $W_1 + W_2 + W_3$
- 3) $W_1 + W_2 + W_3 + W_4$

Bular orasidan $W_1 + W_2$ tarkibli iboralar qo'shma fe'l tuzilishiga o'xshab ketadi. Ot+fe'l shaklidagi iboralar (*yaxshi ko'rmoq, ko'zda tutmoq, quloq solmoq, jon bermoq, ko'zini uzmoq*) bitta lemmaga teng, ammo ular lemma emas, frazeologik birlik sifatida teglanadi.

Juft so'zlar

Juft so'zlarning lemmasini aniqlashda quyidagi qoidalarga rioya qilinadi:

- **Ikkala qismi ma'no beruvchi:** *achchiq-chuchuk*. Bunday holda stem 2 ta, lemmasi bitta, bunda ham lug'atga asoslaniladi.
- **Biri ma'no beruvchi, biri ma'no bermaydigan:** *kalta-kulta*, bunday holda stem faqat ma'no beruvchi qism, ammo lemma ikki qismni ham qamrab oladi. Bunda ham lug'atga asoslaniladi.
- **Ikkala qismi ham ma'no bermaydigan:** *g'idi-bidi, jiz-biz*.
- Juft so'zlarning ikkita qismi ham ma'noga ega bo'lmasa, shu juft so'zning o'zi stem, o'zak va lemma bo'ladi.

Takror so'zlar

Juft so'zlarning lemmasini aniqlashda quyidagi qoidalarga rioya qilinadi:

- **Aynan takror:** *katta-katta, tez-tez, baland-baland*.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

- **Ikkinchi qismi birinchi qismining fonetik fonetik o'zgarishga uchragani:** *tuz-puz, non-pon.*

Takror so'zlarni lemmalashda ham lug'at ma'lumotiga asoslaniladi. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, lemmalashda lug'at ma'lumotiga asoslaniladi. Faqat stemni aniqlashda shakl yasovchi (sintaktik va lug'aviy)lar kesiladi.

Takror so'zdan biri alohida kelganda POS tegi boshqa turkum, takror kelganda POS tegi boshqa turkumga mansub bo'ladi:

Dedi yakka holda qo'llanganda *fe'l*, *dedi-dedi* shaklida takror so'z bo'lib kelganda ot turkumiga mansub bo'ladi.

Lekin bu tipik holat emas: *tez* ravish, *tez-tez* ravish; *katta* sifat, *katta-katta* sifat.

Xulosa

Til korpusi va matnlardan iborat ma'lumotlar bazasiga ega axborot tizimlarida axborotni qidirish vazifasining aniqligini oshirish uchun stemming yoki lemmatizatsiya kabi ko'plab dastlabki ishlov berish bosqichlaridan foydalaniladi. Stemming va lemmatizatsiya jarayonlarini ikkalasi ham ma'lumot olish vazifasidagi muhim qayta ishlash bosqichlari bo'lib, lemmatizatsiya bosqichi qidiruv tizimlariga kalit so'zlarni topishda yordam beradi va indeks fayllari hajmini kamaytirishga imkon beradi. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi turli tuzilishli so'zlarni lemmalash usullari keltirilgan bo'lib, *sodda tub* va *sodda yasama*, *qo'shma*, *juft* va *takror so'zlar* kabi toifalarga ajratilgan holda grammatik qoidalar to'plami taqdim etildi. So'zning lemmasini aniqlashda har bir guruhga mos namunalari keltirildi. Mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar to'plami o'zbek tili morfologik analizatoriga qo'llandi va 97,8% natijani berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.Elov, Sh.Hamroyeva, D.Elova. (2022). Morfologik analizatorni yaratish usullari, O'zbekiston: til va madaniyat (Amaliy filologiya), 2022, 5(1).
2. B.B.Elov, Sh.M.Hamroyeva, O.X.Abdullayeva, Z.Y.Xusainova, N.U.Xudayberganov. (2023). O'zbek, turk va uyg'ur tillarida POS teglash va stemming, O'zbekiston: til va madaniyat (kompyuter lingvistikasi), 2023, 1(6).
3. Ivan Boban, Alen Doko, Sven Gotovac. Sentence retrieval using Stemming and Lemmatization with Different Length of the Queries. Advances in Science, Technology and Engineering Systems Journal Vol. 5, 2020, No. 3, 349-354
4. Kharis, M., Laksono, K., Suhartono, Ridwan, A., Mintowati, & Yuniseffendri. (2022). Tokenization and Lemmatization on German Learning Textbook Level A1 of CEFR Standard. Journal of Higher Education Theory and Practice, 22(1). <https://doi.org/10.33423/jhetp.v22i1.4971>
5. O'zbek tili morfologik analizatori - <http://uznatcorpara.uz/>

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

6. B.Elov, Sh.Hamroyeva, X.Axmedova. (2022). Methods for creating a morphological analyzer, 14th International Conference on Intellegent Human Computer Interaction, IHCI 2022, 19-23 October 2022, Tashkent.
7. Elov B., Alayev R., Xusainova Z. O`zbek tilida stemmingni amalga oshirishning gibrid statistik yondashuvi. 2023

O'ZBEK TILIDA TIL KORPUSLARINI TUZISHNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI

ABDULLAYEVA Oqila

*ToshDO 'TAU Kompyuter lingvistikasi va raqamli texnologiyalar kafedrası
katta o'qituvchisi, PhD*

Annotatsiya: maqolada o'zbek tilining axborot matnlari korpusi tuzilishining o'ziga xos nazariy va amaliy masalalari yoritib berildi. Korpusning tuzilishi, imkoniyatlari, dizayni, ish jarayoni bosqichma-bosqich tahlilga tortildi. Jumladan, o'zbek tili korpusini qurish uchun texnik topshiriqlarni ishlab chiqish, ma'lumotlarni yig'ish va ularni kompyuterlashtirish, korpusda matnlarni saqlash va so'zlarni teglash jarayoni bayon qilindi. O'zbek tili korpusi filologik jihatdan keng qamrovli va muammoli lingvistik masalalarni hal etish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bazasidir.

Kalit so'zlar: korpus, teg, KWIC, konkordans, metama'lumot.

Annotation: the article deals with the specific theoretical and practical issues of the structure of the corpus of information texts of the Uzbek language. The structure, capabilities, design, work process of the case were analyzed step by step. In particular, the process of developing Terms of Reference for the construction of the Uzbek language corpus, data collection and computerization, storage of texts in the corpus and word tagging were described. The Uzbek language corpus is a comprehensive philological and problem-solving database.

Keywords: corpus, tag, KWIC, concordance, metadata.

Korpus termini qo'llanilganda doim Milliy korpus birikmasi ishlatiladi. Milliy korpus – ma'lum bir tilning muayyan bir bosqichini ifodalaydigan barcha janrlar, uslublar, ijtimoiy hamda hududiy lahjalar va boshqalarda aks ettiruvchi elektron shakldagi matnlar to'plami. Milliy korpus bo'lishi uchun imkon qadar tilda mavjud yozma va og'zaki matnlarning barcha turlarini o'z ichiga olishi, korpusga kiritilib maxsus izohiga ega bo'lishi kerak [Болоснова, 2006: 43]. Albatta bunda korpus hajmi boshqa korpus turlariga nisbatan oshib ketadi. Masalan, Ingliz tilining milliy korpusi (BNC) 100 milliondan oshiq, rus tilining milliy korpusi 200 millionga yaqin, turk tilining milliy korpusi 50 milliondan oshiq so'z va so'z shakllariga ega. Bugungi kunda dunyo tillarining juda ko'pchiligi murakkab qidiruv tizimiga ega bo'lgan, ilmiy va amaliy lingvistik tadqiqotlar uchun bir – biridan farqli tahlil funksiyalariga ega bo'lgan milliy korpusiga ega. Shu qatori o'zbek tili uchun ham milliy korpus yaratish tadqiqotlari tilshunoslar tomonidan boshlab yuborilgan. Bu borada o'zbek olimlaridan B.Mengliyev, Sh.Hamroyeva, B.Elov, A.Eshmo'minovlarning kompyuter lingvistikasi va korpus lingvistikasi sohalarida olib borayotgan ilmiy izlanishlarini e'tirof etish mumkin. Ammo bir til doirasida milliy korpus yaratish murakkab va uzoq vaqtni oladigan jarayon ekanligi hech bir tilshunosga sir emas. Shunday bo'lsa-da, kichik tadqiqotlar doirasida muayyan bir uslublar yoki janrlar bo'yicha kichik korpus

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

namunalarini yaratish kerak. Lekin shu o'rinda aytish kerakki, foydalanuvchi so'zning kontekstlarda to'g'ri qo'llanilishini tekshirishi yoki tabiiy til nutq birikmalarini izlashi, tilda tez-tez uchraydigan til qoliplarini aniqlashi va ulardan foydalanishi uchun kattaroq hajmdagi korpusga ehtiyoj sezadi.

Har bir tadqiqot ishida kuzatilgani kabi, til korpuslarini yaratish jarayoni ham ma'lum bir bosqichlari va muammoli jihatlari bilan murakkabdir. Avvalo o'zbek tili korpusini yaratish uchun "Texnik topshiriqlar" dasturini tuzib olish kerak. Dasturda mutaxassis lingvist va dasturchi uchun ko'rsatmalar beriladi. Mazkur ko'rsatmalar korpusni yaratishning bosqichma-bosqich amallari hisoblanadi. Tadqiqotimiz doirasida o'zbek tilda kichik korpus namunasini ikki bosqichda amalga oshirdik. Birinchi bosqich dasturning Admin qismi, ya'ni korpusga matnlar kiritib, nutq qismlari tilshunoslik ma'lumotlari bilan izohlanadi yoki belgilanadi (tagging). Ikkinchi bosqich esa Foydalanuvchi qismi bo'lib, korpusda lingvistik tahlillar o'tkazadi. Masalan, so'zlar ro'yxatiga ega bo'lishi yoki eng ko'p qo'llanilgan so'zlar chastotasi haqida xulosa qilishi, real til matnlari turlariga ko'ra til qoliplarining ishlatilishi va nutq bo'laklaridan foydalanish vaziyatlari yuzasidan tahlil o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Korpus platformasi tayyor bo'lgach, matnlar yig'ila boshlanadi. Yozma matnlarni skanerlab, audio matnlarning transkripsiyasi olinsa, biz korpus uchun xabar saytlaridagi elektron matnlar tanlangani uchun qiyinchiliksiz ularni yuklab oldik. Olimlar korpusga to'plangan til namunalarini "xom" matnlar deb hisoblaydi [McEnery, Xiao, Tono, 2006: 31] Korpusning boshqa ma'lumotlar bazasidan yoki internetdagi elektron matnlaridan farqi til birliklariga maxsus lingvistik belgilar qo'yilishi, ya'ni teglanishi hisoblanadi. Korpusda nutq qismlarini belgilash yoki teglash nima? O'zbek tilida "yorliqlash" qanday amalga oshiriladi kabi savollar tug'ilishi tabiiy. Teglash korpusda kontekstdagi nutq qismlarining morfologik, semantik, sintaktik xususiyatlariga ko'ra standard belgilar bilan yorliqlanishidir. O'zbek tilida teg va teglamoq so'zining aynan muqobili yo'qligi sababli, bu terminni belgilar qo'yilishi yoki belgi bilan yorliqlanishi tarzida qabul qildik. Biz tanlayotgan terminning qanchalik to'g'ri yoki noto'g'riligini xalq baholaydi. Nutq qismlarini korpuslarda teglash har doim murakkab jarayon sifatida baholangan. Chunki tillarning morfologik va semantik kategoriyalari umumiy va xususiy jihatlarga ko'ra o'z ichida yana turlarga ajratiladi. Biz korpusda kontekstlarda nutq qismlarini yorliqlash masalasini hal qilish uchun ingliz, rus va turk tillarining milliy korpuslaridagi teglash jarayonini o'rgandik. Shuningdek dunyo tilshunosligida yaratilgan CES (Corpus encoding standard) [CES], TEI (Text encoding initiative) [TEI], CLAWS (Constituent likelihood automatic word-tagging system) [CLAWS] va Brill teglari [Brill] va teglash usullari bilan tanishdik. O'zbek tilida nutq qismlari uchun lotin grafikasi asosidagi standard qisqartmalarni olishga qaror qildik. Masalan, sifat so'z turkumi uchun <SIF> tegi, tinish belgilari uchun <TB> tegi yoki birinchi shaxs egalik uchun <1shE> teglari belgilandi. Masalan, kontekstda *dorilarning* so'zi lemma: dori <morf ot+Ko'p+Qark, sem AnOT>, *keldim* so'zi lemma: kel, <morf fe'l+O'tz+Xab+1sh, sem Jisf>, *yozuvchining asari* so'z birikmasi lemma: yozuvchi <morf

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

ot+Bir+Qark+Yas, sem AOT>, lemma: asar <morf ot+Bir+3shE sem AnOt> sifatida teglanadi. Nutq birliklarini teglashda yana bir muammoga duch kelindi, ya'ni o'zbek tilida lisoniy birliklar uchun maxsus teglarning tanlanishi. Chunki teglar leksik yozuvlardan farq qiladi. Biz leksik qoidalarda mustahkamlangan birliklarning qisqartma nomlarini belgilashga harakat qildik. Hozirda bir guruh mutaxassislar tomonidan maxsus teglar ishlab chiqildi, ommaga e'lon qilindi [Elov, Hamroyeva, Abdullayeva, Uzoqova, 2022: 45-63]. Nutq birliklarida omonimlik muammosi yuzaga kelmasligi uchun, kontekst o'rganilib, dasturda maxsus belgi orqali ajratildi. Barcha foydalanuvchilarga tushunarli bo'lishi, teglash jarayonida muammo yuzaga kelmasligi uchun o'zbek va ingliz tillaridagi standard qisqartmalarni yonma-yon kelishini ta'minladik.

Ba'zi olimlar aynan nutq qismlarini teglash jarayoni tabiiy tilni qayta ishlashning muhim qismi deb hisoblashadi. Chunki teglash jarayonida til birligining nafaqat nutqda bajarayotgan vazifasi va o'zi mansub kategoriyasiga ko'ra teglansa, boshqa tomondan nutq qismining kontekstdagi semantikasi va pragmatikasini ham tushunish va hisobga olish zarur hisoblanadi. Chunki bir o'rinda "ot" yorlig'i ostida kelgan nutq birligi boshqa o'rinda "fe'l" sifatida teglanishi mumkin. Hozir korpusda teglash va qidiruv jarayonini test sifatida bajarmoqdamiz. Nutq qismlarini teglayotganda til birligining kontekstdagi vazifasi, grammatik morfemalariga va kontekstual semantikasiga asosiy e'tiborni qaratdik.

Til korpuslarini yaratishda foydalanuvchi maxsus kompyuter dasturlari bilan tanishganimizda, ko'pchiligi standard usullarga ega ekanligining guvohi bo'ldik. Bu korpuslarda ma'lumotlarni aks ettirishning eng oddiy va oson usuli - so'zlar ro'yxati va chastotasini aniqlash funksiyasidir. Aslida ilk korpus namunalarida asosiy bosqich tabiiy til matnlarida uchrovchi so'zlarning ro'yxati va ularning nutqda takrorlanish sonini aniqlashdan iborat bo'lgan deb o'ylaymiz. Ammo korpus dasturlarida so'zlar ro'yxati ham bir xil emas. A.B.Kutuzov Korpus lingvistikasi kursida so'zlar ro'yxatining ikki turi mavjudligini yozgan. Ya'ni oddiy so'zlar ro'yxati va konkordanslar ro'yxati [Кутузов, 2015: 29]. Oddiy so'zlar ro'yxatida korpusda mavjud barcha so'z va so'z shakllari chastotasi ko'rinadi. Bu ro'yxat korpusda alfavit shaklida shakllantirilib berilishi mumkin, shuningdek korpus boyigani sari ro'yxat soni ham oshib boradi. Bu ro'yxatda so'zlarning nechta matnda qo'llanilgani va korpusda necha marta uchrashi statistikasi ham mavjud. Xuddi shu funksiya korpusimizda mavjud. Ammo bu ro'yxat orqali so'z shakllarining polisemiya va birma'nolilik xususiyatini ko'rishning iloji yo'q, chunki kontekstsiz bu masalani yechib bo'lmaydi. Konkordanslar ro'yxati KWIC formatdagi so'zlar ro'yxati deb ham nomlanadi. Ya'ni bu sodda ro'yxat emas, bunda so'z kontekst bilan birgalikda beriladi. Bu formatda ham so'z shakllarining chastotasi mavjud, faqat matnda so'zning o'ng va chap tomondan boshqa birliklar bilan birikib kelish imkoniyatlarini ham tahlil qila olamiz. 1-rasmda "bilan" til birligining korpusda konkordans formatdagi tahlili ko'rsatilgan.

<

1-rasm. "bilan" so'zining KWIC formatdagi tahlili

Demak konkordanslar orqali so'z birikmalari haqida xulosalar qilish mumkin. Mazkur funktsiya orqali o'zbek tili matnlarida qaysi birliklar tez-tez yoki kamdan – kam qo'llanilishini obyektiv baholashi, o'zbeklar haqiqatdan ham tabiiy til birliklaridan qanday foydalanishini xulosa qilish mumkin. Masalan, muayyan miqdordagi matn namunalariga ega korpuslar orqali boshqa xalqlar og'zaki nutqida eng ko'p ishlatiladigan so'zlar ro'yxati e'lon qilingan. Shulardan biri Kembridj ingliz korpusining to'rt yarim millionta og'zaki nutq namunalari asosida Shimoliy Amerikaliklar nutqidagi eng ko'p uchraydigan 500 talik so'zlar ro'yxati e'lon qilingan. Bu ro'yxatning eng boshida "men" (I) so'zini ko'rishimiz mumkin [www.cambridge.org]. Umuman korpusda mavjud boshqa dasturlardan foydalanib ham, so'zlar ro'yxati va konkordanslar, kollakatsiyalar ro'yxatini berish mumkin. Masalan, shunday tekin dasturlardan biri AntConc dasturlari bo'lib, mazkur dasturlar foydalanuvchi uchun qulayligi va universialligi bilan boshqa dasturlardan ajralib turadi. Bu dasturlarning afzalligi shundaki, muayyan til egalarining nutqiy faoliyatda nafaqat so'z va iboralardan, maqollardan, shuningdek, so'z yasash yoki so'z shaklini hosil qilish uchun xizmat qiladigan lisoniy birliklardan foydalanish vaziyatlari va statistikasi bo'yicha qimmatli xulosalar olish mumkin bo'ladi. Masalan, fe'ning o'tgan zamon shaklini hosil qilishda – di va – gan qo'shimchalaridan qaysi biri o'zbeklar nutqida faol degan savol qo'yilishi mumkin, sababi bu ikki qo'shimcha doim ikki xil vaziyatni ifodalash uchun ishlatiladi deb qaraladi, ya'ni –di yaqin o'tgan zamon, -gan uzoq o'tgan zamon shakli uchun faoldir. Lekin nutqimizda ikkala qo'shimchani aralash holatda ikkala vaziyatda ham qo'llayveramiz. Demak oldingi faraz noto'g'ri chiqishi mumkin. Aynan mana shu maqsadda korpusda statistika funksiyasini ham alohida berish zarur hisoblanadi.

Mavjud tadqiqot ishlarini kuzatganimizda, korpus qurish va uning aniq balansi uchun ilmiy o'lchov mavjud emasligini xulosa qildik (McEnery, Xino, Tono, 2006; McEnery, Hardie, 2012; Y.Aksan va boshqalar 2012). Til korpuslari

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

oldingi mavjud korpuslar modellari orqali quriladi. Ammo har bir tilning o'ziga xos ichki xususiyatlari mavjudligi korpusni qurish jarayonida murakkablik tug'dirdi.

Xulosa. Til korpuslarini yaratish modeli va korpuslar hal qiladigan lingvistik masalalar o'xshash bo'lsa-da, ammo korpuslarning ichki xususiyatlari, til qoliplari, lemma, token va teglash jarayoni kabi o'ziga xos muammoli jihatlari bilan farqlanib turadi. O'zbek tilining axborot matnlari korpusi keyingi 10 yillikda jadal rivojlantirilib, o'zbek tilining dunyo tillari qatorida munosib o'rin egallashida, tilda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishda alohida ahamiyat kasb etishiga, shuningdek o'zbek tilining lingvistik xususiyatlariga, boy xarakteriga qiziqqan har bir tadqiqotchi uchun muhim manba bo'lishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ю.А.Волоснова. Корпусная лингвистика: проблемы гиперспективы. Лесной вестник 7/2006.
2. McEnery T., Xiao R., Tono Y. Corpus-based Language studies. Routledge, 2006.
3. CES <https://www.cs.vassar.edu/CES/>
4. TEI <https://tei-c.org/>
5. CLAWS <http://ucrel.lancs.ac.uk/claws/>
6. Brill tagger
7. https://web.archive.org/web/20090425061222/http://cosmion.net/jeroen/software/brill_pos/
8. Кутузов А.Б. Корпусная лингвистика. – 2015. http://tc.utmn.ru/files/corpus_5.pdf
9. Corpus frequency. <https://www.cambridge.org/gb/files/5913/9100/8829/Touchstone-2-Top-500.pdf>
10. Aksan Y., Aksan M., Koltuksuz A., et al. Construction of the Turkish National Corpus (TNC). <https://www.researchgate.net/publication/265914832>
11. Elov B., Hamroyeva Sh., Abdullayeva O., Uzoqova M. O'zbek tilida pos tegging masalasi: muammo va takliflar. O'zbekiston: til va madaniyat (Amaliy filologiya), 2022, 5(4). 45-63.
12. <https://ruscorpora.ru/new/>
13. <https://www.english-corpora.org/bnc/>
14. <https://v3.tnc.org.tr/login>

HAYITOVA Aziza

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti

Amaliy filologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi skmalxabibilaev1122@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mualliflik korpusi tuzishning amaliy ahamiyati haqida nazariy ma'lumotlar berilgan. A.Navoiyning "Badoye' ul-vasat" asari korpusining bugungi kundagi yutuqlari hamda shu kabi korpuslarning yaratilish jarayonini rivojlantirish kabi masalalar maqsad qilingan.

Kalit so'zlar: Mualliflik korpusi, Badoye ul-vasat, o'zbek tili milliy korpusi.

Abstract. This article provides theoretical information about the practical importance of creating an author corpus. The current achievements of A. Navoi's corpus of "Badoye ul-vasat" and the development of the process of creation of similar corpora are aimed at.

Keywords: author corpus, Badoye ul-vasat, national corpus of the Uzbek language.

Bugungi davrda, zamonaviy texnologiyalar jadal rivojlanayotgan paytda, dunyodagi barcha sohalarda keskin o'sish, fan-texnikada inqilob yuzaga keldi. Shu o'rinda, yer yuzidagi barcha tabiiy tillarning yo'qolib ketish xavfi vujudga keldi. Negaki, tabiiy tillar o'rnini sun'iy tillar egallamoqda. Shuning uchun ham har davlat o'z ona tilini saqlab qolish uchun ona tilining milliy korpusini tuzish harakatlarning ilk qadamlari boshlandi. Korpus yaratishning eng birinchi bosqichlaridan biri Panini bo'lib, u Sanskrit tilining korpusini yaratgan. Shuningdek, korpus lingvistikasining fan sifatida shakllanishi XX asrning 50-yillariga to'g'ri keladi. 1969-yilda Amerikaning birinchi bo'lib, Brown korpusi yaratilgan va bu korpus o'zida 1,5 milliard so'zni tashkil qilgan keyinchalik boshqa davlatlar ham o'z tilining korpuslarini yaratishga kirishdi. Hozirda dunyoda so'zlar soni bo'yicha eng katta korpus Nemis tili korpusi hisoblanib, o'zida 2 milliard so'zni jamlagan. Shu o'rinda o'zbek tilining ham o'zbek tili milliy korpusi yaratilgan va bu korpus yillar mobaynida to'ldirilib borilmoqda. O'zbek tili milliy korpusini to'ldirib borishda ham subkorpuslar tuzilib, ulardan manba olinib, korpus boyib bormoqda. Shu o'rinda o'zbek tilining, qolaversa, boshqa tillar korpusining boyishida adabiyot namoyondalarining xizmati benihoya kattadir. Yozuvchi, shoirlarning ijodiy ishlarida qo'llangan so'zlar zaxirasi korpusning boyishida ahamiyatga molik bo'lib, ularning ijodiy ishlarini saqlab qolish hamda korpusning tuzilishidagi katta manba hisoblangani uchun ham ularning asarlarini korpus qilish darajasi, ya'ni bosqichi davriga ham yetib keldik. Ularni mualliflik korpusi deb aytamiz. Mualliflik korpusini yaratishdagi bosh maqsadlardan biri ijodkorning ijodiy ishlarini saqlab qolish va ijod ishlarini teran anglab yetish kabi maqsadlarni o'z ichiga qamrab olgan. Mualliflik korpusi yaratilish jarayoni jadal rivojlanib kelinmoqda. Xususan, jahon adabiyotida A. Navoiy, U. Sheksper, A. Pushkin kabi yirik yozuchi shoirlarning mualliflik korpusi, o'zbek ijodkorlaridan esa A. Qahhor, Zulfiya va boshqa adiblarning mualliflik korpuslari yaratilgan. Mualliflik korpusining imkoniyatlari juda keng

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

qamrovlidir. Masalan, bunday korpuslarda ma'lum asarlar yuzasidan lingvistik tahlil jarayoni amalga oshiriladi. Ma'lum asar olinadigan bo'lsa, uning sintaktik, morfologik, etimologik, semantik-leksik, dialektologik, chastota bilan bog'liq xususiyatlarini, shuningdek, qancha maqol, ibora, arxaizm, tarixiy so'z, so'z birikmalari qatnashganini, bugungi kunda tushunarsiz so'zlarning izohini aniqlashimiz kabi holatlarni amaliy jihatdan tadqiq qilish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Mualliflik korpusi tuzishda ikki manbaga asoslanish mumkin:

1. Har bir muallifning nashr etilgan mukammal asarlari to'plami.
2. Internet tarmog'idagi elektron fayllar.

Birinchi manbani elektron shaklga aylantirish (skanerlash, matnni sun'iy intellekt tushunadigan formatga keltirish) orqali material sifatida ishlatsak, ikkinchi manbadan nisbatan tayyor holda foydalanishimiz mumkin. Ikkala holda ham matnning elektron shakli olingach, uni texnik qayta ishlash – tokenizatsiya, lemmatizatsiya, sintaktik razmetkalash ehtiyoji tug'iladi. Texnik ishlov berishdan oldin matn korpus uchun tayyorlanadi, chunki unda nolingvistik birlik ham uchraydi. Korpus matnining asosiy belgisi unda nolingvistik birlikning (jadval, rasm, grafik chizma) bo'lmasligida. Shundan so'nggina razmetkalash bosqichiga o'tish mumkin. Razmetkalash avtomatik, yarimavtomatik rejimda bajariladi. Muallif qo'llagan neologizm, boshqa alifboda yozilgan so'zshakl lemmatizatsiyasiga alohida e'tibor qaratiladi. Korpus tayyor holga kelgach, tabiiy ravishda muallif asarlari chastotali lug'ati yuzaga keladi. Chunki lemmatizatsiya jarayonida so'z shakl hamda leksema (lemma) miqdori aniqlanadi [Hamroyeva Sh, 2018: 83]. Qomusiy olim Alisher Navoiyning bugungi kunga kelib o'zbek olimasining ilmiy ishlari natijasida "Xazoyin ul-ma'oni" (Chor devon)ning tarkibiga kiruvchi "Badoye' ul-vasat" asarining korpusi yaratildi. Bu korpusning g'oya muallifi va tadqiqot rahbari – f.f.d. (DSc) Abjalova Manzura Abdurashetovna. Semantik teglar bazasi muallifi va tadqiqotni bajaruvchi – G'ulomova Nargiza Sa'dullayevna. Tizim arxitektori – Sa'dullayeva Shahrizoda Muhiddin qizi. Online tarzda ishlaydigan ushbu korpusning http://navoiykorpusi.uz/tarjimayi_hol/ linki hisoblanib, bu orqali A. Navoiyning "Badoye' ul-vasat" mualliflik korpusini topishimiz mumkin bo'ladi. Ushbu korpusda A. Navoiyning "Badoye' ul-vasat" asaridagi 650 ta g'azalning tahlili berilgan bo'lib, g'azallarning barchasi badiiy san'at turlari bilan tahlil qilingan, izoh talab so'zlarning bugungi kundagi muqobil varianti bilan izohlangan, tarixiy, arxaik, ibora, maqol, matal kabilar ham aniqlangan. Asarda qo'llangan so'zlarning semantik teglari asosida birinchi marta III renessans davrida o'rta maxsus va oliy ta'lim talabalari uchun yangi formatdagi Alisher Navoiy mualliflik korpusi yaratildi. "Badoye' ul-vasat" devonidagi 21226 ta izohtalab so'z, 5 mingdan ortiq arxaizm, 170 istorizm, 43 ta maqol, 30 ta ibora, 236 ta talmeh san'atiga oid so'zlar, 164 ta zid ma'noli so'zlar (tazod), 806 ta tanosub, 124 ta tashbeh she'riy san'atiga oid leksik birliklarning teglanishi Alisher Navoiy MK yaratilishiga asos bo'ldi. "Badoye' ul-vasat" devonida g'azallar 5001 bayt – 10002 misra, jami 66539 ta so'zdan iborat bo'lib, har bir g'azal hajmi 6 baytdan 13 baytgacha: 6 baytli – 1 ta, 7 baytli – 437 ta, 8 baytli – 8 ta, 9 baytli – 187ta, 10 baytli – 1 ta, 11 baytli – 14 ta, 12 baytli – 1 ta, 13 baytli – 1 tani tashkil etadi [http://navoiykorpusi.uz/tarjimayi_hol/]. "Badoye' ul-vasat" asari 7 rukndan iborat bo'lib, ular: shoir hayoti va ijodi, korpus bo'yicha qidiruv, devonlari, asarlari,

O‘zbek tili milliy va ta’limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

“Badoye’ ul-vasat”, A.Navoiy korpusi haqida, korpus haqida maqolalar, mualliflar haqida ma’lumotlar berilgan. “Badoye’ ul-vasat” asarini MK sayti orqali kirsak, unda beshinchi rukn aynan “Badoye’ ul-vasat” asari haqida bo‘lib, unda g‘azallar, boshqa janrlar, iboralar, maqollar, she’riy san’atlar, arxaizmlar, istorizmlar keltirilgan.

A. Navoiyning mualliflik korpusini yaratishdan erishilgan yutuqlar shulardan iborat:

- Navoiy shaxsini o‘rganish;
- adib uslubini tadqiq etish;
- shoir ijodini lingvopoetik tahlil qilish;
- ijodkorning so‘z qo‘llash imkoniyati va mahoratini tadqiq etish;
- mualliflik lug‘atlarini yaratish;
- mualliflik iboralarini jamlash; – mualliflik parafraza, parema, hikmatlarini jamlash; tasviriy ifodalarning qo‘llanilish ko‘lamini ijodkor kontekstidan aniqlash mumkin bo‘ladi [http://navoiykorpusi.uz/tarjimayi_hol/]. Alisher Navoiyning ijodiy merosi salmoqli bo‘lib, turkiy tilning rivojlanishiga katta hissasini qo‘shgan qomusiy olimning asarlari bo‘yicha dastlabki, mualliflik korpusi hisoblanadi. Agarda A. Navoiyning barcha asarlari bo‘yicha mualliflik korpuslari yaratilsa, o‘zbek tili milliy korpusi so‘z boyligi jihatidan jahondagi eng yetakchi korpuslardan biriga aylanish ehtimoli juda yuqoridir. Olimlarning statistik ma’lumotlariga qaraganda agarda barcha ijod ahlining ijodiy ishlari yig‘ilsa, 3 milliard so‘z zaxirasiga ega bo‘lishi mumkin ekan. Bundan ko‘rinadiki, dunyoda o‘zbek tili eng boy tillar sirasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. – Бухоро, 2018. – Б.83
2. Холова М. А. Шевалар корпусининг жанрий теглашнинг лингвистик асослари // Международный журнал искусство слова. – 2021. – Т. 4. – №. 4.
3. Холова М. А. О‘zbek shevalarining standart tilga munosabati va til tizimidagi o‘rni (Boysun tumani “j” lovchi shevalar misolida) // Международный журнал искусство слова. – 2020. – Т. 3. – №. 5.
4. Холова М. А. Boysun shevasi onlayn ma’lumotlar bazasi (qidirish va saralash imkoniyatlari asosida) // Международный журнал искусство слова. – 2021. –Т. 4. – №. 1-1.
5. http://navoiykorpusi.uz/tarjimayi_hol/

**O'ZBEK TILI KORPUSI UCHUN SINTAKTIK TAHLIL DASTURINI
YARATISH NAZARIYALARI**

XIDIROV Otabek
JDPU f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy korpusni yaratishda sintaktik teglashning o'rni haqida jahon tilshunos olimlarining ilk qarashlari, nazariyalari va sintaktik teglashning usullari hamda ularni hosil qilishda parsing dasturining ahamiyati tahlil markaziga olingan.

Kalit so'zlar: korpus, milliy korpus, korpus lingvistikasi, parsing dasturi, sintaktik qurilma, sintaktik aloqa, teglash, morfologik teglash, sintaktik teglash, teglash usullari.

Abstract: This article is syntactic in the creation of a national body world – wide linguistic scholars about the role of tagging first glance theories and methods of syntactic labeling and their creation. The significance of the parsing program is centred on the analysis center.

Key words: Corpus, national corpus, corpus linguistics, parsing tire, syntactic device, syntactic contact, tapping, morphological tapping, Actual touching, touch modes.

Til korpusida sintaktik razmetka masalalari jahon, xususan, rus tilshunosligida atroflicha tadqiq etilgan. Xususan, M.V.Kopotev, G.B.Gurin [Kopotev, 2006: 280-284], J.Lich [Leech, 1993: 275] asarlaridagi nazariy ma'lumotlar o'zbek tili korpusida sintaktik tahlil dasturini ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lishi bilan ahamiyatli. J.Lich tomonidan yaratilgan sintaktik annotatsiyalash prinsipini kuzatish shuni ko'rsatdiki, sintaktik annotatsiyasi mavjud korpusning foydalanuvchilar auditoriyasi keng bo'ladi; bunday korpusning axborot tizimlari bilan aloqa o'rnatish imkoniyati kengroq bo'ladi. Shu bilan birga, mualliflarni markirovkaning izchilligi uchun barcha javobgarlikni zimmasiga yuklamaydigan, lekin mavjud tasniflarga asoslanib, korpusni yaratishga yondashuv tilning tavsiflaridagi bo'shliqlarni aniqlashga, tilga bo'lgan har xil yondoshuvdagi nuqson va qarama-qarshiliklarni aniqlashga imkon beradi. J.Lichning so'nggi postulatida aynan shu masalaga e'tibor qaratiladi: "There can be no claim that the annotation scheme represents 'God's truth'. Rather, the annotated corpus is made available to a research community on a caveat emptor principle. It is offered as a matter of convenience only, on the assumption that many users will find it useful to use a corpus with annotations already built in, rather than to devise and apply their own annotation schemes from scratch (a task which could take them years to accomplish)" [Leech G, 1993: 275].

M.V.Kopotev, G.B.Gurinning fikriga ko'ra, sintaktik razmetkalash haqida gap ketganda, bugungi kunda rus tili korpusini to'liq razmetkalashda sintaktik tahlil dasturi uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan uchta nazariya mavjud:

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

1. Tobe-hokimlik munosabati grammatikasi (I.A.Melchuk, I.M.Boguslavskiy, L.L.Iomdin va b.).

2. Tizimli sxema grammatikasi (N.Yu.Shvedova, V.A.Beloshapkova va b.);

3. An'anaviy sintaktik ta'limotlar (A.A.Shaxmatov, V.V.Vinogradov, N.S.Valgina va b.).

Ko'riyaptiki, sintaktik tahlil dasturi tuzish prinsiplarini ishlab chiqish dastur uchun nazariy asos vazifasini o'taydigan nazariyalar farqlanadi; asoslanishi kutilayotgan nazariya tanlab olinadi. Demak, o'zbek tili korpusi uchun sintaktik razmetka yaratishda ham o'zbek tili sintaksisiga bo'lgan yondashuvlarni farqlash talab etiladi.

Bundan tashqari, turli xil nazariyalar doirasida tavsif darajasi har xil bo'ladi. Tobe-hokimlik grammatikasi sintaktik munosabat turlariga ko'proq e'tibor qaratadi (masalan, ETAP-3 tizimida, u asosida yaratilgan korpusda nomlangan munosabatlar soni 80 ga yaqin), boshqa tomondan, gap bo'laklari haqidagi an'anaviy ta'limot tadqiqotchiga sintaktik aloqalarni batafsil tasniflashni taklif qiladi. Shu ma'noda, 1980 yilgi rus grammatikasining sintaksisi eng noaniq bo'lib tuyuladi [Kopotev, 2006: 280].

Bundan xulosa qilish mumkinki, noaniq sintaktik nazariya bilan muvaffaqiyatli sintaktik tahlil dasturi hamda razmetka tizimini yaratib bo'lmaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, rus olimlari barcha yondashuvlarni bir xil darajada qabul qilishmaydi. "Nazariy jihatdan eng neytral" sintaksis sifatida, shubhasiz, gap bo'laklari tasnifiga asoslangan an'anaviy grammatika tan olinishi kerak. Rus tili tinish belgilari qoidalari maktab o'qituvchisi uchun ham, professional tilshunos ham bir xil terminologik tizimga ega. Boshqa tomondan, uzoq vaqt davomida Rossiyaning ko'plab universitetida asosiy hisoblanib kelgan V.A.Beloshapkova tahriridagi darslikning tarqalishi ko'p o'qituvchilarni, asosan, tarkibiy sxemalar sintaksisiga tayanishiga olib keldi. Shu bilan birga, tobe-hokimlik grammatikasi tilshunoslarga nisbatan kam ma'lum, chunki undan, odatda, amaliy muammolarni hal qilishda faol ishlatiladi. Shunday qilib, "nazariy neytrallik postulati"ni qondiradigan, etarlicha mukammal sintaktik nazariyani tanlash eng mas'uliyatli vazifa sanaladi.

Barcha ommalashgan yondashuvlarni muhokama qilgandan so'ng, **XANKO** yaratuvchilari sintaktik annotatsiyalash uchun ikkita alternativ sintaktik belgilash sxemadan foydalanishga qaror qilishgan: tobe-hokimlik munosabati hamda gap bo'laklari an'anaviy sintaksisi. Ushbu yondashuvning aniq eklektikasi bilan, ikkita sxemani birlashtirish quyidagi muammolarni hal qiladi:

1) sintaktik tuzilishning ikki tomoni, bog'lanishni batafsil tavsiflash;

2) rus tili o'qituvchisi hamda professional tilshunos ehtiyojlarini qondirish;

3) foydalanuvchining muqobil tartib natijalarini mustaqil ravishda yoki birgalikda taqdim etish talabini bajarish.

Ushbu turdagi izohni yaratish bo'yicha ishlar mantiqan ikki qismga bo'linadi.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Ma'lumki, an'anaviy yondoshuv asoslari XIX asrda rus tilshunoslari tadqiqotlarida mukammal ishlangan. Rus tili sintaksisining eng to'liq tavsifini 1960 yillarning akademik grammatikasi deb hisoblash mumkin. Zamonaviy tasniflar hozirgi rus tili universitet darsliklarida biroz o'zgarish, farq bilan aks ettirilgan [Valgina, 2003:170]. Ushbu yondashuvning afzalliklari quyidagilar:

- 1) umumiylik va soddalik;
- 2) boshqa sintaktik yondashuvlar asosida (birinchi navbatda, struktur sintaksis), tadqiqot uchun materialni bilvosita izlash imkoniyatining mavjudligi; An'anaviy sintaksisning kamchiliklari quyidagilarda ko'rinadi:
 - 1) sintaktik tuzilmalar tabiati to'g'risidagi zamonaviy g'oyalar bilan nomuvofiqlik;
 - 2) sintaktik birliklar tavsifi hamda sintaktik aloqani e'tiborsiz qoldirish;
 - 3) tavsifdagi nomuvofiqlik, muqarrar qarama-qarshiliklar (predpozitsion guruhning yo'qligi, turli bo'lak ichidagi bo'lakni aniq ajratib olmaslik);
 - 4) avtomatik ishlov berishning murakkabligi.

Biroq yondashuvning ko'rsatilgan afzallik va kamchiliklari ish natijasini oqlamaydi; aksincha, ular potensial foydalanuvchining taxminlarini yanada chigallashtiradi.

XANKO (Xelsinskiy annotirovanny korpus qisqartmasi) yaratuvchilari oddiy foydalanuvchiga tushunarli bo'lgan razmetka darajasini saqlab qolish uchun umumqabul qilingan nazariyalardan foydalanishni ma'qul ko'rishgan. Quyida XANKOni ishlab chiqilgan tamoyillarni keltirishni ma'qul ko'rdik, zero, o'zbek tili korpusi sintaktik teglar tizimini ishlab chiqishda shu va shunga o'xshash holatlarda ushbu tamoyillarga tayanish mumkin.

1. Muayyan muammoni hal qilishda XANKO yaratuvchilari doim bu yoki boshqa sintaktik ma'lumot qanchalik muhimligi, ma'lumotlarni qayta ishlashni avtomatlashtirishda qanchalik muhimligiga e'tibor berishgan. Qo'lda bajariladigan ishlarning kutilgan hajmi va natija qiymati ko'pincha bir-biriga zid keladi: masalan, determinantni birlik sifatida ajratib ko'rsatish qo'lda qilinadigan ishlarning sezilarli darajada ko'payishiga olib keladi (determinantni qidirishni avtomatlashtirish mumkin emas), ammo bu ishni ketma-ket bajarish qiyin bo'ladi, chunki konsepsiyaning ko'lami "determinant"ni turli matnda turlicha aniqlaydi.

2. Interfeysning qulayligini hisobga olish ham diqqat-e'tibordagi masala sanaladi. Sintaktik ma'lumotlar turli xil birlikka, jumladan morfologik ma'lumotni o'z ichiga olgan matn shakliga, ikki marta belgi qo'yilgan hollarda kiritiladi.

Rus tili milliy korpusi morfosintaktik razmetka bilan ta'minlangan matnlar to'plamidan iborat. Demak, har bir so'zshaklga morfologik izoh biriktirilishi bilan birga so'z (gap bo'laklari)ga uning qaysi gap bo'lakligi ekanligini bildiruvchi izoh (teg) ham yozilgan; ham bir gap uchun uning sintaktik strukturasi ko'rsatib berilgan. Ushbu korpusning razmetkasi yarimavtomat rejimda ishlaydi. Dastlab, har bir matn ETAP-3 dasturi asosida morfologik va sintaktik tahlildan o'tadi, olingan natija mutaxassis tomonidan tahrirlanadi. Ushbu korpus razmetkasi shunday aniq ishlanganki, korpus materiali morfologik, sintaktik omonimiyadan xoli. Morfosintaktik razmetka bilan birga, leksik tavsif ham mavjud bo'lib, ushbu

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

funksiya idiomatik birliklarni izohlash (teglash)da qo'l keladi, chunki turg'un birikmalar ham semantik munosabatlar asosida tahlildan o'tkaziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kopotev M.V., Gurin G.B. Принципы синтаксической разметки хелсинкского аннотированного корпуса русских текстов XANKO //Труды международной конференции «Dialog 2006» // B.280-284
2. Leech G. Corpus annotation schemes // Literary and Linguistic Computing, 1993, № 8/4. Pp. 275.
3. Leech G. Corpus annotation schemes // Literary and Linguistic Computing, 1993, № 8/4. Pp. 275.
4. Kopotev M.V., Gurin G.B. Принципы синтаксической разметки хелсинкского аннотированного корпуса русских текстов XANKO //Труды международной конференции «Dialog 2006» // B. 280.
5. Valgina N.S., Современный русский язык. Синтаксис. М.: Высшая школа, 2003.; Kustova G.I., Mishina K.I., Fedoseev V.A. Синтаксис современного русского языка. М., 2005.

JAHON DIALEKTAL KORPUSLARIGA BIR NAZAR

(Eston tillar korpusi misolida)

XOLOVA Muyassar

f.f.f.d. (PhD) Termiz davlat universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi,

xolovam@tersu.uz

Annotatsiya: ushbu maqolada Eston shevalar korpusida sheva qaydlari, fonetik-fonematik transkripsiyalangan sheva matnlari, transkripsiyalangan matnlar to'plami, morfologik teglangan matnlar to'plami, informatorlar va yozma ma'lumotlar haqida axborotlariga doir qarashlar akslangan va bu nazariyalar Surxondaryo shevalari misolida o'z isbotini topgan.

Kalit so'zlar: Eston tillar korpusi, sheva qaydlari, fonetik transkripsiya, fonematik transkripsiya, transkripsiyalangan matnlar, informatorlar, yozma ma'lumotlar, Surxondaryo shevalari.

Annotation: in this article, the Estonian dialect Corpus reflects views on dialect notes, phonetic and phonemic transcribed dialect texts, a collection of transcribed texts, a collection of morphologically tagged texts, informers and their information about written information. And these theories have proven themselves on the example of Surkhandarya dialects.

Key words: Estonian language Corpus, dialect notes, phonetic transcription, phonemic transcription, transcribed texts, informers, written data, Surkhandarya dialects.

Bugungi kunga qadar o'zbek xalqi o'zining tarixiy taraqqiyot jarayonida g'oyat murakkab va turli bosqichlarni o'z boshidan kechirdi va shu bilan birgalikda turli xalqlar bilan ijtimoiy, siyosiy va madaniy munosabatda bo'lib, o'z fonetik, leksik va grammatik sathini boyitib keldi. Vaholanki, o'zbek tilining lug'at va so'zlik tarkibi uzoq davrning mahsuli bo'lib, shu xalqning barcha a'zolari uchun tushunarli, iqtisodiy-ijtimoiy turmushda ko'p qo'llaniladigan, aniq ma'no bera oladigan, so'z yasalishi va grammatik ma'no berish uchun asos bo'ladigan juda boy so'z va so'z formalariga, frazeologik birliklarga egadir [Xolova, 2022: 14].

Shevalarni ma'lum bir vaqt oralig'idan so'ng yana o'rganish tabiiy holdir. Sababi shiddat bilan rivojlanayotgan bu davrda texnika taraqqiyoti va madaniy-maishiy hayotning o'sib borishi "globallashayotgan" kelajak avlod tilidan shevalarni "siqib" chiqarib, o'rnini adabiy tilga va adabiy til orqali kirib kelayotgan chet so'zlarga bo'shatib berayotganligi, dialektizmlar esa kekxa avlod tilidagina saqlanib kelinayotganligini hisobga oladigan bo'lsak, shevalar bo'yicha olib tadqiqotlar, bugungacha o'zbek shevalarining fonetikasi, leksikasi, grammatikasi bo'yicha bir qancha kitob, monografiya va maqolalar e'lon qilingan bo'lsa-da, hozirgi kunda ham shevalar dialektal lug'at boyligi tadqiqotchilarning diqqat markazida turmog'i lozim. Hozirgi kunda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalari rivojlanishini kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari


va shu bilan birga lingvistika oldida turgan masalalari yechimida ham asta-sekin kompyuter texnologiyalari yordamida tuzilgan elektron matn korpuslari va bazalariga murojaat qilish davri boshlangan. Bunda dunyo dialektal korpuslari biz uchun namuna vazifasini o'taydi.

Shulardan biri **Eston dialektal korpusi** (EDC) Eston shevalar korpusi ikki universitet: Tartu universiteti va Eston tili universiteti tomonidan ta'sis etilgan bo'lib, unda eston shevalari quyidagi holatda bir korpusga yig'ilgan:

- 1) Sheva qaydlari;
- 2) Fonetik-fonematik transkripsiyalangan sheva matnlari;
- 3) sodda transkripsiyalangan matnlar to'plami;
- 4) morfologik teglangan matnlar to'plami;
- 5) informatorlar va yozma ma'lumotlar haqida axborot.

Shevalar korpusida shevaga oid so'zlashuv matnlarining 2008-yildan buyon saqlanayotgan 1 000 000 leksik va grammatik birliklarning 500 000 til unsurlarining morforazmetkalari tarjimalari asosida akslanishi mavjud [Liina Lindström: 5]. Sheva korpusida morfologik teglar sintaktik tahlil jarayoniga kirish vazifasini o'tovchi qism vazifasini bajargan. Dialektologik matnlar jamlanmasi o'zida "suhbat" jarayonlarini o'z ichiga oladi va eston tilining so'zlashuv uslubi bilan umumiy kasb etuvchi jihatdan asos qilib olingan. Shu sababli suhbat analizatorini sinovdan o'tkazish lozim. Ta'kidlash joizki, yozma nutq analizator o'z chegaralariga ega va bunda og'zaki so'zlashuv nutqi yozma nutq analizator uchun qo'yilgan *chegaralangan maydon (ChM) qobig'iga* tushib qolishi mumkin. Chegaralangan maydon ikki moduldan iborat: Morfologik noaniqliklarga barham beruvchi va sintaktik analizator. Ushbu tadqiqotimizda biz dialektal birliklarning morfologik so'zshakllarning orfografik qisman mos keluvchi transkripsiyalangan shakllarini taqdim etamiz. Analizator kontekstning u darajada ham sinchiklanmagan (ichki qismlari bilan tahlil qilinmagan, o'rganilmagan) sintaktik tahlillangan, qaysiki har bir til birliklari o'z teggerlariga ega, morfologik teglar bilan to'ldirilgan holatda taqdim etadi. Morfoteglangan dialektal matnlarda modifikatorlarning sarlavhasi matn bilan to'g'ridan to'g'ri bog'langan xususiyatiga ega bo'lmaydi, pirovardida modifikator yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi.

1-rasm.



O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Izoh: <http://dialectcorpora.uz/> saytidan

Prof. Pham Ngoc Hung Vetnam lahjalarini bir korpusga solish haqida fikr tilning tonal tillarga kirishini va bu shevani korpuslashtirishning murakkablashtirishi hamda dialektlarning tonal xilma-xilligi dialektlar tizimlar uchun asosiy muammo bo'lib qolmoqda deya ta'kidlaydi [Pham Ngoc Hung: 2016], o'zbek tili lahjalari garchi har xil tallafuz qilinsa-da, ularni transkripsion belgilar orqali ifodalanishiga erishish mumkinligi ishning bir qadar yengillashtirishni aytib o'tish mumkin. Lieselotte Anderwald "Frayburg ingliz dialekt korpusi: dialekt ma'lumotlarini tahlil qilish uchun korpus-lingvistik tadqiqot vositalarini qo'llash" nomli maqolasida [Lieselotte Anderwald] korpus taqdim etishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar sifatida quyidagilarni sanab o'tadi. Birinchidan, nostandart morfosintaktik, ya'ni grammatik hodisalarni aniqlashi kerak (bunda o'zgarishlarning ichki nazariy fonetik va fonologik tahlilidan xoli: sh<y [otdan tappa taYladi, otni qoziqqa boYladi/ otdan tappa taSHladi, otni qoziqqa boG'ladi// T: Qamchi qo'ydi qushig'a, Chiqdi Chambil *dash (T) iga* [194]; Pas, *pas (T) gina*, *pas (T)* ko'chalar Holini bilmas nechalar [211]; Badanimda bor *go'sh (T) im*, Seni ko'rib shovshaydi [245]; Diligingni toshga qo'yib chopadi, Bir daryosi yet *(T) i* tog' aylanib oqadi [248] [Xolova M.: 2021]). Masalan: Chiqdi^[bosh bo'lak, predikat] Chambil^[ikkinchi darajali bo'lak, aniqlovchi] *dashiga*^[ikkinchi darajali bo'lak, hol] (inversiya) Pas, pasgina, pas ko'chalar, Holini bilmas^[bosh bo'lak, kesim] nechalar^[bosh bo'lak, subyekt]

Shevalar korpusi quyidagicha tahlil va tadqiqni amalga oshirishi kerak bo'ladi, ya'ni:

- birinchidan, standartlashmagan morfosintaktik qaydlarni tadqiq etish ko'lamiga ega bo'lmog'i kerak;
- bunda asosiy e'tibor fonetik va fonologik birliklarga qaratilmasligi darkor; Sintaksisning alohidaligi uning aniqlanishi bilan bog'liq kechadi;
- fonetika va fonologiyani xususiyatlarini hisobga olish jarayoni o'tkazilganda tahlil uchun 40 marotaba ko'p matn kerak bo'ladi;
- matn sonining kamligi shevalarni bir korpusga yig'ishning amaliy imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklab qo'yadi, korpus imkoniyatlari ko'lamini kamaytiradi;
- oldindan mavjud bo'lgan materiallar to'plami yaratiladi;
- so'rovnomalar yordamida shevaga oid matnli material to'plash;
- badiiy adabiyotlarda mavjud sheva birliklari qatnashgan matnlar.

Xulosa o'rinda shuni qayd etish lozimki, o'zbek milliy shevalarining dialektal korpuslarini shakllantirishda quyidagilarga e'tibor berilmog'i lozim, ya'ni yillar oralig'ida so'rovnomalar orqali to'plangan ma'lumotlarning bir korpusga ketma-ket joylanib borishi orqali shevalar banki yig'iladi [Xolova M., 2020]. Shunda matn sonining kamligiga chek qo'yiladi va shevalarni bir korpusga yig'ishning amaliy imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi va korpus imkoniyatlari ko'lamini kengaytiradi. Birinchi navbatda shevalarning tiplari, pasportizatziya, mavzulashtirish bilan shug'ullanilsa, ikkinchi bosqichda dialektal morfoteglash jarayoni o'tkaziladi. Albatta bunda birinchi navbatda dialektlarning

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

morfologik dasturlash bilan birga ularning variativligini ko'zdan qochirmaslik kerak. Masalan: Fel nisbati – F_1 ; Fe'ning vazifa shakli – F_2 ; Fe'ning bo'lishsiz shakli – F_3 ; Fe'ning mayl shakllari – F_4 ; Fe'ning zamon shakllari – F_5 ; Fe'ning shaxs-son shakllari – F_6 .

Aniq nisbat – $F_{1/0}$

O'zlik nisbat – $F_{1/1}$:

-l – $F_{1/1/1}$;

-n – $F_{1/1/2}$;

-in – $F_{1/1/3\{1\}}$, -in – $F_{1/1/3\{2\}}$, -ün – $F_{1/1/3\{3\}}$, -un – $F_{1/1/3\{4\}}$;

-il – $F_{1/1/4\{1\}}$, -il – $F_{1/1/4\{2\}}$, -ül – $F_{1/1/4\{3\}}$, -ul – $F_{1/1/4\{4\}}$;

Majhul nisbat – $F_{1/2}$:

-l – $F_{1/2/1}$;

-n – $F_{1/2/2}$;

-in – $F_{1/2/3\{1\}}$, -in – $F_{1/2/3\{2\}}$, -ün – $F_{1/2/3\{3\}}$, -un – $F_{1/2/3\{4\}}$;

-il – $F_{1/2/4\{1\}}$, -il – $F_{1/2/4\{2\}}$, -ül – $F_{1/2/4\{3\}}$, -ul – $F_{1/2/4\{4\}}$;

Orttirma nisbat – $F_{1/3}$:

-t – $F_{1/3/1}$;

-dir – $F_{1/3/2\{1\}}$, -dir – $F_{1/3/2\{2\}}$, -dür – $F_{1/3/2\{3\}}$, -dur – $F_{1/3/2\{4\}}$, -tür – $F_{1/3/2\{2\}}$, -tür – $F_{1/3/2\{3\}}$, -tur – $F_{1/3/2\{4\}}$;

-gāz – $F_{1/3/3\{1\}}$, -gaz – $F_{1/3/3\{2\}}$, -gās – $F_{1/3/3\{3\}}$, -gas – $F_{1/3/3\{4\}}$, -kāz – $F_{1/3/3\{5\}}$, -kaz – $F_{1/3/3\{6\}}$, -kās – $F_{1/3/3\{7\}}$, -kas – $F_{1/3/3\{8\}}$, -qaz – $F_{1/3/3\{9\}}$, -qāz – $F_{1/3/3\{10\}}$; -qas – $F_{1/3/3\{11\}}$, -qās – $F_{1/3/3\{12\}}$;

-iz – $F_{1/3/4\{1\}}$, -iz – $F_{1/3/4\{2\}}$, -is – $F_{1/3/4\{3\}}$, -is – $F_{1/3/4\{4\}}$, -üz – $F_{1/3/4\{5\}}$, -uz – $F_{1/3/4\{6\}}$, -üs – $F_{1/3/4\{5\}}$, -us – $F_{1/3/4\{6\}}$;

-āz – $F_{1/3/5\{1\}}$, -az – $F_{1/3/5\{2\}}$, -āz – $F_{1/3/5\{3\}}$, -ās – $F_{1/3/5\{4\}}$, -as – $F_{1/3/5\{5\}}$, -ās – $F_{1/3/5\{6\}}$;

-ār – $F_{1/3/6\{1\}}$, -ar – $F_{1/3/6\{2\}}$, -ār – $F_{1/3/6\{3\}}$;

-ir – $F_{1/3/7\{1\}}$, -ir – $F_{1/3/7\{2\}}$, -ür – $F_{1/3/7\{3\}}$; -ur – $F_{1/3/7\{4\}}$;

-sāt – $F_{1/3/8\{1\}}$, -sat – $F_{1/3/8\{2\}}$;

Birgalik nisbati – $F_{1/4}$:

-š – $F_{1/4/1}$;

-iš – $F_{1/4/2\{1\}}$, -iš – $F_{1/4/2\{2\}}$, -üş – $F_{1/4/2\{3\}}$, -uš – $F_{1/4/2\{4\}}$ va hokazo.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Liina Lindström, Kaili Müürisep Parsing Corpus of Estonian Dialects // <https://dspace.ut.ee/bitstream/handle/10062/14288/lindstrommuurise2.pdf?sequence=1&isAllowed=y>

2. Lieselotte Anderwald, Susanne Wagne. FRED – The Freiburg English Dialect Corpus: Applying Corpus-Linguistic Research Tools to the Analysis of Dialect Data

3. Pham Ngoc Hung, Trinh Van Loan, Nguyen Hong // Statistical Analysis of Vietnamese Dialect Corpus and Dialect Identification Experiments// International Journal of Scientific Engineering and Applied Science // (IJSEAS) – Volume-2, Issue-8, August 2016 ISSN: 2395-3470 www.ijseas.com.

O‘zbek tili milliy va ta’limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

4. Холова М. А. Boysun shevasi onlayn ma’lumotlar bazasi (qidirish va saralash imkoniyatlari asosida) //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 1-1.

5. Холова М. А. Ўзбек миллий шевалари корпусини тузишнинг лингвистик асослари (Бойсун тумани “ж”ловчи шевалари мисолида) Филол.ф.ф.д. дисс... 2022. – Б.14

6. Холова М. А. O‘ZBEK SHEVALARINING STANDART TILGA MUNOSABATI VA TIL TIZIMIDAGI O‘RNI (BOYSUN TUMANI “J” LOVCHI SHEVALAR MISOLIDA) //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2020. – Т. 3. – №. 5.

**MILLIY KORPUSDA MA'NAVIYAT KATEGORIYASI BIRLIKLARINI
TEGLASH MASALALARI**

TOJIYEVA Gulbahor

QarDU f.f.d, dotsent,

NIYAZOV Sunnatillo

QarDU magistr

Annotatsiya: Ushbu tezisda korpusda ma'naviyat kategoriyasi birliklarini teglash masalalari ko'rib o'tilgan. O'zbek tili ma'naviyat kategoriyasi birliklari korpusini tuzish mezonlari taklif qilingan hamda misollar asosida dalillangan.

Annotation: In this thesis, the issues of tagging units of the category of spirituality in the corpus are considered. The criteria for creating a corpus of Uzbek language spirituality category units are proposed and proved based on examples.

Kalit so'zlar: Korpus, izohli lug'at, til hodisalari, internet tili, milliy korpus, ma'naviyat kategoriyasi, mezon, sinonim, antonim, paronim.

Ma'naviyat kategoriyasi birliklari bazasini tuzish borasidagi mazkur ish, o'zbek tilining milliy korpusini yaratish jarayonidagi tadqiqotlarning davomiy bir qismi hisoblanadi. Til korpusi – nafaqat lingvodidaktik, balki lingvistik tadqiq sohalarining ham ish quroli. Korpusning so'z o'rganishda katta axborot bazasi vazifasini bajarishi allaqachon isbotini topgan [Zaxarov, 2005: 48; Xamroyeva, 2018: 168]. V.Zaxarov, Y.Bogdanovanning fikriga ko'ra, korpus so'zning barcha ma'nolari, leksik-semantik munosabatga kirishadigan so'zlari bilan yonma-yon izohlashiga ko'ra izohli lug'at, tezaurusdan farq qiladi. Izohli lug'atda faqat so'z ma'nosi izohlansa, tezaurus so'zning nisbatan ko'proq qirralarini ochishga xizmat qiladi. Ammo bu axborot manbalari qidiruv imkoniyatining cheklanganligi bilan korpusdan farq qiladi [Xoliyorov, 2021:95]. Til hodisalari va birliklari bazasining algoritmini ishlab chiqish o'zbek tilining korpusini yaratish borasidagi tadqiqotlarning davomidir. O'zbek tili milliy korpusining ma'naviyat kategoriyasi birliklari bazasini tuzishda boshqa tillardagi milliy korpuslar tuzilishiga e'tibor qaratilmog'i lozim. "Bugungi kunda har qanday tilning yashab qolishi uchun bu tilga davlat tili maqomining berilganligi, bir necha million kishining bu tilda muloqat qilishi bu tilning yashab qolishiga kafolat bermaydi. O'zbek tili ayni vaqtda internet tili bo'la olmas ekan ona tilimizning tom ma'noda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet tili darajasiga ko'tarilmayotgani ayniqsa, bu borada tegishli ilmiy-tadqiqot ishlarining olib borilmayotganligi uning ham yo'qolish xavfidan butkul xoli emasligini, dunyo tillari ro'yxatida esa yo'qolishdan ehtiyot qilish lozim bo'lgan tillar qatorida qolib ketayotganligini ko'rsatadi" [Mengliyev, 2017:76-son] Globallashuv asrida tillarning yashab qolishi ko'proq axborot-kommunikatsiyalari sohasida, internet tizimida qo'llanish darajasi bilan birgalikda tilda ma'naviy-ma'rifiy tushunchalarning avloddan-avlodga o'tishi bilan bog'liqdir. Ushbu masalani til korpuslari qaysidir ma'noda o'z zimmasiga oladi. Bugun biz o'zbek tilining yashab qolishi uchun kurashar ekanmiz,

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

avvalambor, bu tildagi lingvistik dasturlar, xususan, milliy korpus tuzish masalasi kun tartibidagi eng muhim aktual muammolardan biri ekanligini barchamiz chuqur his qilmog'imiz kerak. Filologiya fanlari doktori, professor B.Mengliyev o'z qarashlarida shunday deydi "Afsuski, tilimizning ichki imkoniyatlari axborot texnologiyalari tizimida yetarli darajada ishga solinmayapti. Yurtimizda o'zbek tili korpuslarini yaratish ishlarini qoniqarli deb bo'lmaydi. Bu ona tilimizning axborot texnologiyalari tili sifatida, shuningdek, milliy korpus shaklida global korpuslar to'riga ulanib, jahonga chiqishiga monelik qilayapti. Bu sohada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari o'zbek korpus lingvistikasining nazariy asoslarini ishlab chiqish, namuna sifatida bir-ikki korpus lavhasi yaratish bosqichida turibdi, xolos. O'zbekistonda amaliy tilshunoslikning bir yo'nalishi sanalgan o'zbek korpus lingvistikasini rivojlantirish, uni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish, kompyuter va korpus lingvistikasi markazi yoki laboratoriyasini tashkil qilish hamda unga mutaxassislarni birlashtirish orqali amalga oshishi mumkin" [Mengliyev, 2017: 76-son] deb alohida ta'kidlaydi, haqiqatdan ham, o'zbek tilining milliy korpusini yaratish bugungi kun uchun juda dolzarb kechiktirib bo'lmas vazifa ekan. Xo'sh, endi tabiiy bir savol tug'iladi. O'zbek tili ma'naviyat kategoriyasi birliklari bazasi yaratilsa, u qanday ishlaydi? Qaysi birliklar asosida ish ko'radi? Nechta qismdan iborat? Bizga qulayligi qayerda? Undan qanday foydalanish mumkin degan savollarga javob berish uchun ma'naviyat kategoriyasi birliklari bazasiga ma'lumotlarni qanday joylashtirish mumkinligiga ketma-ket to'xtalib o'tsak. Biz o'zbek tili ma'naviyat kategoriyasi birliklarini korpusini quyidagi mezonlar asosida tuzishni taklif qilmoqchimiz.

So'z kiritiladi

So'z turkumi

Ma'nosi

Ma'noviy guruhi

Etimologiyasi

Rus tilidagi muqobili

Ingliz tilidagi muqobili

Omonimi

Paronimi

Antonimi

Sinonimi

Demak, biz taklif qilayotgan algoritm yuqoridagi ketma-ketlik asosida ma'lumotlarni bizga taqdim etar ekan. Ketma – ketlik asosida eng ko'p ma'naviyat kategoriyasi birligi sifatida tahlilga olinadigan **aql** leksemasi tahlilini amalga oshiramiz.

AQL

Turkumi: ot

Ma'nosi: inson miyasining dunyoni aks ettirish va shaxsning voqelikka munosabatini boshqarib turadigan faoliyati [O'TIL, 2006: 126]

Ma'noviy guruhi: axloq mikrosistemi

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Etimologiyasi: arabcha soʻz. Bu soʻz asli arab tilidagi “yuksak darajada fikr yuritish qobiliyatiga ega boʻldi” maʼnosini anglatuvchi ’aqala fe’lining I bob masdari [Rahmatullayev, 2000: 58]

Rus tilidagi muqobili: razum

Ingliz tilidagi muqobili: mind

Omonimi:

Paronimi: mavjud emas

Antonimi: mavjud emas

Sinonimi: es, miya, bosh, kalla

Bugungi globallashgan davr nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda, oʻzbek tili milliy korpusi maʼnaviyat kategoriyasi birliklari bazasini tuzishning yangicha yondashuvini taklif qilib uning jamiyat uchun nechogʻli muhim ekanligini bugungi fan talablaridan kelib chiqib tahlil qilish lozimligini koʻrsatib oʻtish kerak. Oʻzbek tili milliy korpusini yaratish yoʻlidagi bu kabi tadqiqotlarni davrning oʻzi taqozo etmoqda. Biz ham bugungi kun talablaridan kelib chiqib oʻzbek tilining milliy korpusini tuzishni kechiktirib boʻlmas vazifa deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кутузов А.Б. Корпусная лингвистика. Лицензия Creative commons Attribution Share-Alike 3.0 Unported (Электрон ресурс). URL: lab314.brsu.by/kmp-lite/kmp-video/CL/CorporeLingva.pdf; Национальный корпус русского языка // Вопросы языкознания. – Москва: Наука, 2006. – С. 149-155.

2. Корпусная лингвистика. Статья в интернет-энциклопедии Википедия. URL: <http://wikipedia.org/wiki/>; www.ruscorpora.ru; Плунгян В. Зачем мы делаем Национальный корпус русского языка? “Отечественные записки” 2005, №2. URL: http://magazines.russ.ru/oz/2005/2/2005_2_20-pr.html

3. Захаров В.П. Корпусная лингвистика. Учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург, 2005. – 48 с.

4. Mengliyev B. “Globallashuv: tillar taraqqiyoti va tanazzuli”. “Maʼrifat” gazetasi, 2017- yil, 19 - oktabr, 76-son.

5. Xoliyorov Oʻ. Oʻzbek tili taʼlimiy korpusini tuzishning lingvistik asoslari: Filol. fan. boʻyicha falsafa doktori (PhD) ...disc. – Termiz, 2021. – 95- b.

5. Xamroyeva Sh. Oʻzbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari: Filol. fan. boʻyicha falsafa doktori (PhD) ...disc. – Buxoro, 2018. – 168 b.

6. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Besh jild–T.: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006, 2008. 1-tom 126– b

7. Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tilining etimologik lugʻati. 1-jild T: Universitet 2000 2-tom. 265 b.

CORRESPONDENCES, ANALOGIES AND DIFFERENCES OF
CORPORA

KHURSANOV Nurislom

Doctor of philosophy (PhD) in Philological Sciences, Senior Teacher

Department of English Philology,

Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

E-mail: nurislomkhursanov92@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-5714-2745>

Abstract: It is difficult to imagine today's linguistics without artificial intelligence. The development of time, new technologies in science and society, requirements and principles of science teaching and learning are changing. Linguistics is no exception. In this article, the role of language corpora in the way of creating technologies and tools that ensure the storage, search, analysis and transfer of information and knowledge, improving systems for recognizing and creating written and spoken texts in natural language, and developing artificial intelligence systems is talked about.

Keywords: corpora, sub-corpus, method, extralinguistic factors, time, genre, retsenziya.

Annotatsiya: Bugungi kun tilshunosligini sun'iy intellektsiz tasavvur qilish qiyin, albatta. Zamon rivojlanganligi, fan va jamiyatda yangi texnologiyalar, fanni o'qitish va o'rganish talab va tamoyillari o'zgarmoqda. Tilshunoslik fanlari ham bundan mustasno emas. Mazkur maqolada axborot va bilimlarni saqlash, qidirish, tahlil qilish va uzatishni ta'minlaydigan texnologiyalar va vositalarni yaratish, tabiiy tilda yozma va og'zaki matnlarni tanib olish va yaratish tizimlarini takomillashtirish, sun'iy intellekt tizimlarini rivojlantirish yo'lida til korpuslarining o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: korpus, sub-korpus, metod, ekstralingvistik omillar, janr.

Why do we need historical corpora? It would seem that the answer to this question is simple and obvious: of course, for the same purposes as the corpora of modern texts: to search for material for the linguistic analysis of medieval texts, both traditional and, first of all, corpus - quantitative, statistical, distributive - methods for searching for illustrations, for acquainting students of medieval languages with textual practice to a greater extent than grammars, textbooks, and anthologies allow.

But this answer needs significant clarifications, which are determined by the features of the composition and structure of historical documents, the chosen forms of storage and marking of their electronic versions, the ultimate goals and tasks of historical and linguistic research, some extralinguistic factors, in particular, the number of handwritten monuments that have survived to our time.

"The expediency of creating and the meaning of using corpora," writes V.P. Zakharov about modern corpora, is determined by the following prerequisites:

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

1) a sufficiently large (representative) volume of the corpus guarantees the typicality of the data and ensures the completeness of the presentation of the entire spectrum of linguistic phenomena;

2) data of different types are in the corpus in their natural contextual form, which creates the possibility of their comprehensive and objective study;

3) once created and prepared data array can be used repeatedly, by many researchers and for various purposes" [Zakharov, 2005: 3].

The second and third provisions undoubtedly characterize historical corpora, but the first is not applicable to them due to objective reasons. The first feature of the historical corpus is the impossibility of achieving a volume comparable to modern ones, which is necessary to obtain a statistically significant amount of studied facts for solving some problems related primarily to the study of lexical units and syntactic constructions, and the unattainability of equal representation of texts of different types and genres, different time periods and book schools ("the volume and completeness of the historical corpus is limited by the number of documents that have survived from one time or another, and this also limits the possibility of achieving a balanced corpus" [Baranov, 2010: 224]. But both are compensated by the possibility of using a subcorpus randomly formed by history and known by its parameters (time, genre, recension, etc.), which also represents unsurvived sources of a certain period, and examples extracted from the subcorpus allow not only to observe textual usage, but also when comparing them with the corresponding facts of the previous and subsequent periods, identify the directions of changes and explain them. Taking into account these two characteristics of the historical corpus - the inclusion of surviving sources in a wider range of documents of a particular era and the comparability of the data extracted from the subcorpus with the materials of other subcorpora – "allows us to remove the restrictions associated with the underrepresentation of linguistic phenomena in the texts, and even single, statistically indicative cases of variability considered as sufficiently reliable on a wider time background" [Baranov, 2010: 225].

The third feature of the corpus is the inclusion of a handwritten document as a unity of a physical copy of the codex, a letter, fragments that have come down to us and the text (work) on them [Khursanov, 2021: 311-318]. Therefore, the object of a meta description is not only a work (text), but also a physical medium - a book, a letter or parts thereof, which have parameters that should be classified as purely reference in terms of corpus technologies - a place and organization of storage, a fund, a collection, a collection, number, size, material, watermarks, number of columns and lines per page, etc., and such characteristics that can be used in the formation of a research subcorpus and in the preparation of a linguistic sample. For example, such properties of the manuscript, describing the execution of the document, include the time and place of the production of the list, the number and boundaries of handwriting, and some. Therefore, when developing the principles for storing and marking up a historical document, it is necessary to take into account the presence of two equally important units of metadescription in the corpus - the physical carrier of the text and the text of the work.

Text edition or manuscript edition?

The uniqueness of each manuscript, each list, each surviving fragment implies the presentation in electronic form not only of the text of the work (and not in fragments, but in the volume that has come down to our time), as is often done in the corpora of modern texts, but also the preservation of page and linking it line by line to a specific physical medium - the manuscript, which, together with the meta descriptions of both the manuscript and the text, in fact, is the preparation of two electronic editions - the publication of a specific list and the publication of the text.

This situation requires answers to questions that do not arise when creating a modern corpus, for example: should a machine-readable copy, and if so, how accurately convey structural, graphic-orthographic, paleographic (that is, those that are given to us directly for observation) features list? what ways to store and demonstrate these features: with the help of descriptions, comments in a free format, or additional information structured in accordance with a certain format, or storing structural features in the transcription itself and calculating their presence and parameters automatically?

The inseparable connection between the manuscript and the text requires taking into account their relationship with each other: the codex may contain several works, each of which needs a separate meta-description, including information about the author(s), translator(s), time of writing or translation of the text, genre, and some. etc., the text of a work may not be listed in the order of parts, may contain mechanical inserts from other texts - these and similar features should be taken into account when marking the corpus.

Features of a medieval written monument impose additional requirements on the demonstration of texts, concordances, lists: units in them must be identified using the names of the list and text, page number and address on the page, which allows us to speak of a complex resource that combines the demonstration of full texts - fragments - concordances, as well as special types of lists of linguistic units - alphabetical, frequency, lists of n-grams.

Original and transcription: degree of correspondence

Information about the code, the location of the text on it and its structure can be given both with the help of descriptive characteristics (for example, the number of sheets in the code, the place of additions), and by transferring the maximum number of such features in an electronic copy, followed by automatic calculation [Khursanov, 2021: 247-53].

In the second case, such markup tools are used that allow, during the demonstration, to transfer the manuscript, as is customary in historical-linguistic publications of sources, sheet to sheet, page to page, line to line, sign to sign. The problem of the accuracy of the transmission of graphic, paleographic and spelling features of the writing of medieval Slavic texts in electronic publications has been repeatedly discussed in special works devoted to the standards and formats for encoding characters of the Old Slavonic alphabet, as well as descriptions of those

solutions that are adopted in specific systems for input and storage of transcriptions of medieval documents.

In any case, adherents of the exact transfer of the structure and composition of the manuscript, graphical orthographic and paleographic variability face two differently directed tasks: to find ways to reflect the features of the original as accurately as possible in a machine-readable copy, on the one hand, and to create algorithms, procedures and programs that would necessity (search, ordering, demonstration) eliminated variability, leveled formal differences.

The fourth feature of the historical corpora of medieval Slavic monuments is the presence of multiple non-standard correlations between the manuscript and the text located on it and its non-standard graphic and orthographic record, which must simultaneously be stored in an electronic copy and eliminated during data processing (for example, during lemmatization, search and display of data) [Raupova & Sultonova, 2021: 116-124].

The main problem for automating the linguistic markup of the Slavic historical corpus is the lack of electronic morphological (grammatical) dictionaries. Therefore, their creation is today one of the main tasks in the field of applied Paleo-Slavistics. From publications, it is known that at present, several teams are creating on the basis of different written sources a) databases of textual precedents with manually assigned morphological marks, b) dictionaries based on dictionaries, including contexts, and, accordingly, word forms) electronic grammar dictionaries containing information about fixed and unfixed, but potentially possible word forms, d) procedures and programs based on probabilistic methods and other algorithms. Which of these ways will be the most effective for creating systems for automated morphological analysis of texts, the main characteristic of which is an unnormalized, varying graphic and spelling form of a word, time will tell.

Conclusion

The correspondence between the original, on the one hand, and the translation(s) and editions, on the other hand, is much different than in the modern corpus: the original from which the translation was made may not be known, and its role is played by one of the most lists close to it in the original language. In the second and third types of corpora, lists of one work should be considered as a whole equal in terms of corpus construction. Therefore, it should provide for the possibility of showing aligned units in the direction from any of the lists, and not just, for example, from ancient to later.

References

1. Baranov, V.A. Software Tools and User Interfaces Designed for HistoricalLinguistic Purposes of Project ‘Manuscript’. Newsletter of the Association "History and Computer" // Proceedings of the International Conference "Computer Technologies and Mathematical Methods in Historical research", Petrozavodsk, July 11–16, 2011.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

2. Khursanov NI. (2021) Creating a corpus of texts. *Journal of Education and Innovative Research*;4(1):247-53.
3. Khursanov, N. I. (2021). On the theoretical and practical foundations of language corpora. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 311-318.
4. Raupova, L., & Sultonova, Sh. (2021). Scientific Basis of Compiling a Dictionary of Grammatical Terms. *Current Research Journal of Philological Sciences*, 2(10), 116-124.
5. Zakharov, V.P. (2005) *Corpus Linguistics: Educational and Methodological Guide*. – St. Petersburg.

2. SHO'BA. O'ZBEK TILINING TA'LIMIY KORPUSINI YARATISH MASALALARI

O'ZBEK TILI TA'LIMIY KORPUSIDA LEMMALASH ALGORITMLARI

XUSAINOVA Zilola

ToshDO 'TAU tayanch doktoranti.


Annotatsiya. Lemmatizatsiya – lemma(leksema)ning ma'noli shaklini aniqlash va uni flektiv/hosila shakllari o'rnida ishlatishni o'z ichiga olgan tabiiy tilni qayta ishlash usuli. Ushbu maqolada o'zbek tili ta'limiy korpusi matnlarini lemmalash algoritmlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: lemmalash, o'zbek tili ta'limiy korpusi, lemmatizatsiya, lemma, POS, qidiruv tizimlari.

Abstract. Lemmatization is a natural language processing method that involves identifying the meaningful form of a lemma (lexeme) and using it instead of inflectional/derivative forms. In this article, algorithms for lemmaization of the texts of the educational corpus of the Uzbek language are presented.

Key words: lemming, educational corpus of the Uzbek language, lemmatization, lemma, POS, search systems.

Til korpuslarida ishlab chiqilgan axborot qidiruv tizimlari algoritmlari doimiy rivojlanishda bo'lib, inson tilini tushunish va talqin qilish qobiliyatini yaxshilashda davom etmoqda. Tilning asosiy birligi uning so'z boyligi – leksikasidir. Agar korpus matnidan ajratuvchilar (*oraliq bo'shliqlar, ba'zi tinish belgilari va boshqalar*) orqali so'zlarni ajratib olsak, matnda ko'plab **tokenlar** hosil qilinadi. **Token** matndan chegarasi bilan ajralib turadigan har qanday birlikdir. “*Daraxt bir yerda ko'karadi*” gapida 4 ta token mavjud: *daraxt, bir, yerda, ko'karadi*. “*Halol mehnat yerda qolmas*” jumlasida 4 ta token mavjud: *halol, mehnat, yerda, qolmas*. B.Elov va boshqa o'zbek kompyuter lingvistikasi sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar tomonidan yozilgan “NLP (tabiiy tilga ishlov berish)ning pipeline konveyeri” deb nomlanuvchi maqolada korpus matnini qayta ishlashning quyidagi pipeline jarayoni keltirilgan:




1-rasm. Pipeline konveyerining asosiy bosqichlari

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Har qanday NLP tizimini ishlab chiqish jarayonida birinchi qadam berilgan vazifaga tegishli ma'lumotlarni yig'ishdir. Bugungi kunda Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining bir qator tadqiqotchilari tomondan "O'zbek tili ta'limiy korpusi"² ishlab chiqilgan bo'lib, 2023 yil arpel oyi holatiga ko'ra 10 milliondan ortiq gap, 1.750.000 atrofida so'zshakllardan tashkil topgan. Ushbu korpus leksik birliklarini lemmalash va stemlash muhim qadam hisoblanib, ko'plab NLP vazifalarini hal qilishda dastlabki bosqich hisoblanadi.

Stemming va lemmatizatsiya

Stemming jarayonida so'zdagi qo'shimchalar olib tashlanadi va so'zni qandaydir asosiy shaklga qisqartirish amalga oshiriladi. Har bir token uchun uning (lemma deb ataluvchi) boshlang'ich (yoki normal) shakli mavjud. Nutq(matn)da ushbu boshlang'ich shakl turli grammatik shakllarni olgan holda (fleksiya sodir bo'lishi ham mumkin) ishlatiladi.



2-rasm. Stemming jarayoni

Lemmatizatsiya – bu so'zning barcha turli so'zshakllarini **asosiy so'z** yoki **lemma** bilan taqqoslash jarayoni. Bu stemming jarayoniga o'xshash ko'rinsa-da, ular, aslida, boshqacha. O'zbek tili leksik birliklarini stemming va lemmatizatsiya jarayonlari farqi va o'xshash jihatlari Elov B.B, Khamroyeva Sh.M va Xusainova Z.Y mualliflar tomonidan yozilgan **NLP (tabiiy tilga ishlov berish) ning Pipeline konveyeri** maqolasida batafsil keltirilgan.

Lemmatizatsiya kabi tabiiy tilni qayta ishlash usullaridan foydalanish til korpusidagi qidiruv tizimlari natijalarini optimallashtirish uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Lemmatizatsiya so'zning lemma (leksema) shaklini aniqlash va uni flektiv/hosila shakllari o'rnida ishlatishni o'z ichiga oladi. Lemmatizatsiya jarayoni orqali korpus matnlari mazmunini tahlil qilish, aniqligini oshirish mumkin. Lemmatizatsiya korpusdagi qidiruv tizimlari natijasini tartiblash jarayonini amalga oshirishga yordam beradi.

Ushbu maqolada o'zbek tili ta'limiy korpusida lemmatizatsiya jarayonini ko'rib chiqamiz. Lemmatizatsiyani amalga oshirish bosqichlari, metodlari va algoritmlarining qanday ishlashini, uni til korpusiga qanday qo'llash mumkinligini ko'rib chiqamiz. Shuningdek, lemmatizatsiya jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatoliklar, ularni bartaraf qilish usullari muhokama qilinadi.

Lemmatizatsiya va stemming – tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)da tahlil murakkabligini kamaytirish maqsadida ishlatiladigan ikkita usul. Bu ikkala usul

² <http://uzschoolcorpara.uz/>

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

ham soʻzlarni asosiy shakllariga qisqartirishdan iborat, ammo ular bu amalni bajarish maqsadi va unga erishish usullari bilan farqlanadi.

Lemmatizatsiya – soʻzning asosiy shakli boʻlgan **lemmasi(leksema)**ga qisqarish jarayoni. Bu asosiy shakl koʻpincha soʻzning **lugʻatdagi shakli** deb ham ataladi. Masalan, “*bajargan*” soʻzining lemmasi “*bajarmoq*”, “*sening*” soʻzining lemmasi esa “*sen*” hisoblanadi. Lemmatizatsiya soʻzning *kontekstini*, jumladan, *POS tegini*, *zamon* va *turkumini* hisobga oladi.

NLP vazifalarini amalga oshirishda koʻp hollarda lemmatizatsiya jarayonidan foydalaniladi. Lemmatizatsiya jarayoni stemmingdan farqli ravishda soʻz maʼnosini aniqroq ifodalashni taʼminlaydi [Zhou, M., Duan, N., Liu, S., & Shum, H.-Y, 2020:276]. Chunki lemmatizatsiya jarayonida soʻzning konteksti hisobga olinsa, stemmingda hisobga olinmaydi.

Stemming – kontekstni hisobga olmagan holda soʻzning asosiy shakli boʻlgan oʻzagiga qisqartirish jarayoni. Stemlar koʻpincha soʻzning oʻzak shakli deb ataladi. Masalan, “*yugurish*” soʻzining oʻzagi “*yugur*”, “*sening*” soʻzining oʻzagi esa “*sen*”, *sening* soʻzining stemi esa “*se*”dir. *Stemming* – bu NLP masalalarini yechishdagi murakkabliklarni kamaytirishning asosiy omili boʻlib, soʻzning kontekstini hisobga olmaydi. Bu esa soʻz maʼnosini ifodalashda koʻplab xatolarga olib kelishi mumkin. Chunki soʻzning stemi har doim ham soʻz maʼnosini toʻgʻri ifodalamasligi mumkin [Elov B., Hamroyeva Sh., Abdullayeva O., Xusainova Z., Xudayberganov N. 2023:41]. Mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqot natijasiga koʻra oʻzbek tili milliy korpusi matnlarida UzbStemmer algoritmining samaradorligi 95.5%ni tashkil etgan [Elov B., Alayev R., Xusainova Z. 2023:41]. Masalan, “*sotib oldim*” soʻzining stemi 2 ta “*sot*” va “*ol*” boʻlsa, lemmasi “*sotib olmoq*”dan iborat 1 ta leksik birlikni ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, *lemmatizatsiya* va *stemming* soʻzlarni ifodalashni soddalashtirish orqali NLP masalalarini yechishdagi murakkabliklarni kamaytirishda ishlatiladigan usullardir. Ikkala usul ham soʻzni asosiy shakliga qisqartirishni nazarda tutadi, ammo ular buni amalga oshirish algoritmi va usuli bilan farqlanadi. Lemmatizatsiya soʻz maʼnosini toʻgʻri ifodalashni taʼminlaydi, biroq bu jarayon murakkab, u sekinroq amalga oshiriladi. Stemming sodda va tezkor yondashuv boʻlsa-da, soʻz maʼnosini ifodalashda xatolarga olib kelishi mumkin [Sharma, A., Kumar, R., & Mansotra, V. 2016].

Lemmatizatsiya jarayoni orqali korpus qidiruv tizimini optimallashtirish

Lemmatizatsiya – til korpusi qidiruv tizimi samaradorligini oshirish uchun soʻzlarni lemma (asosiy) shakliga qisqartirish jarayoni. Ushbu jarayon, ayniqsa, qidiruv natijalarining aniqligini va kontekstini tushunish uchun foydali boʻlishi mumkin. Lemmatizatsiyaning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, u *qidiruv tizimlariga matn konteksti* va “*maʼnosi*”ni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Masalan, “*olma*” soʻzi *harakatni bildiruvchi* feʼl yoki *mevani bildiruvchi* ot boʻlishi mumkin. Ushbu soʻzni lemmatizatsiya qilish orqali qidiruv tizimlari qaysi maʼno yuzaga chiqqanligini aniqroq topishi va tegishli qidiruv natijalarini taqdim etishi mumkin.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Lemmatizatsiyaning yana bir afzalligi shundaki, u korpus qidiruv tizimiga turli so'zlar va tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Masalan, agar foydalanuvchi korpus qidiruv tizimida “yugurish uchun poyabzal” so'z birikmasini qidirs, “yugurish” lemmasi “poyabzal” lemmasi bilan bog'lanadi. Bu qidiruv tizimiga foydalanuvchining ma'lum turdagi poyabzallarni qidirayotganini tushunish imkonini beradi. Bu esa ma'lumotlar bazasidan so'rovga ko'proq mos keladigan qidiruv natijalariga va veb-sayt trafisini oshirishga olib kelishi mumkin.

Lemmatizatsiya, shuningdek, korpus matni tarkibining umumiy o'qilishi va aniqligini yaxshilaydi. So'zlarni lemma shakliga qisqartirish orqali qidiruv tizimlarida kontentning ma'nosi va kontekstini tushunishni osonlashtiradi. So'zlarni standartlashtirish va ularni asosiy shaklga qisqartirish orqali o'zbek tili korpus ma'lumotlari, tendentsiyalarni kuzatish, tahlil qilishni osonlashtirishi mumkin. Bu esa qidiruv samaradorligini aniq o'lchash va kelajakdagi strategiyalar haqida to'g'ri qaror qabul qilishga yordam beradi.

Lemmatizatsiya jarayonidagi xatoliklar

Lemmatizatsiya foydali vosita bo'lishi mumkin bo'lsa-da, bir necha keng tarqalgan xatolar yuzaga kelishi mumkin. Keng tarqalgan xatolardan biri bu *lemmatizatsiya* va *stemming* o'rtasidagi farqni to'g'ri tushunmaslikdir. Bu farqni tushunmaslik qidiruv natijalaridagi noaniqliklarga va foydalanuvchi so'roviga mos bo'lmagan natijalarning shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Lemmatizatsiya POS teg va so'z ishlatilgan kontekstni, so'ngra tegishli lemmani aniqlaydi. Lemmatizatsiya jarayonida kontekst hisobga olinmasa, natijada aniqlangan lemma noto'g'ri bo'lishi mumkin. Bu noto'g'ri qidiruv natijalarini hosil qilishi mumkin.

Lug'atdagi lemmalar ro'yxatini muntazam yangilamaslik ham turli xatoliklarga olib keladi. Tilning rivojlanishi, lug'at tarkibiga yangi so'zlar qo'shilishi bilan birga, lemmalar ro'yxatini yangilash, uning to'g'ri va dolzarb bo'lishini ta'minlash lozim. Agar lemmalar ro'yxati yangilanmagan bo'lsa, unda eskirgan/noto'g'ri lemmalar bo'lishi mumkin, bu esa qidiruv natijalarining noto'g'ri bo'lishiga olib keladi.

Lemmatizatsiya qidiruv natijalarini yaxshilashda foydali bo'lsa-da, unga juda ko'p ishonmaslik kerak. **Haddan tashqari lemmatizatsiya (over-lemmatizing)** kontekstni va ma'noning yo'qolishiga olib keladi. Qidiruv natijalarini yaxshilash va kontentning sifati, o'qilishi o'rtasida muvozanatni saqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Oldini olish kerak bo'lgan yana bir xato – lemmatizatsiya jarayonini sinovdan o'tkazmaslik. Lemmatizatsiya jarayonining to'g'ri va samarali ishlashini ta'minlash uchun uni muntazam sinab ko'rish lozim. Bunga lemmatizatsiya qidiruv tajribasini yaxshilash yoki to'sqinlik qilishini aniqlash uchun qidiruv testlarini o'tkazish va natijalarni tahlil qilish bilan erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, lemmatizatsiya korpusda qidiruv natijalari aniqligi va dolzarbligini oshirishda kuchli vosita bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, *lemmatizatsiya* va *stemming* o'rtasidagi farqni tushunmaslik, *lemmatizatsiyani*

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

veb-saytning barcha shaifalariga qo'llamaslik, kontekstni hisobga olmaslik, lemmatizatsiya ro'yxatini muntazam yangilamaslik, lemmatizatsiyani haddan tashqari oshirib yuborish va lemmatizatsiya jarayonini sinab ko'rmaslik kabi keng tarqalgan xatolardan qochish kerak. Ushbu xatolarga yo'l qo'ymaslik lemmatizatsiyani foydalanuvchi hamda qidiruv tizimlari uchun samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Taklif qilinayotgan yechim

Affikslarni olib tashlashga asoslangan o'zbek tili lemmatizerini ishlab chiqish uchun *til korpusi*, *affikslar bazasi*, *o'zbek tili morfoleksikoni*, *lemmalar bazasidan* foydalanildi [Kışla, T., & Karaoğlu, B. 2016]. So'z shaklning so'z turkumi (POS tegi)ni inobatga olib, lemmani aniqlash uchun quyidagi qadamlar bajarilishi lozim.

1. Lemmaga qo'shilishi mumkin bo'lgan **suffiks qo'shimchalar** aniqlanadi (6-jadvallar).

1-jadval. O'zbek tilidagi suffiks qo'shimchalar (POS bo'yicha)

POS	shakl yasovchi (flektiv)
Ot (N)	17
Son (Num)	5
Fe'l (Vb)	22+10 (nisbat)
Sifat (JJ)	9
Olmosh (P)	-
Ravish (R)	5

2. Har bir so'z turkumiga oid bir nechtdan (faol) so'z shakllari olinib, ularning lemmasini so'z shaklidan o'chirib tashlash orqali, berilgan so'z turkumidagi lemmalarga qo'shilishi mumkin bo'lgan **suffiks qo'shimchalar satrlari to'plami** aniqlandi.
3. Suffiks qo'shimchalar satri bu so'z shaklini hosil qilish uchun lemmaga qo'shilgan o'zbek tilidagi bir nechta **qo'shimchalar birikmasi** hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval. Til korpusidan aniqlangan o'zbek tilidagi suffikslar birikmalari to'plami

	Ot (N)	Son (Num)	Fe'l (Vb)	Sifat (JJ)	Olmosh (P)	Ravish (R)
1.	chiligimizning	Inchi	dilarki	almashtirgichda	nga	aydiki
2.	dagilarning	larcha	nganlaridan	bardoshligini	ngacha	aydimi
3.	doshlarimiznikidan	larda	yapsizlarmi	imizning	ngagina	chiligimizning
4.	korlarimizning	ovi	ilmayotganidan	lamaganidan	nikilarning	dangina
5.	laganlaridagina	ovimiz	ishimizdan	lashayotganligini	dek	gilarining
...	...	...	...	...	...	...
Jami:	1773	229	15870	725	509	1376

4. Lemmaga qo'shilishi mumkin bo'lgan barcha qo'shimchalar satrini **til korpusidan olish uchun** maxsus dasturiy ilovadan³ foydalanildi.

³ <http://uznatcorpara.uz/uz/Dictionary/Search>

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

So'zlar bo'yicha izlash

1bkitob Regulyar ifoda

Natija: 485 ta yozuvdan 50 tasi ko'rsatilmoqda.

So'zlar So'z turkumlari bo'yicha filterlash

kitabida kitab kitobi kitoblar kitoblarning kitoblarni kitobini kitobga kitoblarini hisob-kitoblari Kitobni kitobda	☐ Bog'lovchi ☐ Fe'l ☐ Ko'makchi ☐ Modal ☐ Olmosh ☐ Oraliq so'zlar ☐ Ot ☐ Ravish ☐ Sifat ☐ Son ☐ Taqlid so'zlar ☐ Undov ☐ Yuklama Yuklab olish
---	---

5. Ushbu dastur yordamida o'zbek tili korpusidagi mavjud so'z shakllaridan berilgan **regular ifodalar asosida kerakli so'z shakllar bazasini shakllantirish** imkoniyati taqdim etildi.
6. Qidiruv natijasida aniqlangan ba'zi so'z shakllarning lemma va suffiks qo'shimchalar satriga kabi qismlarga ajratishga misol 8-jadvalda keltirilgan:

3-jadval. So'z shakllarni lemma va suffiks qo'shimchalar satriga ajratish

So'z shakl	lemma	suffiks qo'shimchalar satri
kitobni	kitob	ning
kitoblarning	kitob	larning
kitob	kitob	
kitobda	kitob	da
kitoblariga	kitob	lariga
olmadi	olmoq	di
olmaysan	olmoq	maysan
olmaga	olma	ga
olmalari	olma	lari
shahriga	shahar	iga
shahringdan	shahar	ingdan
shaharda	shahar	da
badavlat	badavlat	
berahm	berahm	

7. $l' + q = w$ shartni qanoatlantiradigan, barcha berilgan har bir so'z shakli uchun $g = \langle s, q \rangle$ qiymatlar to'plami aniqlandi. Bunda,
 - w – so'z shakli;
 - l' – lemmaning tovush o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan yoki fe'l so'z turkumiga oid lemmaning “moq” qo'shimchasisiz yozilgan satri;
 - $s \in S, S$ – lemma so'z turkumlari to'plami;
 - $q \in Q, Q$ – suffiks qo'shimchalar satri to'plami;
 - $g \in G, G$ – har bir elementi $\{s, q\}$ juft qiymatlardan iborat to'plam.
8. Aniqlangan $\{s, q\}$ qiymatlariga misol 4-jadvalda keltirilgan:

4-jadval. Lemma va suffiks qo'shimchalar

Lemma so'z turkumi (s)	Suffiks qo'shimchalar satri (q)
------------------------	---------------------------------

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Ot	ning
Ot	larning
Ot	da
Ot	lariga
fe'l	di
fe'l	ysan
Ot	ga
Ot	lari
Ot	iga
ot	ingdan
ot	da
ot	
ot	

4-jadvaldagi qiymatlar aniqlanganidan so'ng **UzbLemmatizing algoritmi** yordamida so'z shaklining lemmasini aniqlash mumkin.

Xulosa

Ushbu maqolda o'zbek tili ta'limiy korpusi matnlarida lemmatizatsiya jarayonini amalga oshirish usullari ko'rib chiqildi. Shuningdek, o'zbek tili leksik birliklarini stemmlash va lemmalash jarayoni o'rtasidagi farqli jihatlar keltirildi. Lemmatizatsiya so'zning lemma shaklini aniqlash va uni flektiv/hosila shakllari o'rnida ishlatishni ta'kidlandi. Lemmatizatsiya jarayoni orqali korpus matnlari mazmunini tahlil qilish, aniqligini oshirish imkoniyatini taqdim etadi. Tadqiqot yakunida esa o'zbek tili korpusi matnlarini lemmalashning *affikslar bazasi*, *o'zbek tili morfoleksikoni*, *lemmalar bazasidan* foydalanilgan algoritmi keltirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zhou, M., Duan, N., Liu, S., & Shum, H.-Y. (2020). Progress in Neural NLP: Modeling, Learning, and Reasoning. *Engineering*, 6(3), 275–290. <https://doi.org/10.1016/j.eng.2019.12.014>
2. Elov B., Hamroyeva Sh., Abdullayeva O., Xusainova Z., Xudayberganov N. O'zbek, turk va uyg'ur tillarida POS teglash va stemming. *Uzbekistan:Til va Madaniyat* 1 (6). 2023: 41-65.
3. Elov B., Alayev R., Xusainova Z. O'zbek tilida stemmingni amalga oshirishning gibrid statistik yondasuvi. 2023
4. Sharma, A., Kumar, R., & Mansotra, V. (2016). Proposed Stemming Algorithm for Hindi Information Retrieval. *International Journal of Innovative Research in Computer and Communication Engineering (An ISO Certified Organization)*, 3297(6). <https://doi.org/10.15680/IJRCCE.2016>
5. Kışla, T., & Karaoğlu, B. (2016). A hybrid Statistical Approach to Stemming in Turkish: An Agglutinative Language. *Anadolu University Journal of Science and Technology-A Applied Sciences and Engineering*, 17(2). <https://doi.org/10.18038/btda.31812>
6. O'zbek tili morfologik analizatori - <http://uznatcorpara.uz/>

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

7. B.Elov, Sh.Hamroyeva, O.Abdullayeva, Z.Xusainova, N.Xudayberganov. (2023). Agglyutinatив tillar uchun POS teglash va stemming masalasi (turk, uyg'ur, o'zbek tillarimisolida). Til va madaniyat, Kompyuter lingvistikasi. Vol.1(6). – B. 35-50.

**O'ZBEK TILINING TA'LIMIY KORPUSI BAZASINI
TAKOMILLASHTIRISHDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR
LUG'ATLARINING O'RNI**

RAHMATOVA Zoira

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi Qarshi davlat universiteti

OCHILOVA Feruza

O'zbek tilshunosligi kafedrasida magistranti Qarshi davlat universiteti

zoira.raxmatova.82@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tuziladigan nutq o'stiruvchi vositalar – illyustrativ ensiklopediyalar, lug'at-minimumlar hamda turli mavzuviy izohli lug'atlarning ta'limiy korpusni takomillashtirishdagi roli, bu boradagi muammolar va ularning yechimlari xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: maktabgacha yoshdagi bolalar lug'ati, bolalar ensiklopediyalari, illyustrativ ensiklopediya, lug'at-minimum, leksik minimum, rasmlilug'at, nutq o'stirish vositasi, kommunikativ kompetensiya

Annotation. The article discusses the role of speech development tools for preschool children - illustrative encyclopedias, dictionary-minimums and various thematic annotated dictionaries in improving the educational corps, the problems and their solutions.

Keywords: preschool children's dictionary, children's encyclopedias, illustrative encyclopedia, dictionary-minimum, lexical minimum, pictorial dictionary, speech aids, communicative competence

Mamlakatimizda maktabgacha ta'limning isloh qilinishi, uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim bo'g'ini sifatida e'tirof etilishi, qolaversa, maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi asosida bolaning kommunikativ, ijtimoiy, bilish kompetensiyalarini shakllantirish vazifasining yotishi bu tizim uchun mo'ljallangan nutq o'stirish vositalari – lug'atlar, leksik minimumlar, qo'shimcha axborot manbalariga bo'lgan talabni oshirmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishning eng muhim vositalaridan biri – bu lug'atlar, xususan, ensiklopedik o'quv lug'atlaridir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaratiladigan har qanday nutq o'stirish vositasining so'zligini shakllantirish va har bir leksik birlikni izohlashda bir qator lingvodidaktik talablar ham qo'yiladi. Ushbu talablar mazkur o'quv lug'atlarining spesifikasi – o'ziga xos xarakterli xususiyatlarini belgilaydi. Ularning eng muhimlari xususida to'xtalib o'tamiz.

Birinchidan, hajm qat'iy chegaralanadi. Umuman, hajm – o'quv lug'atining barcha ko'rinishlari uchun ham muhim mezon. Biroq o'quv lug'atining kompleks lug'at, super lug'at kabi turlari hajman katta bo'lishi ham mumkin. **Maktabgacha yoshdagi bolalar lug'ati hajmi turli bezaklar, illustrasiyalar bilan birga 100 betdan oshmaydi.** Aksariyat lug'atlar 20-40 bet atrofida bo'lib, so'zlik miqdori 10dan 100gacha bo'lishi kuzatiladi. Bu toifadagi lug'atlar hajm bilan bog'liq

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

chegara sababli mavzuchalarga bo'linib, kichik-kichik kitobchalardan iborat bo'ladi va ko'p hollarda lug'atlar turkumini yuzaga keltiradi. Masalan, O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti tomonidan "Mening birinchi ensiklopediyam" turkumida 50 nomdagi lug'at nashr etilishi rejalashtirilgan bo'lib, ushbu bolalar ensiklopediyasining 2018 yilda 10tasi ("Texnika olamiga sayohat", "Bu juda qiziq", "Kapalaklar olami", "Koinotga sayohat", "Dunyo bo'ylab sayohat", "Baliqlar olamiga sayohat", "Hayvonot olamiga sayohat", "O'simliklar olamiga sayohat", "Tarixga sayohat", "Yosh bilimdon") nashr etilgan.

Ikkinchidan, umumiy ensiklopediya, hatto ensiklopedik o'quv lug'atlarining boshqa turlaridan farqli ravishda bu tipdagi **lug'atlar korpusi materialni o'ziga xos tartibda taqdim qilishi bilan harakterlanadi**. Aniqrog'i, lug'at so'zligi kamdan-kam hollarda alfavit, ko'pincha mavzuviy tartibga asoslanadi. Vokabula (bosh so'z) bir paytda ham so'zlik, ham umumiy mavzu ostida jamlangan lug'at maqolalar uyasi nomini anglatadi va mohiyatan ideografik lug'atlarni eslatadi. Sababi bolalar lug'atining so'zni emas, aynan tushunchani izohlash (ko'p hollarda ko'rsatib izohlash)ga yo'naltirilganligi bilan bog'liq. Umuman olganda, lug'atlarning ilk ko'rinishi bo'lgan ideografik lug'atlar ham mana shu ehtiyoj bilan yuzaga kelgan edi.

Maktabgacha yoshdagi ta'lim oluvchilarga mo'ljallangan lug'atlarning asosiy ko'rinishi bo'lgan bolalar ensiklopediyalari ham ma'lumotni taqdim etish usuliga ko'ra ideografik lug'atlarni eslatadi. Masalan, 2010 yilda nashr etilgan "Mening eng birinchi ensiklopediyam" lug'ati "Hammasi odam haqida", "Atrofimizdagi texnika", "San'at olami" kabi qismlardan tashkil topgan bo'lib, ular o'z ichida birinchi, ikkinchi, uchinchi darajali kichik-kichik lug'at maqola va izohlardan tashkil topgan.

Uchinchidan, lug'at maqolaning **jumla tuzilishi nihoyatda oddiy** bo'lib, asosan, sodda gaplardan tashkil topadi. Murakkablashtiruvchi vositalar, kiritma, ajratilgan bo'laklar deyarli qo'llanmaydi. Leksikografik semantizatsiyalash, izoh qismni yozishda bolaning yoshi, jismoniy holati, u yashab turgan joyning iqlimi, jonli va jonsiz tabiati va boshqalar hisobga olinadi. Izohlar usluban alifbe darsliklari matnini eslatadi:

ADIR

Tog'liklardan so'ng boshlanadigan tepalik yerlar, balandliklar adirlardir.

Elchi bahor keldi yana, Qir, adirga durlar sohib. (T.Adashboyev. "Orzularim – qo'sh qanotim") [M.A'zam, 2016: 6]

QOZON

Ovqat pishirish yo suv isitish uchun kerak bo'ladigan cho'yan idishni qozon deymiz. *Cho'mich kular taraqq-turuq, Qozon kular sharaq-shuruq.* (A.Obidjon. "O'g'irlangan pahlavon") [M.A'zam, 2016: 136]

So'zlikda leksikografik simvolika – shartli belgi, qisqartmalardan deyarli foydalanilmaydi.

To'liqroq tasavvur hosil qilish uchun bir leksik birlikning turli lug'atlardagi izohini solishtiramiz:

Izoh	Lug'at nomi
SAMOLYoT (rus. sam – o'zim va letat – uchmoq), aeroplan – havodan og'ir uchish apparati. Dvigatel yordamida ilgarilama harakatlanganda qanotlarda vujudga keladigan ko'tarish kuchi ta'sirida yerdan ko'tariladi. Dvigatel valiga o'rnatilgan vint tez aylanganda hosil bo'ladigan tortish kuchi (porshenli dvigatellar o'rnatilgan S.da) yoki soplo orqali katta tezlikda chiqadigan gazlarning itarish kuchi (reaktiv dvigatelli S.da) ta'sirida oldinga harakatlanadi. Qanotlarning bir yoki ikki tekislikda joylashishiga qarab, S. Monoplan (qanoti bir teksilikda) va biplan (qanotlari ikki teksilikda), dvigatellari soniga qarab 1, 2, 3 va 4 motorli; dvigatellari turiga qarab, vintli (porshenli va turbovintli), reaktiv dvigatelli (q. Aviatsiya dvigateli), yo'lovchilar o'rinlari soniga qarab, bir, ikki va ko'p o'rinli; qo'llanishiga qarab harbiy va fuqaro, sanitariya, yuk va maxsus turlarga bo'linadi.	O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 7-jild. 2004.– B.481
SAMOLYoT – qadim-qadimdan odamlar qanotli mashinalarni orzu qilib kelishgan. Lekin havoga yo'lni aslida benzin bilan yuradigan dvigatel olgan. Samolyot ko'payib ketgandan keyin odamlar bu “qush”ni aviatsiya deya boshlashdi. “Avis” so'zi lotinchada “qush” ma'nosini beradi.	Aristonova V.V., Galpershteyn L.Y. va bosh. Mening eng birinchi ensiklopediyam (2-kitob) Tarj.T.Alimov. – T.: Cho'lpon, 2010. –B 46

To'rtinchidan, boshqa lug'atlardan farqlanib, bu tipdagi lug'atlar maxsus poligrafik talablarga javob berishi lozim. Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bola mustaqil o'qish qobiliyatiga ega bo'lmaydi va adresat lug'atdan kattalar yordamisiz to'liq foydalana olmaydi. Ular tarbiyachilar yoki ota-onalar ko'magida ko'rsatish va eshitish yo'li bilan ma'lumotlarni o'zlashtiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar lug'atiga xos ushbu muhim xususiyatlarga amaliyotda, odatda, lug'at mualliflari izoh berib o'tadilar. Masalan, N.N.Malofeevaning “Maktabgacha yoshdagi bolalar ensiklopediyasi”ga “Kitobxonga” sarlavhasi bilan berilgan kirish qismida “Uyingda, albatta, dunyodagi hamma narsa haqida bilib olish mumkin bo'lgan ensiklopediyalar bor bo'lsa kerak. Biroq ular, asosan, kattalar uchun chop etilgan. Endi sening maxsus tuzilgan o'z ensiklopediyang bor. Agarda o'qishni bilmasang, bu borada senga ota-onang yordam beradi. Keyinchalik, yoshing ulg'aygach, kitobni o'zing bir necha marta o'qib chiqasan degan umiddamiz” [Malofeyeva N.N., 2010: 6].

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Shu bois maktabgacha yoshdagi bolalar lug'atiga maxsus estetik, poligrafik talablar qo'yiladi. Avvalo, u tasvirli va rangli bo'lishi, ilustrasiyaga – so'zning semantik va grammatik xususiyatiga qo'shimcha tavsif beradigan, uning qo'llanilish doirasini aniqlashtiradigan vizual vositaga ega bo'lishi lozim.

Ilmiy pedagogika asoschisi Ya.A.Komenskiy (1592-1670) lingvodidaktik xarakterdagi “Tushunchalar olami rasmlarda” ensiklopediyasining “Kirish” qismida o'z asarini “Ko'rinib turgan olam ensiklopediyasi” deb nomlaydi. Komenskiy til o'qitish amaliyotiga ko'rsatish orqali o'rgatish metodikasini olib kirgan olim bo'lib, u ko'p marta, xususan, “Buyuk didaktika” asarida ham ko'rishning his etish, bilish faoliyatida eng muhim rol o'ynashi xususida ta'kidlaydi. Komenskiy ushbu asarida “O'rgatish samara bersin desangiz, narsani nafaqat rasmi, balki o'zini, masalan, inson a'zolari, kiyimlar, o'quv qurollari, jihozlar va boshqalarni jonli ko'rsatish bilan ham tushuntiring” [Komenskiy, 2020], deb aytgan edi.

Umuman, zamonaviy ta'limda bugungi kunda ham vizual his etish bolalar uchun kitob yozishning muhim mezonlaridan hisoblanadi. Shuningdek, harf o'lchami, shakli, unda ishlangan suratlar ham bolaning ruhiy-fiziologik holatiga mos bo'lishi; qog'oz, muqova sifati (oq, yaltiroq (glyansevy) qog'oz, qattiq (plotnyy), muqova bezagi bejirim va milliy ruhga ega bo'lishi; kitobning hajmi (A4 format) bilan bog'liq qator talablarga javob berishi lozim: “Kitobimiz o'z rasm-shakllariga ega olti qismdan iborat. Rasm-shakllar senga qiziqarli mavzuni tezda topishga yordam beradi. ... Sahifalarning och havorangdagi qismlarida labirintlar bo'ylab “yo'l yurasan”, rasmlardagi farqlarni aniqlab, mozaikalarning ortiqcha fragmentlarini topasan”. [Malofeyeva, 2010: 6-7]. *Beshinchidan*, o'quv lug'atlarining barcha turlari, xususan, maktabgacha yoshdagi bolalar ensiklopediyalarida lug'at mikroqurilishidan faqat so'zlik yoki lug'at maqola emas, balki rasm chizish, bo'yash, turli shakllarni yasash bilan bog'liq **topshiriqlar, testlar, shuningdek, tez aytish, topishmoq, she'r va boshqotirmalar ham joy oladi:**

REDISKA

Rediska yeyishli poliz ekini bo'lib, shoir Anvar Obidjon sholg'om tilidan uni shunday ta'riflaydi:

Popuk bargli

Boshim bor.

Vazmingina

Toshim bor.

Dumi uzun

Rediska –

Menga

Kenjatoy uka. (A.Obidjon. “O'g'irlangan pahlavon”). [M.A'zam, 2016: 143]

Ma'lumki, bola tafakkurining rivojlanishida uning yirik va mayda motorikasi, xususan, nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalarining o'sishida qo'l panjasining mayda motorikasining rivojlanishi muhim rol o'ynaydi. Inson barmoqlar orqali axborot oladi. “Qo'l barmoqchalari motorikasining rivojlanishi

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

quyidagi holatlarni yuzaga keltiradi: – tafakkurning rivojlanishi; – harakat koordinatsiyasining rivojlanishi; – xotira va diqqatning rivojlanishi; – yozish ko'nikmalarining shakllanishi; – nutqning rivojlanishi" [O'rinbaeva, 2018: 8].

Demak, maktabgacha yoshdagi bolalar lug'ati quyidagi belgilarga egaligi bilan xarakterlanadi:

- 1) hajman ixcham bo'ladi;
- 2) so'zligi, asosan, mavzuviy tartibga ko'ra joylashtiriladi;
- 3) lug'at maqolalar tuzilishiga ko'ra sodda va ixcham bo'lib, unda bola uchun tushunarli va izoh uchun eng zarur so'zlarga ishtirok etadi, leksikografik simvolikaga kam yo'l qo'yiladi;
- 4) bolalar adabiyotlariga qo'yiladigan maxsus poligrafik talablarga javob beradi;
- 5) lug'at mikroqurilmasidan qo'l motorikasini rivojlantirishga qaratilgan turli topshiriqlar, testlar, shuningdek, tez aytish, topishmoq, she'r va boshqotirmalar ham joy oladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalar lug'ati hajman ixcham bo'lishi, so'zligi, asosan, mavzuviy tartibga ko'ra joylashtirilishi, lug'at maqolalar tuzilishiga ko'ra sodda va ixcham bo'lib, unda bola uchun tushunarli va izoh uchun eng zarur so'zlarga ishtirok etadi, leksikografik simvolikaga kam yo'l qo'yilishi, bolalar adabiyotlariga qo'yiladigan maxsus poligrafik talablarga javob berishi, lug'at mikroqurilmasidan qo'l motorikasini rivojlantirishga qaratilgan turli topshiriqlar, testlar, shuningdek, tez aytish, topishmoq, she'r va boshqotirmalar ham joy olishi bilan xarakterlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Изображение и наименование всех важнейших предметов в мире и действий в жизни. Коменский, Ян_Амос. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
2. Malofeyeva N.N. Maktabgacha yoshdagi bolalar ensiklopediyasi. Tarj. A.Akbar. – T. Cho'lpon, 2010.
3. Miraziz A'zam. Ming bir so'zni bilaman: Bolalar uchun rasmlil izohli lug'at. – Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 200 b.
4. Ўринбаева Д., Раҳимова М. Мактабгача ёшдаги болаларнинг ижодий тафаккурини шакллантириш усуллари. – Самарқанд, 2018. 120 бет.

О НЕОБХОДИМОСТИ ОПИСАНИИ И ТОЛКОВАНИИ ТЕРМИНОВ Э-БИЗНЕСА В ЯЗЫКОВЫХ КОРПУСАХ

МЕНГЛИЕВА Ситора (ТГЮУ)

Электронный бизнес (e-business) – это использование информационных технологий для управления бизнес-процессами, включая покупку и продажу товаров и услуг, управление финансами, маркетинг, логистику и другие аспекты бизнеса. Электронный бизнес может быть реализован как внутри компании, так и между компаниями, а также между компаниями и их клиентами.

Основными преимуществами электронного бизнеса являются:

1) увеличение эффективности бизнес-процессов; использование информационных технологий позволяет автоматизировать многие бизнес-процессы, что уменьшает время и затраты на их выполнение;

2) увеличение скорости и точности принятия решений; использование информационных технологий позволяет быстро получать и анализировать данные, что помогает принимать более точные и обоснованные решения;

3) увеличение доступности для клиентов; использование интернета позволяет компаниям предоставлять свои товары и услуги клиентам в любое время и в любом месте;

4) увеличение глобальной конкурентоспособности. Использование интернета позволяет компаниям работать на международном уровне и конкурировать с другими компаниями в мировом масштабе;

5) увеличение удобства для клиентов; использование интернета позволяет клиентам быстро и удобно находить и покупать товары и услуги, а также получать информацию о компании и ее продуктах.

Система терминов электронного бизнеса включает в себя широкий спектр терминов и понятий, связанных с использованием информационных технологий в бизнесе. Некоторые из основных терминов включают в себя:

– *электронный платеж* (e-payment) – процесс оплаты товаров и услуг через интернет;

– *электронный банкинг* (e-banking) – использование интернета для управления банковскими счетами и проведения финансовых операций;

– *электронная почта* (e-mail) – электронный способ обмена сообщениями;

– *электронная подпись* (e-signature) - электронный аналог обычной подписи, используемый для подтверждения личности и подписания документов;

– *электронный документооборот* (e-document flow) - процесс обмена документами через интернет;

– *электронный аукцион* (e-auction) – процесс продажи товаров и услуг через интернет, где покупатель выбирается на основе наивысшей цены;

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

- *электронный маркетинг* (e-marketing) – использование интернета для продвижения товаров и услуг;
- *электронная безопасность* (e-security) – защита информации и данных от несанкционированного доступа и использования.

Это только некоторые из основных терминов, связанных с электронным бизнесом. Система терминов электронного бизнеса постоянно развивается и расширяется, чтобы отражать новые технологии и тенденции в этой области.

Подача терминов электронного бизнеса в языковом корпусе может быть полезна для изучения и анализа языка, связанного с этой темой. Это может помочь специалистам понять, какие термины используются в этой области, как они используются и как они связаны друг с другом.

Кроме того, подача терминов электронного бизнеса в языковом корпусе может быть полезна для обучения языку, бизнесу и юриспруденции. Это может помочь студентам и учащимся понять, какие термины используются в этой области, как они используются и как они связаны друг с другом. Это также может помочь им улучшить свои навыки чтения и понимания текстов, связанных с электронным бизнесом.

Также важно отметить, что термины электронного бизнеса могут различаться в разных языках и культурах. подача этих терминов в языковом корпусе может помочь в изучении и сравнении терминологии в разных языках и культурах.

Ниже приведем примеры по толкованию несколько терминов, связанных с электронным бизнесом в языковых корпусах: 1. ЭЛЕКТРОННАЯ КОММЕРЦИЯ (e-commerce) Покупка и продажа товаров и услуг через интернет. 2. ЭЛЕКТРОННАЯ ПЛАТЕЖНАЯ СИСТЕМА (e-payment system) Система, которая позволяет производить электронные платежи за товары и услуги через интернет. 3. ЭЛЕКТРОННАЯ ТОРГОВАЯ ПЛОЩАДКА (e-marketplace) Онлайн-платформа, на которой продавцы и покупатели могут встречаться и проводить торговые операции. 4. ЭЛЕКТРОННЫЙ МАГАЗИН (e-shop) Онлайн-магазин, где покупатели могут просматривать и покупать товары через интернет. 5. ЭЛЕКТРОННЫЙ АУКЦИОН (e-auction) Онлайн-аукцион, на котором продавцы могут продавать товары покупателям, которые делают ставки на эти товары. 6. ЭЛЕКТРОННЫЙ БАНКИНГ (e-banking) Использование интернета для управления банковскими счетами и проведения финансовых операций. 7. ЭЛЕКТРОННЫЙ МАРКЕТИНГ (e-marketing) Использование интернета для продвижения товаров и услуг, включая рекламу, продвижение в социальных сетях и другие методы. 8. ЭЛЕКТРОННАЯ ДОСТАВКА (e-delivery) Использование интернета для доставки товаров и услуг, включая электронную почту, онлайн-сервисы и другие методы. 9. ЭЛЕКТРОННЫЙ ДОКУМЕНТООБОРОТ (e-document flow) Использование интернета для обмена документами и информацией между компаниями и их клиентами. 10. ЭЛЕКТРОННЫЙ АГЕНТ (e-agent) Программа или сервис, который автоматически выполняет задачи, связанные

O‘zbek tili milliy va ta’limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

с электронным бизнесом, такие как поиск и сравнение цен на товары и услуги.

В целом, подача и толкование терминов электронного бизнеса в языковом корпусе имеет множество преимуществ, которые могут быть полезными для лингвистов, юристов, бизнесменов, исследователей, студентов и разработчиков. Это может помочь улучшить понимание электронного бизнеса, языка, связанного с электронным бизнесом, и способствовать развитию новых технологий и программного обеспечения в этой области.

IQTISODIYOTGA OID TERMINLAR O'QUV-IZOHLI LUG'ATINI YARATISH XUSUSIDA

ABDUVALIYEVA Aziza,

ToshDO'TAU, ona tili va adabiyot ta'limi fakulteti, 2-kurs talabasi

ansoraabduvaliyeva@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada terminlarning hozirgi ijtimoiy hayotimizdagi o'rni va ularning amaliy ahamiyatiga to'xtab o'tilgan. "Tadbirkorlik asoslari" faniga oid terminlar o'quv izohli lug'atini shakllantirish bosqichlari (tavsiflangan) keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: termin, terminologik sistema, terminlashish, determinlashish, transterminlash, iqtisodiyot.

Annotation: this article focuses on the role and practical importance of terms in our today's globalized life. The stages of formation of the explanatory dictionary of economic terms (described) are mentioned.

Keywords: term, terminological system, terminization, determination, transfer, economy.

O'sib kelayotgan yosh avlodning mustaqil fikr yuritishi, intellekti yuqorida darajada bo'lishi, muloqot va munosabatning barcha turida erkin fikr bildirish jamiyat tomonidan ham, davlatimiz rahbari tomonidan ham ilgari surilayotgan mafkuraviy g'oyalardan biridir. Xususan, ushbu vazifalarni bajarishda hozirgi kunda o'zbek tilshunosligida o'zining tadqiqini kutayotgan, yillar davomida unutilib qolayotgan o'quv lug'atchiligidan o'rni beqiyos. Ma'lumki, dunyoning rivojlangan davlatlarida o'quv lug'atlariga bo'lgan e'tibor va talab juda yuqori. Sababi, shiddat bilan rivojlanayotgan davrda yashar ekanmiz, umumiste'moldan tashqari bo'lgan qanchadan qancha birliklarga duch kelamiz, natijada, o'z-o'zidan o'quv lug'atlariga bo'lgan talab vujudga keladi. Ko'rinadiki, juda ko'plab sohalar uchun o'quv izohli lug'atlarni yaratish nafaqat o'zbek leksikografiyasi, balki o'zbek lingvodidaktikasi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada hayotning muhim tarmog'i bo'lgan iqtisodiyotga doir bilimlarning poydevori – umumiy o'rta ta'lim bosqichida o'qitiladigan "Tadbirkorlik asoslari" fani hamda ushbu fan uchun tayanch bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan iqtisodiyotga oid terminlar o'quv izohli lug'atini shakllantirish jarayoni masalasi tadqiq qilindi.

Sohalar leksikasini shakllantirish va uni tilshunoslikning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylantirish bugungi kun lingvistlaridan talab qilinayotgan asosiy va dolzarb vazifalardan biridir. Boisi, axborot texnologiyalari taraqqiy topayotgan, jamiyat a'zolari o'rtasida terminologik leksika asosida kommunikatsiya qilish rivojlanayotgan bir paytda muayyan sohalarga tegishli bo'lgan terminlarni o'rganish va shakllantirish har qachongidan-da muhimroq ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, "Tilshunoslikning zamonaviy paradigmasi

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

terminologik tadqiqotlarni inson omilini inobatga olgan holda antroposentrik tamoyil asosida olib borishga keng imkoniyatlarni ochib bermoqda. Nutq qaratilgan shaxs mazkur nutqni tushuna olsagina, sohaviy muloqot yuz beradi va shu tariqa axborot almashinuvi takomillashib boradi. Mazkur holatda terminologik va izohli lug'atlarning ahamiyati juda kattadir" [Shirinova, 2020: 26].

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyot va tadbirkorlik sohasiga qaratilayotgan e'tibor aynan shu sohaga tegishli bo'lgan terminlarga qizishlarni orttirmoqda. Xususan, maktab o'quvchilari o'rtasida ham ushbu soha targ'iboti uchun ko'maklashuvchi darsliklar yaratilmoqda. Mazkur tadqiqot orqali aynan iqtisodiyot, tadbirkorlik sohasiga tegishli bo'lgan terminlar izohli lug'atini tayyorlash masalasi tavsiflandi. Sababi, kun talablaridan hisoblangan sohaviy leksika nafaqat, muayyan soha vakillari uchun, umumjamiyat uchun ham e'tiborga molik va ahamiyatlidir. Tadqiqotnatijasi o'laroq tavsiya qilinayotgan tadbirkorlikka doir terminlar o'quv izohli lug'ati uchun tayyorlangan material ham 11-sinf "Tadbirkorlik asoslari" darsligi asosida tayyorlandi. Avvalambor, muayyan soha terminlari sistemani tashkil etishi uchun ba'zi bir talablarga javob bera olishi kerak. Shunga ko'ra biz tanlagan leksik birliklarning terminologik sistema bo'la olish yoki bo'la olmasligi o'rganib chiqildi. Va bu quyidagi 6 bosqich asosida amalga oshirildi:

- 1) salmoqli miqdorda bo'lishi;
- 2) umumiste'mol so'zlari va boshqa sath terminlaridan farq qiluvchi xususiy ma'nolarga ega bo'lishi va o'z sohasi uchun muomala vositasi sifatida xizmat qilishi;
- 3) ma'lum bir mavzuviy guruhlariga birikishi;
- 4) mazkur sistemaning boshqa elementlari bilan paradigmatic munosabatlarga kirishishi;
- 5) umumiy til sistemasi va boshqa terminologik sistema elementlari bilan munosabatlarga kirishishi;
- 6) soha terminlarini shakllantirgan va taraqqiy qildiruvchi usul va manbalarga ega bo'lishi lozim.

Iqtisodiyotga oid o'quv izohli lug'atini shakllantirishda ham aynan shu 6 bosqichga qat'iy amal qilindi. Quyida ularning mukammal tasnifi berib o'tiladi.

1. Salmoqli miqdorda bo'lishi. 170 ta terminologik birlik o'quv izohli lug'ati uchun tanlab olindi. Ularning salmoqli miqdorda bo'lishini ta'minlovchi asosiy omil bo'lmish terminlash, transterminlash va determinlashga alohida e'tibor qaratildi. Terminlash – umumiste'moldagi leksik birliklarni termin sifatida shakllantirish, transterminlash – muayyan terminologik sistema birliklarining boshqa terminologik sistemada ham amal qilishi, determinlash – terminologik birlikning umumiste'mol qatlam so'zlari qatoriga o'tishi. Bulardan terminlash va determinlash tushunchalari o'zaro oppozitsiyani tashkil etsa-da, soha leksikasini shakllantirishda alohida ahamiyatga kasb etadi.

Umumiste'moldagi inkubator, kapital, xarajat, loyiha, fermer xo'jaligi, eksport, import kabi tushunchalar bugun kunda yakka o'zi yoki ko'p komponentli

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

birikma sifatida iqtisodiyotning salmoqli qismini tashkil etgan maxsus sohaviy birliklar hisoblanadi.

Bir soha terminlarining boshqa soha terminlari sifatida ishlatilishi transterminlashish hisoblanib, o'quv izohli lug'atida ham aks etgan: foiz, foiz stavkasi, innovatsiya, innovatsion menejment, kalkulyatsiya.

Muayyan soha uchun terminologik birlik hisoblanuvchi birliklarning metafora asosida umumiste'molga ko'chishiga misol sifatida *aksiyani* keltirishimiz mumkin:

(Aksiya – I. Biror maqsadga erishish uchun qilinadigan ish-harakat.

II. (fr. action – qimmatbaho qog'oz) aksiyadorlik kompaniyasi chiqargan qimmatbaho qog'oz)[O'zbek tilining izohli lug'ati, 1-jild, 2006: 65].

Aksiya, bank, kredit, biznes, tannarx kabi tushunchalar, asosan, iqtisodiyotga oid terminlar sistemasini tashkil etadi.

2. Iqtisodiy soha terminlari ham o'z ichida *agrar iqtisodiyot terminlari, industrial iqtisodiyot terminlari, raqamli iqtisodiyot terminlari* kabi ichki guruhlariga birlashadi.

3. Sinonimlar (aksiyador – hissador, dividend – ulush, litsenziya – ruxsatnoma); antonimlar (eksport – import, an'anaviy murojaat – online murojaat, asosiy mablag' – aylanma mablag', biznes loyiha – biznes reja, jismoniy shaxs – yuridik shaxs); giper-giponimiya (asosiy mablag' – giperonim, asosiy mablag' amortizatsiyasi, asosiy mablag' eskirishi, asosiy mablag' sig'imi; korxona – giperonim, korxonaning asosiy faoliyat turi, korxonani boshqarish usullari, korxona mablag'lari, korxona mablag'larining aylanishi, korxona mablag'larining doiraviy aylanishi, korxona raqobatdoshligi, korxona ustavi, korxonaning innovatsion faoliyati, korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyati – giponim).

4. Iqtisodiyotga oid terminlar sistemasi boshqa sohaga oid terminlar bilan munosabatga kirisha oladi, ya'ni ularda terminlashish, determinlashish, transterminlashish hodisalarini kuzatish mumkin.

5. Iqtisodiyotga oid terminlar xuddi boshqa soha terminlari singari affiksatsiya, semantik, sintaktik, kompozitsiya kabi usullar hamda terminlashish, transterminlashish singari hodisalar bilan o'z va o'zlashgan birliklar hisobiga ko'payib boradi.

Iqtisodiyotga oid terminlar izohli o'quv lug'atini shakllantirishda, asosan, mavjud terminlarning xalq tilida eng faollari va aynan mazkur sohada eng ko'p qo'llaniladiganlaridan tanlab olindi. Sababi, maktab yoshidagi o'quvchilar jamiyatdan uzilmagan, ma'lum bir qatlam vakili sifatida shakllanib ulgurmagan, tabiiyki, ularning lisonidagi so'zlar ham aynan shu darajada bo'ladi. Shu sababli, o'quv izohli lug'ati uchun termin tanlash va saralashda ham aynan shu omilga alohida e'tibor qaratildi. Bundan tashqari, iqtisodiyotga oid terminlar innovatsion, bank-moliya, shuningdek, tadbirkorlik bilan uzviy aloqada. Natijada, ushbu terminlar sistemasida transtermin birliklari ham uchraydi. Ularning semasidagi ma'nolar ham, tabiiyki, turlicha bo'ladi, va albatta, alohida izoh talab etadi. Terminlar izohida aynan shu jihat alohida e'tiborga olingan. "O'quv lug'ati – ta'lim oluvchining yoshi, alohida qobiliyati, millati, ruhiy psixologik xususiyatlariga mos holda atrofdagi olamning lisoniy manzarasi bilan tanishtirish, tilni shunchaki

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

tushunish emas, balki undan professional darajada foydalanish ko'nikmasini hosil qilish uchun mo'ljallangan antroposentrik o'quv vositasidir" [Baxriddinova, 2021: 13].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'quv lug'atlari bugungi kunning asosiy talabi ekan, ularni shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Biz ham o'z o'quv lug'atimizda iqtisodiyotga oid bo'lgan lug'atlar doimiy o'zgarishda va yangilanishda bo'lishini, dunyo miqyosidagi kommunikatsiya tizimida muhim o'rin tutishini, bir qator sohalar bilan uzviy aloqada bo'lishini hisobga olgan holda terminlarning izohli lug'atini shakllantirdik. Bir so'z bilan aytganda, leksik minimumlar hisoblanuvchi o'quv lug'atlarining antroposentrik nuqtayi nazarni shakllanishdagi muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, har bir darslik va o'quv qo'llanmalari uchun maxsus o'quv lug'atlarini tayyorlash tilshunosligimiz oldidagi muhim va dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baxriddinova B. O'zbek o'quv lug'atchiligi:kecha, bugun, ertaga. Toshkent. Til va adabiyot ta'limi. 2021. 10-son.
2. Normamatov s. O'quv lug'atlari tarixidan. Toshkent. Til va adabiyot ta'limi. 2018. 7-son.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006.
4. Shirinova Y. O'zbek tili bank-moliya terminologiyasi. Toshkent. 2020.
5. To'raxo'jayeva A, Muxtoriy M. Transterminlashuv asosida yuzaga kelgan axborot-kommunikatsiya terminlari. Toshkent. Til va adabiyot ta'limi. 2018. 10-son.
6. Xashimov A, Madjidov Sh, Muminova N. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Toshkent. Sharq. 2014. – B. 187.

**IJTIMOIIY TARMOQDAGI YOZISHMALARDA SHAXS
PSIXOLOGIYASI VA NUTQ MUNOSABATINI TADQIQ QILISH
AHAMIYATI**

ABDURAYIMOVA Durdona

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti (Phd)

abdurayimovadurdona21@gmail.com

Annotatsiya: zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlaridan biri lingvistik ekspertizaning asosiy obyektlaridan biri ijtimoiy tarmoq yozishmalarida shaxs psixologiyasi va nutq munosabati hamda uning shakllari haqida fikr yuritilgan. Bu tushunchalarga tilshunos olimlarning bergan ta'riflari havola qilingan hamda ularni umumlashtirib xulosa berilgan. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoq yozishmalarida shaxs ruhiy holati hamda nutq munosabati tadqiqi lingvistik ekspertizda qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: psixolingvistik ekspertiza, psixolingvistika, ijtimoiy tarmoq yozishmalari, shaxs psixologiyasi, nutq munosabati.

Abstract: one of the main objects of linguistic expertise, one of the directions of modern linguistics, is thought about the psychology of the person and the relationship of speech and its forms in social network correspondence. Definitions given by linguists are referred to these concepts and a conclusion is given by summarizing them. At the same time, social network correspondence talks about the importance of the study of a person's mental state and attitude in linguistic expertise.

Keywords: psycholinguistic expertise, psycholinguistics, social network correspondence, personality psychology, speech attitude.

Shaxs psixologiyasi va nutq munosabati atamaları asrlar davomida olimlar, psixologlar hamda faylasuflar tomonidan ko'p tadqiq etilgan bo'lsa, "ijtimoiy tarmoqdagi yozishmalar" atamasi internetning jadallashuvi bilan o'zaro bog'liqdir. Ijtimoiy tarmoq yozishmalarida shaxs psixologiyasi va nutq munosabati tadqiqi XXI asrning dolzarb mavzularidan biri hisoblanishiga asosiy sabab turli shakldagi yozishmalarda inson ruhiyatining o'z aksini topishi va buning tadqiqi lingvistik ekspertiza jarayonida gumondorni aniqlash yoki konkret ayiblanuvchiga qo'llaniladigan jazo turlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

"Sud protsessida psixologik bilimlardan foydalanish, shuningdek, protsessual qonunchilikdagi o'zgarishlar, tergov organlarining allaqachon o'rnatilgan ekspertiza turlari natijalarini baholashga boshqacha yondashuvi sud amaliyotida og'zaki va yozma matnlarni har tomonlama psixologik va lingvistik ekspertizadan o'tkazish "taqdim etilayotgan obyektlarning (suhbatlarning audio va video yozuvlari, ommaviy axborot vositalarining yozma matnlari) xususiyatlarini bir tomonlama va xolisona o'rganishga yo'l qo'yimaslik imkonini beradi". [Torshina, 1990: 65] Har qanday ekspertik faoliyatda kompleksli yondashuv muhim hisoblanadi. Bunday yondashuv mutaxassis faoliyatida shaklan va mazmunan aniq,

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

ishonchli va to'liq bo'lgan mezonlarga asoslanishi shart. Nutqiy munosabat insonning nafaqat aqliy, balki ruhiy mahsuli bo'lganligi uchun matnni tilshunoslik, psixolingvistika va lingvopsixologiya kesishgan nuqtalarda o'rganish va tadqiq etish lozim.

Inson borki, vaziyatlarga qarab uning ruhiy holatida turli o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Shaxs ma'lum bir vaziyatda so'zlovchining nutqiga nisbatan qanday reaksiya berishi ichki va tashqi ko'plab omillar natijasida yuzaga keladi. Ma'lum bir mavzu uchun berilgan reaksiya shaxs hayotida kuchli ruhiy ahamiyatga ega bo'lishi yoki shaxsning ong ostida o'sha mavzuga nisbatan chuqur ruhiy salbiy yoki ijobiy jarayonlar yuz bergani bilan o'zaro chambarchas bog'liq. Ikki yoki bir necha shaxslar o'rtasidagi nutqiy faoliyat ularda o'zaro nutqiy munosabatni hosil qiladi, nutqiy munosabat esa shaxs psixologiyasini ochib berish bilan bir qatorda shaxsning bilim, ko'nikma va malakasini ham namoyon qiladi. Nutqiy faoliyatning psixologik mexanizmi o'tgan asrda bir qancha olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lsa, nutqiy munosabat haqida konkret mexanizmlar yo'q. Chunki nutqiy munosabat mexanizmlari yaratilmaganining sababi nutqiy munosabatda nutq mavzularining chegarasi konkret yo'q ekanligi. Shunday bo'lishiga qaramasdan hayotda dolzarb bo'lgan ijtimoiy nutqiy mavzular tadqiq etilmoqda.

“Lingvistik ekspertizaning eng muhim o'rganish obyektlaridan biri bu – shaxsiy yozishmalar hisoblanadi. Shu o'rinda “shaxsiy yozishma” degan tushunchaga aniqlik kiritib olsak, ko'pchilik “shaxsiy yozishma” deganda faqat ruchka yoki boshqa yozish qurollari bilan varaqqa yozilgan ikki kishi o'rtasidagi shaxsiy maktublarni tushunadi, yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali faqat ikki kishi o'rtasidagi yozishmalar tushuniladi, ammo rus olimi O.Y.Antonov lingvistik ekspertizada shaxsiy yozishmalarni o'rganar ekan, chatlar va messenjer yozishmadan tashqari audio yozishmalar va vedio yozishmalarni ham shaxsiy yozishmalarning tarkibiga kiritgan. [Antonov, 2018: 5–11] Demak, biz ularni shakliga ko'ra ham farqlaymiz. Ular quyidagicha guruhlariga ajratiladi:

- maktub shaklidagi shaxsiy yozishmalar;
- ijtimoiy tarmoqlardagi va SMS shaklidagi shaxsiy yozishmalar;
- audio shaklidagi shaxsiy yozishmalar;
- video shaklidagi shaxsiy yozishmalar”. [Abdurayimova, 2021: 336].

Shaxsiy yozishmalar tadqiqida shakliga ko'ra 4 guruhga bo'lib o'rganilgan bo'lsa, biz ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalarni shakliga ko'ra 3 guruhga bo'lib tadqiq etish lozim deb bilamiz. Ular quyidagilar:

- Ijtimoiy tarmoqlardagi chat shaklidagi yozishmalar;
- Audio shaklidagi yozishmalar;
- Video shaklidagi yozishmalar.

Shakliga qarab o'rganilganda uch guruhning ham o'ziga xos tomonlar mavjud. Agar chat shaklidagi yozishmalar tadqiq qilinayotgan bo'lsa, shaxs ruhiyatini aniqlash uchun nutqiy munosabat jarayonida, albatta, nutq mavzusi nimaga qaratilganligi hamda nutq jarayonida qanday so'zlardan foydalanilgani ham katta ahamiyatga ega. Bugungi kunning dolzarb mavzulari ijtimoiy

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

tarmoqlarda yoritib berilgandan so'ng insonlarning voqea-hodisaga bo'lgan munosabatlari kabilar ham bizning o'rganish obyektlarimizdan biri bo'lgani uchun shu mavzulardan biri ZO'RTV kanalida efirga uzatilgan Samarqanddagi shafqatsiz tarbiyachi haqida bo'lib, bu hodisaga nisbatan bildirilgan fikrlarga namunalar keltiramiz.

Рамазан ойига ду о киламиз
Болажонларимиз. ни нерв асабларини
бузилип куркок булип колишмасин Оллох
асрасин. У айолни Оллох газабига олсин.

Alloh jazosini bersin tirnoqqa zor bòlsin

Аллох жазосини берсин гудакларда нима
гунох конкнй жазоланиши керак 🙄🙄🙄



Bu yozilgan kommentariylarda voqeaga nisbatan insonlarning g'azabi aks etishi bilan birga, o'zbeklarga xos bo'lgan eng oliy jazo deb hisoblanadigan "Alloh jazosini bersin" jumlasidan foydalanilgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mavzuga nisbatan shaxs psixologiyasi va unga nisbatan reaksiya yoki nutqiy munosabatga ichki hamda tashqi omillarning ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Ichki va tashqi omillarning harakati bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Tashqi omillar ichki omillarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Nyutoning fizikaga oid qonuni psixologiyada ham ahamiyatli. Nuyutoning ta'kidlashicha, "agar jismga boshqa jismlar ta'sir etmasa, u doimiy bir xil tezlikda harakat qiladi yoki o'zining tinch holatini saqlaydi". [5] Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, agar inson ongiga tashqi omillar ta'sir qilmas ekan, ichki omillar yuzaga chiqmaydi. Inson ongini bir jism deb qaraydigan bo'lsak, o'zga jism ta'siri esa shaxslarga ta'sir etadigan voqea-hodisalardir. Har qanday mavzuning ta'sir etish kuchi shaxsning kognitiv bilimiga bog'liqdir.

Ijtimoiy tarmoq yozishmalarining ikkinchi turi audio shakldagi yozishmalar hisoblanadi. Bu shakldagi yozishmalarni o'rganish chat shaklidan biroz farq qiladi. Ruhiy holatni hamda nutqiy munosabatni qay tarzda bo'lishi yuqorida ta'kidlaganimizdek, nutq jarayonidagi mavzu va uning mohiyatiga bog'liq. Audio shaklidagi ijtimoiy tarmoq yozishmalarini tadqiq qilishda yozishmaning fonetik tizimiga alohida e'tibor qaratiladi. Yozishmaning fonetika tizimini o'rganayotganda urg'u, intonatsiya, ritmga diqqat qaratilishi lozim.

Ijtimoiy tarmoq yozishmalarining uchinchi turi video shaklida ham ayni ikkinchi turi kabi tadqiq qilish bilan birga, shaxsning yuz ifodasi, qo'l harakatlari kabilar ham e'tiborga olinadi, chunki bunday harakatlar ham shaxs psixologiyasiga salbiy yoki ijobiy ta'sir o'tkazishi bois ikki shaxs o'rtasidagi nutqiy munosabatni yaxshi yoki yomon tomonga o'zgartirishi mumkin.

"Shaxs psixologiyasi – bu shaxsni va turli individual jarayonlarni o'rganadigan psixologiya sohasi hisoblanadi. Shaxsning borliq, hayot, jamiyat va atrofdagilar bilan bo'lgan munosabatlarning yaxlit tasvirini yaratish uchun

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

urinishga asosiy e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, psixik taraqqiyotning dinamik tomonlari, individual farqlar o'rganiladi". [Baxriyeva, 2020: 5] Yuqoridagi ta'rifdan ma'lumki, shaxs psixologiyasi bilan bog'liq tadqiqotlar asrlar davomida olib borilgan, ammo ijtimoiy tarmoqdagi shaxs va real hayotdagi shaxslar har doim ham bir nisbatga ega bo'ladi, deya olmaymiz, chunki insonlar kundalik hayotda va ijtimoiy tarmoqlarda farqli taassurot qoldiradilar. Shaxsning ruhiy holati va uning nutqiy munosabatini o'rganish individual hisoblanadi. Har bir shaxsning o'ziga xos psixologiyasi va o'ziga xos nutqiy munosabat shakli bor. Har bir odamning barmoq izlari yer yuzidagi hech bir insonning barmoq izlar bilan ayni bo'lmagani singari ularning ruhiy holati va nutqiy munosabati ham bir-biridan o'ziga xos jihatlari bilan farq qiladi. Fikrlar o'xshash bo'lishi mumkin, ammo ayni bo'lmaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda shaxs psixologiyasini yuzaga chiqishi uchun, albatta, nutqiy munosabat bo'lishi lozim. Ruhiy holat qay tarzda namoyon bo'lishida shaxs temperamentlari katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, har bir shaxs ma'lum bir temperamentlar guruhiga kirishi aniqlangan. Bu guruhlariga kirgan shaxslarning qaysi temperament vakili ekanligini aniqlashda shaxslarning reaksiyasi e'tiborga olingan.

"Temperament – inson faoliyatida uning asab tizimi tipining namoyon bo'lishi. Temperament his-tuyg'ularning paydo bo'lish tezligi va kuchida hamda kishining umumiy harakatchanligida namoyon bo'ladigan individual-psixologik xususiyatlarining majmuyidir". [Baxriyeva, 2020: 5]

Har bir temperament egasining individual dinamik xususiyatlar bor. Temperament shaxsning hayoti davomida yoki hayotning ma'lum davrida o'zgarmas va barqaror bo'lishi, temperamentning ma'lum xususiyatlari nutqiy munosabatda namoyon bo'lishi mumkin. Bir shaxs bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq temperament egasi bo'la oladi, ammo faqat bir temperament xususiyatlari ustunlik qiladi.

"Temperamentning xususiyatlari deganda, bir inson psixik faoliyati tezligini belgilovchi psixikaning barqaror individual xususiyatlarini tushunamiz. Bu xususiyatlar turli mazmundagi faoliyatlarda, motivlarda va maqsadlarda nisbatan o'zgarmaydi, hamda temperament tipini ifodalovchi tuzilmani tashqil qiladi". [Baxriyeva, 2020: 5]

Ijtimoiy tarmoqdagi yozishmalarda shaxs psixologiyasiga ta'sir etadigan kuch bu dastlabki nutqning boshlanishi bo'lsa, keying bosqich ikki yoki ko'p shaxslarning nutqiy munosabati hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, ijtimoiy tarmoqdagi yozishmalarda shaxs psixologiyasi va nutq munosabatini o'rganish sud jarayoni yoki sudgacha bo'lgan jarayonda muhim hisoblanadi, chunki shaxs psixologiyasiga ta'sir ko'rsatgan omillarning tadqiqi yoki gumondor deb hisoblangan shaxs qaysi temperament vakili ekani aniqlashda ahamiyatli. Shaxs psixologiyasini o'rganish sodir etilgan jinoyatlarda jinoyatchini aniqlash hamda sodir etilishi kutilgan jinoyatlarning oldini olishda katta ahamiyatga ega. Chunki shaxsning nutqiy munosabati uning ruhiy holati qanday va qaysi temperament egasi ekanligi namoyon bo'lib, shaxsning taxminiy portreti chiziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurayimova D. S. Lingvistik ekspertizada shaxsiy yozishmalarning o'rganilishi va uning ahamiyati. // "O'zbek milliy va ta'limiy korpuslarini yaratishning nazariy hamda amaliy masalalari" / Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya / Elektron nashr /ebook. –Toshkent: ToshDO'TAU, 07.05.2021. – B.336.
2. Baxriyeva N.A. Shaxs psixologiyasi. O'quv-uslubiy majmua. –Buxoro: 2020. –B.5.
3. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/12303-temperament>, [30.04. 2023]
4. Трошина Н.Н. Стилистические параметры текстов массовой коммуникации и реализация коммуникативной стратегии субъекта речевого воздействия // Речевое воздействие в сфере массовой коммуникации. – М.: Наука, 1990. – С. 62-68.
5. <https://multiurok.ru/files/fizika-7-sinf-nyuton-qonunlari-1-2-3-qonunlar-taqd.html>. [25:04.2023]

BO'RIYEV Islom

ToshDO'TAU tayanch doktoranti

islomboriyev122@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqola o'zbek tilida bir va ko'p ma'noli iboralarning tavsifiga bag'ishlangan bo'lib, unda bir va ko'p ma'noli iboralarning ma'no taraqqiyoti, ular tarkibidagi so'zlarning semik tahlili, polisemantik iboralarning, omonim iboralardan farqi berib o'tilgan. Shuningdek, ayrim bir va ko'p ma'noli iboralar misol tariqasida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: monosemik iboralar, polisemik iboralar, iboralarning semik tahlili, sema.

Annotation: this article is devoted to the description of single- and multiple-meaning expressions in the Uzbek language. The difference between the expressions is given. Also, some simple and multi-meaning phrases are analyzed as examples.

Key words: monosemic phrases, polysemic phrases, semitic analysis of phrases, sema.

Kirish

O'zbek tilida iboralar emotsional-ekspressivlikni ta'minlovchi lisoniy birliklardan biri hisoblanadi. Iboralar lisoniy jihatdan tadqiq etilganda boshqa til birliklaridan grammatik, semantik jihatdan farqlash kerak bo'ladi. Ayniqsa, o'zbek tilidagi iboralarning semantikasi juda murakkab hisoblanadi, chunki ibora tarkibidagi har bir so'zning lug'aviy ma'nosi hamda uning taraqqiyotini semik tahlil qilish orqali bu hodisalarni aniqroq tasavvur qilish mumkin.

Adabiyotlar tahlili

Frazeologiya dastlab tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida XX asrning birinchi yarmida rus tilshunosligida paydo bo'lgan. Frazeologiyaning shakllanishida A.A.Potebnya, A.A.Shaxmatov, I.I.Sreznevskiylarning asarlari muhim manbaa hisoblanadi. Amerika va G'arbiy Yevropa tilshunosligida frazeologiya sohasi tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida ajratilmaydi.

O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasi o'tgan asrning 50-yillaridan boshlanib, bu sohadagi ilmiy tadqiqotlar hozir ham davom etmoqda. O'zbek tilshunosligida frazeologiya turli aspektlarda o'rganilmoqda. Jumladan, frazeologik birliklarning etimologiyasi, shakllanishi, taraqqiyoti, o'ziga xos belgilari, strukturasi, grammatik hamda semantik xususiyatlari, ayrim tildagi iboralar bilan qiyoslanishi kabi masalalar tadqiq qilingan. O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasining shakllanishida Sh.Rahmatullayev, A.Mamatov, B.Yo'ldoshev, Y.Pinxasovlarning asarlari muhim o'rin tutadi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki o'zbek tilshunosligida iboralarning monosemantik (bir ma'noli) va polisemantik (ko'p ma'noli) jihatlari boshqa

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

xususiyatlarga qaraganda yetrlicha o'rganilmagan. Sh.Rahmatullayev iboralarning polisemiyasi haqida "Nutqimiz ko'rki asarida" shunday fikr bildirgan "frazologik polisemiya deyilganda iboraning bittadan ortiq lug'aviy ma'no anglatishi" [Rahmatullayev, 1970; 48] tushuniladi. B.Yo'ldoshev esa "iboralarning ko'p ma'noliligini faqat lug'atlar asosida belgilash to'g'ri bo'lmaydi" [Yo'ldoshev, 1998; 62] kabi asosli fikrlarni bildirib o'tishgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqola o'zbek tilida bir va ko'p ma'noli iboralarning tavsifida tarkibidagi so'zlarning muhim omil ekanligi hamda shu masalaga doir ayrim iboralarning semik tahlili haqida so'z yuritiladi.

Tahlillar va natijalar

Tilshunoslikda monosemiya deyilganda leksemaning faqat bir ma'noda qo'llanilishi tushuniladi. Masalan, abadiy leksemasi "mangu, doimiy" ma'nosini, guruch "sholidan oqlab olinadigan oshlik don" ma'nosini ifodalaydi [Jamolxonov, 2013; 264]. Mazkur leksemalarning boshqa ma'nolari yo'q. Monosemiya hodisasi ko'proq terminlar (atamalar), neologizmlar (yangi paydo bo'lgan so'zlar) yoki boshqa tildan o'zlashtirilgan leksemalarning dastlabki ishlatilish davriga xosdir. Shuningdek atoqli otlar ham shartli ravishda bir ma'noli leksemlar qatoriga kiradi [Tursunov, Muxtorov, Rahmatullayev, 1992; 80]. Polisemiya esa bir leksemaning bir necha ma'no ifodalashidir. Masalan, yig'lamoq 1) "ko'z yoshi to'kmoq (g'am, alam, og'riq va shu kabilar sababli)" Bola hanuz chirqirab yig'lar edi. (A.Qahhor "Qo'shchinor chiroqlari"); 2) ko'chma: "nolimoq, nolish qilmoq" Uzoq-uzoqlarda muzika yig'lardi (Sh.Rashidov "Bo'rondan kuchli"). Leksemalarda ko'p ma'nolilik (polisemiya) bir leksemaning semantik tarkibidagi leksik ma'nolar orasida mazmuniy bog'lanish borligiga tayanadi, ayni shu xususiyati bilan omonimiyadan farqlanadi [Jamolxonov, 2013: 265].

Lisoniy birlik sifatida iboralarda ham leksemalar kabi monosemiya hamda polisemiya hodisasi uchraydi. Iboralarda monosemiya (bir ma'nolilik) leksemalar kabi faqat bitta lug'aviy ma'no bildirishi tushuniladi. Masalan, *jonini fido* qilmoq iborasi "o'zini qurbon qilishga ham tayyor bo'lmoq" ma'nosini, *ko'ngli o'ksidi* iborasi "ma'yuslanmoq, o'ksinmoq" ma'nosini ifodalab faqat bir ma'noda ishlatiladi. Polisemantik (ko'p ma'noli) iboralar bir necha ma'no ifodalash xususiyatiga ega. Buni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin (1-jadval):

1-jadval

1.	Ko'ngli aynidi	1) "organizimi qabul qilmagani tufayli behuzur bo'lmoq"	Bektemir "kabob"ni ko'p pishirdi, ko'ngli ayniguncha yedi. (Oybek, "Quyosh qoraymas")
----	-----------------------	---	---

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

		2) “ovqat” dan boshqa narsadan) “tabiatiga yoqmagani tufayli ijirg'anmoq”	Karim bilan Oybek shuncha maqtadiki, eshitsangiz, ko'nglingiz aynib ketadi. (Sh.Rashidov “Bo'rondan kuchli”)
2.	Barmog'in i tishlamoq	1) “hech narsa qilolmay, natijaga erisholmay qoldi”	Dushmanlar, raqiblar barmoqlarini tishlab qolsalar, maqsadga yetishgan bo'lardim. (Oybek “Nur qidirib”)
		2) “afsuslanmoq”	Zaynabga salom aytib, yigit velosipedga mindi. Komila allanechuk o'ksib barmog'ini tishlab qoldi. (Oybek “Oltin vodiya shabadalar”)
3.	Boshi aylandi	1) “behud bo'lmoq, muvozanatni yo'qotmoq” (organizmning kasallangan holati, bunda go'yo atrofdagi hamma narsa aylanib ketayotgandek tuyiladi)	Uchinchi ryumkani bo'shatgandan keyin, Saodatning boshi aylanib, ko'zi tinayotgandek bo'ldi. (I.Rahim “Ixlos”)
		2) “esankiramoq”	...muloyim qarab qo'yishlarini, ...jilmayib gapirishlarini sezardim, buning hammasidan boshim aylanardi. (O.Yoqubov “Muqaddas”)
4.	Ko'z tikmoq	1) “tikilib qaramoq”	Gavhar bu odamlarga ko'z tikib borardi. Ana u kassaning oldida turgan kim? (P.Qodirov “Uch ildiz”)
		2) “umidvor bo'lib qaramoq”	Ha, ona o'shanda ham ovqati qozonda qolib, mijja qoqmay, qizining kelishiga ko'z tikib o'tirardi. (R.Fayziy “Cho'lga

O‘zbek tili milliy va ta’limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

			bahor keldi”)
5.	Oyoq osti bo‘lmoq	1) “poymol bo‘ldi, tahqirlandi”	Bilaman. Tajriba uchun ashqol-dashqolini ko‘tarib kelishadi, g‘o‘zani oyoq osti qilishlari mumkin. (Oybek “Oltin vodiya shabadalar”)
		2) “xor bo‘lmoq, xo‘rlanmoq”	Ammo odamni muncha oyoq osti qilmasa! (H.Nazir “Odamning qadri”)

O‘zbek tilida qo‘llaniluvchi iboralarining ko‘p qismini bir ma’noli iboralar tashkil etadi. Ko‘p ma’nolilik esa iboralarining taxminan 15 foiziga xos [Rahmatullayev, 1970: 48]. Darslik va qo‘llanmalarda ham polisemantik iboralarga nisbatan kam namunalar keltiriladi.

Iboralarda leksik polisemiyada bo‘lganidek bosh ma’no va hosila ma’no farq qilinadi. Leksik polisemiyada bosh ma’no to‘g‘ri ma’noga, hosila ma’no esa ko‘chma ma’noga teng, lekin iboralarda bosh ma’no ham, hosila ma’no ham ko‘chma ma’noda bo‘ladi, chunki iboralar tarkibidagi so‘zlar har doim ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi. Bu esa iboralarining murakkab semik tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Iboralarda lug‘aviy ma’noni va uning taraqqiyotini yuqorida ta’kidlangandek, semik tahlil usuli bilan o‘rganish bu jarayonni aniqroq tasavvur qilishga yordam beradi. Masalan, ko‘ngli aynidi iborasi ikki ma’noli iboradir. Bu iboraning birinchi ma’nosi uchun semalarni quyidagicha belgilash mumkin: mazkur ibora fe‘l ibora bo‘lganligi sababli, avvalo, “ta’sir ko‘rsat” semasi belgilanadi. Ta’sir ko‘rsatish ijobiy yoki salbiy bo‘ladi, ta’sir etuvchi jism, aniqrog‘i, ovqat; ta’sir kishi organizimida, aniqrog‘i ovqatlanish a’zolarida namoyon bo‘ladi. Ovqatlanish a’zolariga ovqatning ta’siri jismoniy bo‘ladi. Demak, ajratilgan semalar yig‘imi quyidagicha tartiblanadi: ovqatlanish a’zolari+jismoniy+salbiy+ta’sir ko‘rsat. Ana shu ma’nolar asosida bu iboraning bosh ma’nosi “ovqatlanish a’zolari qabul qilmagani tufayli behuzur bo‘l” ta’riflanadi.

Ko‘ngli aynidi iborasining ikkinchi ma’nosi birinchi ma’nosidan o‘sib chiqqan. Yangi ma’no bu iborani ovqatdan boshqa narsaga ko‘chirib ishlatish natijasida yuzaga kelgan. Mazkur ko‘chirishda dastlabki ma’no tarkibidagi “salbiy”, “ta’sir ko‘rsat” semalari saqlanadi; “ovqatlanish a’zolari (organizm)” semasi “hissiyot” semasiga, shuningdek, “jismoniy” semasi “ruhiy” semasiga almashadi. Natijada semalar yig‘imi quyidagicha voqelanadi: hissiyot+ruhiy+salbiy+ta’sir ko‘rsat. Ana shu semalar yig‘imi asosida bu lug‘aviy ma’no “tabiatiga yoqmagani tufayli ijirg‘an” deb ta’riflanadi [Rahmatullayev, 2006: 437].

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Iboraning ma'nolari xuddi leksemalarda bo'lganidek uning qo'shimcha hosila ma'nosi nutqda namoyon bo'ladi. Ko'p ma'noli iboraning ma'nolari nutqda o'zaro lug'aviy ma'nolaridan tashqari grammatik tabiati ham bir-biridan farq qilishi mumkin [Rahmatullayev, 2006: 437]. Masalan, bosh suq iborasi uch xil ma'noni bildiradi:

1) *gavdasi tashqarida qolib, boshini tiqqan holda qaramoq*;

Qodirov chaylaga bosh suqib, noz-ne'matlar to'la dasturxonga ko'z yugurtirdi. (Sh.Rashidov "Bo'rondan kuchli")

2) *kirmoq*;

...trestga, albatta, kiring, plan bo'limiga bir bosh suqib, o'rtoq Xolmat Yunusovichga ... salom deyishni unutmang. (A.Muxtor "Tug'ilish")

3) *aralashmoq*;

Bu ishga bosh suqib, nimaga erishmoqchisan, o'g'lim.

Ko'rinadiki, bu iboraning ma'nolari nutqda bir-biridan farqli, lekin grammatik tabiati bir xil. Keyingi misolga e'tibor qilaylik: payiga tush iborasining nutqda ma'nolari ham, grammatik tabiati ham farqli: ushbu ibora "zimdan yurib butun xatti-harakatini ta'qib qilmoq" va "manfaatdor bo'lgan holda berilib harakat qilmoq" ma'nolarini anglatadi. Har ikkala ma'noda ham harakatni kishi bajaradi, lekin harakat qaratilgan predmet boshqa-boshqa bo'ladi: dastlabki ma'nosida kishiga, ikkinchi ma'nosida esa narsaga qaratilgan. Agar qaratqich kelishigida kishini bildiradigan so'z kelsa, dastlabki ma'noda har uch shaxs-son nisbatlovchisini ishlatish mumkin; qaratqich kelishigida narsani anglatadigan so'z kelganda esa faqat III shaxs nisbatlovchisi qatnashadi. Natijada bu ikkala ma'noning grammatik tabiati farqlanib qolgan. Dastlabki ma'nosida payidan tushdim, payidan tushding, payidan tushdi, payingdan tushdim, payingdan tushdi, payimdan tushding, payimdan tushdi kabi shakllarda ishlatilsa, ikkinchi ma'nosida shu shakllarning uchtasidagina keladi: payidan tushdim, payidan tushding, payidan tushdi.

Leksemalarning nutqda semantik bog'lanishidagi shart-sharoitlar ya'ni leksemalar nutqda bir-biriga bog'lanib birikma hosil qilayotganda semantik jihatdan mos bo'lishi kerak. Masalan, oyna so'zining ma'nosi sinmoq so'zining ma'nosiga mos. Ammo randalamoq, uzilmoq so'zlariga mos emas. Shuning uchun nutqda ma'nosi mos bo'lmagan leksemalarni bog'lash xato bo'ladi. Xuddi shunday iboralar ham nutqda semantik bog'lanishda bir-biriga ma'noviy jihatidan mos bo'lishi kerak. Masalan, ko'ngli bor iborasi ijobiy yoki betaraf ish yoki narsani anglatadigan leksemalar bilan ishlatiladi: Universitetga o'qishga kirishga ko'ngli bor kabi. Lekin Uning janjallashishga ko'ngli bor kabi bog'lab ishlatilmaydi: chunki janjal leksemasi anglatadigan voqelik salbiy hodisa hisoblanadi.

Ko'p ma'noli iboralar tahlil qilinganda ularning hosil bo'lishi, ko'pincha o'xshashlikka asoslanishi kuzatiladi. Ayniqsa, biz ko'rib o'tayotgan ko'p ma'noli iboralarda: *boshlarini bir joyga qovushtirdi* – 1) hamjihat bo'lib birlashtirdi 2) oila qurdirdi. *boshi aylandi* – 1) behud bo'ldi, muvozanatini yo'qotdi 2) esankiradi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, omonim iboralar bilan ko'p ma'noli iboralar shaklan bir-biriga o'xshash bo'lganligi sababli ularni farqlash qiyinchilik

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

tug'diradi. Ammo nutqda ularning ma'noviy tafovutlari sezilib turadi. Qolaversa, polisemantik iboralarning ma'no nozikliklari ko'pincha qo'llovchilar tomonidan maqsadli ishlatilsa-da tinglovchi yoki o'quvchilar tomonidan bir xil ma'noda tushunilaveradi.

Ta'kidlab o'tilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, o'zbek tilida iboralarni alohida o'rganib chiqish kerakligi sezilib turibdi. O'zbek tilining izohli lug'ati, shuningdek, iboralarning izohli lug'atlarida keltirilgan ko'p ma'noli iboralarning imkoniyatlari to'la ochib berilmagan.

Xulosalar

Iboralarning bir ma'noli yoki ko'p ma'noli ekanligini aniqlashda birinchi navbatda iboraning tarkibida qatnashayotgan so'zlarning (leksema emas) ma'nosini semik jihatdan tahlil qilinishi, ko'p ma'noli iboralar tahlil qilinayotganda aynan nima asosda (o'xshashlik, metonimiya ... kabi) hosil bo'layotganligi aniqlanishi kerak.

Ko'p ma'noli iboralar o'zbek tilining izohli lug'ati, shuningdek, iboralar uchun yaratilayotgan maxsus lug'atlarga kiritilayotganda illyustrativ misollarni aynan yaratilgan yoki yaratilayotgan asarlardan emas nutqda qo'llanilishini ham e'tiborga olib misollar kiritilsa, bu iboralarning imkoniyati to'liqroq ochilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko'rki. – Toshkent: Fan, 1970.
2. Yo'ldoshev B. Frazologik uslubiyat asoslari. – Samarqand, 1998.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2013.
4. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: O'zbekiston, 1992.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006.

**YANGI AVLOD SINONIMLAR ELEKTRON O'QUV LUG'ATINI
TUZISHNING LINGVISTIK TOMONI**

NURBOBOYEVA Marjona

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona
tili va adabiyot ta'limi fakulteti 4-kurs talabasi*

marjonanurboboyeva@gmail.com

Annotatsiya: mazkur tezisdagi ona tili ta'limida o'quv lug'atlaridan foydalanishning ahamiyati, o'quv lug'atchiligidagi zamonaviy elektron o'quv lug'atlarining ahamiyati, yangi avlod lug'atlarining yaratilish asoslari, sinonimlar elektron o'quv lug'ati uchun birliklar tanlashning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: sinonimlar, yangi avlod lug'atlari, elektron o'quv lug'at, antroposentrik lug'atlar.

Abstract: in this thesis, the importance of using educational dictionaries in the education of the mother tongue, the importance of modern electronic educational dictionaries in educational vocabulary, the foundations of the creation of new generation dictionaries, units for the electronic educational dictionary of synonyms there was talk about the specific features of the selection.

Keywords: synonyms, new generation dictionaries, e-learning dictionary, anthropocentric dictionaries.

Ma'lumki, ona tili ta'limida o'quv lug'atlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning lug'at boyligini o'stiradi. Axborot texnologiyalarning rivojlanishi, gadjetlarning ijtimoiy hayotga kirib kelishi ta'limni modernizatsiya qilishni taqozo etmoqda. Xususan, zamonaviy leksikografiya va lingvodiaktikaning oldiga yangidan yangi vazifalarni qo'yimoqda. Jumladan, internet va gadjetlarning imkoniyatlaridan foydalanib, elektron o'quv lug'atlarini yaratishini talab etmoqda.

Amaliy tilshunoslikning vazifalardan biri sifatida leksikografiya sohasini yanada kengaytirish, ta'limda elektron o'quv lug'atlarini tatbiq etishni keltirishimiz mumkin. O'quv lug'atchiligi tarixi, uning taraqqiyot bosqichlari yangi avlod lug'atlarini tuzish qonuniyatlari zamonaviy yangi turdagi o'quv lug'atlarni yaratishni zaruriyatga aylantirdi. Zamonaviy tipdagi yangi avlod lug'atlarini yaratish sohada bir qator yangiliklar yaratish imkoniyatini berdi. Tilshunos olimlar jahon lug'atchiligining nodir namunasi hisoblangan ilk leksikografik maxsulotlarni o'quv lug'ati nuqtayi nazaridan tatbiq etish orqali leksikografiya sohasida bir pog'onaga ko'tarilishga erishmoqda. Innovatsion leksikografik konsepsiyalarni ishlab chiqish va ular asosida yangi turdagi o'quv lug'atlarini yaratish va o'quv lug'atlarini axborot texnologiyalarni funksional imkoniyatlardan foydalangan holda elektronlashtirish onlayn-lug'atlar, o'quv-tezaurarlar, milliy korpuslar, kompleks o'quv lug'atlarini yaratish orqali bu maqsadni amalga oshirish mumkin.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Hozirgi kunda jahonning rivojlangan davlatlari AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya Rossiya kabi ilg'or mamlakatlarida o'quv lug'atlarining yangi avlodlarini yaratish, mavjud lug'atlarini elektronlashtirishning nazariy va amaliy masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Umumiy o'rta ta'limda o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish, ularga milliy o'zligini tanitish, ongida ma'naviy-ma'rifiy inqilob hosil qilish, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning rang-barang jabhalarida, muloqot va munosabatning barcha turida o'zbek tilidan bemalol, erkin, samarali, to'g'ri foydalana olishi, uning cheksiz imkoniyatidan bahramand bo'lishi, nutq odobi va nutqiy taktika sirlarini egallash bilan bog'liq zaruriy ko'nikmalarni shakllantirish vazifasi ona tili ta'limi zimmasidadir. Zero, ona tili ta'limining bosh maqsadi ijodiy tafakkur sohiblarini yetishtirish, har bir maktab bitiruvchisining o'z ona tilida tafakkur mahsulini yozma va og'zaki usullarda, nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri va ravon ifodalash, o'zgalar fikrini to'g'ri qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish, malakalarini hosil qilishdan iboratdir. Pragmatik yondashuv asosida yaratilgan ona tili darsliklari bilan ishlash darslikka yordamchi vositalarni kengaytirish, lug'at va turli axborot banklarini yaratishga bo'lgan talabni yanada oshirdi. Umumiy ta'limning davlat ta'lim standartida ona tili o'qitishning zaruriy vositalari sirasiga darslik bilan bir qatorda axborot banki sifatida lug'atlar ham kiritildi. "Tilshunosligimizda yangi "o'quv lug'ati" termini paydo bo'lib, ommalasha boshladi. Yuqorida aytilganidek, lug'atchilik tarixi bo'yicha olib borilgan izlanishlar ilk lug'at namunalari uchun yaratilganligi, barcha umumiy lug'atlar maktab lug'atlarining takomillashgan ko'rinishi ekanligini tasdiqlamoqda. Lug'atlarning til o'rgatish va o'rganish jarayonida yuqori samara berishi, natijalarning kutilganidan ortiq bo'lishi – o'quv lug'atchiligi qamrovining yanada kengayishiga sabab bo'ldi. Asosiy vazifasi begona tillarni o'qitish yoki ma'nosi tushunarsiz so'zlarni izohlash bo'lgan lug'atlar XX asr boshlaridan ona tili o'qitishning muhim vositasi sifatida e'tirof etila boshlandi". [Bahriddinova, 2020: 44] Shuningdek, "zamonaviy maktab uchun maxsus lug'at yaratish harakatlarining paydo bo'lishi ta'limga ilg'or pedagogik texnologiyalarni kiritish, xususan, retroskopik ta'limdan verbal kognitiv ta'lim usuliga o'tish davriga to'g'ri keladi. Ma'lumki, kognitiv ta'lim retroskopik ta'limdan yordamchi o'quv materialining darslik materialidan bir necha marotaba kattaligi, o'quvchining o'z ustida mustaqil ishlashi, zaruriy ma'lumotlarni axborot banki – lug'atlar, qomuslar, ma'lumotnomalar kabi ona tili xazinalaridan izlashi bilan farqlanadi". [Bahriddinova, 2020: 80]. Darhaqiqat, zamonaviy gadtejlarning imkoniyatlaridan foydalanib, ayngi avlod elektron lug'atlarini yaratish ona tili ta'limining sifatini bir pag'ona ko'taradi.

O'quvchilar uchun zarur bo'lgan lug'atlar yaratilmas ekan, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, og'zaki va yozma nutqni o'stirish vositasi bo'lgan joriy darsliklar o'z vazifasini to'la bajara olmaydi. Shu bilan birgalikda, ona tili bo'yicha beriladigan mashq va topshiriqlar darslikning yordamchi vositasi bo'lgan lug'atlar, qomuslar, ma'lumotnomalar, matnlar to'plami bilan ishlashga mo'ljallansa, faqat algoritmik yo'sindagi, izlanishga yo'naltiruvchi mashq va topshiriqlardan iborat darslik hajmi

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

bir necha baravar qisqaradi. Bu esa o'z-o'zidan unga sarflanayotgan davlat mablag'ining ham shunchalik tejalishiga olib keladi. O'quv lug'atlariga bo'lgan talabning oshayotgani ma'lum. Turmush tarzi, hayot sur'atlarining o'zgarishi birinchi navbatda tilda aks etadi. Bugun yangi tushunchalar, nomlar paydo bo'ldi, ichki va tashqi imkoniyatlar asosida tilimiz leksikasi keskin boyidi; Ko'pgina tushunchalar iqtisodiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy jihatdan eskirdi, talaygina so'zlar iste'moldan chiqib bugungi avlod uchun izohtalab bo'lib qoldi. Bundan 15-20 yil avval maktab darsliklarida lug'at deyarli ilova qilinmas edi. Endilikda har bir maktab, litsey, kasb-hunar kolleji uchun yaratilgan darsliklarning so'ngida, hatto ba'zan har bir bo'lim oxirida lug'atlarga ko'zimiz tushadi. Bu lug'atlarning tabiiy ravishda ta'limning tarkibiy qismiga aylanib bo'lganligidan dalolat bermoqda. Nutqimizdagi yangi kirib kelgan so'zlarning izohini keltirish bilan birga uning ma'nodoshlarini ham keltirib o'tish orqali o'quvchilar nutq sharoitiga moslagan holda muloqotni tashkil etadilar. Bu esa nutqning ko'rkamligini hamda rang-barangligini ta'minlaydi. Ushbu yuqorida aytgan o'quv lug'atlarni elekton shaklga o'tkazish orqali o'quvchi va o'qituvchilarga yanada qulaylik yaratgan bo'lamiz. Sababi bugungi kun o'quvchilar elekton darsliklar, elekton shakldagi lug'atlardan foydalanishni qulay hisoblashadi. Bugungi kunda nafaqat, ona tili fanidan, balki boshqa fanlardan ham umumiy (maktablar uchun, akademik litsey, kasb-hunar kolejlari uchun), mavzuviy o'quv lug'atlariga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda. 2006-2009 yillar oralig'ida "Yangi asr avlodi" nashriyoti tomonidan yigirmaga yaqin o'quv lug'atlarining tuzuvchilar hisobidan nashr etildi. Ba'zilarining ehtiyoj tufayli Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ma'lum bir adadda qayta nashr qilinganligi ham yuqoridagi fikrni isbotlaydi. Jumladan, B.M.Mengliyev va B.M.Bahriddinovalarning "O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati" (2007-2009), O.Shukurov, B.Boymatovalarning "O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati" (2007-2009) yaratilishi o'quv lug'atlarini ahamiyati yuqoriligidan dalolat beradi. Dastlab sharq lug'atchiligida ilk sinonim lug'atlar notiqlikka o'rgatish, so'zning nozik ma'no farqlarini anglash va ulardan og'zaki nutqda o'ririqli foydalanish uchun xizmat qilgan. Azim Hojiyev tomonidan 1974-yilda "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" tuzilgan. Ushbu lug'at hozirgi kunda yaratilayotgan yangi avlod sinonimlar lug'ati uchun muhim manba. Lug'at hozirgi o'zbek tili uchun xarakterli bo'lgan sinonimik qatorlarni o'z ichiga olgan. Unda faqat leksik sinonimlarga kiritilgan. Mustaqil va yordamchi so'zlardagi o'zaro ma'nodosh birliklar keltirilgan. Lug'atda sinonimik qator hamda ma'nodosh birliklarning umumiy, xususiy ma'nolari berilgan. Antroposentrik lug'atlarda asosiy urg'u inson ongida tilni yoritish, undan to'g'ri va samarali foydalana olishga yordam berishdir. Lingvosentrik lug'atlarda til asosiy markazda bo'lib, asosiy vazifasi ushbu tildagi faktlarni yoritish hisoblanadi. Hozirda o'quv lug'atlari antroposentrik xususiyatga ega bo'lgan lug'atlar tipiga kiritilmoqda. O'quv lug'atlari ta'lim sohasi uchun mo'ljallangan bo'lib, bu turdagi lug'atlar o'quvchilarga nafaqat so'z boyligini kuchaytirish, nutqiy yoki yozma savodxonligini oshirish, balki ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stirish va dunyoqarashini kengaytirish uchun ham xizmat qiladi. Sinonimlar o'quv lug'atida

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

joy olgan birliklarni tanlashda muhim bo'lgan jihatlardan shuni aytish mumkinki, sinonimlar qatoridagi birliklar nutqiy sharoitga mos kelishi bilan birgalikda o'quvchining tilni bilish darajasi hamda imkoniyatlarini ham hisobga olishi lozim. Chunki biz yaratmoqchi bo'lgan sinonimlar o'quv lug'atlari, avvalo, o'quvchi uchundir. Maktab darsliklari o'quvchining yoshi, uning egallagan bilimlari shu bilan birgalikda egallashi lozim bo'lgan lingvistik bilimlari asosida yaratiladi. Biz yaratmoqchi bo'lgan sinonimlar o'quv lug'ati ham o'quvchining so'zlarni bilish, ularni farqlay olish va nutqiy sharoitda qo'llashini ta'min etishi kerak. Shuning uchun ham til birliklari tanlashda ahamiyatimiz markazida aynan shu masalalarni ko'rib chiqishga harakat qildik.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yaratilayotgan darsliklarda o'quvchi uchun lug'atlar kiritilmasa va uning izohini anglatuvchi o'quv lug'atlar soni ko'paymasa, ijodiy tafakkuri barkamol bo'lgan avlodlar yetishib chiqishi kamayadi. Yangi avlod sinonimlar elektron o'quv lug'atlari o'quvchining fanni o'zlashtirishini osonlashtiradi. Nutqiy muloqotni to'g'ri tashkil etishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdiraimov Sh. Sinonimlar o'quv lug'atini takomillashtirish zarurati. "O'zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari" xalqaro konferensiyasi materiallari (2021, № 01). 377-381-b.
2. Bahriddinova B. "O'quv lug'ati" va "o'quv lug'atchiligi tushunchalaring paydo bo'lish tarixiga doir // QarDU xabarlari. Ilmiy nazariy uslubiy jurnal. – Qarshi, – 2020, 2-son. – B .76-83
3. Bahriddinova B. O'zbek tilida o'quv lug'ati tillarini ajratish muammolari //Ilm ham jamiyat. Ilmiy – metodikalik jurnal. – Nukus. – 2020. – B.42-44
4. Bahriddinova B. Ona tili darsliklarining yangi avlodi: muammo va yechimlar // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2017-yil, 10-son. – B. 21-23
5. Bahriddinova B. O'quv lug'atchiligining tarixiy ildizlari O'zbek milliy leksikografiyasining dolzarb muammolari Respublika ilmiy nazariy anjumani materiallari . – Toshkent, Turonzamin ziyo. – 2017. B – 38-41.
6. Mirxodirova G. O'zbek tilining sinonim so'zlar o'quv lug'atini tuzishning lingvistik asoslari: filol.fan.bo'y.fal.doktori. ...diss. – Qarshi, 2022. – 144 b.
7. Saidova F. Lug'atlarda sinonim leksemalar talqini: filol.fan.bo'y.fal.doktori. ...diss. – Guliston, 2023. – 139.

HAMROYEVA Shahlo,

ToshDO'TAU dotsenti, filologiya fanlari doktori

ALIMBEKOVA Mavjuda

ToshDO'TAU tayanch doktoranti,

alimbekovamavjuda18@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid adabiyoti namoyondalari asarlarining til xususiyati, leksikasi, boshqa davr tillaridan farqli jihatlari o'rganildi. Shuningdek, milliy korpusda jadid adabiyoti subkorpusini yaratishning ahamiyati izohlandi.

Kalit so'zlar: jadid adabiyoti, umumturkiy leksika, o'z qatlam, o'zlashma qatlam, purizm, korpus, subkorpus.

Abstract. In this article, the language characteristics, lexis, and other aspects of the works of jadid literature representatives were studied. Also, it was determined that the creation of jadid literature subcorpus in the national corpus is important.

Key words: jadid literature, turkish lexicon, native layer, loanwords, purism, corpus, subcorpus.

Millat ravnaqi, erki uchun xizmat qilgan, xalqni ma'rifatli qilishga intilgan, shu yo'lda jonlarini fido qilgan millatparvar, ma'rifatparvar jadid namoyondalari milliy til masalasi, tilning sofliğini asrash masalalariga jiddiy e'tibor berganlar. Jadidlar o'zbek xalqini yagona millat sifatida shakllantirishni o'zlarining asosiy maqsadlari deb bilishgan. Xalqning millat sifatida mavjudligi, birligi uchun uning hududiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy birliklari bilan bir qatorda uning yagona tili shakllangan bo'lishi lozim. Jadidlar shuni yaxshi anglab yetganligi uchun milliy til masalasiga katta ahamiyat bergan. Millatning umumtilini shakllantirish masalasida turli xil qarash va g'oyalar yuzaga kelgan. Tilshunos Y.Sayidov bu holatni quyidagicha izohlaydi:

1. Umumturkiy adabiy til g'oyasi. Bu g'oyaning asoschilari va targ'ibotchilaridan biri Ismoilbek Gaspirali edi. U barcha turkiy xalqlar uchun turk va qrim-tatar tili asosida umumiy yozma adabiy tilni joriy etish g'oyasini ilgari surgan edi.

2. Milliy tilni "chig'atoy" tili, ya'ni eski o'zbek adabiy tili asosida yaratish g'oyasi. Ma'lum bir guruh ziyolilari eski chig'atoy tiliga qaytish, uni tiklash g'oyasini qo'ydilar.

3. Milliy tilni o'zbek xalq shevalari va lahjalari asosida shakllantirish va rivojlantirish g'oyasi.

4. Adabiy tilni arab tili asosida taraqqiy ettirish, o'zbek xalqi uchun arab tili ta'lim tili bo'lishi lozimligi g'oyasi. Bu g'oya tarafdorlari adabiy til masalasini din bilan bog'lashga urindilar. Ularning fikricha, maktab va madrasalarda ta'lim tili arab tili bo'lishi lozim edi.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

5. Milliy tilni rus tili vositasi, ta'siri asosida yuzaga keltirish va rivojlantirish g'oyasi. Ba'zi bir ziyolilar rus tili, uning lug'at tarkibi o'zbek tili lug'atini boyituvchi asosiy manba ekanligini ta'kidlashdi. Ular rus tiliga xos unsurlarni o'zbek adabiy tiliga olib kirish yo'lida o'ziga xos jonbozlik ko'rsatishdi, bularning o'zbek tiliga o'zlashishi hamda qo'llanilishiga xayrixohlik munosabatida bo'lishdi.

6. Yozma va og'zaki umumxalq tilini qayta ishlash, uning zamonaviy me'yorlarini belgilash va shu asosda adabiy tilni yuzaga keltirish g'oyasi. [Y.Sayidov, 2018:19].

Jadid adabiyotining yirik vakillari Hamza, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Sadridin Ayniy, Xoji Muin kabi ijodkorlar o'z asarlarini jonli xalq tilida yozishga harakat qildilar, badiiy asarlarini xalqning barcha qatlami uchun tushunarli bo'lgan soddada tilda, xalq so'zlashuv tilidagi so'z va iboralardan foydalanib yaratdilar.

Abdurauf Fitrat o'zbek adabiy tili me'yorlarini belgilashda eski o'zbek adabiy tili qonuniyatlarini hisobga olish kerakligi, o'sha davr tilini soflashtirish, ya'ni arabiy, forsiy so'zlar o'rniga qadimgi turkiy so'zlardan, xalq shevalaridan muqobilini topib foydalanish kerakligini ta'kidlaydi. Bunga o'zi amal qilgan holda o'z asarlarida tilimizga yot bo'lgan so'zlar o'rniga qadimgi turkiy tilga xos bo'lgan so'zlarni qo'llay boshladi: *ochun (dunyo), uchmoq (jannat), yozug' (gunoh), og'och (yog'och), ayoq (kosa, idish), boshmoq (panja), ekinchi (dehqon), osig'siz (foydasiz), emlog' (shifoxona), orqadosh (o'rtoq), o'ksiz (yetim), o'ron (parol), tonug' (gunoh), tomoq (taom), tubchak (tub aholi)* kabi turkiy so'zlarni badiiy asarlarida ko'plab uchratish mumkin.

A.Fitrat *“Turk xalqlari zamonning o'n ikki yillik bir davrini “mo'lchar” der edilar. Bu so'z bugun ham Turkisonda bordir. Men bu yerda “mo'lchar”ni yuz yil uchun ishlatdim. Qabul etilsa, usmonlicha “asr”, totorcha “yuz” demakdan o'ng'ayroqdir”* deganda qaysi so'zni ishlatish haqidagi fikrini aniq ifoda etadi [Fitrat, 2010: 17]. Shu tarzda turkiy so'zlarni asarlariga olib kirib, tilimizni soflashtirishga harakat qiladi.

Abdulhamid Cho'lpon asarlarini bugun lug'atsiz qiynalmay o'qiy olamiz, tushunamiz. Buning sababi shuki, u ham asarlarida turkiy so'zlardan – xalq uchun tushunarli bo'lgan jonli tildan foydalangan, purizm tarafdori bo'lib, tilimizni yot so'zlardan xoli bo'lishini xohlagan. *Aqcha (aqcha), yo'qsul (kambag'al, bechora), qursoq (qorin), quramas (e'tibor bermaydigan)* kabi qadimgi turkiy til va shevaga xos so'zlardan foydalangan. Masalan: *“Biz ketib borar edik. Quloqlaring'a otsiz arobaning taqir-tuquri eshitilar edi”* [Cho'lpon; 1994, 321]. Ushbu gapda muallif avtomobil so'zining turkiy muqobilini topa olmaganligi uchun “otsiz aroba” deya so'z birikmasi orqali nomlagan. Shu tariqa (imkon qadar) yot so'zlardan foydalanmagan.

Shuningdek, boshqa tillardan so'z o'zlashtirish orqali lug'at boyligini oshirishni maqsad qilgan jadidlar ham bo'lgan, ular ham asarlarida rus va yevropa tillaridan kirib kelgan so'zlar, arabcha, fors-tojikcha so'zlardan foydalanishgan. Y.Saidov bu haqda shunday yozadi: *“Behbudiy chet tillarga xos elementlardan keng foydalanish lozimligini, eng taraqqiy etgan, lug'at tarkibi so'zlarga boy bo'lgan tillar ham xorijiy tillarga xos leksik birliklarni o'zlashtirganligini ilmiy*

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

*nazariy maqolalarida alohida ta'kidlab o'tgan. U va boshqa bir guruh ijodkorlar mazkur qarashdan kelib chiqib, o'z badiiy asarlarida yangi tushunchalarni ifodalash uchun arabcha, fors-tojikcha, ruscha-yevropacha so'z va terminlardan ba'zan o'rinli, ba'zan o'rinsiz ravishda foydalanganlar. Masalan, Xoji Muin Shukrulla "Eski maktab, yangi maktab" dramasida bugungi kitobxon uchun tushunarli bo'lmagan **nashrix, tabot, mutamdin, munqariz, boziyon, sinoatxona** kabi arabcha va forscha so'zlarni qo'llagan"* [Sayidov, 2018: 22]. Ushbu parchada ayrim jadid ijodkorlarining xorijiy tillardan so'z olish orqali tilimizni boyitishni maqsad qilganligi, bu esa ba'zan so'zlarning o'rinsiz qo'llangani o'quvchi va kitobxon uchun qiyinchilik tug'dirgan.

Behbudiy o'z asarlarida arabiy, forsiy so'zlardan erkin foydalangan, shuningdek, uning ijodida rus va yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlar ham uchraydi. Ular o'sha davrdagi muhit, ilm-fan, texnika taraqqiyoti natijasida kirib kelgan – hali turkiy muqobili topilmagan so'zlardir. Elektr, tramvay, gimnaziya, injener kabi so'zlarni misol qilish mumkin. Masalan, "*Shaharda eliktrikli tramvay va shaharni yuqori tarafig'a chiqilaturg'on osonsur – elevato'r yo'li bordur. Atrofi bog'chalik va obod bir shahardurki, Istanbulni Uskudor qismig'a temur yo'l ila marbutdur. Bu zamon ustimizda bir turk tayyorasi uchub, muallaq urmoqda...*" [Behbudiy, 2009: 87]. Ushbu parchada *eliktrikli, tramvay, elevato'r* (eskalator) kabi so'zlar rus tili orqali kirib kelgan yevropacha so'zlar hisoblansa, *tayyora* so'zi samolyot so'zining fors-tojikcha muqobilidir. Keyinchalik bu so'z o'rniga sof turkiy so'z – *uchoq* so'zini qo'llay boshlaganlar. Bugungi kunda biz *eskalator* so'zidan o'zlashma so'z sifatida foydalanib kelimiz. Ammo Behbudiy bu so'zni *osonsur* deya qo'llagan. Bunda *eskalatorning* vazifasiga qarab shunday qo'shma so'z yasagan va nomlagan. Behbudiyning 2009-yili "Ma'naviyat" nashriyotida chop etilgan "Tanlangan asarlar" kitobining so'ngida 10 sahifadan iborat lug'at keltirilgan bo'lib, ularning ko'p qismini arabiy so'zlar tashkil etadi. *Mumayyiz, mulavvan, muqarnas, qarun vusta, sum'a, taammuq, xatti istivo* kabi so'zlarni misol sifatida keltirishimiz mumkin. Bugungi kun kitobxoni bunday asarlarni lug'atsiz o'qisa, tushunishda qiyinchiliklarga duch keladi. Behbudiy o'zining "Til masalasi" maqolasida sof turkiy so'zlardan foydalanib gapirish imkoni yo'qligini, arabiy-forsiy so'zlarning ta'siridan qutulish narida tursin, bir necha ming yillardan so'ng "*ma'nan, moddatan va fannan mahkum millatlarni tili bo'lgan tilimiz*"ga taraqqiy etgan millatlarning tili hujum qilishi, ya'ni yangi so'zlarining kirib kelishini yozgan. [Behbudiy, 2009: 188]. Shuningdek, tilimizdagi o'nta ismdan to'qqiztasi arabiy-forsiy ekani, taraqqiy etgan millatlar tili ham boshqa tillardan so'z olganini aytib tilni yot so'zlardan tozalash imkonsiz ekanini aytadi. Arab va fors tillari ilm tili, bunday so'zlardan foydalanish bizni ilmga yaqinlashtiradi deb hisoblaydi.

O'zbek tilida sheva ko'p. Bu yagona milliy til, adabiy tilni shakllanitirishga to'sqinlik qiladigan omillardan biri. Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Fitrat kabi jadidlar shevalardan ham so'z olib, adabiy tilni sodda, xalqona tilga yaqinlashtirish tarafdori bo'lganlar. Mahmudxo'ja Behbudiy esa sheva faqatgina gaplashish, muloqot uchun kerak, adabiy til esa ilm uchun, ta'lim olish uchun lozimligini

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

ta'kidlab, o'zbek tilida shevalar ko'pligi va bu yagona milliy tilni shakllantirishga to'siq bo'lishini aytgan. Bunga yechim esa onalarni savodli qilish, ular shevada emas, adabiy tilda so'zlashsalar, farzandlari ham adabiy tilda gapirib, millat savodli bo'ladi deya ta'kidlagan. Bizningcha, shevalar har qanday tilning manbayi hisoblanadi. Shevalarda sof turkiy so'zlar, xalqona ifodalar, iboralar mavjud. Adabiy til shevalardan so'z olib boyiydi, rivojlanadi.

O'zbek adabiy tili lug'at tarkibini yangilash, soflashtirish, yot so'zlardan tozalashni o'zlarining asosiy maqsadi deb bilgan "Chig'atoy gurungi" a'zolari, jumladan Fitrat, Cho'lpon, Botu, Elbek kabi ma'rifatparvarlar o'zbek tilini o'z ichki imkoniyatlari asosida boyitishga, ya'ni shevalardan so'z olishga va qadimgi turkiy til davrida iste'molda bo'lib, keyinchalik unut bo'lgan so'zlarni muomalaga qaytarishga harakat qilganlar. Shu sababli ularning badiiy asarlari, she'riyati, umuman ijodida bunday so'zlarni ko'plab uchratish mumkin. Y.Saidovga ko'ra "Chig'atoy gurungi" a'zolari asarlarida o'z qatlamga doir so'zlarni qo'llashda asosan ikki manbaga tayanganlar. Birinchisi eski o'zbek adabiy tili, xususan, Alisher Navoiy asarlari tili, ikkinchisi esa o'zbek xalq shevalari leksik xazinasidir. Fitrat, Cho'lpon, Elbeklar qo'llagan so'zlarning barchasi Alisher Navoiy asarlarida uchraydi. Jadid namoyondalarining asarlarida uchraydigan *osig'* (*foyda*), *og'och* (*yog'och*), *usruk* (*mast, sarxush*), *ochun* (*dunyo*), *bilik* (*aql, ilm*), *yasol* (*saf, qator*), *puchmog'* (*burchak*), *ayoq* (*kosa*), *tomug'* (*do'zax*), *uchmoq* (*jannat*) kabi so'zlar Alisher Navoiy asarlari tilida ham mavjud.

"Chig'atoy gurungi" a'zolari uchun ikkinchi asosiy lug'aviy manba hisoblangan o'zbek xalq shevalariga oid so'zlar ularning asarlarida ko'plab uchraydi va bugungi kunda ham shevalarda mavjud. Jadidlar tomonidan qo'llangan *qo'noq* (*mehmon*), *asig'* (*foyda*), *arig'* (*sof, toza*), *qapug'* (*eshik*) kabi qadimgi turkiy tilda ishlatilgan so'zlar bugungi kunda ham ba'zi o'zbek shevalarida foydalaniladi. Buni Y.Saidov quyidagi jadval orqali yaqqolroq tushuntirgan [Sayidov, 2018: 93].

Qadimgi turkiy yodnomalar tilida	O'zbek xalq shevalarida	"Chig'atoy gurungi" a'zolari asarlarida	Hozirgi o'zbek tilidagi ma'nosi
Qilig'//qiliq	Qilig'//qiliq	Qilig'//qiliq	Insonning tabiati, xarakteri
Qonuq	Qo'noq	Qo'noq	Mehmon
Sag'	Sag'	Sag'	O'ng tomon
Qapuq//qapug	Qapu//qapi	Qapu//qapi	Eshik, darvoza
Daqi	Dahi	Dahi	Yana, tag'in
Pamuq	Momiq	Momiq	Paxta
Yag'i	Yag'i//yog'i	Yag'i//yog'i	Dushman
Tatig'	Tatig'	Tatig'	Ta'm, maza

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Yuqoridagi solishtirma jadvaldan anglash mumkinki, jadid adabiyoti namoyondalaridan “Chig‘atoy gurungi” a‘zolari o‘zbek xalq shevalaridan, qadimgi turkiy tilda mavjud so‘zlardan, Alisher Navoiy asarlari tilidan unumli foydalanib, ona tilimizni begona so‘zlardan tozalashga, tilimizni soflashtirishga va unutilib borayotgan turkiy leksikani jonli muloqot tiliga qaytarishga harakat qilganlar. Bu ularning ijod namunalarida yaqqol aks etgan.

Jadid adabiyoti namoyondalari asarlarining tilini o‘rganar ekanmiz, ularning ijodida o‘g‘uz lahjasiga xos birliklar, turkiya turkchasiga doir so‘zlar salmoqli o‘rin egallaganligining guvohi bo‘lamiz. XX asrdagi siyosiy vaziyat, inqilobiy o‘zgarishlar adabiyotga, tilga ham o‘z ta‘sirini o‘tkaza boshlagan. Bu davrda ijodkor va ma‘rifatparvarlar o‘zbek tili lug‘at tarkibini yangilash, soflashtirishga, yangi badiiy adabiyot tilini yaratishga alohida e‘tibor bera boshladi. Shu maqsadda turk, ozarbayjon tili unsurlaridan, o‘zbek xalq shevalaridan foydalana boshladi. Ko‘plab jadid namoyondalari Turkiyaga borib ta‘lim olib keldi, ular bilan hamkorlik qila boshladi. Madaniy, ma‘rifiy sohalarda aloqalar yaxshilandi. O‘sha davrda Turkiyada avj olgan milliy ozodlik harakati ta‘sirida yuzaga kelgan g‘oya va oqimlar Turkiston xalqlari orasida ham keng yoyildi. Panturkizm – turkiy xalqlar birligi g‘oyalari o‘sha davrda yozilgan asarlar va ularning tiliga o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan. Jadidlar turk tiliga xos bo‘lgan so‘zlar, morfologik va fonetik birliklardan qo‘llay boshladilar. Buni Siddiqiy-Ajziy ijodi misolida ko‘rishimiz mumkin. Qadimgi turkiy tilga xos bo‘lgan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida kelgan *ev (uy)*, *yog‘i (dushman)*, *qapu (eshik)*, *em (davo, shifo)*, *qamug‘ (barcha, hamma)*, *yovuq (yaqin)* kabi so‘zlar Siddiqiy-Ajziy ijodida ham uchraydi va hozirda ham o‘g‘uz lahjasi shevalarida, turk tilida qo‘llaniladi. Siddiqiy-Ajziy asarlari tilida uchragan, turk tiliga xos bo‘lgan birliklar sirasiga yumruq (musht), kerpich (g‘isht), bing (ming), buz (muz), chabuk (tez), chojuk (bola), o‘rtulan (aylantirib o‘ralgan), qopamoq (bekitmoq), qopu (eshik), ev (uy), kadin (xotin), bilgin (olim), boshkent (poytaxt), so‘qoq (ko‘cha), evlanmak (uylanmoq), cho‘q (ko‘p), qoch (necha), benzamoq (o‘xshamoq), yemak (ovqat, taom) va boshqalarni kiritish mumkin. Ushbu ijodkor tilida bu kabi o‘g‘uz lahjaga xos birliklarning ko‘p uchrashiga sabab o‘g‘uz lahjasida gaplashadigan joylarga ko‘p safar qilgan, u yerdagi kishilar bilan ko‘p muomalada bo‘lgan.

Tilimiz sofligi uchun kurashgan jadidlardan biri Elbek lug‘atshunoslik bilan shug‘ullanib, “O‘zbekcha shakldosh va ma‘nodosh so‘zlar” lug‘atini tuzgan. O‘zbek tilining boyligi, serqirra va rang-barangligini ko‘rsatib, shakldosh so‘zlardan foydalanib tuyuq janriga o‘xshab ketadigan to‘rtlik yaratgan:

O‘t, o‘t ichidan, o‘ting bor bo‘lsa,

Yot, yot ichida kuching yo‘q ersa,

Yeng, yeng ichida, yoning kelishsa,

Yon, yon ichida, yoshing quyishsa [Bobomurodova, 2020: 55].

Ushbu parchada Elbek tilimizning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlaridan, shakldosh so‘zlardan, iboralardan foydalanib takrorlanmas ijod namunasini yaratgan.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Jadid adabiyoti namoyondalarining ijodida qo'llangan so'zlar qadimgi turkiy tildagi so'zlar bilan aynan bir xil, ayrim tovushlari farqli hollarda uchraydi. Ba'zilar bugungi kunda iste'moldan chiqib ketgan bo'lsa, ayrimlari o'zbek xalq shevalarida qo'llanilib kelmoqda, shuningdek, boshqa turkiy xalqlar tilida saqlanib qolgan. "Chig'atoy gurunji" a'zolarining asarlarida umumturkiy leksika boshqa jadid ijodkorlarining asarlariga qaraganda ko'proq uchraydi. Bu "Chig'atoy gurunji" a'zolari tilni soflashtirishga qat'iy amal qilganligidan dalolat beradi. Jadid namoyondalari asralarining tili leksik jihatdan yuqorida keltirib o'tilgani kabi boshqa davr – XIX asr va XXI asr tilidan farq qiladi. Uning o'ziga xosliklari nafaqat leksikasida, balki fonetik va morfologik jihatlariga ham bog'liq.

Jadid namoyondalari o'z asarlarida eski o'zbek adabiy tili leksikasi bilan bir qatorda o'sha davrga xos bo'lgan grammatik shakllardan ham foydalangan. Maqsad ravishdoshini hosil qiluvchi –gani qo'shimchasining -gali variantidan foydalanilgan. Misol sifatida Botu qalamiga mansub "Bizning tovush" she'ridan olingan parchani keltirish mumkin:

Yo'qsil elda dard ko'paytgan, ong kamaytgan xon bilan

So'ngi maydon ko'rgali ham unga zo'r go'r qazgali

Ezgu bayroq, boq-da, tutdik: jangimizni yozgali [Botu, 2004: 39].

Ushbu she'rda maqsad ravishdoshlarining *ko'rgali, qazgali, yozgali* tarzda qo'llanilishi hozirgi o'zbek adabiy tilidan farqli bo'lib, Navoiy asarlari tilini yodimizga soladi. Shuningdek, harakat nomini hosil qiluvchi -moq qo'shimchasi -mak shaklda; -ga, -gan, -gudek, -gach kabi "g" undoshi bilan boshlanuvchi qo'shimchalar so'zlarga -g'a, -g'an, -g'udek, -g'ach tarzda; -man, -san shaxs-son qo'shimchalari -men, -sen shaklida qo'shilgan. Turkiy tillarga xos bo'lgan singarmonizm – unlilarning uyg'unlashuvi hodisasi jadid adabiyoti tilida ko'p uchraydi. *Bo'g'ulmoq, topg'on, bo'lub, kulub, o'ltur* kabi fonetik jihatdan hozirgi o'zbek adabiy tilidan farq qiluvchi so'zlarni bunga misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Jadid adabiyoti tilida kitobxon uchun tushunarsiz bo'lgan, bugungi kunda iste'moldan chiqib ketgan so'zlarning salmoqli ekani, fonetik jihatdan ham farqli o'rinlarning borligi ushbu davr adabiyoti tilini maxsus o'rganishni, tadqiq etishni talab qiladi. Mustaqillik yillaridan keyin jadid asarlari tiliga doir bir necha ilmiy ishlar, tadqiqotlar qilindi. Jumladan, "Ayniy asarlarida arxaizm va istorizmlar" (Qilichov E.), "Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi maktublarning lug'aviy-ma'noviy va uslubiy xususiyatlari" (Choriyeva Z.), "Fitrat va tilshunoslik atamalari" (Umarov E.), "Fitrat badiiy asarlari leksikasi" (Saidov Y.), "Cho'lpon publitsistik asarlarining lingvistik tahlili" (Nematova D.), "Abdulla Avloniy she'riyati leksikasining ma'noviy-uslubiy xususiyatlari" (Normamatov S.), "Cho'lponning badiiy til mahorati ("Kecha va kunduz" romani misolida)" (Yo'ldoshev M.), "Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanining lingvistik tadqiqi" (Jalolova L.), "Jadid adabiyoti va til" (Jalolov A.), "A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida tasviriy vositalar va til badiiyati" (Boboniyozov A.), "O'zbek jadid dramalarining lisoniy xususiyatlari (Behbudiy va Avloniy dramalari asosida)" (Bobojonov F.) kabi mavzular o'rganilib, dissertatsiyalar yoqlandi. Jadid

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

asarlarning ko'lamini keng, janrlari ham xilma-xil. Jadid namoyondalari asarlari tilining xususiyatlari, leksikasini tadqiq etish va lug'atlarini yaratish tilshunoslikning muhim vazifalaridan biridir. Jadid adabiyoti tili korpusining yaratilishi tadqiqotchi uchun keng qulayliklar yaratadi. Jadid namoyondalari asarlarning lug'atini tuzish, uslubiyatini, so'zning qo'llanish davri va chastotasini o'rganish uchun jadid adabiyoti tili korpusini yaratish ahamiyatli. Shu kabi masalalar milliy korpusda jadid adabiyoti subkorpusini yaratish zarur ekanligining isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. V jild. – T.: Ma'naviyat, 2010.
2. Abdulhamid Cho'lpon. Asarlar. II jild. – T.: Xazina, 1994.
3. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 2009.
4. Sayidov Y. Jadid badiiy asarlari leksikasi: Filol. fan. nom. dis. – Toshkent., 2018.
5. Bobomurodova Sh. Elbekning tilshunoslik merosi. – Toshkent: Nodirabegim, 2020.
6. Botu. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2004.

SHIRINOVA Mexrigiyo

*f.f.f.d. (PhD) BuxDU o'zbek tilshunosligi va
jurnalistika kafedrasida o'qituvchisi,
shmexrigiyo@mail.ru*

Annotatsiya. Mazkur maqolada telenutq tushunchasi va unga berilgan ta'riflar izohlangan. Telenutq medianutqning bir ko'rinishi ekanligi, bu tushuncha ostida televideniya namoyish etiladigan barcha telemahsulotlar tushunilishi zarurligi ta'kidlangan. Telenutq tarkibiga kiruvchi mediamatnlar sanab o'tilgan.

Kalit so'zlar: telenutq, medianutq, ommaviy axborot vositalari, teleboshlovchilar nutqi, sharhlovchilar nutqi, reklama nutqi, kino nutqi.

Abstract. This article explains the concept of telespeech and its definitions. It was emphasized that telespeech is a form of media speech, and it is necessary to understand all television products shown on television under this concept. The media texts included in the telecast are listed.

Key words: TV speech, media speech, mass media, speech of TV presenters, speech of commentators, advertising speech, film speech.

Ommaviy axborot vositalari ommaga, xalqqa, umuman, butun jamiyatga xizmat qiluvchi axborot almashinuv quroli sanaladi. Texnika yaralibdiki, insoniyat mazkur vositalardan foydalanib kelmoqda. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalariga bo'lgan ehtiyoj, talab oshsa oshganki, ammo kamaygani yo'q. Shuning uchun OAVning barcha turlari o'z yo'nalishi bo'yicha jadal rivojlanishda davom etmoqda. Ma'lumki, radio, televideniya, matbuot, internet OAVning muhim tarkibiy qismidir. Har bir tarkibiy qism o'ziga xos tilda, nutqda so'zlaydi, chunki axborot qaysi usul-u vosita bilan o'z muxlisiga yetkazilmasin, tilga murojaat qilishga, u bilan "hisoblashish"ga majburdir.

Medianutq – mediamatnlar vositasida yuzaga keladigan ommaviy axborot vositalarining nutqidir. Bu keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning tarkibiga telenutq, radionutq, matbuot nutqi, internet nutqi kabilarni kiritish mumkin. Telenutq – medianutqning bir ko'rinishi, tarkibiy qismidir. Hozirgi kunda mediamatn deganda media ishlab chiqarishning aniq natijasi, mediamahsulot nazarda tutiladi, bu axborotdan iborat va medianing istalgan turi va janrida (gazetadagi maqola, teleko'rsatuv, videoklip, reklama xabari, film va boshq.) bayon etilgan xabar bo'lib, ommaviy auditoriyaga yo'naltiriladi [Мельник, 27]. Mediamatn lison va mediashaklning o'zaro birligidan hosil bo'ladi. U lisoniy va mediabelgilarning dialektik birligidan iborat bo'lib, medianutqning uch darajasi: so'zlardan iborat matn, videoqator va grafik tasvir darajasi, ovoz jo'rligi darajasi bilan taqdim etiladi [Добросклонская, 2020: С.27].

Televideniya – OAVning turlari orasida keng qamrovliligi, ommabopligi, ko'ngilocharligi kabi bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadigan audiovizual

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

vosita, u og'zaki nutq (ba'zan yozma nutq) va kadrlar ketma-ketligidan iborat jonli tasvirlarni birlashtiradi. Televideniye ga yuklangan mazkur vazifa bevosita til, nutq orqali yuzaga keladi. Manbalarda telenutqning o'rniga "televizion nutq", "televideniye tili", "mediatili", "audiovizual til", "ekran tili" kabi tushunchalar ishlatilishini kuzatish mumkin.

Telenutq – televideniye uchun xos bo'lib, ekranda namoyish etiladigan barcha mediamahsulotlar nutqi sanaladi. Ommaviy axborot vositalari tilini o'rgangan olim O.V.Aleksandrovaning fikricha, "telekommunikatsiya shunday axborot almashinuviki, unda turli guruh va tabaqalarga mansub millionlab odamlar axborotni qabul qiladi va undan foydalanadi. Televizion diskurs, bu – kompleks sistemadir" [Александрова]. Haqiqatdan ham, telenutqni yuzaga keltirgan muallif (teleboshlovchilar, jurnalistlar, rejissorlar, aktyorlar, sharhlovchilar...) tomoshabinni yoshiga, jinsiga, ijtimoiy kelib chiqishiga, kasbiga, qiziqishiga qarab guruhlarga ajratolmaydi va faqat o'ziga tegishli tomoshabinni oldindan belgilay olmaydi. Nisbatan telenutq muallifi tomoshabinning aksariyati qaysi toifaga tegishli ekanligini ayta olishi mumkin, xolos. Masalan, "Bolajon" telekanalida namoyish etiladigan ko'rsatuvlarning tomoshabini ko'proq bolajonlar ekanligini bilamiz, ammo kattalar ham mazkur ko'rsatuvlarga befarq emasligini unutmaslik zarur.

Telenutq – ommaviy nutq bo'lganligi bois ko'plab soha vakillarini qiziqtirib kelmoqda. Jumladan, tilshunoslar ham tilshunoslikning turli aspektlarida tadqiqot obyekti sifatida o'rganishmoqda. Telenutqni maxsus tadqiq etgan olim S.V.Svetana "Televizion nutq: funksiyalari va strukturasi" nomli monografiyasida televideniye nutqini o'rganadi va "televizion nutq" tushunchasini ilmiy termin sifatida fanga olib kiradi. U telematnlarni kuzatish va tahlil etish natijasida quyidagi xulosaga keladi: "telenutq ommaviy kommunikativ nutqning ko'rinishi sifatida ahamiyatga molik, uning asosiy konstruktiv prinsipi televideniye da ma'lumotni uzatishdagi uch sathning bog'liqligi bilan belgilanadi (tasvir–ovoz–nutq)" [Svetana, 1976: B.33].

Tasvir-ovoz-nutq uchligi telenutq uchun bir-birini taqozo etuvchi muhim omillardir. Ulardan bittasi ishtirok etmasa, telenutq yuzaga chiqmaydi. Yoki mazkur omillardan biri sust bo'lsa ham, telenutq o'z maqsadiga erishmaydi. Telenutq ommaning kundalik turmush tarzidagi nutqqa hamda publisistik uslub talablariga mos bo'lishi zarur. S.V.Svetana ta'kidlaganidek, "Televizion chiqish og'zaki nutq qonunlari asosida vujudga keladi, demak, televizion chiqish uchun ham, har qanday og'zaki chiqish mezonlari asos hisoblanadi".

Telenutq tahlilga tortilgan aksariyat ishlarda telenutq deganda faqat teleboshlovchilar, teleko'rsatuvlar nutqi tushinilgan va o'rganilgan. Bizningcha, telenutq deganda, teleekranda namoyish etilgan, tomoshabin ko'z o'ngida gavalangan barcha nutq anglanishi kerak. Ilmiy adabiyotlardagi tadqiqotlarni kuzatgan holda quyidagi fikrni aytish mumkin. Telenutq 2 ma'noda qo'llaniladi:

1. Keng ma'noda: televizorda namoyish etilgan barcha telemahsulotlarning nutqi.
2. Tor ma'noda: faqat teleboshlovchilar nutqi.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Agar telenutq lingvistik aspektda tadqiqot obyektiga olib o'rganilsa, keng ma'noda tadqiq etish ma'qul deb hisoblaymiz. Chunki telenutq faqat teleboshlovchilar nutqidan iborat emas. Ko'rsatuvlardan tashqari bo'lgan mediamahsulotlar ham televizorda namoyish etiladi hamda ommaga yetib boradi. Ba'zi telekanallarda umuman teleboshlovchi ishtirok etmaydi, bu mazkur telekanalda telenutq yo'q deganimi? Mantiqqa umuman to'g'ri kelmaydi. Har bir telekanalning o'ziga xos jihatlari mavjud va shu bilan birga, ushbu telekanallarni birlashtiruvchi umumiy mezonlar ham mavjuddir. Chunonchi, "Navo" telekanalida asosiy telenutq qo'shiqchilar vositasida, "Kinoteatr" telekanalida esa kino nutqi orqali tomoshabinga yetkaziladi.

Telenutq o'z mazmun-mohiyati va ko'lamiga ko'ra quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan:

1. Teleko'rsatuvlar nutqi.
2. Kinofilmlar va sahna asarlari nutqi.
3. Hujjatli filmlar nutqi.
4. Multifilmlar nutqi.
5. Reklama va anonslar nutqi.
6. Qo'shiqchilar nutqi.
7. Sharhlovchilar nutqi.

Mazkur tasnifda teleko'rsatuvlar nutqi ko'pchilikni tashkil etadi. Teleko'rsatuvlar nutqini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Axborot-informatsion ko'rsatuvlar nutqi.
2. Tok-shoular nutqi.
3. Ko'ngilochar, ma'naviy-axloqiy, musiqiy dam olish dasturlari nutqi.
4. Ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy mazmundagi ko'rsatuvlar nutqi.

Tasnifdagi har bir ko'rsatuv nutqi yana ichki guruhlariga bo'linadi. Hozirgi kunda ko'rsatuvlarning rang-barang ko'rinishlari tomoshabinga yetkazilmoqda.

S.V.Svetana teleko'rsatuvlarning ikki turini ajratadi: tayyorlangan va tayyorlanmagan. Bu tip yuqoridagi tasnifga kiruvchi har bir ko'rsatuvlar uchun xosdir. Telenutqda ko'proq og'zaki-adabiy me'yorga murojaat qilish kuchli. Biz bu jarayonni zamonaviy televideniyeining belgilovchi omili sifatida e'tirof etilganini ko'pgina ishlarda kuzatdik.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, telenutqni lingvistik tadqiqot obyekti sifatida o'rganishga ehtiyoj mavjud. Ehtiyoj keng ma'nodagi telenutqni o'rganish orqali qondiriladi. Ya'ni faqat teleboshlovchilar nutqini o'rganish bilan chegaralanmaslik zarur. Jamiyatda yuz berayotgan tub o'zgarishlar televideniyeida ham o'z aksini topib bormoqda. Bu telenutqning doimiy tadqiq etilishi va tavsiyalar berib borilishi zarurligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Александрова О.В. Язык средств массовой информации как часть коллективного пространства общества. // evartist.narod.ru/text12/07.htm

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

2. Светлана С.В. Телевизионная речь: функции и структура. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1976.- С.33.

3. Мельник Г.С. Медiateкст как объект лингвистических исследований.pdf

4. Добросклонская Т.Г. Медиалингвистика: теория, методы, направления. Создано в интеллектуальной издательской системе Ridero 2020. - 180 с.

**FRAZEOLGIK EVFEMIK BIRLIKLARDA GRADUONIMIK
MUNOSABATLARNING IFODALANISHI**

TURDIMURODOV Sirojiddin

TerDU v.b.dots. f.f.f.d.

turdimurodovs@tersu.uz

Annotatsiya: maqolada o'zbek tilida graduonimiya (darajalanish) hodisasi va uning frazeologik birliklarda, qolaversa evfemik frazeologik birliklar orqali yuzaga kelishi to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: graduonimiya, frazeologiya, evfemizm, darajalanish, frazeologik evfemizm.

Abstract: the article talks about the phenomenon of graduonymy in the Uzbek language and its occurrence in phraseological units, as well as through euphemistic phraseological units.

Key words: graduonymy, phraseology, euphemism, gradation, phraseological euphemism.

Axloqiy va madaniy jihatdan qo'llanishi mumkin bo'lmagan yoki noqulay deb topilgan tushunchalarni ancha yumshoq tarzda birikmalar bilan ifodalash ehtiyoji asosida frazeologizmlar shakllanishi mumkin.

Frazeologik evfemik birliklar darajalanishi tadqiqida o'zbek tilining izohli lug'ati va o'zbek tili frazeologizmlarining izohli lug'atlaridagi leksikografik tahliliga bugungi zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashish, yangi ilmiy-nazariy xulosalarga kelish, frazeologik evfemik darajalanish qonuniyatlari namoyon bo'lishining lingvistik xususiyatlarini, evfemik ma'noning leksikografik talqinida graduonimik qonuniyatlarga tayanish ahamiyatlarini ochib berish muhim deb hisoblaymiz.

O'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini kuzatish jarayonidan ma'lum bo'lishicha, ayrim leksemalar va erkin bog'lanmalar frazeologizmlarning shakllanishida ishtirok etadi va muhim xizmat qiladi. Shu o'rinda frazeologik shakllanish jarayonida uning shakllanishi uchun ana shunday til birliklarini aniqlash muhim deb hisoblaymiz.

Tilshunoslikda leksemalarning frazeologik shakllanishi uchun mantiqiy asos bo'la olishi haqida turli mulohazalar bildirilgan. Jumladan, L.I.Royzenzon frazeologizmlar leksemalar asosida emas balki sintaksis frazeologik shakllanish uchun "qurilish maydoni" sanaladi, deb ta'kidlaydi [Ройзензон, 1963: 49-50]. Bu mulohazaga N.M.Shanskiy e'tiroz bildirib, "sintaksis mavhum modellar va qurilmalar asosiga emas, balki aniq so'z birikmalariga asoslanadi, - degan fikrni o'rta tashlaydi" [Шанский, 1986: 75]. Darhaqiqat frazeologizmlar erkin birikmalar singari harakatchanlikka ega bo'lmaydigan gap qurilishi jarayonida fikrning talabiga qarab tashkil topavermaydigan til birligidir. Shuningdek frazeologizmlar konkret tushunchalarni ifodalashdan mavhum tushunchalarni

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

ifodalashga qarab harakat qiladigan til hodisasidir [Маматов, 2019: 45]. Shu ma'noda frazeologik birliklar leksik qatordagi jarayonlardan tashkil topadi.

Ahloqiy va madaniy jihatdan qo'llanilishi mumkin bo'lmagan yoki noqulay deb topilgan tushunchalarni evfemik tarzda birikmalar bilan ifodalash ehtiyoji asosida ham frazeologizmlar shakllanishi mumkin: **xotin** so'zi o'rnida qo'llanuvchi *bosh qo'ygani* → *jufti haloli* → *umr yo'ldoshi* → *umr sherigi* kabi, **uylanmoq** so'zi o'rnida *uylik bo'lmoq* → *boshini ikkita qilmoq* → *turmush qurmoq* → *olaxurjun bo'yniga tushmoq* kabi, **bo'g'oz** so'zi o'rnida qo'llaniluvchi *ikkikat* → *og'iroyoqli* → *yukli bo'lmoq* kabi **tug'moq** so'zi o'rnida *ko'zi yorimoq* → *farzand ko'rmoq* → *bolali bo'lmoq* kabilar evfemistik frazeologizmlar qo'llaniladi. Ushbu evfemik frazeologizmlar paradigmasi (qatori)da birikmalararo ierarxik darajalanish mavjudligini sezish qiyin emas albatta. Biz yuqorida asosan frazeologik birikmalarning ayrimlarini berishga harakat qildik. Ushbu sinonimik qatorni leksema va frazeologik birliklar asosida yanada to'ldiradigan bo'lsak jarayonni yana ham aniqlashtirish imkoniyati ortadi. Masalan, ochiq aytilishi noqulay bo'lgan **uylantirmoq** leksemasi o'rnida qo'llaniladigan evfemik ma'nodosh vositalar qatorining qo'llanilishida ham *harakatni ifodalashdagi ierarxik munosabatga ko'ra* graduonimik munosabat yuzaga kelishini kuzatish mumkin. Misol tariqasida *bashikkerti qilinmoq/etakyirtish qilmoq/qulog'i tishlatilmoq* (etnografik evfemizm muallif izohi) → *atalmoq/bag'ishlanmoq* → *boshini bog'lamoq* → *non sindirmoq* → *patir ushatmoq* → *qo'y yubormoq* → *fotiha bo'lmoq* kabi evfemik vositalar qatorida ushbu harakatlar bosqichma-bosqich, ierarxik tarzda qo'llanilishini aytib o'tmoqchimiz. Guvohi bo'lganingizdek, evfemik ma'noli leksemalar paradigmasida ham graduonimik xususiyatning namoyon bo'lishini kuzatish mumkin. Bunda ma'lum bir qo'pol va noo'rin birliklar o'rnida qo'llaniluvchi evfemik ma'nodosh leksemalar qatori mavjudki, ular orasida ham ma'lum darajada graduonimlikni anglash qiyin emas. Shuningdek, bu kabi misollarimizni bo'g'oz (homilador) so'zi misolida tahlil qilish mumkin. Ya'ni, *gumoni bor* → *bo'yida bo'lmoq* → *ikkikat* → *oyoq olishi g'alati* → *yuzida dog' paydo bo'lmoq* → *nishona paydo bo'lmoq* → *og'ir oyoq* → *yukli* kabi evfemik vositalar qatorida ham ilk tushunchadan tortib, leksemalar o'rtasidagi semantik jihatdan ma'lum darajada *homiladorlik* tushunchasining kuchayib borish ma'no qirralarida ierarxik darajalanishni anglash mumkin. Shuni ham aytishimiz mumkinki, "**erga bermoq**" tushunchasini ifodalash uchun quyudagi evfemistik frazeologizmlar nutqimizda keng qo'llanilishini kuzatamiz. *Boshini bog'lamoq* → *tengiga uzatmoq* → *kuyovga bermoq* → *egasiga topshirmoq* → *kishisiga bermoq* va.b.

Bundan tashqari balog'atga yetganlik, jismoniy yetilganlik tushunchasini ifodalash uchun quyidagi evfemistik shakllangan frazeologizmlar mavjud: *bo'yi cho'zilib qolmoq* → *bo'y yetmoq* → *bo'yiga yetmoq* → *balog'atga yetmoq* → *ko'zga ko'rinib qolmoq* → *yetilib qolmoq* kabilar. Quyudagi evfemistik frazeologizmlar turmush qurmaganlikni anglatuvchi tushunchani ifodalash maqsadida shakllantirildi: *boshi ochiq* → *boshi bo'sh* → *turmush ko'rmagan* → *eshik ko'rmagan* → *o'n gulidan bir guli ochilmagan* v.b. Ammo shu tarzda

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

frazeologizmlar mantiqiy asos bo'lgan leksemalardan o'zlarining ma'no qirralari hamda obrazli ifodalashi bilan ajralib turadi.

Xullas, leksk graduonimiya bir semik belgining miqdor o'zgarishi asosida shakllanuvchi izchil farqlanishlarni aks etiruvchi semantik hodisadir.

Lug'aviy darajalanish predmet, belgi-holat, miqdor, harakat va uning belgilari, ishoraviylik va ko'rsatuvchanlik, taqlid, tasviriylik, his-hayajon/ buyruq-xitob kabilarning aks etishi bilan bog'liq bo'lgan kategorial semantik tizimlarda shuningdek, evfemik vositalar sinonimik qatorida ham yuzaga keladi.

Darajalanish leksemalararo, frazemalararo va leksema hamda frazemalarning oralarida (bog'lanishlarida) yuzaga kelishi mumkin. Shularga asoslanib, leksik, frazeologik, leksik-frazeologik, graduonimlar haqida gapirish o'rinli. Lug'aviy darajalanish maxsus graduonimik qatorlarda aks etadi. Shuning uchun darajalanish qatori, qator a'zolari hamda ushbu birliklar orasidagi munosabatlar haqida fikr yuritish lozim bo'ladi.

Darajalanish qatorining eng muhim belgisi unda bir umumiy belgining ortib yoki kamayib borishidir. Demak, leksema va frazemalar bir umumiy belgining ozlik – ko'plik darajalari bo'yicha o'zaro semantik bog'lanishlar hosil qiladi. Graduonimik qatorlarda ko'pincha muayyan bir belgininggina emas, balki, u bilan bog'liq bo'lgan boshqa hamroh belgilarning ham izchil oshib (kamayib) borishi anglashilish mumkin. Masalan: *chaqaloq – go'dak – bola – o'smir – yigit – chol* qatorida “yosh” belgisi bilan hamkorlikda bioogk, tafakkur, ijtimoiylikka munosabat kabi qo'shimcha belgilarning ham tadrijiy ravishda oshib borishi aks etadiki bular asosan kontekstda yuzaga chiqadi.

Xullas, yuqoridagi umumiy belgilar shuni ko'rsatadiki, lug'aviy darajalanish leksik va frazeologik birliklar bilan bog'liq bo'lgan semantik hodisalarning turlaridan biridir.

Evfemizm tilning nutqiy qatlamida sodir bo'ladigan jarayon — qayta nomlash bilan bog'liq hodisa bo'lib, to'la ma'noda uslubiy ma'nodoshlik qatorini tashkil etish bilan xarakterlanadi. U millatning etik-estetik didi, milliy ruhi, odobi va nazokati bo'lib, muomala madaniyatining o'ziga xosligini aks ettiradi. Evfemizmlarning “dabdabali” (tantanavor), “hurmat-ehtiroimli”, “ko'tarinki” ma'no ottenkalari bilan badiiy, ilmiy, so'zlashuv uslubida qo'llanilishi tilning keng imkoniyatidan dalolat beradi. Ayniqsa, o'zbek tilida o'lim bilan bog'liq evfemik vositalarining 300 ga yaqin varianti topilganligi ahamiyatli [Омонтурдиев 1996: 45]. Bu esa ularning turli vaziyat, matn va zamonda qo'llanilishga xoslangan turidan foydalana olish imkonini beradi, shuningdek, nutqning sayqallanishiga olib keladi.

Mavjud frazeologizmlarning *kavshining og'zi ochildi* (sovchilikka boraverib yoki boshqa o'rinlarda masalan “ovora bo'ldi” ma'nosida), *boshida yong'oq chaqmoq* (“azob berish”), *yoshini yashab, oshini oshagan* (“qarigan”), *kosasi oqarmagan* (“kambag'al”), *tirnoq ostidan kir izlamoq* (“arzimagan narsadan g'avg'o chiqarish”), *miyamizni qoqib qo'limizga bersin* (“o'ta ezmalik qilsin”), *yaraga tuz sepdi* (“o'tmishini esga soldi”, “aybini yuziga aytdi”), kabi ifodalari evfemik xarakterdagi birikmalar deb aytishimiz mumkin.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

O'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etish, sohaning o'rganilmagan muammolarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, o'zbek tilida daraja funksional semantik maydonini xususan, evfemiologik daraja mikromaydonini ilmiy nazariy asosda o'rganish va tahlil etish bugungi kunda o'zbek tilshunosligida hal etilshi lozim bo'lgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zotan til murakkab ijtimoiy, biologik-fiziologik hodisa sifatida kommunikativ emotsional-ekspressiv, akkumlyativ vazifalarni bajaradi. Tilning emotsional-ekspressiv funksiyasining namoyon bo'lishida darajalanish tushunchasi muhim. O'zbek tilshunosligida ushbu tushunchaning o'ziga xos jihatlari ma'lum darajada tadqiq etilib kelinmoqda [Бозоров, 1997: 137]. Hozirga qadar amalga oshirilgan tadqiqotlarda daraja tushunchasiga, asosan muayyan turkumning sifat turkumining kategorial formasi tarzida qaralgan. O'zbek tilida darajalanish tushunchasi til sathlarida turli vositalar orqali ifodalanadi va yaxlit funksional-semantik maydonni tashkil etadi deb aytishimiz mumkin.

O'zbek tilshunosligida evfemik darajalanish qonuniyatining namoyon bo'lishi, uni ifoda etuvchi evfemik vositalar, ularda darajalanish hodisasining sathlararo xususiyati, daraja tushunchasining evfemik ma'noli leksemalar semantikasidagi funksional ma'nolar bilan bog'liq holda namoyon bo'lishi, evfemik ma'noning leksikografik talqinida graduonimik qonuniyatlarga tayanishi monografik tarzda maxsus tadqiq etilmagan. Turli evfemik vositalar orqali xilma-xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan darajalanish hodisasi yaxlit bir leksik-semantik maydon sifatida shuningdek leksikografik xususiyatlari o'rganilmagan. Evfemik darajalanish tushunchasiga kategorial birlikdan kengroq doirada qarash, funksional-semantik maydon sifatida tahlil qilish va mazkur maydon uzvlarini belgilash, vositalarini aniqlash, leksikografik tamoyillarini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ройзензон Л.И. Синтаксис и фразеология // Проблемы синтаксиса. – Лывов: – 1963. – С. 49-50
2. Шанский Н. М. Фразеология современного русского языка. – М., 1986. – С. 75.
3. Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент, 2019. – 67 бет.
4. Омонтурдиев А. Бир сўз луғати. – Термиз: Жайхун, 1996. – Б. 45.
5. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Филол.фанлари д-ри ... дисс. Т., 1997 – Б. 45.
6. Бобожонов Ш., Исломов И. Ўзбек тилининг сўзлар даражаланиши ўқув луғати. –Т.: Янги аср авлоди, 2007. –Б. 7.
7. Орифжонов Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: Филол. фан. ном. дис. – Тошкент., 1994
8. Эшбоев Қ. Сўзлараро даражаланиш ўқув луғатини тузиш асослари. Филол. фанлари б. фал. док. дисс. – Андижон., 2022. 137 б.

О‘zbek tili milliy va ta’limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

9. Раҳмонов Ғ. Ўзбек тилида луғавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати. ф.ф.ф.д. дисс. – Фарғона, 2019, – 21-б.

10. Омонтурдиев А. Ўзбек тилининг қисқа эвфемик луғати. – Тошкент: “Фан”, 2006. – 91-92 б.

**KELASI ZAMON GRAMMATIK SHAKLLARINING ANNOTATSIYASI
VA ULARNI LINGVISTIK MODELLASHTIRISH MASALASI**

XONNAZAROV Elyor

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti*

xonnazarov90@mail.ru

Annotatsiya: ushbu maqolada kelasi zamon grammatik shakllarini o'zbek tili korpuslari uchun annotatsiyalash, shuningdek, bu shakllarning lingvistik modellarini ishlab chiqish masalalari haqida fikr yuritilgan.

Annotation: this article discusses the issues of annotating the grammatical forms of the future tense for the Uzbek language corpora, as well as developing linguistic models of these forms.

Kalit so'zlar: kelasi zamon, grammatik shakl, annotatsiya, lingvistik model, analizator.

Keywords: the future tense, grammatical form, annotation, linguistic model, analyzer

Zamon shakllarining morfologik tahlildagi ahamiyati POS (part of speech) taggingda fe'l so'z turkumiga mansub so'zshaklga grammatik xarakteristika berishda, morfoanalizator ishini takomillashtirishda ko'rinsa, sintaktik tahlil (parser)dagi mavqeyi zamonning kesimlik kategoriyasi ekanligi va kesim gap bo'lagidan muayyan bir zamon ma'nosining anglashilishi bilan belgilanadi.

Sh.Hamroyeva o'zbek tili morfoanalizatorining lingvistik ta'minotiga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasida morfologik tahlilning quyidagi bosqichlarini keltirib o'tadi: "1) so'zshakllarning asosini topish – lemmatizatsiya; so'zshaklning boshlang'ich shakli – lemma yoki stemga morfologik belgilarni biriktirish, turli so'zshakllarni bir o'zaka tenglashtirish; 2) tagging – so'zshaklning kontekstdagi so'z turkumiga mansublik to'g'risidagi axborotni aniqlash; 3) to'liq morfologik tahlil – so'zshaklga grammatik xarakteristika yozish" [Xampoeva, 2021: 68]. Tahlilning ikkinchi bosqichi – taggingda so'zshaklning turkumi fe'l ekanligi aniqlansa (fe'lning harakat nomi va ravishdosh shakli bundan mustasno), uchinchi bosqich tahlilida boshqa xususiyatlar qatorida so'zshakl tarkibidagi zamon shakllarining annotatsiyasi ham amalga oshirilishi kerak bo'ladi.

Yoqut tilidagi fe'l mayl shakllarini lingvistik annotatsiyalash bo'yicha ish olib borgan G.G.Torotoyev va A.N.Nogovitsina turkiy tillarning agglutinatib tabiatga ega ekanligi, har bir grammatik ma'noning alohida affikslar orqali ifodalanishi teglash jarayonini avtomatik tarzda amalga oshirishda katta imkoniyat berishini ta'kidlaydi [Торотоев, Ноговицына, 2017: 108]. Zamon shakllarini avtomatik annotatsiyalashda ham bu fikr aksar holatlarda o'rinli bo'lgani holda grammatik shaklning omonimligi va ko'p ma'noliligi bilan bog'liq holatlar uchun filtrlovchi modellar ishlab chiqish zarurati saqlanib qolaveradi.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

O'zbek tilining ta'limiy korpusi (uzschoolcorpora.uz) matnlaridagi zamon grammatik shakllarining statistik tahlilidan nutqda kelasi zamon boshqa zamonlarga qaraganda kamroq ishlatilishi haqida xulosa qilish mumkin. Jumladan, matnlarda qo'llangan zamonni ifodalovchi grammatik shakllarning 56 foizi o'tgan zamonga, 36 foizi hozirgi zamonga, 8 foizi esa kelasi zamonga ishora qilgan. Olingan natijani bo'lib o'tgan ishlar haqida xabar berish, hisobot berish, ularni eslash mazmunidagi, shuningdek, hozirgi vaqtda yuz berayotgan jarayonlar, ayni damda qilinayotgan harakatlar haqidagi gaplarni kelajakdagi rejalar, xohish-istaklar, maqsadlarni ifodalovchi gaplarga nisbatan nutqimizda ko'proq ishalatishimiz bilan izohlash mumkin.

Kelasi zamonni ifodalovchi grammatik shakllar qaysilar ekanligi va ularning miqdori bo'yicha o'zbek tilshunosligida xilma-xil fikrlar bildirilgan. Biz ularni o'rganib chiqqan holda kelasi zamon shakllari sifatida *-a/-y*, *-r/-ar*, *-ydigan/adigan*, *-yajak/-ajak*, *-gay/kay/-qay* qo'shimchalarini qabul qildik. Demak, bunday shakllar 5ta bo'lib, allomorflari bilan ularning soni 11taga yetadi. Bu grammatik shakllarni teglashda modellar tarkibida bir qator shartli belgilardan foydandik, jumladan, fe'l lemmani F bilan, nisbat shaklini N bilan, bo'lishli/bo'lishsizlik shaklini BB bilan, zamon shaklini Z bilan, shaxs-son shaklini Sh bilan belgiladik. Kelasi zamonni Z3, bo'lishsizlik shaklini BB2, shaxs-son shakllarining ikki guruhini mos ravishda Sh1 va Sh2 tarzida ifodaladik. Grammatik shaklning allomorflari "al" qisqartmasi bilan berildi. Qavs ichida keltirilgan dastlabki raqam kelasi zamon grammatik shaklining tartib raqamini, "al" qisqartmasidan keyingi raqam allomorfning raqamini ifodalaydi (1-jadval).

1-jadval

T/r	Kelasi zamon shakllari	Shartli belgisi
1.1	-y	Z3(1,al1)
1.2	-a	Z3(1,al2)
2.1	-r	Z3(2,al1)
2.2	-ar	Z3(2,al2)
3.1	-ydigan	Z3(3,al1)
3.2	-adigan	Z3(3,al2)
4.1	-yajak	Z3(4,al1)
4.2	-ajak	Z3(4,al2)
5.1	-gay	Z3(5,al1)
5.2	-kay	Z3(5,al2)
5.3	-qay	Z3(5,al3)

-a/-y shakli. Bu shakl orqali harakat-holatning nutq momentidan keyin yuz berishi umumiy, neytral tarzda ifodalanadi. Kelasi zamon ma'nosini ifodalashda barcha nutq uslublari doirasida faol qo'llaniladi. Shu sababli ham bu qo'shimcha ta'limiy korpus matnlarida eng ko'p uchraydigan kelasi zamon shakli hisoblanadi.

Bu shakl annotatsiyasida asosiy muammo uning hozirgi yoki kelasi zamonni anglatishini farqlash bilan bog'liq. Kontekst ta'sirisiz harakat fe'llari *-a/-y* shakli ko'pincha kelasi zamon ma'nosini bildirsa, holat, faoliyat fe'llari *-a/y* bilan

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

ko'proq hozirgi zamonni anglatadi. Masalan, *boraman, kelasan, ketadi* singari harakat fe'llari kontekstdan tashqarida kelasi zamonni anglatadi. Biroq matn tarkibida umumiy zamonga ishora qiluvchi, takroriylikni bildiruvchi *har doim, har kun, har oy, har yil, odatda, tez-tez* kabi ravishlar ta'sirida hozirgi zamon ma'nosini ifodalaydi. Shuningdek, kontekst umumiy mazmunidan kelib chiqib, bu so'zlarsiz ham hozirgi zamonni anglatishi mumkin. Shu kabi *tushunaman, bilasan, o'ylaydi* kabi aqliy faoliyat fe'llari kontekst ta'sirisiz umumiy hozirgi zamonni bildirsa, matn tarkibida *ertaga, keyin, yaqinda, tez orada* kabi ravishlar ta'sirida kelasi zamonni anglatadi. Qolaversa, nutqiy qurshovga bog'liq holda bu so'zlarsiz ham kelasi zamonni anglatishi mumkin. Demak, miqdor jihatdan -a/-y shakli orqali hozirgi zamon ma'nosi ifodalanishining ustuvorligini hisobga olib, modellashtirishda -a/-y bilan kelasi zamon ma'nosining ifodalanishini bu zamonga ishora qiluvchi maxsus kalit so'zlarga bog'lab qo'yish mumkin. O'zbek tilida vaqt ma'noli lug'aviy birliklarni monografik o'rgangan M.Hakimova kelasi zamonni ifodalovchi payt ravishlari sirasiga *ertaga, endi, endilikda, endigina, keyin, keyincha, so'ng, so'ngra, halizamon* leksemalarini kiritadi [Хакимова, 2004: 76]. Shuningdek, *yaqinda, tezda, tez orada* kabi payt ma'noli leksemalar ham -a/-y shaklining kelasi zamon ma'nosini hozirgi zamondan farqlash uchun xizmat qiladi. Ularni ummumlashtirib kelasi zamonga ishora qiluvchi birliklar (KZIQB) ro'yxatini shakllantirish mumkin.

Kelasi zamonga ishora qiluvchi birliklar (KZIQB) = *ertaga/endi/endilikda/endigina/keyin/keyincha/so'ng/so'ngra/halizamon/yaqinda/tez orada/tezda*. Demak:

$KZIQB + F + \downarrow N + \downarrow BB + y + Sh_2$ bo'lsa, u holda " $y = Z_3(1, a_1)$ "

$KZIQB + F + \downarrow N + a + Sh_2$ bo'lsa, u holda " $a = Z_3(1, a_2)$ "

-r/-ar shakli. Bu shakl orqali harakat-holatlarning kelasi zamonda amalga oshishi taxmin qilinadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida -r/-ar shaklining qo'llanishlarida aynan shu kelasi zamondagi harakat-holatni gumon, taxmin yo'li bilan ifodalash ma'nosi yetakchilik qiladi. Masalan: *Balki, biz ham qachondir shu yo'ldan yurarmiz.* (kun.uz).

-r/-ar shakli orqali hozirgi zamon ma'nosining ifodalanishi turli maqollar, matallar, hikmatli so'zlar, shiorlar tarkibida uchraydi. Bunda odatda sinovdan o'tgan, doimiy haqiqatlar ifodalanadi. Bu holat tarixan -r/-ar shaklining hozirgi zamon ma'nosi bilan -a/-y qo'shimchasi vazifalarida qo'llanilganligi bilan bog'liq. Shu sababli -r/-ar shaklining hozirgi zamon ma'nosida qo'llanishlarida uni -a/-y shakli bilan almashtirish mumkin. Demak, -r/-ar shaklining bu vazifasini hozirgi o'zbek adabiy tilida -a/-y qo'shimchasi bajarmoqda. Shunga ko'ra, -r/-ar qo'shimchasini hozirgi zamon shakli sifatida qarash maqsadga muvofiq emas. Masalan: *Qimirlagan qir oshar.* (Matal) – *Qimirlagan qir oshadi.*

A.Hojiyev -r/-ar shakli orqali kelasi zamon sifatdoshi yasalishi borasida fikr bildirib, bu shakl orqali sifatdosh yasalishi juda passiv hodisa ekanligini, **oqar** suv, **so'nmas** hayot misollaridagi fe'llar sifatga juda yaqin turishini qayd etadi [Хожиев, 1973: 175]. Bu borada biz ham olimning fikrlariga to'liq qo'shilgan

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

holda keltirilgan misollarda -r/-ar shakli kelasi zamon ma'nosi bilan bog'lanmasligini qo'shimcha qilamiz.

-r/-ar shaklidan so'ng ikkinchi guruh shaxs-son qo'shimchalari qo'llaniladi. Uchinchi shaxsda -r/-ar zamon ma'nosi bilan birgalikda shaxs-son ma'nosini ham anglatadi. -ma bo'lishsizlik shaklidan so'ng qo'shilgan -r qo'shimchasi -s undoshiga o'zgaradi.

$F + \downarrow N + r + \downarrow Sh2$ bo'lsa, " $r = Z3(2, al1)$ "

$F + \downarrow N + ar + \downarrow Sh2$ bo'lsa, " $ar = Z3(2, al2)$ "

$F + \downarrow N + BB2 + s + \downarrow Sh2$ bo'lsa, " $s = Z3(2, al1)$ "

Faqat *chiq*, *qayt* fe'l lemmalariga qo'shilgan -ar shakli orttirma nisbat vazifasini bajarishi ham mumkin. Bunda fe'l tushum kelishigidagi ismga bog'lanadi.

Agar " Ism_{tushum} kelishigi $+F\{chiq, qayt\} + ar + \downarrow Z + \downarrow Sh$ " bo'lsa, u holda " $ar =$ orttirma nisbat".

Oqar, *ko'kar*, *qisqar*, *eskir* fe'l lemmalari tarkibida -r/-ar so'z yasovchi qo'shimcha hisoblanadi. Bu holatda so'z yasovchi -r/-ar shaklidan so'ng matnda nisbat, bo'lishsizlik, zamon/mayl, shaxs-son shakllari keladi. Kelasi zamonning -r/-ar shaklidan keyin esa shaxs-son shakli keladi, uchinchi shaxsda -r/-ar shaxs-son ma'nosini ham ifodalaydi.

-ydigan/adigan shakli. Bu shakl orqali kelasi zamon sifatdoshi hosil qilinganda fe'l asosidagi harakat-holat subyektning nutq momentidan keyingi vaqtda ega bo'ladigan belgisi sifatida ko'rsatiladi. Gap tarkibida kelasi zamonga ishora qiluvchi maxsus birliklar ishtirok etmaganda bu shaklning ham hozirgi yoki kelasi zamonni anglatayotganini avtomatik farqlash imkonsiz. Shaklning kelasi zamonni anglatishini modellashtirishda uning hozirgi zamondagi modellariga kelasi zamonga ishora qiluvchi birliklar ro'yxatini qo'shimcha qilish mumkin.

$KZIQB + F + \downarrow N + \downarrow BB2 + ydigan + \downarrow lar + \downarrow im/ing/i/imiz/ingiz + \downarrow ning/ni/ga/da/dan + \downarrow niki + \downarrow dir/mi/chi/a$ bo'lsa, u holda " $ydigan = Z3(3, al1)$ "

$KZIQB + F + \downarrow N + adigan + \downarrow lar + \downarrow im/ing/i/imiz/ingiz + \downarrow ning/ni/ga/da/dan + \downarrow niki + \downarrow dir/mi/chi/a$ bo'lsa, u holda " $adigan = Z3(3, al2)$ "

-ydigan/-adigan shaklining fe'l kesim tarkibida kelasi zamonni ifodalashini quyidagicha modellashtirish mumkin:

$KZIQB + F + \downarrow N + \downarrow BB2 + ydigan + \downarrow Sh2 + \downarrow mish + \downarrow Sh2$ bo'lsa, u holda " $ydigan = Z3(3, al1)$ "

$KZIQB + F + \downarrow N + adigan + \downarrow Sh2 + \downarrow mish + \downarrow Sh2$ bo'lsa, u holda " $adigan = Z3(3, al2)$ "

-ajak/-yajak shakli. So'zlovchi harakat-holatning nutq momentidan keyin amalga oshishiga nisbatan qat'iy ishonchini shu shakl yordamida ta'kidlab ifodalaydi. Kelasi zamonning bu shakli hissiy ta'sir bo'yog'iga egaligi sabab ko'proq badiiy uslub doirasida qo'llanadi. Kelasi zamon sifatdoshini hosil qilishi "ajak/yajak+ot" qolipi asosida aniqlansa, kesim tarkibida zamon ifodalashi quyidagicha modellashtiriladi:

$F + \downarrow N + \downarrow BB2 + yajak + \downarrow Sh2$ bo'lsa, u holda " $yajak = Z3(4, al1)$ "

$F + \downarrow N + ajak + \downarrow Sh2$ bo'lsa, u holda " $ajak = Z3(4, al2)$ "

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

-gay/-kay/-qay shakli. Bu shakl tarixiylik bo'yog'iga egaligi bilan kelasi zamonning boshqa shakllaridan farqlanadi. Ta'limiy korpus matnlarida ham asosan tarixiy asarlar matnida uchraydi. Masalan: *Yetar endi! Kuno'g'longa egar urgayman, Rum tarafga yuzlanadi tulporim jadal.* (A.Oripov, "Sohibqiron" dramasi)

Hozirgi o'zbek adabiy tilida bu shakldan ko'proq poeziyada fikrni ta'kidlash uchun, ba'zan so'zlashuvda kinoya, piching ifodasi uchun foydalaniladi.

-kay shakli o'zbek tilida k undoshi bilan tugovchi 22 ta fe'l bilan, -qay shakli esa q undoshi bilan tugovchi 47 ta fe'l bilan birikishi mumkin. Tarixiylik xususiyati sabab bu shakllar ta'limiy korpus matnlarida eng kam uchrovchi kelasi zamon shakllari hisoblanadi: -qay shakli 6 o'rinda, -kay shakli esa faqat 1 o'rinda uchraydi.

$F + \downarrow N + \downarrow BB2 + \text{gay} + \downarrow Sh2$ bo'lsa, u holda "gay= $Z3(5, a1)$ "

$F\{k \text{ bilan tugovchi } 22 \text{ lemma}\} + \text{kay} + \downarrow Sh2$ bo'lsa, u holda "kay= $Z3(5, a2)$ "

$F\{q \text{ bilan tugovchi } 47 \text{ lemma}\} + \text{qay} + \downarrow Sh2$ bo'lsa, u holda "qay= $Z3(5, a3)$ "

O'zbek tilida quyidagi 2ta fe'l bilan bog'liq holda lemmaga -gay shakli yoki -y shakli qo'shilganligini aniqlashda semantik analizator yordamiga tayaniladi:

1. Tergayman/tergaysan/tergay/tergaymiz/tergaysiz.

2. Surgayman/surgaysan/surgay/ surgaymiz/surgaysiz.

Bunday holda dastlab kontekstdagi boshqa so'zlar qurshoviga qarab fe'l lemmaning ter yoki terga, sur yoki surga ekanligi semantik analizator yordamida aniqlashtiriladi, shundan so'nggina unga zamonning qaysi grammatik shakli qo'shilgani aniqlashtirilishi mumkin.

Umuman olganda, zamon shakllari annotatsiyasida matn tarkibidan ularni aniqlovchi lingvistik modellar ishlab chiqish asosiy bosqichlardan biri hisoblanadi. Modellarda grammatik shakllarning valentlik imkoniyatlarini ifoda etuvchi morfotaktik qoidalarga asoslaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хамроева Ш. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таъминоти: Филол. фан. док. ...дис. – Тошкент, 2021. – Б. 68.

2. Торотоев Г.Г., Ноговицына А.Н. Лингвистическое аннотирование наклонений глагола якутского языка. // Вестник Северо-Восточного федерального университета им. М.К.Аммосова. 2017. №3 (59). – С. 108.

3. Ҳакимова М. Ўзбек тилида вақт маъноли луғавий бирликлар ва уларнинг матн шакллантириш имкониятлари: Филол.фан.номз....дисс. – Фарғона, 2004. – Б.76.

4. Ҳожиёв А. Феъл. – Тошкент: Фан, 1973. – Б.175.

**ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA SIFATLAR TASNIFINING ASOSLARI:
TUB(ASLIY) VA NISBIY SIFATLAR.**

YUNUSOV Norbek

Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti

2-bosqich tayanch doktoranti

norbekyunusov75@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada rus, ingliz va o'zbek tillaridagi mavjud sifat leksemalaridagi xususiyatlarning narsa-predmet va xodisalarning belgisini ifoda etishi, shuningdek sifatlarning belgi bildirish xususiyati va tabiati jixatdan tub(asliy)va nisbiy sifatlarning bir biridan qisman farqlanuvchi jixatlariga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: So'z turkumi, tub(asliy)va nisbiy sifatlar, kategorial me'zon, semantika, semantik qurshov.

Annotation: In the article, the features of existing adjective lexemes in the Russian, English, and Uzbek languages are used to express the signs of objects and events, as well as the features and nature of adjectives, which are partially different from each other, from the point of view of substantive (original) and relative adjectives.

Key words: Part of speech, substantive and relative adjectives, categorical criterion, semantics, semantic environment.

Ushbu maqolaning ob'ekti an'anaviy o'zbek tilining grammatikasida nisbiy hisoblangan ingliz tilining mazmunli sifatlaridir. An'anaviy "nisbiy" atamasidan foydalanish tilshunoslikda nafaqat o'zbek, balki xorijiy tillarda ham tegishli toifalarni ajratishning uzoq an'analarga bog'liq bo'lib, bu "nutq qismlari"ning leksik-grammatik toifalarni ajratish uchun murakkab asoslarning muvaffaqiyatli muvozanatini ko'rsatadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, sifat otning umumlashtirilgan grammatik kategorik ma'nosida, uning belgisini ifodalashda, sifat tushunchasining mantiqiy va falsafiy talqinida ta'kidlangan asosiy nuqtalari qayta ko'rib chiqilgan lingvistik shaklda aks yetadi. Birinchi navbatda sifat konsepsiya bilan bog'liq bo'lgan ikkita asosiy semani a) ob'ektning ajralmas va doimiy qiymati sifatida, uning aniqligini belgilaydi va turlarini aniqlaydi; b) turli xil tabiatga ega bo'lgan ko'plab ob'ektlarini tavsiflashga qodir bo'lgan va yaxlit, murakkab shakllanish sifatida miqdor kategoriyasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan mustaqil konseptual birlik sifatida taqdim etiladi [Borisov, 2005: 25., Postnikova, 1991: 78].

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

XV-XIX asrlarga mansub manbalarda qayd etilgan turkiy tillardagi, shuningdek, ingliz va o'zbek tillaridagi sifat leksemalarga xos barcha xususiyatlarning asosiylari narsa-predmet va hodisalarning belgisini bildirish sifatning semantik asosidir. Belgi bildirish xususiyati va tabiati jihatidan tub (asliy) va nisbiy sifatlar bir-biridan qisman farqlanuvchi o'zgachaliklarga egadir. Tub sifat ifodalaydigan belgi tushunchasi shu sifatning to'g'ridan-to'g'ri ma'nosidan anglashiladigan rang, tus, tur, tam, maza, hajm, vazn, me'yor, sath, miqyos kabi doimiy sifatli belgilar bilan bog'liq bo'ladi, bu doimiy sifatli belgilar konkret va abstrakt xarakterda bo'lishi mumkin: *oq, qizil, achchiq, shirin olma; achchiq haqiqat, oq yo'l, shirin hayot* kabilar. Nisbiy sifatda esa belgi tushunchasi shu yasama sifatga asos bo'lgan so'zdan anglashiladigan narsa-predmet yoki hodisa ma'nosi bilan bog'liq bo'lib, uning belgi xususiyati boshqa turdagi hodisalarga turli darajada nisbat berilishi orqali ifodalanadi.

Sifat tushunchasini ifodalashdagi bu farq sifatning an'anaviy grammatikadagi asliy va nisbiy sifatlariga bo'linishida aks etadi. Bu bo'linish lingvistik ensiklopedik lug'atda sifatarni ta'riflashda o'z aksini topgan [Ye.M. Volf, 1990: 397], bu yerda sifatlar predmet, hodisa yoki nom bilan belgilangan boshqa xususiyatning protsessual bo'lmagan xususiyatini bildiruvchi predikat so'zlarning leksik-semantik sinfi sifatida aniqlanadi. Sifat ob'ektning boshqa ob'ektlar, hodisalar yoki belgilar bilan bog'liqligidan tashqari, xususiyatini yoki nisbiy xususiyatni bildiradi, ob'ektning xususiyatini esa uning boshqa ob'ekt, belgi yoki hodisaga aloqasi orqali belgilanadi. Bu ta'rif sifatning *asliy* va *nisbiy* sifatlariga bo'linishini o'z ichiga oladi [Vinogradov, 1947: 784]. Bunday farqlash uchun sifatning asoslar leksik-grammatik xususiyatlarga ega bo'ladi, ya'ni ular so'zning leksik va grammatik semantikasidagi xususiyatlariga asoslanadi. Sifatlar predmet va hodisalarning o'ziga xos bo'lgan belgilarini bildiradi, ular sezgilar orqali bevosita idrok etiladigan ob'ektlarning xususiyatlari va sifatlarini, shu jumladan predmetlarning ranglarini, fazoviy fazilatlarini, odamlar va hayvonlarning jismoniy xususiyatlarini ko'rsatishi mumkin. Bu ta'rif A.H.Vostokov [Vostokov, 1831: 449] tomonidan berilgan bo'lib ko'plab tilshinos olimlar bu fikrga qo'shiladi. Boshqa ta'rif F.I.Buslaev [Buslaev, 1896: 239] ga tegishli unga ko'ra sifat zamonaviy terminologik lug'atlarda asos sifatida olingan bo'lib, bu yerda sifatlar boshqa so'zlar bilan munosabatlarni o'z ichiga olmasligi ta'riflanadi. Bunday holatlarda sifatlar ularga xos bo'lmagan xususiyat-munosabatlarni inkor etish orqali salbiy farqlanadi.

Nisbiy sifatarni aniqlashda juda ko'p ta'riflar mavjud bo'lib. Ular boshqa ob'ektga bo'lgan munosabatni ko'rsatish orqali aniqlanadigan ob'ektning *sifatini*, *xususiyatini* va *belgisini* ifodalaydi [Peshkovskiy, 2001: 450]. Boshqa holatda, nisbiy sifatlar faqat munosabatni ifodalaydi.

Nisbiy va asliy sifatlar o'rtasidagi farq nafaqat o'zbek tilshunosligiga xosdir, balki xorijiy tilshunoslar ham o'zlarining predikativ / predikativ bo'lmagan

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

xususiyatlariga asoslanib, *nisbiy* (relyatsion), *substantiv bo'lmagan* (denominatsion) *sifatli* (predikativ bo'lmagan) xamda qarama – qarshi bo'lgan sifatlarni ajratadilar [Raskin, Nierenburg, 1995: 15-16].

Amalda, sifatlarning grammatik farqlari va ularning semantik sinfi o'rtasidagi korrelyatsiya bo'yicha taklif qilingan pozitsiya, yuqorida aytib o'tilganidek, to'liq yozishmalarni aniqlamaydi. Bu rezervasyon va cheklovlarga yehtiyoj tug'diradi, chunki grammatik farqlar ma'lum bir toifadagi barcha sifatlarni uchun izchil amalga oshirilmaydi. Masalan, semantikaning o'ziga xos xususiyatlari yoki morfologik tuzilishi tufayli barcha sifatlarni ushbu sinfnin prototipik sifatlari xos grammatik xususiyatlarga ega yemas.

Rus tilshunos olimi Vinogradov asliy va nisbiy sifatlarni o'rtasidagi farqning grammatik mezonlarini sanab o'tadi:

- 1) qisqa shakllarning mavjudligi;
- 2) taqqoslash darajasini o'zgartirish qobiliyati;
- 3) kichraytiruvchi va kuchaytiruvchi shakllarni, "sub'ektiv baholash" shakllarini ishlab chiqarish qobiliyati;
- 4) korrelyativ qo'shimchalarning yasalishi [Vinogradov, 1947: 784].

Yana bir bor ta'kidlash kerakki, ingliz tilida ushbu mezonlardan faqat bittasi – taqqoslash darajalari va sub'ektiv qo'shimchalarning shakllanishi mavjud, ammo bu yetarlicha mezonlarga ega bo'lmasligi mumkin. Chunki, barcha asliy sifatlarni taqqoslash darajalarining shakllarini hosil qilmaydi. Bular, xususan, mutlaq sifatlarning xususiyatlarini bildiruvchi sifatlarni (*deaf, blind, dead*, o'zbek tilidagi korrelyativ so'zlar "*kar*", "*ko'r*", "*o'lik*" va hokazo.). Boshqa tomondan, nafaqat asliy, balki nisbiy sifatlarni (*biological – biologically, historic – historically, political – politically*) ham sub'ektiv qo'shimchalar uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shunday qilib, sifatlarni asliy va nisbiy sifatlarga grammatik jihatdan farqlash izchil rasmiy ifodaga ega emasligini tan olish kerak. Ammo morfologik va sintaktik farqlar nisbiy va asliy sifatlarni ajratish uchun yetarli bo'lsa ham, ular chuqur farqlarning natijasi bo'lib, ushbu ikki toifadagi sifatlarni o'rtasidagi muhim farqlar masalasini ochiq qoldiradilar.

Nisbiy va asliy sifatlarni tarkibiy jihatdan qarama-qarshi degan fikr ham mavjud, chunki nisbiy sifatlarni olingan birliklardir va asliy sifatlarni oddiy bo'lib, ob'ektnin atributini, xususiyatini, sifatini bevosita nomlaydi, shu bilan asosiy mezon atributni ko'rsatish usuliga aylanadi.

Ba'zi tadqiqotchilar hatto barcha mazmunli sifatlarni nisbiy ekanligiga ishonishadi. Umuman olganda, bu nuqtai nazarga qo'shilmagan holda, V.M. Pavlov [Pavlov, 1960: 52] ning bunday tasnifning qirralari loyqa va noaniq degan fikrini qabul qilish kerak. Darhaqiqat, rus tilida olingan asliy sifatlarni "*usatyiy*", "*gryaznyiy*", "*xriplyiy*", "*aromatnyiy*"; ingliz tilida, "*weighty, lengthy, sorrowful, beautiful*" mavjud. Ularning asoslari ba'zi narsalar va moddalar bilan o'zaro bog'liq, ammo sifatlash paytida belgilarning nomlari haqiqiy xarakterli so'zlar sohasiga o'tkaziladi.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Va tarkibiy mezonning ahamiyatini inkor etib bo'lmasa-da, uning yordami bilan nisbiy va asliy sifatlarini farqlash qiyinligini tan olishimiz kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Борисов, Д.А. Динамика развития адъективной лексики (на материале английских отсубстантивных суффиксальных прилагательных) [Текст] : автореф. дис. ... к. филол. наук. 10.02.04 / Нижегородский гос. лингв. ун-т им. Н.А. Добролюбова / Д.А. Борисов. – Н. Новгород, 2005. – 25 с.
2. Буслаев, Ф.И. Учебник русской грамматики [Электронный ресурс] / Ф.И. Буслаев. – Москва: Типография Э. Лисснера и Ю. Романа, 1896. – 239 с. Отсканированные страницы. – Режим доступа: <https://www.twirpx.com/file/149371/> – (Дата обращения: 07.02.2017).
3. Виноградов, В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове [Текст] / В.В. Виноградов. – Москва-Ленинград: Учпедгиз, 1947. – 784 с.
4. Вольф, Е.М. Прилагательное [Электронный ресурс] / Е.М. Вольф // Лингвистический энциклопедический словарь / под. ред. В.Н. Ярцевой; Ин-т Языкознания АН СССР. – Москва: Сов. энц., 1990. – 397 с.
5. Востоков, А. Русская грамматика [Электронный ресурс] / А.Х. Востоков. – Санкт-Петербург: Тип. Глазунова, 1831. – 449 с. – Режим доступа – URL <https://www.twirpx.com/file/2090093/>. – (Дата обращения: 10.05.2018)
6. Павлов, В.М. О разрядах имен прилагательных в русском языке [Текст]/В.М. Павлов // Вопросы языкознания. – 1960. – No 2. – С. 52-70.
7. Пешковский, А.М. Русский синтаксис в научном освещении [Текст] / А.М. Пешковский. – Москва: Языки славянской культуры, 2001. – 450 с.
8. Постникова, С.В. Прилагательные как семантико-функциональная категория (на материале немецкого и русского языков) [Текст] : монография / С.В. Постникова. – Нижний Новгород: изд-во ННГУ, 1991. – 78 с.
9. Raskin, V. Lexical Semantics of Adjectives: A Microtheory of Adjectival Meaning [Electronic resource] / V. Raskin, S. Nierenburg. – Las Cruces, New Mexico State University, 1995. – 69 p. – URL: <http://web.ics.purdue.edu/~vraskin/adjective.pdf> – (Дата обращения: 18.09.2018).

THE LEXICOGRAPHIC INTERPRETATION OF THE VERB (IN THE
EXAMPLE OF “YIG‘LAMOQ”)

MAXMUDOVA Zuhra

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Amaliy filologiya kafedrası tayanch doktoranti

maxmudova.zuhra@mail.ru

Abstract: article discusses the importance of translation dictionaries in different languages in linguistics, especially in cross analysis of semantic aspects of word meanings. In particular, it is known to us that the semantic aspects of the verbs with the general meaning “to cry” cannot be studied without analyzing the human nature and psyche. This shows the connection of semantics with anthropology, psycholinguistics and sociolinguistics.

Key words: translation dictionaries; lexicographer; meaning; verb; semantics; lexeme;

Annotatsiya: Ushbu maqolada turli tillardagi tarjima lug‘atlarining tilshunoslikdagi ayniqsa so‘z ma’nolarining semantik jihatlarini chog‘ishtirma tahlil qilishdagi ahamiyati hususida fikr yuritiladi. Hususan, bizga ma’lumki, “yig‘lamoq” umumiy semali fe’llarining semantik jihatlarini inson tabiati varuhiyatini tahlil qilmasdan turib o‘rganish bo‘lmaydi. Bundan semantikaning antropologiya, psixolingvistika va sotsiolingvistika bilan aloqasi namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: tarjima lug‘atlar, leksikograf, ma’no, fe’l, semantika, leksema

The aim of translation dictionaries happens in active (creation of verbal information) and passive (interpretation of verbal information) language processes in which the user enters and consequently, the type of translation dictionaries is also differentiated [Durkin, 2016:67]. The common of the sparse number of translation dictionaries, which produce incorrect practical speech. The elements of dictionaries’ microstructure and the order in which they are presented from the principle and purpose of the dictionary, which limits their ability to do certain things. The obligation of the lexicographer is to organize the microstructure of the lexicon with the task given to it. The lexicographer creates a high-level lexicographic product by engaging himself in the shoes of a consumer who engages in specific passive or active life operations and figuring out which dictionary characteristics would benefit him in those circumstances.

Reading ability and listening comprehension are examples of passive language skills, which call for the ability to understand and accurately translate oral language. During this procedure, frequently used, unacquainted words are looked up in dictionaries, their meanings are combined into the text along with one of the meanings of polysemantic words, their compatibility with the meaning is confirmed and the truthfulness of the meaning is achieved in the context of the whole context.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

We come to our conclusions by experiencing this rapid mental process in practice. For this purpose, the dictionary was referred regarding the content of the verb “yig‘lamoq” in the following short text fragment: “Ahad Mirza remembered a familiar thin voice and turned sharply, in the voice of G‘olib. Ahad Mirza: “Enajoon!” he hit himself on the window. Last night, Ahad Mirza searched for G‘olib with a knife in his hand. Then he wailed: Shall I go to government or to the cemetery?”

Ahad Mirzo tanish ingichka ovozni eslab, keskin burilgan edi, G‘olib Ahad Mirzoning ovozi: “Enajoon!” deb o‘zini derazaga urdi. Ahad Mirzo shu kecha G‘olibni qo‘lida pichoqni xo‘p izladi. So‘ng yig‘ladi: raykomga boraymi, mozorgami?” [Xolmirzayev, 2013:7]. In the excerpt from the story, the verb “yig‘lamoq” translated in Uzbek as “to cry” is actually translated into English by the verb “to wail” based on its contextual means as it means “faryod qilmoq, nola qilmoq” in Uzbek. Oxford Learner’s dictionaries was used to look up the meaning of the verb wail [intransitive] to make a long loud, high noise because you are sad or in pain. Example: The little girl was wailing miserably [Oxford learners’ dictionaries].

The following details concerning an unknown word are vital during the passive practice: its category (which helps to save time and clarify), explanation and syntagmatic possessions (which are useful tools for ensuring that the word’s chosen meaning is compatible).

However, it is absolutely impossible to explain the meaning of words by means of explanations in active translation dictionaries. There is no point in offering the general structure features of the lexeme [Toporowska, 1988:339]. This is how Burkhanov explains it: “Bilingual dictionaries should not explain understand the meaning of words, they should offer translation equivalents in the form of lexems that, when taken and placed in a certain context, flow smoothly and acquire full meaning. This is a completely natural requirement for them” [Burkhanov, 2004:22].

From these sights given above we may accomplish that; it is impossible to study the semantic aspects of the common verbs “to cry” without analyzing the human nature and psyche. This shows the connection of semantics with anthropology, psycholinguistics and sociolinguistics. The units (sememes) of the content plan of the language have not yet been fully and methodically studied and are more contextual than systematic. There is no certain conclusion on defining the research unit of semantic typology: it can be definite image, sound, suffix, word, phrase, etc. represented by the word “sign” because they can produce meaningful connotations in the human mind.

On the second hand, in order to reserve the artistic level and originality of the work, it is essential for the interpreter to be aware of the linguistic and cultural characteristics of both languages, and to choose the translation techniques according to the level of interlinguistic dissimilarities. In translation, not structural consistency, but content coherence is prime, and in this process, even one phoneme is important as a translation unit.

O‘zbek tili milliy va ta’limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Thirdly, the microstructure of passive translation dictionaries should be created on the foundation of the following principles: valence features of the lexeme, which do not obey the common structure, are included (other usual cases are understood by means of the existing context); its meanings (all the meanings of the polysemantic word) are explained in detail by means of examples taken from the language corpus; information about the category of lemma is useful in choosing its desired form in the information review (especially in the case of English lexemes that acquire homonymy); the typical constant combinations formed by the word and the expressions with their contribution are given; Methodological information about the lexeme is important for the correct translation of oral and non-verbal texts.

References

1. Durkin P. The Oxford Handbook of Lexicography. – Oxford University Press, 2016. – p. 67.
2. Xolmirzayev Sh. Story. Ahad Mirza. – Toshkent 2013. – p. 7.
3. Toporowska Gronostaj, M Contrastive valency in the bilingual dictionary’, in Studies in Computer Aided Lexicology, 1988. – p. 339.
4. Burkhanov I. Requirements for an Ideal Bilingual L1-L2 Translation-Oriented Dictionary Lexicos, 2004. – p 22.
5. <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/dictionary/english/wail>

MAXMUDOVA Zuhra

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Amaliy filologiya kafedrası tayanch doktoranti

maxmudova.zuhra@mail.ru

Annotatsiya: ushbu maqolada tilshunoslik tizimida foydalanishda eng keng tarqalgan fe'l so'z turkumining ahamiyati va fe'llarning turlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, maqolada o'zbek tilshunoslarining holat fe'llari xususidagi qarashlari o'z aksini topgan. Jumladan, holat fe'llari tarkibidagi "yig'i" semali fe'li tahlili olib boriladi.

Kalit so'zlar: holat fe'llari, semalar, fiziologik holat fe'llari, logik-semantik, struktura.

Abstract: This article discusses the importance of the most common verb phraseology and the types of verbs used in the linguistic system of the language. Also, the article reflects the views of Uzbek linguists on stative verbs. In particular, the analysis of verbs like "yig'i" in the composition of state verbs is carried out.

Key words: state verbs, semantics, physiological state verbs, logical-semantic, structure.

Fe'l boshqa barcha so'z turkumlariga nisbatan eng amaliy, eng murakkab va ayni vaqtda semantik jihatdan rang-barang grammatik kategoriyadir. Fe'l sintaktik konstruksiyalarda markaziy o'rinni egallaydi, gap strukturasini belgilaydi, uning qanday ma'noli so'zlardan tarkib topishini anglatish imkoniga ham ega bo'ladi. Fe'lning gap strukturasini belgilashi, bizningcha, uning potensial semantik imkoniyati bo'lib, fe'lni boshqa so'z turkumlaridan ajratuvchi eng muhim xususiyati hisoblanadi. Bu o'rinda quyidagi fikrni keltirish maqsadga muvofiqdir, mazmun planida fe'l predikat faqat leksik ma'nodangina iborat bo'lmaydi. U muayyan ma'no ifodalagani holda ayni vaqtda o'zida bo'lajak gapning maketini saqlaydi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, fe'l faqat harakatnigina emas, balki holatni ham bir butun holda anglatadi, u shu harakat, holat-vaziyatning barcha aktantlarini (qatnashuvchilarini) ham ifoda etish qobiliyatiga egadir. Fe'lning ana shu qobiliyati uning semantik valentligi sifatida belgilanadi. Demak, semantik valentlikka ega fe'l harakat, holat, nutq, ko'rish, eshitish aktlarini ham shu aktlarning zaruriy aktantlari orasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Ushbu tahlilda holat fe'llaridan biri bo'lgan "yig'lamoq" semali fe'l xususida gap boradi.

O'zbek tilidagi holat fe'llari obyektiv asosiga ko'ra tabiat va jamiyatdagi, o'simliklar va hayvonot olamidagi, inson biologiyasi, fiziologiyasi va psixikasi bilan bog'liq muayyan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Demak, holat fe'llari moddiy asosiga (obyektiga) ko'ra kengligi va murakkabligi, materiyaga xos turlicha holatlarni o'ziga «joylashtirishi» bilan boshqa semantik maydonga kiruvchi fe'l

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

leksemalardan ajralib turadi. Holat fe'llari holatni ifodalaydi, kimdir (nimadir) muayyan holatda bo'ladi.

O'zbek tilshunos olimlaridan Rasulovning tasnifiga ko'ra, o'zbek tilidagi holat fe'llarini, komponent e'tiboriga ko'ra, tahlil qilishda semantik maydonning quyidagi leksik semantik guruhlardan tashkil topishi aniqlandi. Ular quyidagilar: davomli holat fe'llari; harakat natijasi bo'lgan holat fe'llari; ijro holati fe'llari; harakatning holati fe'llari; malaka holati fe'llari; obrazli holat fe'llari; biologik holat fe'llari va fiziologik holat fe'llari.[Rasulov, 1989:25] Tahlilimizning asosiy obyekti bo'lgan "yig'lamoq" fe'li umumiy ma'no ko'lamiga ko'ra fiziologik holat fe'llari tarkibiga kiradi. Buning asosiy sababi fiziologik holat fe'llari yuqoridagi sanab o'tilgan turli xil fe'llar semantik maydonining eng katta qismini tashkil qiladi. Ular inson va hayvon organizmining (organlarining) jismoniy holatini ifodalaydi. Bu holat fe'llari ma'nosida jonli mavjudotlar organizmida, ularning muayyan organlarida yuzaga kelgan real fiziologik o'zgarishlar aks etadi. Fiziologik holat fe'llariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: uxlamok, charchamok, shilpiqlanmok, toliqmok, mung'aymok, bo'zraymok, terlamok, og'rimok, sulaymok, oriqlamok, ozmok, isitmalamok. bezraymok, yig'lamoq va boshqalar. Nazarda tutilgan holatlar shaxsda yuzaga keladi. Shaxs ushbu holatlarni o'zida tashiydi, ayni holatlarga ega bo'ladi. Binobarin, bunday holatlarning asosida inson bo'lishi mantiqiydir. Bu, bizningcha, holat fe'llarining semantik imkoniyatiga ko'ra holatning markazi sifatida shaxsni bevosita talab qilishidan kelib chiqadi. Chunki holat fe'llarining semantik strukturasida shaxs semasi asosiyli bilan ajralib turadi. Haqiqatan, obyektiv borliqda qayd etilgan holatlarda bo'lish imkoni asosan insonga xosdir. Demak, sintaktik konstruksiyalarda holat fe'llarining asosi bo'lib shaxsning kelishi logik-semantik qonuniyatga asoslanadi.

Sintaktik konstruksiyalarda *yoshlanmok* va *namlanmok* fiziologik integral semali holat fe'llari o'zlik nisbatli so'z formasida ham aniqlovchi funksiyasida keladi. Bu holda ularning aniqlanmish pozitsiyasidagi asosi kishi organi ayni vaqtda holat yuzaga kelgan obyekt ham bo'ladi. Qiyoslang: Yoshlangan ko'zlarini mushtining orqasi bilan ishqaladi[Mushtum jurnali, 1987:12]. Uning ko'z yoshi bilan namlangan kipriklari kapalak qanotiday silkinadi[Tursun,1932:128]. Demak, aniqlovchi funksiyasidagi «obrazli» va «fiziologik» integral semali holat fe'llarining aniqlanmish pozitsiyasidagi agensi kishi organlaridir. Aniqlovchi funksiyasidagi *yig'lamsiramok* fiziologik, uyqusiramok, hayajonlanmok, ranjirmok va achinmok psixik integral semali holat fe'llarining anihlanmish pozitsiyasidagi agensi tovush bo'ladi: Ali yig'lamsiragan tovush bilan dedi[Qahhor,1932:42] ...dedi Muyassar uyqusiragan bir ovozdada[Nazir,1966:39]. Bizni tolib bermasdi,— dedi Ahmad ranjigan tovush bilan.

Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, fe'lning gap strukturasini belgilashi, uning potensial semantik imkoniyati bo'lib, fe'lni boshqa so'z turkumlaridan ajratuvchi eng muhim xususiyati hisoblanadi. O'zbek tilidagi holat fe'llari obyektiv asosiga ko'ra tabiat va jamiyatdagi, o'simliklar va hayvonot olamidagi, inson biologiyasi, fiziologiyasi va psixikasi bilan bog'liq muayyan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Holat fe'llarining semantik imkoniyati holatning markazi sifatida shaxsni bevosita

O‘zbek tili milliy va ta’limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

talab qilishidan kelib chiqadi. Sintaktik konstruksiyalarda holat fe’llarining asosi bo‘lib shaxsning kelishi logik-semantik qonuniyatga asoslanadi. Shuningdek, atributiv formadagi fiziologik va psixik integral semali holat fe’llarining aniqlanmish pozitsiyasidagi asosi tovushdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rasulov R. O‘zbek tilidagi holat fe’llari va ularning obligator valentliklari. – B.25.
2. Mushtum jurnali 1987. – b. 12.
3. Tursun.P Zo‘rlik, 1932. – b. 128.
4. Qahhor A. Anor hikoyasi, 1932. – b. 42.
5. Nazir H. Yonar daryo, 1966. – b. 39.

MAXMUDOVA Fotima

Qarshi Karshi State University, teacher

E:mail fmaxmudova98@gmail.com

Annotatsiya: Til va ommaviy axborot vositalari insonlar o'rtasidagi muloqotning bir-biriga bog'langan ikki jihatidir. Til ramzlar va qoidalar tizimi sifatida insonga o'z fikrlari, his-tuyg'ulari va niyatlarini yetkazish imkonini beradi. Boshqa tomondan, ommaviy axborot vositalari xabarlar uzatiladigan turli xil kanallar va platformalarga ishora qiladi, masalan, bosma nashrlar, radio, televidenie va boshqalar. Ushbu maqolada biz til va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi aloqani ko'p jihatdan, ommaviy axborot vositalarining til rivojlanishiga ta'sirini va boshqalarni o'rganamiz.

Kalit so'zlar: media, til, media tili, aloqa, mediadan foydalanish.

Abstract: language and media are two interconnected aspects of human communication. Language, as a system of symbols and rules, enables humans to convey their thoughts, emotions, and intentions. Media, on the other hand, refers to the various channels and platforms through which these messages are transmitted, such as print, radio, television, and the internet. In this article, we will explore the relationship between language and media from multiple perspectives, the impact of media on language development and etc.

Key words: media, language, media language, communication, media usage.

Introduction: new forms of communication put communities like the family under stress by making contacts between its members and outsiders difficult to supervise. They permitted the circulation of intimate secrets and fostered irregular association with little chance of community intervention. This meant that essential markers of social distance were in danger, and that critical class distinctions could become unenforceable unless new markers of privacy and publicity could be established. [Marvin 1988: 69–70]. Media language has always attracted the attention of linguists, particularly applied linguists and sociolinguists. There are four practical and principled reasons for this interest. First, the media provide an easily accessible source of language data for research and teaching purposes. Second, the media are important linguistic institutions. Their output makes up a large proportion of the language that people hear and read every day. Media usage reflects and shapes both language use and attitudes in a speech community. For second language learners, the media may function as the primary or even the sole source of native-speaker models. Third, the ways in which the media use language are interesting linguistically in their own right; these include how different dialects and languages are used in advertising, how tabloid newspapers use language in a projection of their assumed readers' speech, or how radio personalities use language and only language—to construct their own images and their relationships to an unseen, unknown audience. Fourth, the media are important social

institutions. They are crucial presenters of culture, politics, and social life, shaping as well as reflecting how these are formed and expressed. Media 'discourse' is important both for what it reveals about a society and for what it contributes to the character of society. The mass media have become one of the principal means through which we gain access to a large part of our information about the world, as well as to much of our entertainment. Because of this, they are a powerful site for the production and circulation of social meanings, i.e. to a great extent the media decide the significance of things that happen in the world for any given culture, society or social group. The language used by the media to represent particular social and political groups, and to describe newsworthy events, tends to provide the dominant ways available for the rest of us to talk about those groups and events. Since the beginning of the electric age in the mid-19th century, numerous technologies have affected how we use spoken and written language, including the telegraph, telephone, radio, gramophone, typewriter, television, Walkman and MP3 players, digital and other mobile media, as well as speech recognition technologies.

One of the most important and interesting aspects of the potential power of the media from a linguistic point of view is the way that people and events get reported. Since the early 1970s, linguists have been interested in the relationship between how a story gets told, and what that might indicate about the point of view that it gets told from [Lee 1992; Simpson 1993; Montgomery 1996]. This level of language use is called linguistic representation,

If we begin to think about the relationship of language and media, materiality is often at stake. Why? Media as a category has in the past often only been visible as an analytical object when one moves away from a co-present situation, and thus when media's materiality helps distinguish it from language. In the "default" case of a putatively pure spoken language, language is materialized in only one medium or channel, that is, acoustically. It is primarily when language is materialized in some other material medium that we begin to speak of "media" (with spoken language being treated sometimes as unmediated, at other times as one unmarked media among others). In turn, the fact that the mediality of language is rarely explored in media studies, Eisenlohr notes, is partially an inheritance of a view of language in which "language becomes a seemingly transparent medium of sense, not because ... the linguistic sound was considered to be the most 'immaterial' of all media" [Eisenlohr 2011: 267].

In conclusion, the relationship between language and media is complex and multifaceted. Media technologies have shaped the development and evolution of languages while also being influenced by linguistic choices. Understanding this dynamic interplay is crucial for appreciating the power of language and media in shaping human communication, culture, and society.

References

1. Gershon I. Manning, Paul. (2014). Language and media. 10.1017/CBO9781139342872.026.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

2. Marvin Carolyn. 1988 When Old Technologies Were New: Thinking about electric communication in the nineteenth century. New York: Oxford University Press.

3. Thomas L., Shan Wareing. Language, Society and Power: An Introduction. Taylor and Francis, 2003.

4. Eisenlohr Patrick. (2010). Materialities of Entextualization: The domestication of sound reproduction in Mauritian Muslim devotional practices. *Journal of Linguistic Anthropology* 20(2): 314–33. 2011.

5. Media Authenticity and Authority in Mauritius: On the mediality of language in religion. *Language and Communication* 31: 266–73.

Annotatsiya: ushbu maqola adekvatlik termini va uning mohiyati, yirik tarjimashunoslarning adekvat tarjima haqida fikrlari, shuningdek ushbu tushunchaning badiiy tarjimada qo'llanish funksiyalari va masalalariga bag'ishlanadi. Maqolada tarjimonning asar tarjimasida tutadigan o'rni va mahorati haqida ham gap boradi. Bir necha olimlar fikri va tarjimalarini qiyosiy o'rgangan holda adekvat tarjima xususiyatlarini ochib berishga, tilshunoslarning ishlari misol tariqasida ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlari: badiiy tarjima, tarjimon, adekvatlik, ekvivalentlik, milliy kolorit, o'zbekcha, ruscha va inglizcha so'zlar.

Abstract: this article is devoted to the term of adequacy and its essence as well as in this research work indicated the opinions of famous translators about adequate translation, also the functions and issues of using the concept in literary translation. Moreover, the article also talks about the role of the translator in the translation of masterpieces. In order to reveal the features of adequate translation by comparing the ideas and translations of several scientists, the works of linguists are shown as examples.

Key words: literary translation, translator, adequacy, equivalence, national color, Uzbek, Russian and English words.

“Badiiy tarjima o'z murakkabligi va mushkulligiga ko'ra badiiy ijod bilan qariyb bir mavqeda turadi. Sababi, muallif iste'dodi va mahorati mahsuli bo'lgan badiiy asarni tarjimondan boshqa til vositalari bilan asliga muvofiq qayta yaratishni talab etadi. Buning uchun, vazn, qofiya, radif, badiiy san'atlar, tasvir vositalari, ritm, ohang, muallif uslubi, milliy kolorit, personajlar nutqi, asarning grammatik uslubiy qurulishi, frazeologizm, shakl va mazmun birligi kabi ko'pdan ko'p muammolarni hal qilishga to'g'ri keladi.” [Ochilov, 2014: 5] Shuning uchun tarjima murakkab bollishi bilan birga u qiziqarli mashg'ulot hamdir.

Adekvat – lotincha so'z bo'lib, *adequatues*, o'xshash, to'la mos, bir xil degan ma'nolarni anglatadi va mukammal tarjima hisoblanadi. [Scientific Journal, 2020: 318]. Bir tilning tarixi, madaniyati, yashash tarzini va eng avvalo, boshqa bir millatdan farqli jihatlarini o'zida mujassam etgan badiiy asarni boshqa bir tilga har qanday tushunchani tushurib qoldirmasdan uning milliy koloritiga qo'shimcha qo'shmasdan o'girish tarjima san'atining eng mashaqqatli yo'li hisoblanadi. Agarda tarjimon asardagi har bir personajga aylanib uni boricha yetkazib bera olsa, u adekvat tarjimaga erishgan bo'ladi.

Adekvat tarjima tushunchasining mualliflari bo'lgan A.N.Feodrov va Ya.L.Reskerning fikricha, “Mukammal tarjima deganda, asl nusxani to'liq aks ettiruvchi, unga muvofiq va u bilan tenglashadigan tarjima adekvat tarjima deyiladi”. [Feodorov, Rasker, 2020: 318]

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Qolaversa, yirik tarjimashunos olimlar A.Shveytser, L.Barxudarov va V.Komissarovning lingvistik tarjima nazariyasiga oid bo'lgan adekvat va ekvivalent tarjima haqida quyidagi fikrlarni aytadilar: "Adekvat tarjima ekvivalentlikning oliy darajasi bo'lib, unda asliyatning janriy - stilistik talablari, barcha lisoniy va g'ayrilisoniy (ekstralingvistik) omillar hisobga olingan, maksimal darajada hissiyot, asliyat va asliyat ruhi saqlangan bo'ladi. Har bir adekvat tarjima, albatta, ekvivalent bo'ladi, ammo har bir ekvivalent tarjimani adekvat deb bo'lmaydi".

Adekvat tarjimani yuzaga chiqaradigan eng muhim omil tarjimonning bilimi hisoblanadi. Tarjimashunos olim G'aybulla Salomov: "...tarjimonda yozuvchi va tanqidchi, aktyor, rassom, bastakor va olim mehnatidan nimadir bor. Bu shundan iboratki, tarjimon lingvist bo'lib lisoniy manbani tahlildan o'tkazadi, aktyor singari birovning qiyofasiga kiradi va ayni vaqtda o'zligini saqlaydi, o'zi o'girayotgan narsaga va, ayniqsa, o'z mehnatiga tanqidiy nazar bilan qaraydi, tarjima qilinayotgan asliyatni yaxlit holga hamda bo'laklarga bo'lib bir necha marotaba kerakli joyda ovoz chiqarib o'qiydi, "o'lik" matn orasidan muallifning jonli siymosini va qalbini qidiradi."-, deb ta'kidlaydi.

Ya'ni har qanday murakkab vaziyatda tarjima matnini qiyinchiliksiz to'g'ri yoritib berish tarjimondan turli sohalaridagi boy bilimga ega bo'lishni, bir vaqtning o'zida ham professional axborot yetkazuvchi, ham akademik, ijtimoiy bilim egasi bo'lishini talab qiladi. Badiiy tarjima bilan shug'ullanadigan tarjimon nafaqat xorijiy tilni puxta egallashi, balki shu til tarixini, madaniyatini, xalqaro madaniy aloqalarga oid bilimlarni, psixologiya sohasini, xalqlar va dinlar tarixini bilishi ham lozim.

Qiyosiy fiklash uchun filologiya fanlari nomzodi N.Isamuhamedova tadqiqotida V.Shekspirning "Otello" dramasi "She was false as water" iborasining G'.G'ulom va J.Kamol tarjimalarida berilish uslubini tahlil etar ekan, "water"(suv) leksemasining kognitiv xaritasini tuzadi [Ochilov, 2014: 5]. Unga binoan, lug'atlarda berilgan "suv" leksemasining xavotir va xavf bilan bog'liq assotsiatsiyaga ega tushuncha ekanligini aniqlaydi. Shuning uchun ham "False" so'zining lug'aviy ma'nosini keltirishni to'g'ri deb hisoblaydi. Tadqiqotchi G'.G'ulom va J.Kamol tarjimalarini jadval vositasida tahlil qilib, J.Kamolning suvga nisbatan qo'llagan betiyiq va beqaror sifati va G'.G'ulomning aldamchi, riyokor sifatlarini taqqoslaydi.

Adekvat tarjimada kitobxonning matnni tushunishi va his qilishiga sharoit yaratmoq lozim. O'zbek kitobxoni uchun "Oqin suvdek, u aldamchi, riyokor edi"dan ko'ra "Oqar suvday betiyiq, beqaror edi", misrasi ko'proq tushunarli va ayni paytda, bu ibora inglizcha "false as water" iborasiga adekvat qabul qilinadi.

Tarjima har qancha asliyatga muvofiq va katta mahorat bilan amalga oshirilgan bo'lmasin, aksariyat tarjimonlar asardagi ayrim o'rinlarni, so'z va tushunchalarni milliylashtirishdan o'zlarini to'xtatib qololmaydilar. Milliy o'zlik har bir tarjimada u yoki bu darajada o'zini namoyon qiladi. Aytaylik, mahorat mevasi bo'lgan "Uylanish" tarjimasida ham Gogolning "Jevaklini" o'z ichki puchligini yo'qotib, Qodiriyning "Jevaklin" iga aylangan. [Sharipov, 1972: 27]

O‘zbek tili milliy va ta’limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Jumaniyoz Sharipov “Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar” asrida tarixiy asarlar tarjimasida arxaik so‘zlarni zamonaviylashtirish arxaik kaloritni buzishini isbotlab beradi. Misol uchun Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan Chayon” romanining rus tilidagi tarjimasida “tahsil” – “высшее образование”, “mudarris” – “ректор”, “mullavachcha”- “студент” deb berilganki bu tarixiy milliy kaloritga to‘g‘ri kelmaydi. Yoki Abdulla Qodiriyning “Ulug‘bek xazinası” romani rus tili vositasida nemis tiliga o‘girilganda “yo‘lak”-“тунель”ga, “chilim” –“трубка” ga, “kulob”-“шанка” ga aylanib ketgan.

Xulosa qilib aytganda, tarjimashunoslikning eng murakkab va nozik bo‘g‘ini bo‘lgan badiiy tarjima o‘zining jilokorligi va dolzarbligi bilan dunyoning kitobsevar barcha millatlarida ahamiyatlidir. Shunday ekan, yangi bir millatga ko‘prik yoki kalit vazifasini o‘tovchi badiiy tarjimaning asosi tarjimonning ham akademik, ham itimoiy-madaniy bilimga ega bo‘lishi hisoblanadi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, milliy koloritning barcha bo‘g‘inlarini o‘zida saqlagan holda, “og‘ishmay va o‘zlashtirilmay” amalga oshirilgan tarjima adekvatlikka, yangi bir madaniyatni, hayot tarzini kashf etishga erishadi va bu albatta, mutarjimning o‘z millatiga tuhfa etgan ajoyib kashfiyotiga aylanadi. Biroq adekvat tarjimada tarjimonning lug‘aviy, semantik, ba‘zan madaniy yoki etnik oqsashi original asarning ma’noviy bo‘shlig‘iga, zamonasida “best seller”ga aylanmasligiga, va boshqa bir millatga kirib borgan asarning tannazuliga yuz tutishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ochilov I . “Badiiy tarjima masalalari”. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2014. – 5-bet.
2. Odilova G. Anqlik nimaga bog‘liq // “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi” gazetasi, 25-son. – 2010.
3. Feodorov A.N, Rasker, Y.L. "Science and Education" Scientific Journal November 2020 / Volume 1 Issue 8 www.openscience.uz 318.
4. Sharipov J. Badiiy tarjimalar va Mohir tarjimonlar. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1972. – 27-bet.

**O'ZBEK TILIDAGI INSON A'ZOLARI HARAKATINI IFODALOVCHI
LEKSEMALARNING INGLIZ TILIDAGI MATNLARDA BERILISHI**

AVEZOVA Nigora

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ikkinchi chet tili kafedrasida katta o'qituvchisi.*

nigora.avezova.76@mail.ru

Annotatsiya. Bugungi jadal rivojlanishlar davri jamiyatda davlatlararo aloqalarni rivojlantirishda qiyosiy tarjimaning o'rni katta, jumladan inson tana a'zolari harakatini ifodalovchi fe'llar tarjimasini qiyosiy tahlil qilish asosiy masalalardan biridir. Ushbu maqolada bir qancha harakat fe'llari qiyosiy va nazariy o'rganilgan.

Kalit so'zlar. Qiyosiy tarjima, asosiy ma'no, semantic tuzilish, tana a'zolari, harakat fe'llari, kuzatuv, semantik o'xshashlik, asl ma'no.

Annotation. Our modern rapidly developing society requires to exchange the relationship around the world, a part of this in the sphere of comparative translation. As for the verbs indicating the part of the body used to make the movement is one of the huge parts of the language translation. In this article we are going to observe the translation system of English and Uzbek languages and the analyses of scientists of this sphere.

Key words. Comparative translation, main meaning, semantic structure, body parts, action verbs, observation, semantic similarity, original meaning.

Bugungi kunda tarjima tillararo va madaniyatlararo muloqotning asosiy omillari ekanligi barchaga ma'lum. M.Xolbekov o'rinli aytganidek, tarjima millatni jahonga tanitadi, xalqaro globallashuv jarayonida bevosita ishtirok etishimizga keng yo'l ochib beradi [Холбеков М. №3, 2016, 16-42].

Tarjimaning tillararo va madaniyatlararo muloqotni rivojlantiruvchi omil sifatidagi xususiyatini ko'pchilik e'tirof etadi. N.Turdiyeva zamonaviy tarjimashunoslikning tendensiyalarini shunday ta'riflaydi: "Zamonaviy tarjimashunoslik tarjimini madaniyatlararo muloqotning bir shakli sifatida talqin qiladi, madaniy kontekstga tayanib madaniyatni murakkab tizim deb biladi, ushbu tizim o'z navbatida adabiyot, fan va texnologiyalar kabi kichik tizimlarga bo'linadi. Bu nuqtayi nazardan madaniyat inson hayotining ijtimoiy shartli aspektlarining barchasi bilan bog'liq. Albatta, tarjima ijtimoiy holat, madaniy tajriba turi, uning natijasiga muloqot ishtirokchilari kognitiv va normativ holatlari sifatida qaraydilar. Norma bu xatti-harakatlarning ma'lum bir vaziyatdagi aniq bir turi (birinchi o'rinda kommunikativ). Shu bilan birga, tarjimon uchun mazmunning to'g'ri berilishi, bu o'rinda ushbu mazmun madaniyatlararo muloqot jarayonini ikki til ishtirokchilari tushunishlari uchun yengil bo'ladigan mazmun yaratish o'z kasbiy vazifasining muvaffaqiyatli bajarilishini anglatadi, ya'ni madaniyatlararo muloqot dialogi amalga oshiriladi". N.Turdiyeva aytmoqchi, tarjimada mazmunning madaniyatlararo muloqot jarayoni uchun tushunarli bo'lishi erishish

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

asosiy maqsad bo'lishi lozim. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ularning ma'lum bir lingvistik maktabga tegishliligiga ko'ra tarjima kuyidagicha ta'riflanadi:

1) asliyat tilida ta'riflangan diotatlarni tarjima tili yordamida ta'riflash jarayoni. Bu nutqda asar strukturasini qayta qurish jarayoni bo'lib, natijada mazmun kontekst o'zgartirmay saqlab qolgan holda ifoda konteksti o'zgartiriladi, ya'ni bir til ikkinchi til bilan almashtiriladi;

2) asos, asliyat til birliklari va strukturalarini tarjima tili birliklari va strukturalariga qayta o'zgartirish;

3) asliyat va tarjima mazmuni o'rtasidagi ekvivalent munosabatlarning mohiyatini ochish.

Bu uch jihatning barchasi asliyat tili va tarjima tilida mazmunni saqlab qolish, ekvivalent birliklarni topish hamda asliyat va tarjima tili birliklari strukturasida muvozanatni saqlash harakatida bo'lishga qaratilgan.

Tarjima jarayonida e'tiborga molik jihatlardan biri bu realiyalardir. Biror bir tarjima materialini ushbu muammoni chetlab o'tolmaydi. Realialar tarjimasiga e'tibor berish, imkon qadar adekvatlikka erishish barcha tarjimonlarning diqqat markazida bo'lishi lozim.

Tilshunoslikda qator tillar realiyalarining turli jihatlardagi ta'rifi ikkinchi til bilan qiyoslangan holda keltirilgan boy material to'plangan. L.S.Barxudarov, G.D.Tomaxin, A.D.Shveyser, A.O.Ivanov va boshqa tadqiqotchilarning ishlari ingliz tili realiyalariga bag'ishlangan. Muayyan bir xalq va millatga xos turmush tushunchalarini anglatadigan so'zlar *realiya* deyiladi. Lug'aviy ta'rifga ko'ra *realiya* – bu moddiy-madaniy narsalardir. Tilshunoslik va tarjimashunoslikda shu narsalarni anglatadigan so'zlar va ifodalar, shuningdek o'z ichiga shunday so'zlarni oladigan qat'iy ifodalar “realialar” deb ataladi. Til realiyalarini o'rganish, ularni tarjimada yetkazib berish, leksikografik ta'rif va lingvodidaktik taqdimoti bilan bog'liq muammolar lingvomadaniyatshunoslik tadqiqotchilar ishlarida yoritilgan [Джаббарова III. 2019, 360]. Demak, tadqiq obyektimiz tahlilida asliyat va tarjimada birliklar semantikasi, strukturalari, adekvatligi, realialarning berilishiga e'tibor qaratamiz. Quyida o'zbek tilida inson tana a'zolari harakatini ifodalovchi leksemalarning ingliz tilida berilishini tahlil qilamiz.

Oyim talmovsirab, goh menga, goh Hoji buviga qarar edi. (Gilam paypoq) // *Mother looked at me and Hoji grandmother turn by turn.* Mazkur misolda ko'z harakatini ifodalovchi *qaramoq* so'zi tarjima matnida *looked at* so'zi bilan ifodalangan. Asliyat va tarjimadagi birlik lug'atdagi ekvivalenti bilan berilgan. Keyingi misolda sal boshqa kartina kuzatiladi:

Hoji buvi uning oyog'ini uqalab ko'rdi. (Gilam paypoq) // *Hoji grandmother examined her feet.*

Uqalamoq qo'l bilan sodir etiladigan harakat bo'lib, uning ma'nosi izohli lug'atda quyidagicha berilgan:

UQALAMOQ [Ўзбек тилининг изоҳли луғати., 315].

1 Badanni yoki uning biror qismini bosib silamoq, ezg'ilamoq, ishqalamoq. *Anorxon kechasi bilan kampirning boshlarini uqalab, xo'rozlarning tovushlarini tinglab chiqdi.* I.Rahim, Ixlos.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

2 Ishqab ko'chirmoq. Tergovchi o'ylanib qoldi va zo'r berib peshonasining kirini uqalar edi. A.Qahhor, Sarob.

3 Ishqab, donalarni so'ta, po'st va sh.k. dan ko'chirib tushirmoq, ajratmoq, tozalamoq. Kungaboqarni uqalamoq.

Mazkur so'z polisemantik bo'lib, tahlil qilinayotgan matnda uning birinchi ma'nosi reallashgan. Inglizcha matnda mazkur birlik *examined* so'zi bilan berilgan. Izohli lug'atda *examine* so'zi quyidagicha izohlanadi:

Examine [<https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/examine>]

Verb [T] to look at or consider a person or thing carefully and in detail in order to discover something about them: *Forensic scientists are examining the wreckage for clues about the cause of the explosion. The council is to examine ways of reducing traffic in the city centre.*

Ko'rinib turibdiki, bu so'z "kishi yoki narsa haqida biror narsani kashf qilish uchun diqqat bilan qarash" degan ma'noni ifodalaydi. Izohli lug'atlardagi ma'nolarning izohi bu ikki so'zning ekvivalent emasligini ko'rsatadi. Yuqoridagi matnning tarjimasi "Hoji buvi onasining oyog'ini tekshirib ko'rdi" degan ma'noni ifoda etadi. Aslida kattaroq kontekstga qaralsa, haqiqatan ham tabib ayol hikoyachining onasining oyog'ini tekshirib ko'rish maqsadida uqalab tekshirgan. Bu o'rinda ekvivalentlikdan chekinish evaziga adekvatlikka erishishga harakat qilingan.

Oyim indamay **bosh chayqadi**-da, piqillab **yig'lab yubordi**... (Gilam paypoq)
// *Mother **shook** her **head** silently and **began crying**.* Ushbu kontekstda **yig'lab yubormoq** – ko'z harakatini ifodlovchi birlik (leksema emas, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi).

E'tibor beraylik, asliyatda yig'lash harakati ma'nosini kuchaytirish uchun aynan ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi qo'llangan: bu o'rinda **yig'ladi** so'zini qo'llash ma'no ottenkasiga salbiy ta'sir qilgan bo'lardi. Shu sababli tarjimon ham shu hissiy bo'yoqni saqlab qolishi maqsadga muvofiq. Shunday holatda tarjimon *began crying* (yig'lay boshladi) ifodasini qo'llaydi. To'g'ri, bu ifodani juda muvaffaqiyatli deb baholab bo'lmaydi: **yig'lab yubormoq** va **yig'lay boshlamoq** ayni harakat emas, biri to'satdan sodir bo'lishni, ikkinchisi harakatning boshlanishini bildiradi. Ammo yig'ladi tarzida ishlatishdan ko'ra bu to'g'ri yondashuv edi. Shu o'rinda tarjimon **yig'lab yubordi** ifodasiga ekvivalent topsa, asliyatdagi matndagi hissiy bo'yoq bevosita tarjima matnida ham saqlanardi. Matnda ajratib ko'rsatilgan **bosh chayqamoq** birikmasi esa o'z ekvivalentini (**shook her head**) topgan.

Ko'cha chetida uch yoshlardagi bola yerga **dumalab** tajanglik bilan **chinqirar**, oppoq ko'ylagi, ishtonchasi qora tuproqqa belangan edi. (Bola yig'isi)
// *At the edge of the passage there three years old baby was **crying rolling** on the land, his white shirt and short was covered with black mud.*

Mazkur matnda tana harakatini ifodalovchi ikki so'z berilgan: **dumalamoq**, **chinqirmoq** // *to cry, to roll*. Tarjimada mazmun ifodasini baholash uchun so'zlarni o'sha tildagi izohli lug'atdan kuzatamiz:

CHINQIRMOQ [Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2006, 489].

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Ingichka va o'tkir tovush chiqarmoq, chiyillagan tovush bilan qichqirmoq. Gulnora chinqirgancha o'rnidan turib ketdi. X.To'xtaboyev, Yillar va yo'llar.

CRY [<https://dictionary.cambridge.org/dictionary>] to produce tears as the result of a strong emotion, such as unhappiness or pain: *I could hear someone crying in the next room. "There, there, don't cry," she said.*

O'zbek tilida bu so'z "ingichka va o'tkir tovush chiqarmoq, chiyillagan tovush bilan qichqirmoq" ma'nosini ifodalasa, ingliz tilida "baxtsizlik yoki og'riq kabi kuchli his-tuyg'ular natijasida ko'z yoshlarini hosil qilish" degan ma'noni bildiradi. Ma'no uzoq emas, lekin aynan ham emas. O'zbek tilidagi matndan *chinqirmoq* so'zi orqali baqirib yig'lash anglashiladi, ammo ingliz tilida bu so'zni "to cry" bilan ifodalash, oldin aytilganidek, hissiy bo'yoqdorlikni pasaytiradi.

– *To'xtata qol, bolam, – deya onam ma'yus jilmaydi.* // – *Stop, – said mother and smiled sadly.*

Mazkur kontekstda ajratib ko'rsatilgan so'zlar ekvivalentlikni hosil qilgan, asliyat va tarjimadagi axborot va uning ekspressiv bo'yoqdorligi saqlangan.

Uvishgan oyoqlarini uqalagancha oqsoqlana-oqsoqlana orqaga, bola yig'layotgan tomonga qarab ketdi. // *Massaging her feet rushed to direction where baby's cry was heart.*

Ajratib ko'rsatilgan so'zlardan ko'rinadiki, asliyatdagi oyoq harakatini bildiruvchi **oqsoqlana-oqsoqlana** takror so'zi tarjima matnida tushirib qoldirilgan. Bu esa axborot mazmuniga putur yetkazmasa-da, hissiy bo'yoqdorlikni pasaytirgan.

Yuqoridagi matn tarjimasida tana a'zosi harakatini ifodalovchi so'z tushib qolgan bo'lsa, keyingi misolda sodda va qo'shma gap transformatsiyasi sodir bo'lgan: asliyat matnidagi qo'shma gap, tarjima matnida sodda gap bilan berilgan. Agar axborot va hissiy ekspressivlik saqlangan holda transformatsiya qilinsa, uni adekvatlik deb baholash mumkin, ammo bu o'rinda axborotning tushib qolishi tarjimani ijobiy baholamaslikka sabab bo'ladi:

Bola endi yig'lamas, ammo o'pkasi to'lib to'xtovsiz hiqillar edi. // *Baby had calmed down.*

Inglizcha-o'zbekcha tarjima lug'ati so'zligida *hiqillamoq* so'zi mavjud emas, demak, bu so'zning ekvivalenti yo'q. Bunday holatda tarjimon tasviriy vosita yoki metaforadan foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ayol **chimirilib** o'tirganimni sezdi shekilli, xijolat chekib shosha-pisha **qo'l siltadi**. (Bola yig'isi) // *She took her son who had already calmed down and got out of the car hastily.*

Mazkur asliyatdagi matnda ham *chimirmoq*, *chimirilmoq* kabi so'zlar tarjima matnida mavjud emas. Bu matnda transformatsiya shu qadar kuchliki, kengroq kontekstdan bexabar kishi umuman boshqa-boshqa matn deb tasavvur qiladi.

– **Ko'rdingizmi**, – **deydi** qariya o'ychan ohangda, – o'sha kuni kechasi bilan jala quyib chiqdi. (Qabrison) // – *You've seen*, – **said** old man thoughtfully. – *That night it rained till the dawn.*

Bu kontekstda ko'z va og'iz harakati ifodalangan so'zlar asliyat matnda bir xil berilgan. Ushbu matndagi ajratib ko'rsatilgan so'zlar o'z ma'nosida ishlatilgan

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

hamda matnda ular hissiy bo'yoqdorlik uchun xizmat qilmagan. Shu sababli tarjimada muammo tug'ilmagan.

Onam yana ma'yus jilmaydi: – Bilasan-ku, jon bolam, kam uyqu bo'lib qolganman. (Tush. 3-bet) // – Mother again gave a sad smile: – You see, sonny, I caught a disease of insomnia. (8-b.)

Bu misolda ham asliyat va tarjima matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlar ekvivalentligiga erishilgan.

Shu kuni nima yumush buyurishsa, oyog'im olti, qo'lim yetti bo'lib yugurib yurdim (Xiyonat, 12-b.) // That day I carried out all the work they had ordered to me. (21-b.)

Yuqoridagi tahlillar asosida inson tana a'zolari harakatini ifodalovchi birliklarni o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishda yuzaga keladigan muammo va ularning yechimlari haqida quyidagicha umumlashma xulosa qilish mumkin: inson tana a'zolari harakatini ifodalovchi so'zlar ishtirok etgan ko'chma ma'noli birikmalar, ko'chma ma'no ifodalab keluvchi urf-odatni atovchi birliklar tarjimasida so'zma-so'z tarjima qilish va shu birikmalarga satrosti izoh berish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Холбеков М. Ўзбекистонда таржима ва таржимашунослик (1991-2016 йиллар) // Хорижий филология. №3, 2016. – 16-42-б.

2.Турдиева Н. Таржима: лингвистик назариядан когнитив модель сари йўл // Таржима, ахборот, мулоқот – сиёсий ва ижтимоий кўприк. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2019. 360 бет. – 44-46-б.

3.Джаббарова Ш. Реалияларнинг таржимада берилиши. (миллий хусусияти) // Таржима, ахборот, мулоқот – сиёсий ва ижтимоий кўприк. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2019. 360 бет. – 198-200-б.

4.<https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/examine>

5. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/cry>

6.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик, 4-жилд. – Тошкент, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 608 б. – 489-б.

ESHBOYEV Qahramon

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

eshboyev202020@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbek tilining milliy korpusi uchun graduonimik so'zlar bazasini shakllantirish, graduonimik so'zlarning korpusdagi o'rni va vazifalari kabi masalalar tahlili yoritilgan.

Kalit so'zlar: lug'at, korpus, graduonimiya, darajalanish, sinonimik qator, graduonimik qator.

Annotation: this article covers the analysis of such issues as the formation of the database of graduonymic words for the national corpus of the Uzbek language, the role and functions of graduonymic words in the corpus.

Keywords: dictionary, corpus, graduonymy, gradation, synonymous series, graduonymic series.

Korpus lingvistikasi kompyuter lingvistikasining mustaqil bo'limi, lingvistik korpuslar (matn korpuslari)ni tuzish va undan foydalanish tamoyillarini kompyuter texnologiyalarini qo'llagan holda ishlab chiqish bilan shug'ullanadi [Захаров В.П., 2005:48].

Har bir lug'at uchun lug'at korpusini shakllantirish dolzarb vazifa bo'lganligi kabi graduonimik so'zlar bazasini yaratish ham dolzarb vazifalardan biri. Avvalo, o'zbek tili milliy korpusining darajalanish so'zlar bazasini yaratish zarur ekanligini ta'kidlash joiz. Tilshunos A.Eshmuminov o'zining "O'zbek tili milliy korpusining sinonim so'zlar bazasi" [Эшмуминов, 2019:130] nomli nomzodlik dissertatsiyasida sinonimiya hodisalarining korpusda berilishi masalasini kun tartibiga qo'ydi. Tilshunos tadqiqoti davomida sinonimik so'zlarni aks ettirish jarayonida so'zlarning darajalanish qatorini ham e'tiborga olish lozimligini alohida ta'kidlaydi.

Korpus matnlarining asosiy birligi sifatida so'z, so'z birikmalari, o'zak (asos, lemmalar) hamda jumlar tanlanishi mumkin. Albatta, bazaning hajmi uni yaratuvchilarning maqsadiga ko'ra aniqlanadi, bu, odatda, tadqiq predmeti o'rnida tanlangan materiallarning ko'lamiga nisbatan belgilanadi [Захаров В.П., 2005:161].

So'zlararo darajalanish lug'atining korpusdagi o'rni va ahamiyatini qayd qilish, vazifa va imkoniyatlarini baholash, tadqiqotchilar va foydalanuvchilar uchun qulaylik imkoniyatlarini ta'minlash kabilar dolzarb masala sifatida namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, lug'at korpusi lug'atdagi barcha lug'at maqolalar to'plami bo'lib, lug'at megaqurilmasining asosiy qismi hisoblanadi. Manbalarda keltirilishicha, korpus lug'atning 90-98 foizini tashkil qiladi [Бахриддинова Б.М, 2020:61]. Darajalanish o'quv lug'ati mukammal qilib tuzilgandan so'ng, lug'at korpusi

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

odatda, alifbo tartibiga asoslangan graduonimik qatorlardan tashkil topadi. Graduonim lug'atlar qamrovi so'z emas, darajalanish qatorlari soni bilan belgilanadi. Har bir graduonimik qator alohida lug'at maqolaga teng keladi va bir necha ichki qurilmalar asosida shakllanadi.

Til korpusi masalalari tadqiqiga doir ilmiy izlanishlarni amalga oshirgan A.Eshmuminov sinonimlar korpusini quyidagi mezonlar asosida tuzishni taklif qiladi: *“So'z kiritiladi; So'z turkumi; Ma'nosi; Etimologiyasi; Yasalishi; Tarkibi; Uslubi; Tuzilishi; Rus tilidagi muqobili; Ingliz tilidagi muqobili; Darajalanish qatori; Ijobiy salbiyligiga ko'ra; Ishlatilish miqdoriga ko'ra; Omonimi; Paronimi; Antonimi; Ishlatilishi (misoli)”* [ЭШМУМИНОВ А., 2019:130].

O'zbek tilining graduonimik so'zlar bazasini yaratishda, tadqiqotchi A.Eshmuminov tomonidan tavsiya qilingan namuna vazifasini o'taydi. Chunki sinonimlar bilan graduonimlar orasida juda katta farq yo'q. Graduonimlar bilan bog'liq lingvistik-leksikografik masalalar korpusdagi o'rni hamda vazifalari alohida tadqiqotni talab qiladi.

Tadqiqotchi G.Mirhanova lug'at maqolasi haqida shunday yozadi: *“Lug'at maqola (Slovarnaya statya) – lug'atning asosiy qurilmasi, qurilish komponentlari lug'at turiga qarab farqlanadi. U, odatda, izoh xarakteridagi lug'atlarga xos bo'ladi”* [Мирханова Г., 2022:64]. Biz tomonimizdan taklif qilinayotgan zamonaviy so'zlar darajalanish o'quv lug'ati ham izoh xarakteridagi lug'atlar qatoridan joy olishi nazarda tutilgan.

Zamonaviy darajalanish o'quv lug'ati quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topishi maqsadga muvofiq:

- 1) kirish;
- 2) o'quv-metodik ta'minot (lug'atdan foydalanish bo'yicha ko'rsatma);
- 3) graduonimlar qatori (lug'atdagi graduonimik qatorni yosh nuqtayi nazaridan guruhlashtirish);
- 4) qatorning umumiy sharhi;
- 5) qatordagi har bir leksemaga izoh;
- 6) illyustrativ misol;
- 7) lug'at belgilari;

Tilshunos J.Djumabayeva o'zining monografiyasida graduonimiyaning korpusdagi o'rniga to'xtalib, shunday deydi: *“Leksik graduonimiyaning boshqa leksik semantik kategoriyalar kabi korpusda ham o'z o'rniga ega bo'la olishi muhim hisoblanadi. Bu nafaqat lingvistik tadqiqotlar, balki parallel korpuslarda tarjimonlar uchun darajalanishning mosligi, qiyoslanayotgan matnlarda adekvatlikni ta'minlovchi muhim omil ekanligini tadqiq qilish uchun ham zarur manba bo'lib xizmat qiladi”* [Джумабаева Ж., 2017:187]. Tilshunos o'zbek tilida yangi yaratilishi kerak bo'lgan graduonimlar lug'atidagi leksemalar korpusga maxsus dasturlar yordamida kiritilishi, kiritilgan ma'lumotlarda uchraydigan leksik graduonimlar tahlili lingvistika sohasida tadqiqot olib boruvchilar uchun muhim manba bo'lib xizmat qilishini ham ta'kidlaydi.

So'zlar darajalanishi o'quv lug'ati masalasi doirasida darajalanish qatori degan tushuncha ham yetakchi o'rinni egallab turadi. Shu bois ushbu termin

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

ma'nosiga e'tibor qaratib o'tishni joiz deb o'ylaymiz. So'zning ma'nosidagi muayyan belgining darajasi asosida hosil qilinuvchi ushbu qator bir necha xususiyatga ega bo'lishi lozim. Darajalanish qatori – qator tarkibi eng kamida uchta darajalanuvchi birlikdan iborat bo'lishi shart. Qator tarkibidagi leksemalarning o'zaro ichki munosabatlari asosida tartiblangan qatori. Darajalanish qatori – joylashuvi, qo'llanilish darajasi va uslubiy nozikliklariga asoslangan leksik hamda frazeologik graduonimlar qatori. Qayd qilinganlardan ma'lum bo'ladiki, darajalanish qatori o'ziga xos lingvistik tabiatli yaxlit mikrotizimdir.

Ma'lumki, graduonimik paradigma sinonimik paradigma kabi doimo ochiq. Shu bois davrdan davrga graduonim lug'atlar so'zligi – graduonimik qatorlar, avvalo, davr taqozosi, nutq, jamiyat talabi asosida iste'moldan chiqib, yangilari bilan boyib boradi. Shuningdek, so'zlar semantikasidagi o'zgarishlar yangi-yangi darajalanish qatorlarining yuzaga kelishi uchun omil bo'lib xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, keyingi yillarda o'quv lug'atlar umumiy tuzilishi mualliflarning lug'at tuzish bo'yicha tajribasi, lug'at turi – elektron yoki bosma lug'at ekani va boshqa omillarga ko'ra takomillashib borayotgani kuzatilmoqda. Yangi avlod darajalanish o'quv lug'atining megaqurilishini shakllantirishda tadqiqotchi G.Mirhanovanning amalga oshirgan ishlariga tayanishimiz mumkin. Tadqiqotchining ishida iboralarning o'quv lug'ati megaqurilishi bilan bog'liq quyidagilar qayd qilinadi: “O'quv lug'atining megaqurilishi kirish (1); “Lug'atdan qanday foydalaniladi?”, “Lug'atdan foydalanish bo'yicha ko'rsatma”, “Lug'at bilan ishlash bo'yicha yo'riqnoma” kabi nomlar bilan yuritiladigan o'quv-metodik ta'minot (2); lug'atda foydalanilgan shartli qisqartmalar va ularning izohi (3); lug'at korpusi, ya'ni so'zlik (4); ilova (5)lardan tashkil topishi kerakligini aytib o'tadi. U umumiy strukturasi amaldagi leksikografik an'analarga asoslangan bir necha parametrlil qismlar bilan birga leksik birliklarni lug'atda o'quv maqsadida taqdim qilishning innovatsion metodlariga asoslangan yangi qismlar bilan boyib borishini ham ta'kidlaydi” [Ражабова З.И., 2022:145].

Ma'lumki, sinonimik qatorda bosh so'z (dominant) bo'ladi. Sinonimik qatordagi bosh so'zlar ko'rsatkichda qora rangda bosh harflar bilan berilishi kerak, boshqa so'zlar ko'rsatkichda kichik va oddiy harf bilan beriladi. Yonida esa (chiziqchadan so'ng) shu so'z qatnashgan sinonimik qatordagi bosh so'z bosh harf bilan beriladi.

KAMBAG'AL

Kambag'al – qashshoq – bechora – faqir – yo'qsil – gado – bechorahol – miskin

KELISHGAN

kelishgan – xushbichim – xushqomat – bejirim – ketvorgan – lobar – tamtam

Darajalanish lug'ati uchun graduonimik qatorda, bosh so'z(dominant) ning ma'nosini sinonimik qatordagi dominanta kabi tushunmaslik kerak. Chunki graduonimlar o'zaro denotativ va konnotativ ma'nosi jihatidan ham farqlilik kasb etadi.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Shuningdek, tadqiqotchi G.Mirhanova sinonimlar o'quv lug'atining megaqurilishi va mikroqurilishi haqida ham o'z yondashuvlarini bayon qiladi: "Korpus sinonimik qatorlardan iborat bo'lib, lug'atning makroqurilishini, har bir sinonimik qator esa alohida lug'at maqolaga teng kelib, lug'atning mikroqurilishini tashkil qiladi. O'z navbatida lug'at maqola ham alohida tizim sifatida – sinonimlar qatori, qatorning umumiy sharhi, qatordagi har bir sinonim leksemaning leksikografik izohi hamda illyustativ materialdan iborat tuzilma hisoblanadi. Qatorda sinonimlarning joylashuvi asosida sinonimlar ifoda semasi, qo'llanish davri, qo'llanilish doirasi, iste'mol darajasi, uslubiy bo'yog'i va boshqalar yotadi" [Мирханова Г., 2022:69]. G.Mirhanovaning bu borada olib borgan tadqiqoti yangi avlod darajalanish o'quv lug'atining megaqurilishi va mikroqurilishini shakllantirishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lgan amaliy tilshunoslik va leksikografiya sohalari oldiga qator vazifalar qo'yilgan. Xususan, o'zbek tilining milliy korpusini yaratish va uni takomillashtirish, qolaversa, yangi o'quv lug'atlarini ishlab chiqish tilshunoslarimiz oldida turgan vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Захаров В.П. Корпусная лингвистика. Учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург, 2005. – 48 с.
2. Эшмуминов А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. – Қарши, 2019. – 130 б.
3. Бахриддинова Б.М. Ўзбекистонда ўқув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол. фан. докт. (DSc) дисс. – Самарқанд, 2020. – 266 б.
4. Мирханова Г. Ўзбек тилининг синонимлар ўқув изоҳли луғатини тузишнинг лингвистик асослари: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. – Қарши, 2022. – 138 б.
5. Джумабаева Ж. Турли тизимли тилларда лексик ва стилистик градуонимия. Монография. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. – 210 б.
6. Ражабова З.И. Ўзбек ўқув фразеографиясининг лингвистик аспекти: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. – Қарши, 2022. – 145 б.

**TIL MENEJMENTIDA TIL HAMJAMIYATI, NUTQ HAMJAMIYATI VA
DOMEN TUSHUNCHALARI**

ZARIPOV Rafiqjon

ToshDO 'TAU AF kafedrası katta o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD).

zaripovrafiqjon1@gmail.com

RAVSHANOVA Nozima

ToshDO 'TAU O 'TT fakulteti 2-bosqich talabasi.

nozimaravshanova77@gmail.com

Annotatsiya: til hamjamiyati, nutq hamjamiyati va domen tushunchalarining qo'llanilishi, ularning ma'no ko'lam va til menejerezatsiyasida tutgan o'rni kabi jihatlar mazkur maqolaning tadqiq obyekti bo'lib, ushbu tushunchalarning mazmun mundariyasi, semantik farqliliklari va til boshqaruvida ushbu tushunchalar bilan bog'liq jihatlar maqolada atroflicha tahlilga tortilgan. Shu bilan birga mazkur birliklarning jahon tilshunosligidagi tavsiflari keltirilib, muayyan mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: til menejmenti, sotsiologiya, ijtimoiy lingvistika, domen, imperik tadqiqotlar, nutq hamjamiyati, til hamjamiyati.

Abstract: aspects such as the use of language community, speech community and domain concepts, their scope of meaning and their role in language management are the object of research of this article, the content of these concepts, semantic differences and these concepts in language management aspects related to the article are thoroughly analyzed. At the same time, descriptions of these units in world linguistics are presented and certain comments are made.

Key words: language management, sociology, sociolinguistics, domain, imperial studies, speech community, language community.

Til siyosati individual qarashlar va tanlov imkoniyatlarini hisobga olishga mo'ljallangan bo'lsa-da, tilning boshqa jihatlari kabi, nutq hamjamiyati a'zolarining e'tiqod(mafkura)lari va konsensual xatti-harakatlariga bog'liq bo'lgan ijtimoiy hodisadir [Saussure, 1931].

Bu o'rinda Sossyur e'tirofida e'tibor qaratilgan nutq hamjamiyati tushunchasiga to'xtalib o'tsak. Ijtimoiy lingvistika yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarda ushbu tushunchaga atroflicha izoh berilmaganligi qator tilshunoslardan tomonidan e'tirof etiladi. Shunday bo'lsa-da ijtimoiy lingvistlar til hamjamiyati va nutq hamjamiyati tushunchalarini alohida-alohida ajratib ko'rsatdilar. Ulardan ayrimlari ma'lum bir tilda so'zlashuvchilarning barchasi til hamjamiyatini tashkil etishini e'tirof etgan bo'lsalar, ba'zilar ma'lum bir aloqa tarmog'ida muloqot qiluvchilarni nutq hamjamiyatini shakllantirishini ta'kidladilar. Masalan, Hockett til hamjamiyati tushunchasini ingliz tiliga nisbatan qo'llaydi. Til hamjamiyati ingliz tilida so'zlashuvchi dunyo bo'lishi mumkin [Hockett, 1958].

Ya'ni bu o'rinda Hockett kelajakda jahon hamjamiyati ingliz tili hamjamiyatini tashkil etishi mumkin ekanligiga e'tibor qaratmoqda. Ijtimoiy

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

lingvistika yuzasidan tadqiqotlar olib borgan Kachru til hamjamiyati tushunchasini quyidagicha e'tirof etadi: Biz uning murakkabligini jahon ingliz tilini yoki frankofoniya dunyosini tashkil etuvchi ko'plab navlarni aniqlaganidan beri tushunamiz (garchi frankofoniya ko'proq bo'lsa ham) [Kachru, 1986]. Yetuk lingvist Labov Nutq hamjamiyati tushunchasini quyidagicha tavsif etadi: Bir xil qahvaxona, ofisdan muntazam foydalanadigan, qishloq yoki shaharda doyimiy yashaydigan oila yoki odamlar guruhi bo'lishi mumkin [Labov, 1966]. Ayrim tadqiqotchilar mazkur olim qarashlariga qo'shilgan holda guruh birligi o'rnida millat [Gumperz, 1968] tushunchasini qo'llashadi.

Ushbu tadqiqotda muayyan jamiyatdagi til menejerezatsiyasi yoritilar ekan, yuqoridagi birliklarga aniqlik kiritib olishimiz va izlanishlarimiz davomida ularni o'z o'rnida qo'llashimiz lozim bo'ladi. Chunki tadqiqotda nutq jamoalari haqida gap borar ekan, ularning imkoniyatlarini kengroq tavsiflash uchun, albatta, ushbu tushunchalarning mohiyatini yetarlicha anglab olmog'imiz darkor.

Ta'riflardagi noaniqliklar yanada kengroq nazariy tadqiqotlar olib borish zaruratini yuzaga chiqardi. Chunki bizga aniqroq tashkiliy birlik kerak. Biz Fishmanning tadqiqotlarida ushbu jihatlarni umumlashtiruvchi, qamrab oluvchi birlikni uchratdik. Nutq hamjamiyati tushunchasi tarkibidagi birliklarni atroflicha qamrab oluvchi va ularni kankretlashtirib chegaralovchi tushuncha sifatida Fishman sotsiolingvistikaga domen tushunchasini kiritgan deb aytishimiz mumkin [Fishman, 1972].

Shuningdek, til menejmenti yuzasidan yaxlit va mukammal tadqiqot olib borgan Spolsky ham Fishmanning Nyu-Jersidagi barrio haqidagi klassik tadqiqotida sotsiolingvistikaga kiritilgan domen tushunchasidan foydalangan. Fishman har qanday muayyan jamoa uchun domenlar empirik tarzda belgilanishi kerakligini qayd etgan. U domenlarning qator xususiyatlarini e'tirof etadi.

Birinchidan, domen uy yoki oila, maktab, mahalla, cherkov (sinagoga, masjid yoki boshqa diniy muassasa), ish joyi, ommaviy axborot vositalari yoki hukumat darajasi (shahar, shtat, millat) kabi ijtimoiy makonni nomlaydi.

Tilni boshqarish nazariyasida ushbu domenlarning har biri o'z siyosatiga ega, ba'zi xususiyatlar ichki, boshqalari esa domendan tashqaridagi kuchlar ta'sirida boshqariladi. Oilada tilni boshqarish qisman oila a'zolarining nazorati ostida, lekin uning maqsadlari muntazam ravishda tashqi jamiyatga bog'liq.

Fishman tavsiflaganidek, domen uchta xususiyat bilan ajralib turadi: ishtirokchilar, joylashuv va mavzu. Domen ishtirokchilari shaxslar sifatida emas, balki ularning ijtimoiy rollari va munosabatlari bilan tavsiflanadi. Oilaviy domenda ishtirokchilar ota, ona, aka, opa, xola, amaki, bobo yoki buvi kabi qarindoshlik atamalari xizmatkor, enaga kabi boshqa tegishli rollar bilan belgilanadi. Maktab domenida odatiy rollar o'qituvchilar, o'quvchilar, xizmatchilar, direktorlardir. Ish joyida ular boshliqlar, ish beruvchilar, ishchilar, xizmatchilar, ustalar, xaridorlar va mijozlardir. Hukumat sohasida ular qonunchilar, byurokratlar va fuqarolardir.

Albatta, har qanday shaxs turli sohalarda turli rollarni egallashi mumkin. Ba'zida ziddiyatlar ham paydo bo'ladi. Ota farzandga ish beruvchi bo'lsa, ish vaqtida va oila davrasida o'zaro suhbat va faoliyat jarayonidagi muloqotda

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

muammolar yuzaga chiqishi mumkin. Bunday hollarda til boshqaruvida muammolar yuzaga chiqishi tabiiy bo'lib, bu faqatgina shaxsning boshqaruvchanlik qobiliyati va uni nutq menejmentiga samarali tadbiriq eta olishi bilan bartaraf etilishi mumkin.

Ikkinchidan, domen odatiy joylashuvga ega. Domenlar ijtimoiy va jismoniy voqelikni, odamlar va joylarni bog'laydi. Ammo bu ijtimoiy ma'nodir. Bu o'rinda til navlarini samarali qo'llashga eng mos keladigan joyni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi komponent mavzuni tanlash. Domenda nima haqida gapirish o'rinli ekanligi bilan bog'liq. Bu ish beruvchi va xodim biznesdan ijtimoiy masalalarga o'tganda tilni qanday o'zgartirishini ko'rsatadigan xususiyatga ega [Gumperz, 1976].

Spolskyning modelida ushbu uchinchi komponent kommunikativ funksiya bilan kengaytiriladi. Shuningdek, Spolsky bir kishi tomonidan muntazam ravishda tilning tanlanishi uning domenga mos keladigan narsani tushunishi bilan belgilanadi [Spolsky, 2009] deb hisoblaydi va o'z tadqiqotida bu boradagi turli mulohazalarini bildiradi. Kymlicka va Patten [Kymlicka, Patten, 2003] buni davlat muassasalarining ichki foydalanishi deb hisoblaydilar va ushbu muassasalar tomonidan ko'rsatiladigan davlat xizmatlari va shaxsiy foydalanish o'rtasida farq yuzaga kelganda asoslanishini ta'kidlaydilar.

Fishman tavsiya qilgan empirik domenlar umumiy amaliyotga muayyan darajada mos keladi. Biz ushbu tadqiqotda mavjud domenlarni tavsiflashdan yiroqmiz. Ammo shuni takidlaymizki, mavjud har qanday domenning lingvistik imkoniyatlari til makonini boshqarishda muayyan vosita bo'lib xizmat qilishi aniq. Shu sababdan o'zbek tili lingvistik makonidagi mavjud domenlarni kelgusidagi tadqiqotlarimizda atroflicha ko'rib chiqamiz. Biz mavjud domenlarning umumiy jihatlariga zaruriy o'rinlarda davlat tili menejmenti nuqtayi nazaridan e'tibor qaratamiz.

Shu o'rinda til hamjamiyati, nutq hamjamiyati va domen birliklari yuzasidan ayrim shaxsiy mulohazalarimizni bildirsak. Ijtimoiy sotsiologiyaga oid tadqiqotlarni imkonimiz boricha o'rganib chiqqan holda ushbu birliklarning mazmun-mundarijasida quyidagi semalarni mujassamlashtirish maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidlaymiz.

Til hamjamiyati muayyan bir tilda so'zlashuvchi xalq vakillarining tili bo'lib, bu til ushbu millatning ijtimoiy hayotida keng qamrovda qo'llanadi.

Nutq hamjamiyati jamiyatning sinf, yosh, kasb-kor, maqom va boshqa o'ziga xoslik kasb etuvchi jihatlar bilan farqlanuvchi, shaxslarning muayyan ijtimoiy guruhi uchun umumiylik xususiyatiga ega, ammo boshqa jamiyat vakillari uchun farqli nutq hisoblanuvchi til birliklari(boshqa ma'nolar yoki tushunchalar)dan tashkil topgan nutqidir.

Domen tushunchasining eng mukammal ta'rifini Fishmanning tadqiqotlarida ko'rib chiqdik. Shunday bo'lsa ham qayd etmoqchimizki, domen birligi nutq hamjamiyati tushunchasi mohiyatidagi ma'nolarni o'zida mujassamlashtirgan va yanada kengroq semantik maydonga ega birlik hisoblanadi. Biz tadqiqotimiz

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

davomida ushbu tushunchalardan nutq hamjamiyati birligini qo'llashni lozim deb bildik.

Bizningcha til menejmentida nutq hamjamiyati tushunchasi boshqa tushunchalardan ko'ra yuqori ahamiyat kasb etadi. Chunki til boshqaruvi til qo'llanish mexanizimlari bilan bog'liq tushuncha bo'lsa, nutq menejerezatsiyasi nutqni qo'llash tamoyillari bilan tavsiflanadi. Nutq hamjamiyatini yuqorida ta'kidlaganimizdek, muayyan ijtimoiy guruhlarining nutqi tashkil etadi. Ushbu guruhlarining nutqi, albatta, til menejmentiga yoki jamiyatdagi voqeliklarga mos ravishda o'zgarib boradi. Biz bu bilan domen birligini imkor etmoqchi emasmiz. Faqatgina til va nutq hamisha bir-birini taqozo etuvchi, to'ldiruvchi tushunchalar hisoblanganligi tufayli ularning menejerezatsiyasida ham yonma-yon tadqiq etish yanada yuqori samara beradi deb hisoblaymiz. Ta'kidlashimiz joizki, Spolsky ham Fishmanning qarashlarini e'tirof etgan holda o'zining "Til menejmenti" o'quv qo'llanmasida qayd etilgan jihatlarni yoritishda domen birligidan foydalanadi va qarashlarini asoslaydi. Shu bilan bir qatorda Sossyur qo'llagan nutq hamjamiyati birligining ijtimoiy lingvistikada yetarlicha dalillangan ta'rifini uchratmaganini qayd etadi hamda Fishmanning tadqiqotlarida qo'llangan domen atamasi mohiyatida o'zi til boshqaruvi masalalarini yoritmoqchi bo'lgan jihatlarni ko'radi va ushbu termini qo'llaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fishman Joshua A. Domains and the relationship between micro- and macrosociolinguistics. In John J. Gumperz and Dell Hymes (eds.), *Directions in sociolinguistics* (pp. 435–453), New York: Holt Rinehart and Winston. 1972.
2. Gumperz John J. Social network and language shift. In J. Cook Gumperz and John J. Gumperz (eds.), *Papers on language and context: Working paper no. 46*, Berkeley: Language Behavior Research Laboratory, University of California. 1976.
3. Gumperz John J. The speech community. In David L. Sills (ed.), *International Encyclopedia of the Social Sciences* (Vol. IX, pp. 381–386), New York: Macmillan Company. – 1968.
4. Hockett Charles F., *A course in modern linguistics*, New York: Macmillan. 1958.
5. Kachru Braj B. *The alchemy of English: The spread, functions and models of non-native Englishes*, Oxford: Pergamon Institute of English. 1986.
6. Kymlicka Will and Patten, Alan. Introduction: Language rights and political theory: Context, issues and approaches. In Will Kymlicka and Alan Patten (eds.), *Language rights and political theory* (pp. 1–51), Oxford: Oxford University Press. 2003.
7. Labov William. *The social stratification of English in New York City*, Washington DC: Center for Applied Linguistics. 1966.
8. Saussure Ferdinand de, *Cours de linguistique ge'ne'rale*, Paris: Payot. 1931.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

9. Spolsky Bernard. Language Management. Cambridge. Cambridge University Press. 2009. – P. 322.

**O'ZBEK TILI XRONONIMLARINING LEKSIKOGRAFIK TADQIQI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**

NORQO'ZIYEV Jamshid

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi*

Annotatsiya: maqolada o'zbek tili xrononimlarining leksikografik xususiyatlari, xrononimlarning formal strukturasi butunlay o'ziga xosligi, ayrim hollarda so'zlar o'zining keng ma'nosini yo'qotib ixtisoslashgan ma'no tomonga siljishi, atoqli otlar bilan birga qo'llangan turdosh otlar yakka shaxs emas, jamoaviy, ommaviy harakat ma'nosini anglatib boshlashi, jumladan, urush bilan bog'liq bo'lgan xrononimlar juda ko'pchilikni tashkil etishi, bunda shaxs nomlari va joy nomlari ustuvorlik kasb etishi kabi masalalar to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: formal, xrononim, nomlar, joy, vaqt, turdosh otlar, joy nomlari, vaqt nomlari, bayram nomlari, qo'zg'alon, jang, urush, bosqin

Abstract: the article describes the lexicographic features of chrononyms of the Uzbek language, the formal structure of chrononyms is completely unique, in some cases, words lose their broad meaning and move towards a specialized meaning, beginning to mean a collective, mass action, including the fact that chrononyms related to war are very numerous, and the names of persons and places take precedence.

Keywords: formal, chrononym, names, place, time, cognate nouns, place names, time names, holiday names, uprising, battle, war, invasion.

O'zbek tilshunosligida xrononimlarining shevalararo (interdialekt) korpusi leksikografik talqini tizim-funksional tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgani yo'q. Bu xorijiy mamlakatlarda yetarlicha tadqiq etilgan. Ilmiy muomalaga keng qamrovli leksik materiallar kiritilgan, shu jumladan nashr qilinmagan maydon manbalaridan olingan, ba'zi "qora" xrononimlarning semantik va motivatsion rekonstruksiya va ularning semantik va so'z shakllanishi hosilalari amalga oshiriladi.

Shuningdek, bu borada xrononimlar onomastikaning etnodialekt lug'atini tuzish tamoyillarini ishlab chiqishda ham qo'l keladi. Xrononimiya, taqvim nomlarini kompleks tahlil qilish usuli taklif etiladi, ulardan foydalanish xrononimik tizimni tashkil etishning ko'p bosqichli modellarini aniqlashga, shuningdek, til tizimida va matnda nomlarning ishlash xususiyatlarini tavsiflashga imkon berdi.

Amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqot materiallaridan leksikografiya, leksikologiya, etnolingvistika, onomastika bo'yicha universitet kurslarida va maxsus kurslarda, sheva xrononimlarini yig'ish usullarini ishlab chiqishda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Xrononimlar obyektiv voqelik bilan bevosita bog'langan bo'lib, ularning mavzuiy tasnifida ushbu voqelikning qaysi turini aks ettirishi e'tiborga olinadi.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

[Пеммep C.A., 2005, 3.] Ular qanday mazmunni anglatishidan qat'i nazar, muayyan vaqt semasi ustuvorligi asosida birlashadi.

Tilshunoslikda urush harakatlari bilan xrononimlar alohida o'rin tutadi. Ular xrononimlarning bir ko'rinishi sifatida *batalionimlar* ham deb yuritiladi. [Канна B.Ю. 2006, 211]. Batalionimlar sirasida urush nomlari, jang nomlari, mudofaa nomlari, yurish nomlari, qirg'in nomlari kabilarga ajratiladi.

Xrononimlar onomastikaning quyi tizimi bo'lib, ularning ma'nolari va tizim aloqalarida kalendar vaqti haqida sodda fikrlarni ochib beradi.

Etno-dialekt lug'ati xalq xrononimiyasining sistem-funksional o'ziga xosligini o'rganish uchun poydevor bo'la oladi. Lug'atning izohli qismiga xrononimning o'zi, u belgilagan kalendar sana haqidagi ma'lumotlar, areal belgilari, tasviriy kontekstlar, leksik izchillik munosabatlari haqidagi ma'lumotlar, shuningdek, xrononimga asoslangan semantik va so'z yasovchi derivatsiyalarni kiritish mumkin. Lug'atning ideografik qismida ma'lum bir sanani belgilovchi barcha kalendar nomlari belgilanishi va bu nomlarning areal taqsimlanishi haqida ma'lumot ham berilishi mumkin.

Xrononimlar semantikasi turli darajalarni ajratib turadigan tizim (denotativ, motivatsion, konnotativ, pragmatik), ma'no tarkibiy qismlari (baholash, etnomadaniy va mafkuraviy), shuningdek, xrononimik mikrosistemalarda (o'zaro bog'liq xrononimlarning motivatsion xususiyatlarini taqqoslashda) yuzaga keladigan ma'nolar sifatida tavsiflanishi mumkin.

Xrononimlarni mavzuviiy shaklda lug'atda berish. Xrononimlar obyektiv voqelik bilan bevosita bog'langan bo'lib, ularning mavzuviiy tasnifida ushbu voqelikning qaysi turini aks ettirishi e'tiborga olinadi [Пеммep C.A., 2005, 3]. Ular qanday mazmunni anglatishidan qat'i nazar, muayyan vaqt semasi ustuvorligi asosida birlashadi.

Tilshunoslikda urush harakatlari bilan xrononimlar alohida o'rin tutadi. Ular xrononimlarning bir ko'rinishi sifatida *batalionimlar* ham deb yuritiladi [Канна B.Ю. 2006, 48]. Batalionimlar sirasida urush nomlari, jang nomlari, mudofaa nomlari, yurish nomlari, qirg'in nomlari kabilarga ajratiladi:

Urush nomlari: *Avstriya-Turkiya urushi, Avstriya-Italiya-Fransiya urushi, Avstriya-Prussiya urushi, Avstriya-Fransiya urushi, Avstriya-Italiya urushi, AQSh fuqarolar urushi, Aleksandriya urushi, Amerika Meksika urushi...*

Jang nomlari: *Anqara jangi, Austermi janggi, Badr jangi, Borodino jangi, Gavgamella jangi, G'ijduvon jangi...*

Mudofaa nomlari: *Buxoro mudofaasi, Samarqand mudofaasi, Urganch mudofaasi, O'tror mudofaasi, Xiva mudofaasi, Ershi mudofaasi*

Operatsiya nomlari: *Berlin operatsiyasi, Visla Oder operatsiyasi, Manjuriya operatsiyasi.* Bular sirasida missiya nomlari ham ichki tarkibiy qism sifatida yashaydi: *Barbarossa rejasi, Ignatev missiyasi, Negri missiyasi, Xonikov missiyasi, Shuman rejasi kabi.*

Yurish nomlari: *Angliya, Fransiya, Isroilning Misrga qarshi agressiyasi, Arablar istilosi, Rossiya istilosi, Bekovich-Cherkaskiy harbiy yurishi, Buxoro bosqini, Gall yurishlari, Demodam yurishi, Mo'g'ullar istilosi, Salib yurishi kabi.*

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Shu bilan xrononimlarning birinchi guruhi nihoyasiga yetadi.

Ikkinchi guruhga harakat nomlari, qo'zg'olon nomlari, isyon nomlari, inqilob nomlari kiradi. Bular mohiyatan boshqaruv hokimiyatiga qarshi qaratilgan bo'lib, davlat va xalqlararo urushlardan farq qiladi.

Qo'zg'olon nomlari: *Abro'y qo'zg'oloni, Alban qo'zg'oloni, Andijon qo'zg'oloni, Bobak qo'zg'oloni, Bobilar qo'zg'oloni, Bobo Is'hoq qo'zg'oloni, Bobo Mirak qo'zg'oloni, Bobon qo'zg'oloni, Bolotnikov qo'zg'oloni...*

Isyon nomlari: *Vabo isyoni, Osipov isyoni* kabi.

Inqilob nomlari: *Iyul inqilobi, Boku kommunasi, Buyuk fransuz inqilobi, Gretsiya inqilobi, Ili inqilobi, Ingliz inqilobi, Iyul inqilobi, Kamolchilar inqilobi...*

Tarixshunoslikda ba'zan batalionimlar sirasiga kiritiladigan, ba'zan ulardan tashqarida qaraladigan xrononimlarning bir turi – isyon nomlari ham mavjud bo'lib, ularni omonimik xrononimlar sifatida qarash ma'qul. Chunki ular urush harakatlarini ham, ijtimoiy-siyosiy harakatlarni ham ifodalashi bilan xarakterlanadi. Ularning ayrimlari harbiy urush ma'nosi kuchaygan holda namoyon bo'lsa, boshqalarida u kuchsiz yuzaga chiqadi. Shu boisdan harakat xrononimlarini oraliq hodisalar sifatida qarash tarafdorimiz:

Harakat nomlari: *Abu Muslim harakati, Bobilik harakati, Bosmachilik harakati, Guschilar harakati, Duguylan harakati, Jadidchilik harakati...*

Qirg'in nomlari: *Amritsar qirg'ini, Qipchoq qirg'ini.*

Alohida shaxs yoki xalqlarning tarixiy qahramonliklari ham xrononimlar sifatida tarix zarvaraqlaridan o'rin olgan. Ular quyidagilar:

Jasorat nomlari: *Bobobek jasorati, Jaloliddin jasorati, Jo'rabek jasorati, Madaminbek jasorati, Massagetlar jasorati, Namoz Pirimqulov jasorati, Spitamen jasorati, Temur Malik jasorati, To'maris jasorati, Shiroq jasorati.*

Uchinchi tip xrononimlar diplomatik mohiyati bilan xarakterlanadi. Ular sirasiga shartnoma, konferensiya, konvensiya, deklaratsiya nomlari kiradi.

Shartnoma nomlari: *Avstriya Germaniya shartnomasi, Adrianopol sulh shartnomasi, Aygun shartnomasi, Angliya-Misr shartnomasi, Angliya-Rossiya bitimlari, Angliya-sovet-Eron shartnomasi, Angliya-Transiordaniya shartnomasi, Berlin pakti, Brest sulhi...*

Konferensiya nomlari: *Alxeseras konferensiyasi, Bangdun konferensiyasi, Berlin kongressi, Berlin konferensiyasi, Vashington konferensiyasi, Vena kongressi, Kasablanka konferensiyasi, Qrim konferensiyasi, Lozanna konferensiyasi, San-Fransisko konferensiyasi, Tehron konferensiyasi.*

Konvensiya nomlari: *Angliya-Germaniya deklaratsiyasi, Vena konvensiyalari, Gaaga konvensiyalari.*

Yuqorida sanalgan barcha xrononimlar siyosiylik belgisi bilan xarakterlanadi. Navbatdagi xrononimlar siyosiy-yuridik mohiyati bilan xarakterlanadi:

Siyosiy-yuridik voqelik nomlari: *Nyurenberg sud jarayoni, Uorterreyt ishi, O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish* kabi.

Tabiiy hodisa nomlari: *Andijon zilzilasi, Burchmulla zilzilasi, Gazli zilzilasi, Gujarot zilzilasi, Yorkent zilzilasi, Jalolobod zilzilasi, Jambul zilzilasi, Izbosgan zilzilasi, Isfara-Botkent zilzilasi, Qayroqqum zilzilasi...*

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Ilmiy xrononimlar: *Buxoro ekspeditsiyasi, Iskandar ko'l ekspeditsiyalari, Perovski ekspeditsiyasi* kabi.

Xrononimlarning tasnifi bu bilan nihoyasiga yetmaydi. Shuningdek, ularning ichki bo'linishlari ham mavjud bo'lib, u maxsus mavzu asosida tadqiq qilinishi lozim.

Xrononimlar statistikasi

(O'zME)

№	Jahon xrononimlari	Soni	O'zbekiston xrononimlari
1	Urushlar	46	—
2	Janglar	53	4
3	Qo'zg'olonlar	54	15
4	Isyonlar	3	2
5	Harakatlar	18	8
6	Inqiloblar	13	—
7	Mudofaalar	6	5
8	Operatsiyalar	3	—
9	Shartnomalar	—	2
10	Konferensiyalar	11	—
11	Konvensiyalar	5	—
12	Qirg'inlar	2	1
13	Zilzilalar	36	14
14	Rejalar	5	—
15	Jasoratlar	10	10
16	Yurishlar	8	6
17	Ekspeditsiyalar	3	3
18	Ishlar	2	—
19	Chegaralanish	1	1
Jami		279	69

Xrononimlarning turlari rang-barang ekanligi mavjud tahlillar asosida anglashildi. Biroq muayyan turdagi semantik xususiyatlarga va amalga oshirilishiga qarab, nisbiy xrononimlarning ham mavjudligi shuningdek, uning o'zgaruvchan-funksional, bifunksional va monofunksional turlari ustida ham alohida tadqiqotlar olib borilishi lozimligini ta'kidlash o'rinli, deb hisoblaymiz.

Vaqt kategoriyasi bizning ongimizni tuzadigan va dunyoni idrok qilishimizni belgilaydigan asosiy kategoriyalardan biridir. Shu munosabat bilan vaqt bilimning turli sohalari: astrologiya, fizika, falsafa, psixologiya, geologiya, arxeologiya va hokazolarda tadqiqot predmetiga aylandi. Bu kategoriya til uchun ham asosiy hisoblanadi, shuning uchun vaqt belgilarining lisoniy birliklarini va vaqt munosabatlarini, ularning nutqdagi vazifalarini o'rganish hozirgi zamon tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Hozirgi zamon tilshunosligida "xronos" deb ataluvchi leksik-semantik zamon kategoriyasining ajratilishi nisbatan yaqqolroq asoslab berilgan. Xronosning

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

vazifalari aytilayotgan voqealarning vaqtini yangilash va ularni matnda xronologizatsiya qilishdan iborat. Xronos turkumining birligi xrononim – vaqt va temporal munosabatlarni ifodalovchi leksik vositadir.

Bular orasida o'zbek xalqi tarixida ro'y bergan eng muhim qo'zg'olonlar ham keltirilgan. Mazkur xrononimlarning morfologik tuzilishiga to'xtaladigan bo'lsak, aslida nomlar ot turkumi bilan ifodalanadi. Xrononimlarda ham kuzatilganda, ma'lum bo'lib turibdiki, *atoqli ot + turdosh ot* shaklida uchraydi buni janglarni ifodalagan xrononimlar misolida ham ko'rish mumkin:

Jang komponentli xrononimlar	Jang komponentli xrononimlar
Anqara jangi	Moxar jangi
G'ijduvon jangi	Neva jangi
Gulnabod jangi	Nikopol jangi
Darxon jangi	Niso jangi
Jangi loy (loy jangi)	Panipat janglari
Jom jangi	Salamin jangi
Zirabuloq jangi	Sayyo jangi

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, jang komponenti qo'shib kelayotgan xrononimlar asosan, joy nomlarini ifodalovchi *atoqli* otlarga qo'shib keladi. Masalan, "Jom jangi" "Zirabuloq jangi" kabilarda O'zbekistonda joylashgan hudud nomi bilan bog'liq. Endi **jang** komponenti orqali hosil bo'lgan ayrim xrononimlar ayrim tabiiy hodisalar ta'sirida ham nomlanishi mumkin, bunda jang sodir bo'layotgan joy e'tibordan qolib, tabiiy hodisa xrononim yasallishiga asos bo'lib qoladi. Masalan, dunyo tarixida chuqur iz qoldirgan sohibqiron Amir Temur va Ilyosxo'ja o'rtasidagi jang kuni kuchli yomg'ir yog'adi va mazkur jang tarixga "Jangi loy" yoki "Loy jangi" nomi bilan qoladi. Shu tariqa mazkur xrononim paydo bo'ladi.

Harakat komponentli xrononimlar ko'proq joy nomi bilan emas, shaxs nomlari bilan bog'liq bo'ladi:

"Harakat" komponentli xrononimlar	"Inqilob" komponentli xrononimlar
Abu Muslim harakati	Buyuk fransuz inqilobi
Mardikorlik harakati	Gretsiya inqilobi
Bosmachilik harakati	Ili inqilobi
Jadidchilik harakati	Ingliz inqilobi
Sarbadorlar harakati	Iyul inqilobi

Shartnomalar ham tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, bir qator muhim ma'lumotlarni o'zi bilan tashib yuradi. Mazkur xrononimlarni eshitgan yoki ko'rgan zahoti shu bilan bog'liq bo'lgan voqea ko'z oldimizga, tafakkurimizga keladi.

O‘zbek tili milliy va ta’limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, xrononimlarni leksikografik jihatdan tadqiq etishda ularni milliy til korpusiga bog‘lash masalasini ham e’tiborga olish zarur. Xrononimlar lug‘atini yaratishda ularni mavzularga bo‘lgan holda berish ham foydalanuvchilarga muayyan darajada qulaylik yaratadi. Ammo elektron shaklida, sun’iy intellekt asosida yaratilayotgan bo‘lsa, qidiruv tizimiga tayanilsa, mavzulashgan bo‘lish shart emas. Xrononimlarning izohli, konseptual, davriy lug‘atlari yaratilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Канна В.Ю. Из наблюдений над функционированием как хрононимов как топонимов–батлионимов // Филологические исследования, 2006, – № 8. – С. 211.
2. Реммер С.А. Хрононимы как особый разряд собственных имен: Автореф. дисс. канд. филол. наук – Днепропетровск, 2005. – С. 3.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон нашриёти”, 2020. – 471-б.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси – Тошкент, “Миллий энциклопедия” 2004., – 544-б.

HAMROYEVA Shahlo

ToshDO'TAU dotsenti,

TOG'AYEVA Dilnoza

ToshDO'TAU doktoranti

dilnozatogayeva25@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada so'z yasovchi qo'shimchalarni modellash tirish va ularning yasali sh asosi, yasovchi qo'shimchalarning omonimligi to'grisida fikr yuritilgan. Bundan tashqari olimlarning so'z yasali sh haqida qimmatli fikrlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: so'z yasovchilar, model, yasali sh asosi, morfoanalizator, qolip, til birliklari, affiks, derevatema.

Annotation: in this article, the modeling of word-forming suffixes and the basis of their formation, the homonymy of the forming suffixes are discussed. In addition, the valuable opinions of scientists about word formation are mentioned.

Keywords: word generators, model, base of formation, morphoanalyzer, pattern, language units, affix, derivative.

A.Hojiyev so'z yasali sh modellari haqida shunday yozadi: "So'z yasali sh asosi" va "so'z yasovchi"ning tahlilidan ma'lum bo'ldiki, har qanday yasama so'z so'z yasali sh asosiga so'z yasovchi qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi. Demak, o'zbek tilida so'z yasali shining umumiy modeli "so'z yasali sh asosi + so'z yasovchi"dan iborat bo'ladi. So'z yasali sh asosi va so'z yasovchi esa material jihatdan turlicha bo'lishi mumkin. Lekin har bir yasama so'zning, masalan, qanday so'zdan, so'z yasovchining qanday affiks yoki yordamchi so'zdan bo'lishiga qarab, ularning har birini alohida modeli deb qarash kerak emas, bunga ehtiyoj ham yo'q" [Hojiyev, 1989: 109].

Olimning ushbu fikri an'anaviy so'z yasali sh tahlili uchun o'rinli, ammo avtomatik morfoanaliz jarayoni uchun modellar juda muhim, chunki so'z yasovchining har bir pozitsiyasi alohida ma'no bildirishi, boshqa-boshqa vazifa bajarishi mumkin. Bundan tashqari modellash tirish tabiiy tilni qayta ishlashning asosiy quroli sanaladi. Shu sababli analizatorlar uchun asos va so'z yasovchining turli pozitsiyalari, albatta, modellash tirilishi lozim.

H.Ne'matov, R.Rasulovlar esa qoliplar haqida quyidagilarni qayd etadi: "qolip til birliklarining o'zaro birikish tizimi va bu birikishning – nutqiy hosilaning mohiyati sifatida tushuniladi. Bu qismlar tenglama kabi (=) belgisi bilan ajratiladi. Masalan, {[ot] +[chi] = (ot anglatgan narsa-predmet bilan shug'ullanuvchi, aloqador shaxs atamasi)}". Anglashiladiki, so'z yasali sh qoliplarini tuzish so'z yasali shini o'rganish uchun muhim bo'lganidek, morfoanalizatorning so'z yasali shi tahlilida harakatlantiruvchi qism bo'lib xizmat qiladi.

Olimlar o'zbek tilida so'z yasali shining bahsli masalalariga ham alohida e'tibor qaratishgan. Morfoanalizator uchun modellarni shakllantirishda ushbu

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

ishlardan o'rinli foydalanish mumkin. A.Hojiyev mahsulli va mahsulsiz, kammahsul va sermahsul yasovchi morfemalar haqida shunday deydi: "U yoki bu so'z yasovchiga nisbatan "yasovchi" terminini qo'llash xato bo'lmaydi. Chunki ular ichida mahsulli va mahsulsizi ham, kammahsul va sermahsuli ham bor. Shuning uchun har bir so'z yasovchi haqida gap borganida, uning ana shunday xususiyati aytilishi mumkin. Lekin bunda ham u yoki bu qo'shimcha yordamida hozirda yangi so'z yasalishi yoki yasalmasligi, kam yoki ko'p miqdorda so'z yasalishi qayd etiladi, xolos. Uning so'z yasalishi tizimidagi boshqa xususiyatlari yoritilmay qolaveradi. So'z yasalishi tizimini yoritishda so'z yasalishi tiplarining mahsulli-mahsulsizligini (kammahsul-sermahsulligini) belgilash, buning sabablarini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, u yoki bu so'z yasovchi yordamida kam yoki ko'p so'z yasalishi faqat shu yasovchining xususiyati bilangina izohlanmaydi, balki bunda so'z yasalish asosining xususiyati ham muhim rol o'ynaydi. Bu hol ham mazkur hodisani so'z yasalishi tipiga nisbatan qo'llashni taqozo etadi" [Xojiyev A., Nurmonov A., Mahmudov N., 1989].

Morfoanalizatorning yasama so'z, yasovchi qism va yasalish asosini aniqlay olishi uchun uning lingvistik ta'minotida yasama so'z strukturasi haqidagi mukammal ma'lumot talab qilinadi. Yasama so'z strukturasi ma'nosi va vazifasiga ko'ra o'zaro farqlanadigan ikki xil komponent (ikki xil hodisa) mavjud bo'ladi, ya'ni yasama so'zda: 1) so'z yasalish asosi (yoki motivlovchi asos); 2) so'z yasovchi formant bo'ladi. Yasama so'zning hosil qilinishida asos bo'ladigan, yasama so'zning ma'nosiga asos bo'ladigan (yasama so'z ma'nosini motivlaydigan) komponent so'z yasalish asosi (motivlovchi asos) hisoblanadi. Masalan, turtki, ishchan, qoray so'zlarida turt, ish, qora so'z yasalish asosidir (so'z yasalish asosi yasovchi asos deb ham yuritiladi).

Analizatorning asoslar lug'atida o'zbek tilidagi barcha o'zaklar turkumga tegishlilik haqidagi ma'lumot bilan saqlanadi, ya'ni barcha o'zaklar lemmalangan, qaysi so'z turkumiga tegishliligi haqidagi axborot – teg biriktirilgan bo'ladi.

So'z yasalishining asosiy invariant modelini quyidagicha belgilaymiz: $R+d$. Bunda R – har qanday asos; d – derevatema, ya'ni so'z yasovchi morfema. Asosiy $R+d$ invariant modeli quyidagi submodellarda voqelashadi: R_v+d ; R_n+d ; R_a+d ; $R_{num}+d$; $R_{pro}+d$; $R_{adv}+d$; $R_{sim}+d$. ham alohida e'tibor qaratishgan. Morfoanalizator uchun modellarni shakllantirishda ushbu ishlardan o'rinli foydalanish mumkin. Quyidagi ma'lumotlardan foydalanib, ayrim yasovchi qo'shimchalarning modellarini qo'limizdan kelgancha tahlil qilamiz.

-**a** jizza ($R+d_{noun}$), ko'tara (savdo, $R_{verb}+d_{adj}$), qona ($R_{noun}+d_{verb}$), shig'g'a, chippa ($R+d_{adv}$) yordamchi so'zda sen-a

-**ak** g'ijjak ($R+d_{noun}$), qirmizak ($R+d_{adj}$)

-**gisupurgi** ($R+d_{noun}$), Yozgi ($R+d_{adj}$)

-**donkuldun** ($R+d_{noun}$), Qadrdon ($R+d_{adj}$)

-**dorchorvador** ($R+d_{noun}$), Puldor ($R+d_{adj}$)

-**ijannati** ($R+d_{adj}$), Tinch ($R+d_{verb}$)

-**ikko'rik** ($R+d_{noun}$), egik ($R+d_{adj}$), birik, ko'zik ($R+d_{verb}$)

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

-iq chiziq (R+d_{noun}), ochiq (R+d_{adj}), yo'liq (R+d_{verb})

-inekin (R+d_{noun}), sog'in (R+d_{adj}), oldin (R+d_{adv})

-k to'shak (R+d_{noun}), chirik (R+d_{adj})

-q taroq (R+d_{noun}), yumshoq (R+d_{adj})

So'z yasash tiplarini modellashtirishda so'z yasovchilarni emas, balki so'z yasash tiplarini tahlil etish yo'lidan borish to'g'ri. Bunda so'z yasashidek ko'ringan, ammo yasash hisoblanmaydigan hodisalar aniq belgilanadi va so'z yasash ob'ektiga kiritilmaydi. Ikkinchidan, shu vaqtgacha so'z yasovchiga bog'lab o'rganilgan hodisalar so'z yasash tiplari misolida o'rganiladi. Morfoanalizator so'z yasash tahlilida faqat morfologik shakllarni aniqlash bilan so'z yasash hodisasini to'g'ri tahlil qilib bo'lmaydi, sifatli tahlilga so'z yasash tiplari tahlili bilan erishiladi. Demak, o'zbek tilidagi barcha omonim va polisemantik morfemalarning qurshovdagi ma'nosini aniqlash modellari alohida tadqiqotni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хожиев А., Нурмонов А., Махмудов Н. Спорные вопросы в системе словообразования тюркских языков. // Советская тюркология, 1989. – №2

2. Hojiyev A. O'zbek tili so'z yasalishi. – Toshkent: O'qituvchi 1989. – 109 b. – b. 26.

TIL SIYOSATI KOMPONENTLARI

ZARIPOV Rafiqjon

f.f.f.d. (PhD) ToshDO'TAU doktoranti.

zaripovrafiqjon1@gmail.com

Annotatsiya: maqolada til siyosatining bir-biri bilan bog'liq, ammo mustaqil ravishda tavsiflanishi mumkin bo'lgan uchta komponenti: amaliyot, e'tiqod va boshqaruv yoritilib, ularning integral va differensial xususiyatlariga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, til siyosati atamasining tadqiqotlardagi ayrim ta'riflariga to'xtalinadi.

Kalit so'zlar: til siyosati, til siyosati komponentlari, amaliyot, e'tiqod, boshqaruv.

Abstract: the article examines three interrelated but independently distinguishable components of language policy: practice, belief, and governance, focusing on their integral and differential features. Also, some definitions of the term language policy in research are discussed.

Key words: language policy, components of language policy, practice, belief, management.

Til siyosati bir-biri bilan bog'liq, ammo mustaqil ravishda tavsiflanishi mumkin bo'lgan uchta komponentga ega amaliyot, e'tiqod va boshqaruv [Spolsky, 2009:175].

Til amaliyotlari bu kuzatilishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlar va tanlovlar bilan bog'liq. Odamlar tanlangan til xususiyatlari, ishlatiladigan tilning xilma-xilligini belgilaydilar. Ular muntazam va oldindan taxmin qilish mumkin bo'ladigan darajadagi siyosatni tashkil qiladi va ularni o'rganish paytida Labov aniqlagan kuzatuvchi paradoksi bilan murakkablashadi. Lingvist kuzatuvchi uchun qo'shimcha ishtirokchi qo'shadi va shuning uchun kuzatilmagan xatti-harakatlarni o'zgartiradi. Ularni tavsiflashni vazifa qilib belgilaydi [William, 1972: 97-120].

Tilni boshqarish uchun til amaliyotlari har bir tilni o'rganayotgan kishi uchun lingvistik kontekstni ta'minlashi ham juda muhimdir. Bolalarning tilni o'zlashtirishi ko'p jihatdan ular duch keladigan til amaliyotiga bog'liq. Misol uchun, muhojir ota-onalar ba'zan farzandlari o'zlarining meros tilidagi ba'zi so'zlarni bilmasligidan xafa bo'lishadi, chunki ular o'zlari kundalik nutqda ularni yangi tildan olingan so'zlar bilan almashtirib turishlarini tushunmaydilar [Shulamit, 2006].

Til siyosatining ikkinchi muhim tarkibiy qismi til haqidagi e'tiqod(mafkura)lardan iborat. Til siyosati va boshqaruvi uchun eng muhim bo'lgan mafkuralar tillar, navlar va o'ziga xosliklarga tayangan qadriyatlar yoki maqomlar bilan bog'liq. Masalan, til turlarining identifikatsiyalashdagi rolini hisobga olsak, millatim, ta'lim tilim, mintaqam, etnik kelib chiqishim men uchun eng yuqori qadriyatga ega bo'lishi mumkin. Tildagi variantlilik yoki xilma-xillik undan qancha odam foydalanishi va foydalanuvchilarning maqomi, so'zlovchi undan foydalanish orqali kutishi mumkin bo'lgan ijtimoiy va iqtisodiy foydadan

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

kelib chiqadi. O'z navbatida, bu so'zlashuvchilarning turli mafkuralariga bog'liq ravishda sodir bo'ladi.

Navbatdagi komponent – bu til boshqaruvi. Bu domen ishtirokchilari ustidan o'z til amaliyotlarini olib boradigan yoki mafkuralarini o'rnatadigan, o'zgartirish uchun vakolatga ega bo'lgan yoki shu maqomga da'vo qiladigan shaxs yoki guruhning aniq va olib borilishi mumkin bo'lgan harakatlari [Spolsky, 2009: 125].

Ushbu o'rinda til siyosati atamasining tadqiqotlardagi ayrim ta'riflarini keltirsak. Sotsiolingvistikaga doir lug'atda til siyosatiga quyidagi izoh beriladi: Til siyosati –tilning mavjud funksional taqsimoti va til quyi tizimlarini saqlab qolish yoki o'zgartirish maqsadida umumiy, yangi til normalarini shakllantirish uchun davlat, partiya, sinf va jamoat guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan chora-tadbirlar majmuyi, siyosatlari va ularning maqsadlaridir [Михальченко, 2006: 312]. Ta'rifdan anglashiladigan eng asosiy o'ziga xos jihat yangi til normalarini shakllantirishga qaratilgan, hukumat yoki ijtimoiy guruh tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuyi.

Til siyosatiga til masalalarini siyosiy, huquqiy va ma'muriy tartibga solish tizimi, mamlakatdagi til vaziyatiga rejali ta'sir qilish mexanizmlari sifatida qarash ham til siyosati tushunchasi mohiyatini ochishda yetarlicha asos bo'ladi. Bu jihatlar R.Zaripov tadqiqotlarida yetarlicha ochib berilgan bo'lib, olim til siyosati tushunchasini quyidagicha tavsiflaydi: Til siyosati deganda davlatda, jamiyatda til masalalarini siyosiy, huquqiy va ma'muriy jihatdan tartibga solish tizimi, til muammolarini hal qilish bo'yicha mafkuraviy tamoyillarning rasmiy-amaliy tadbirlari majmui, mamlakatdagi til vaziyatiga rejali ta'sir qilish mexanizmlari nazarda tutiladi [Zaripov, 2021: 35].

Ba'zi olimlar til taraqqiyotida amalga oshiriladigan harakatlar jarayoni uchun “reja” va “rejalashtirish” so'zining sinonimi sifatida “siyosat” so'zini ishlatib, “Til siyosati va rejalashtirish” tushunchalarini qo'llashni afzal ko'rishadi. Aslida muarakkablik “siyosat” leksemasining noaniqligidadir. Bizningcha tilni boshqarish qarori siyosat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kopeliovich Shulamit. Reversing language shift in the immigrant family: Case study of a Russian-speaking community in Israel, unpublished Ph.D. dissertation, Bar-Ilan University, Ramat-Gan. 2006.
2. Labov William. Some principles of linguistic methodology/Language in Society 1972. 1(1): 97–120.
3. Spolsky Bernard. Language Management. Cambridge. Cambridge University Press, 2009. – P. 322.
4. Zaripov R.E. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda til siyosati: bilingvizm va pluralingvizm: Filol. fal. fan. dok. (PhD) diss. – Toshkent. 2021. – 150 b.
5. Словарь социолингвистических терминов // Отв. ред. Михальченко В.Ю. – М., 2006. – С. 312.

**NORMATIV-HUQUQIY HUJJAT MATNI LINGVISTIK
EKSPERTIZASIDA IMLO QOIDALARIGA MOSLIK MASALASI**

MURTAZAYEVAbror

ToshDO'TAU katta o'qituvchisi, f.f.f.d (PhD)

abror.murtazayev.89@inbox.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilida normativ-huquqiy hujjat matnini lingvistik ekspertiza qilishda ularning imlo qoidalariga mosligini baholash masalasida fikr-mulohazalar hamda tavsiyalarni keltirilgan bo'lib, normativ-huquqiy hujjat loyihalarini imlo xatolariga yo'l qo'ymaslik, bunday kamchiliklarni oldini olishda xorij tajribasining ahamiyati haqida ham fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'z: normativ-huquqiy hujjat, loyiha, imlo, bosh harf, sun'iy intellekt.

Annotation: This article provides opinions and recommendations on the linguistic examination of the text of normative legal documents in the Uzbek language to assess their compliance with the spelling rules, to avoid spelling mistakes in the drafts of normative legal documents, and to prevent such shortcomings. opinions were also expressed about the importance of foreign experience.

Key words: regulatory legal document, project, spelling, initials, artificial intelligence.

O'zbek tilida normativ-huquqiy hujjat matnini lingvistik ekspertiza qilishda ularning imlo qoidalariga mosligini baholash masalasida fikr-mulohazalar hamda tavsiyalarni keltirishdan avval davlat tili, uning mohiyati va chegarasini aniqlashga harakat qilsak. "O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida"gi qonunga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-y., 12-son, 257-modda; O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2004 y., 51-son, 514-modda; 2010-y., 37-son, 313-modda; 2011 y., 41-son, 449-modda; 2017 y., 37-son, 978-modda; QHMMB, 04.12.2020 y., 03/20/653/1592-son; 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son) Davlat tilini izchil joriy etish jarayonini takomillashtirish va lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga mukammal o'tishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror qiladi: O'zbekiston Respublikasining 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida»gi Qonuniga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining Vedomostlari, 1989-yil, № 26-28, 453-modda) o'zgartish va qo'shimchalar kiritib, uning yangi tahriri tasdiqlansin (ilova qilinadi). deb keltirilgan bo'lib, ushbu qonunning 1-moddasida "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir." deb belgilangan.

Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi. Davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlaydi, shu jumladan unga hamma e'tirof qilgan ilmiy-

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta'minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis palatalari tegishli qo'mitalarining roziligi bilan o'zbek tiliga joriy etiladi. (7-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 3-dekabrda 714-II-son Qonuni tahririda - O'R QHT, 2004 y., 51-son, 514-modda) ya'ni, davlat tili sifatida e'tirof etilayotgan o'zbek tilining adabiy til normalariga amal qilish qat'iy belgilangan. Shuningdek, ushbu qonunning **8-moddasida** "O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e'lon qilinadi. (8-moddaning 1-qismi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-son Qonuni tahririda - QHMMB, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son) Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Muayyan millat vakillari zich yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi." deb keltirilgan bo'lib, o'zbek tilidan boshqa tillarda e'lon qilinish holatlari ham belgilab berilgan. Shuningdek, mazkur qonunning **9-moddasida** davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritilishi, zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta'minlanishi, O'zbekistonda o'tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek qatnashchilarning o'zlari tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanishi, **10-moddasiga ko'ra esa** korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritilishi, ishlovchilarining ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin ekanligi, **11-moddasiga ko'ra esa** sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o'sha joydagi ko'pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanishi, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o'rtasidagi iqtisodiy nizolarni ko'rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo'llaniladi. Iqtisodiy nizolar taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko'rib chiqilishi mumkin ekanligi qayd etilgan. (11-moddaning 2-qismi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 14-sentabrdagi O'RQ-446-son Qonuni tahririda - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 37-son, 978-modda)

Umuman olganda "Davlat tili haqida"gi Qonunda O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar, fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar ham davlat tilida amalga oshirilishi belgilangan.

"DAVLAT TILI – muayyan mamlakatda qonun chiqarish, ijroiya va sud hokimiyatlarida ish yuritish uchun rasmiy belgilangan til. Odatda, ko'p millatli mamlakatlarda, masalan, Hindiston, Kanada, Shveysariyada qaysi til yoki tillar rasmiy ekanligi konstitutsiyalarida belgilab qo'yilgan. Davlatlarning ko'pchiligida rasmiy til bilan Davlat tili aynan bir xildir. Faqat ayrim mamlakatlardagina rasmiy til maqomi Davlat tili maqomidan farqlanadi. Masalan, Shveysariyada konstitutsiyaga binoan nemis, fransuz, italyan tillari – rasmiy til; nemis, fransuz,

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

italyan tillari – D. t. sanaladi.” [regulation.gov.uz/oz/d/78701]deya keltirilgan bo'lib, bunda ham davlat tilining ish yuritishda, davlat idoralarida qo'llanilishida rasmiy belgilangan til ekanligi aytilgan bo'lib, rasmiy belgilangan tilning aynan qaysi uslublarni qamrab olishi aniq berilmagan. Ya'ni ushbu qonunga ko'ra davlat tili o'zbek tili bo'lsa, o'zbek tili o'z ichiga 5 ta uslub: so'zlashuv, badiiy, ilmiy, rasmiy hamda publitsistik. Mavhumlik xuddi mana shu yerda. Ya'ni “Davlat tili haqida”gi Qonunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasidagi barcha davlat idoralarida “davlat tilida ish yuritiladi” degan hukmga ko'ra, ish ko'riladigan bo'lsa, davlat tili – o'zbek tili, o'zbek tili esa o'z ichiga 5 ta uslubni birlashtirgan bo'lib, qonuniy jihatdan, davlat idoralarida so'zlashuv uslubida ham, badiiy uslubda va yoki barcha uslublarni aralash qo'llab ham ish yuritish mumkin bo'lib qoladi. Bu haqda qonun tili bo'yicha dastlabki va eng qimmatli tadqiqot olib borgan tilshunos olim Sh.Ko'chimov o'z tadqiqot ishida “Akademik V. Vinogradov tomonidan berilgan ta'rif yana ham to'liqroq bo'lib, u ko'pchilik olimlar tomonidan anglab yetilgan, ma'lum bir sohaga vazifaviy jihatdan xoslangan, shu sohada qo'llanish vositalarining u yoki bu umumxalq, umummilliy til doirasida, ifodaning ijtimoiy nutq amaliyotida xuddi shunday boshqa vositalariga nisbatan tanlanishi va uyg'unlanishidir.” [КўЧИМОВ III, 2004, 121.] deb keltirib, “Bu vazifaviy uslublar ma'lum bir ijtimoiy faoliyatga xoslanadi.” [КўЧИМОВ III., 2004, 121.] deya ta'kidlaydi. Masalan, badiiy uslub roman, hikoya, qissa va shu kabi qator manbalarni yuzaga keltirish, odamlarga estetik zavq ulashish uchun xizmat qilsa, publitsistik uslub, OAV vositalari orqali yuboriladigan ma'lumotlarni yetkazish uslubi, ilmiy uslub ilm-fan masalalarini ifodalovchi, rasmiy uslub esa davlat idoralarida ish yuritishda qo'llaniladigan uslub. Bu haqda Sh.Ko'chimovning “Huquqiy normalarni o'zbek tilida ifodalashning ilmiy-nazariy muammolari” (lingvo-yuridik tahlil) nomli doktorlik tadqiqot ishida “Adabiy til fonida qonunchilik uslubining o'rnini belgilashda V.D.Bondaletova, S.S.Vartapetova, E.N.Kushlina, N.A.Leonovalar rasmiy ish uslubini quyidagicha guruhlariga ajratadilar: 1.Qonunchilik uslubi; 2.Har xil ish qog'ozlari uslubi; 3.Diplomatik ish qog'ozlari uslubi.” [КўЧИМОВ III., 2022, 202.] deb keltirgan.


Qonunchilik uslubi rasmiy ish uslubi doirasiga kiruvchi uslublarning eng asosiy turi ekanligini ta'kidlab, uning jamiyat ijtimoiy faoliyatining huquqqa daxldor bo'lgan sohasigagina xizmat qilishini ham ta'kidlab o'tadi. “Qonunchilik uslubi - deb yozishadi “Qonun tili” kitobining mualliflari, rasmiy ish uslubi doirasiga kiruvchi barcha kenja uslublarning shakllanish va rivojlanish yo'lini belgilaydi, qonunchilik uslubining turli ish qog'ozlari matnining uslubiyatida va leksikasida o'z aksini topadi. Ushbu ish qog'ozlarining shakl va mazmuniga o'z ta'sirini o'tkazadi, idoraviy hujjatlarning va ma'muriy ish yuritishning namunasi bo'lib xizmat qiladi.” [Бондалетова В.Д., 1994, 14] deb, yaxlit adabiy til fonida qonunchilik uslubini alohida maxsus uslub sifatida, ya'ni rasmiy ish uslubidan alohida ajratib ko'rsatilishi va maxsus o'rganilishi zarurligini bunga esa rasmiy ish uslubi deyilganda faqatgina rasmiy ish qog'ozlari (ariza, tilxat, tarjimai hol kabilar) darajasidagi uslub doirasi tushunilishi bilan cheklanib qolayotganligini asos qilib keltiradi. Bu haqda yana qonunchilik uslubida esa sof yuridik voqea, hodisa,

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari


normalar mazmunini ifodalashini ta'kidlab, mazkur masalani murakkab va ko'p qirraliki, uni ifodalash vositasi rasmiy ish yuritish uslubi doirasida hal etib bo'lmaydi degan xulosani qayd etadi va bu haqda professor A.Ushakovning "Qonunchilik uslubi yurisprudensiya va lingvistika o'rtasidagi ma'lum bir ilmiy yo'nalish ekanligini, shunga ko'ra u mustaqil uslub sifatida tan olinishini lozimligi haqidagi fikrlari bilan to'ldiradi. [Кўчимов III. 202., 68] Bizningcha ham qonun tili alohida masala sifatida albatta tadqiq etilishi, uning alohida uslubiy xususiyatlari tartibga solinib, alohida uslub ekanligi ilmiy qayd etilishi zarur. Biroq, "Davlat tilida ish yuritiladi" deganda aynan qaysi chegarada ekanligini, "Davlat tili" tushunchasi davlat idoralarida ish yuritishda masalan, normativ-huquqiy hujjatlarning yozilishi, ish yuritish bilan bog'liq hujjatlarni rasmiy uslubda, davlat idorasining faoliyatini ommaga e'lon qilishda publitsistik uslubda, ta'lim tashkilotlarida rasmiy, ilmiy va publitsistik uslublarda ishlar olib borilishini aniq ifodalab qo'yish, "Davlat tili" va "Milliy til" tushunchalarini farqlash, ularni aralashtirib yubormaslik zarur deb hisoblaymiz.

Normativ-huquqiy hujjat matnini lingvistik ekspertiza qilishda ularning imlo qoidalariga mosligini baholashda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida"gi 339-son qarori hamda 2021-yil 2-fevraldagi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to'liq o'tishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari imlo qoidalari bo'yicha tartibga solish uchun huquqiy va ilmiy asos vazifasini o'taydi. O'zbekiston Respublikasida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjat loyihalarining muhokama portali regulation.gov.uz dagi hujjat loyihalarini tahlil qilganimizda, muhokamaga qo'yilayotgan normativ-huquqiy hujjat loyihalari hamon huquqiy jihatdan amaldan qoldirilgan kirill alifbosida berilayotganligi guvohi bo'ldik. Masalan, "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining Buyrug'i Dori vositalarini retsept bilan va retseptsiz beriladigan dori vositalari toifasiga kiritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" [regulation.gov.uz]

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari



2021-yil 2-fevraldagi “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to‘liq o‘tishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to‘liq o‘tishni ta‘minlash bo‘yicha «YO‘L XARITASI»”ning 21-bandida 2023-yil 1-yanvardan boshlab “Tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar, barcha tashkilotlarda ish yuritish hujjatlari va boshqa hujjatlarni lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida ishlab chiqish, qabul qilish va e‘lon qilish amaliyotini to‘liq joriy qilish. Davlat organlari va boshqa tashkilotlarning lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida ish yuritishga to‘liq o‘tishini ta‘minlash.” Belgilab qo‘yilgan bo‘lsa-da, hattoki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror loyihasi ham kirill alifbosida berilgan.



“Shu bilan birga, yuridik shaxslarni, shu jumladan tadbirkorlik subyektlarini tashkil etishda bir qator eskirgan hamda o'z ahamiyatini yo'qotgan talab va shartlar, amaliyotda bugungi kunda dolzarbligini yo'qolgan yuridik shaxslarning tashkiliy-huquqiy shakllari saqlanib qolmoqda.” Ushbu badda tadbirkorlik **tadbirkorlik** tarzida yozilib, imloviy xato yozilgan. Xuddi shu qaror loyihasidagi “23. Fond birjasida qimmatli qog'ozlar bilan savdolari amalga oshirish qoidalariga kiritiladigan birja a'zolariga va listing kompaniyalariga ta'sir qiluvchi muhim o'zgartirish va qo'shimchalar ular tasdiqlanishidan kamida o'n besh kun oldin fond birjasi saytida muhokamaga qo'yiladi.” <https://regulation.gov.uz/oz/d/78634>] badda *lizing* so'zi xato yozilgan.

“Mas'uliyati cheklangan jamiyat ustav fondi qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o'n ming baravaridan ko'p bo'lgan pulsiz hissalar bilan oshirilganda baholovchi tashkilot tomonidan ushbu hissalar baholash bo'yicha tuzilgan dalolatnoma taqdim etiladi”; v) 9-ilovaning 7-2-2-pozitsiyasi quyidagi tahrirda **bayo etilsin**:” [<https://regulation.gov.uz/oz/d/78634>] da bayon etilsin birikmasidagi bayon so'zi bayo tarzida berilgan. Xuddi shu normativ-huquqiy hujjat loyihasida “29.Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga davlat xizmatlari **qo'rsatishni** soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini rivojlantirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi 541-son qaroriga ilovaning 2-bandida:” [<https://regulation.gov.uz/oz/d/78634>] ko'rsatishni so'zi qo'rsatish tarzida yozish bilan imloviy xatoga yo'l qo'yilgan.

Normativ-huquqiy hujjat loyihalarini muhokama qilish portalida “O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNI Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (id-78624)”ning “6) 15-moddadaning 2-bandi chiqarib tashlansin;”da moddaning so'zi moddadaning tarzida berib, imlo xatosiga yo'l qo'yilgan. Xuddi shu hujjat loyihasida “**14-BOB OPERATIV BOSHQARISH HUQUQI**”; 14) **178-moddadaning matni** quyidagi tahrirda bayon etilsin:” [<https://regulation.gov.uz/oz/d/78634>]da yana o'sha moddaning so'zi moddadaning tarzida yozilishi bilan imlo xatosiga yo'l qo'yilgan. Xuddi shu hujjat loyihasida “13) 27-moddaning birinchi qismidan “lekin o'z ustav fondining (ustav kapitalining) o'n besh foizidan kam bo'lmagan” degan so'zlar chiqarib tashlanlansin;” tashlansin so'zi – tashlanlansin tarzida yozib, imlo xatosiga yo'l qo'yilgan.

“O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI QARORI O'zbekiston Respublikasida “yashil” texnologiyalar sohasida ilm-fan va sanoat o'rtasidagi tizimli aloqalarni yo'lga qo'yish chora-tadbirlar to'g'risida ID-78467”ning “O'zbekiston **Respublikasidainnovatsion** “yashil” texnologiyalar borasida ilm-fan va sanoat o'rtasidagi tizimli aloqalarni takomillashtirish chora-tadbirlar dasturi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.”

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

[<https://regulation.gov.uz/oz/d/78634>]da Respublikasida innovatsion so'zlari qo'shib yozilgan bo'lib, bu aynan ikki so'zni ajratib yozishni bilmaganlik bo'lmagani holda texnik xato bo'lsa-da, imloviy xato hisoblanadi. Ushbu hujjat loyihasida

“Ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining “Yashil” texnologiyalar sohasidagi salohiyatini mustahkamlash maqsadida yirik tarmoq korxonalariga biriktirish JADVALI”dagi “Kutilayotgan natida” qismining 2-bandida keltirilgan “2. Texnologik jarayonda ekologiya va atrof muhitga keltirilayotgan zararlarni taxlil qilish.”da tahlil, 5-bandida “5. Atrof muhitga chiqarib yuboriladigan tashlanmalar miqdorining kamaytirish bo'icha loyiha-takliflarini ishlab chiqish.”da bo'yicha so'zlarini yozish bilan bog'liq imloviy xatolar mavjud.


Shu o'rinda bir mulohazali jihatga e'tibor qaratib ketish o'rinli deb hisoblaymiz. “O'zbek orfografiyasining asosiy imlo qoidalarini” (1956-yil 4-aprelda tasdiqlangan)da “Bosh harflarning yozilishi.” bo'limida bosh harflar bilan yozish qoidalarini berilgan bo'lib, ushbu bo'limning birorta bandida (63-71 paragraflar) bosh harf bilan yozishda barcha harflarning bosh harflar bilan yoziladi degan qoida keltirilmagan. Xuddi shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi “O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida”gi 339-son qarori bilan tasdiqlangan “O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini”da ham bosh harflar bilan yozish qoidalarida barcha harflari bosh harf bilan yoziladi degan qoida mavjud emas. Ya'ni, yuqorida keltirilgan normativ-huquqiy hujjat loyihalarida ham va boshqa turli o'rinlardan, jumladan, vazirlik, idora va tashkilot nomlarini yozishda barcha harflarni bosh harf bilan yozish mumkinligi haqida hech qanday ilmiy asos mavjud emas va bu noto'g'ri. Ushbu holatga zaruriyat bo'lsa, masalan, “dizayn uchun” yoki boshqa bir qulaylik uchun “quyidagi hollarda barcha harflar bosh harf bilan yoziladi.” tarzida maxsus qoida kiritish bilan mazkur muammoni hal etish kerak.

Normativ-huquqiy hujjat loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazishda imlo qoidalariga mosligi baholashda

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-iyundagi Pq-3807-Son “O'zbekistonda Shanxay Hamkorlik Tashkilotining xalq diplomatiyasi markazi tashkil etilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida” qarorida ham qator imloviy xatolar mavjud. Masalan, “2017 yil 9 iyunda Ostona shahrida ShHTga a'zo davlatlar rahbarlari Kengashi yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar va takliflarni amalga oshirish, shuningdek, 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda xalq diplomatiyasi mexanizmlaridan xar tomonlama foydalanish maqsadida:”da har belgilash olmoshini **xar** tarzida, “...Tashki ishlar vazirligi, Madaniyat vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi,”da tashqi so'zini tashki, “Halq diplomatiyasi markazini (keyingi o'rinlarda – Markaz) tashkil etish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin, quyidagilar Markaz faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari etib belgilansin.” qismida xalq so'zi halq, quyidagilar so'zini

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

kuyidaqilar tarzida yozish bilan bog'liq imlo xatolariga yo'l qo'yilganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, ushbu qarorda keltirilgan "... ShHT mamlakatlarining madaniy- gumanitar sohada erishgan yutuqlari to'g'risida axborot-taxlilii materiallar tayyorlash va ularni muntazam chop etib borish;"da tahlilii so'zini, "noxukumat tashkilotlari, tijorat banklari xamda boshqa tashkilotlarning Markaz faoliyatini ko'llab-quvvatlashga ajratadigan grantlari;" da nohukumat so'zini, shuningdek, tashqi so'zini tashki, mebel so'zini mebel, ta'minlansin so'zidagi tutuq belgisining o'rniga belgisi bilan yozilgan imloviy xatolar mavjud bo'lgani holda lex.uz normativ-huquqiy hujjat loyihalari portaliga joylashtirilgan. Shu o'rinda ShHT qisqartmasining lotin imlosida yozilishida mustasno holat borligini inobatga olish zarurligini ta'kidlab o'tmoqchimiz. Ya'ni kirill alifbosida ШХТni yozishda muammo yo'q, biroq bu lotinda yozilganda SHHT tarzida yozilsa, ShHT emas, SHHT tarzida o'qilmasligi uchun ShHT tarzida berilishiga diqqat qaratish lozim.



1-jadval.

T/R	Asosiy imlo qoidalari	Xato mavjud bo'lganda — belgisi qo'yiladi	Xato bo'lmasa + qo'yiladi
1	Unlilar imlosi		
2	Undoshlar imlosi		
3	Asos va qo'shimchalar imlosi		
4	Qo'shib yozish		
5	Chiziqcha bilan yozish		
6	Ajratib yozish		
7	Bosh harflar imlosi		
8	Ko'chirish qoidalari		

Normativ-huquqiy hujjat loyihalarini imlo qoidalariga mosligini baholashda

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

yuqoridagi kabi jadval asosida imlo qoidalarining har bir bandiga ko'ra xatolar bor yoki yo'q ekanligini tekshirib chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ushbu masalada xatolarni xatolardan xoli bo'lishiga erishish uchun inson omilini kamaytirib, sun'iy intellekt orqali amalga oshirishni eng yaxshi va zamonaviy yondashuv deb baholashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кўчимов Ш. Қонун тили лингвистикаси. Монография. – Тошкент, 2022. – Б.121.

2. Кўчимов Ш. Ҳуқуқий нормаларни ўзбек тилида ифодалашнинг илмий-назарий муаммолари (лингво-юримдик таҳлил) Дисс. ф. ф. д. – Тошкент, 2004. – Б.202.

3. Бондалетова В.Д., Вартапетова С.С., Кушлина Э.И., Леонова Н.А. Язык закона. –1994. – Б.88.

Internet manbalari:

- 1.<https://regulation.gov.uz/oz/d/78701>
- 2.<https://qomus.info/encyclopedia/cat-d/davlat-tili-uz/>
- 3.<https://regulation.gov.uz/oz/d/78634>
- 4.<https://regulation.gov.uz/oz/d/78634>
- 5.<https://regulation.gov.uz/oz/d/78634>
- 6.<https://regulation.gov.uz/oz/d/78634>
- 7.<https://regulation.gov.uz/oz/d/78634>
- 8.<https://regulation.gov.uz/oz/d/78634>
- 9.<https://regulation.gov.uz/oz/d/78467>
- 10.<https://lex.uz/docs/3795314>

**TIL MENEJMENTI KOMPONENTLARI, DARAJALARI, BOSQICHLARI
VA ME’YORLARI**

ZARIPOV Rafiqjon

ToshDO‘TAU doktoranti f.f.f.d. (PhD)

zaripovrafiqjon1@gmail.com

RAVSHANOVA Nozima

ToshDO‘TAU O‘TT fakulteti 2-bosqich talabasi.

nozimaravshanova77@gmail.com

Annotatsiya: maqolada til siyosatiga bog‘liq holda til taraqqiyotida amalga oshiriladigan harakatlarga nisbatan qo‘llanadigan “rejalashtirish” va “menejment/boshqaruv” atamalari tavsiflanib, ushbu tushunchalarning semantik maydonidagi o‘xshash va farqli ma’nolar izohlangan. Til menejmentining jamiyatdagi shaxsdan boshlanuvchi tilni boshqarish turi “oddiy tilni boshqarish”, mikro (oilalar) dan makro (davlat) darajasigacha osib boruvchi uyushgan tilni boshqarish turlari farqlanib, ularning jahon tilshunosligidagi talqinlari qiyoslanadi. Til boshqaruvi darajalari oilalar, tashkilot, muassasalar, sohalar, davlat va boshqalar, til boshqaruvi bosqichlari quyi, o‘rta va yuqori, til menejmenti me’yorlari hukumat, muassasa, guruh tomonidan qabul qilinadigan qarorlar ekani farqlanib ularning mohiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: til siyosati, til menejmenti, “oddiy tilni boshqarish”, uyushgan tilni boshqarish, til boshqaruvi darajalari, til boshqaruvi bosqichlari, til menejmenti me’yorlari.

Abstract: the article describes the terms "planning" and "management/management" used in relation to language development activities in connection with language policy, and explains the similar and different meanings in the semantic field of these concepts. The language management type of language management starting from the individual in the society, "ordinary language management", the types of organized language management, which goes from the micro (family) to the macro (state) level, are distinguished, and their interpretations in world linguistics are compared. Levels of language management are family, organization, institutions, sectors, state, etc., levels of language management are lower, middle and higher, language management standards are decisions taken by government, institution, and group.

Key words: language policy, language management, "ordinary language management", organized language management, levels of language management, stages of language management, norms of language management.

Ko‘pgina hollarda olimlar til siyosatiga bog‘liq holda til taraqqiyotida amalga oshiriladigan harakatlarga nisbatan “rejalashtirish” va “boshqaruv” atamalarini qo‘llaydilar. Aslida bu ikki tushunchaning semantik maydonida o‘xshash semalar bilan bir qatorda farqli ma’nolar ham mavjud. Biz tadqiqotimizda “rejalashtirish” emas, balki “boshqaruv” atamasini ishlatamiz. Bizningcha, u hodisaning mohiyatini aniqroq qamrab oladi.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Tilni boshqarish atamasini Jernudd va Neustupny [Jernudd Bjorn H, Jin V 1986] taklif qilishdi va birinchi bo'lib fanda qo'llashdi. "Tilni boshqarish shaxsdan boshlanadi". Ular buni "oddiy tilni boshqarish" deb atashadi. Uyushgan tilni boshqarish esa mikro (oilalar) dan makro (davlat) darajasigacha hisoblanishini qayd etishadi.

Tilni tashkil etishning eng aniq shakli bu davlat tomonidan rasmiy tildan foydalanishning asosiy jihatlari belgilaydigan qonun. Aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda bunday qonun hujjati "Davlat tili haqida"gi qonun hisoblanib. Unda o'zbek tilining Respublika hududida va davlat tashqarisida qo'llanish imkoniyatlari, rivojlantirish strategiyalarini tashkillashtirish va boshqarishga oid jihatlari mujassamlashtirilgan. Masalan, maktablarda o'qitish tili sifatida ma'lum bir tildan foydalanish talabi yoki davlat organlari bilan biznesda muayyan tilni qo'llash.

XX asr boshlarida O'rta Osiyo til boshqaruvida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Xususan, O'zbekistonda asrlar davomida qo'llangan eski arab yozuvidan voz kechilib, lotin alifbosiga o'tkazilish qarori (SSSR hukumatining yangi alifboni amalga kiritish to'g'risidagi qarori 1929 yilning 7 avgustida e'lon qilinadi. 1929 yilning 10 avgustida O'zbekiston Xalq maorifi komissarligi kollegiyasining yig'ilishida yangi imlo qoidalari tasdiqlanadi [Ибрагимов, 1973: 222] bunga misol bo'la oladi. Chunki yozuv til boshqaruvining bir qismi hisoblanadi.

Til siyosatining boshqa jihatlari bo'lgani kabi, menejment ham muayyan sohalarga taalluqlidir. Oilaviy nutq hamjamiyatida immigrant ota-onalarning o'z tillarini saqlab qolish harakatlari til boshqaruvini tashkil qiladi. Bunda o'z vatanidan uzoqda turli maqsadlar bilan yashayotgan shaxslar nazarda tutiladi va ular o'zlarining oilasida ona tilini qo'llashga, boshqa til bosimidan saqlashga qaratilgan harakatlari, o'z tillarini boshqarish mexanizmlari ta'kidlanadi. Aytaylik, Rossiyadagi o'zbek migrantlari o'z oilasi davrasida ona tilini qo'llashlari mumkin.

Ushbu komponentlarning har biri tilni yoki til vositalarini tanlashda yordam beradigan birliklardir. Til amaliyotlari til tanlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan birga, til o'rganishni tushuntirishga yordam beradigan til modellarini taqdim etadi. Qayd etish joizki, tilning taraqqiyoti rivojlanish yo'lidagi malaka bilan belgilanadi. Mafkuralar shaxslarning individual qarashlarini hisobga olishga yordam beradi. Shu bilan birga rahbariyat siyosiy mafkuralariga mos ravishda hukumat shu til so'zlovchilariga o'z qarashlari, mafkuralarini o'zgartirishga ta'sir qilishi mumkin.

Ushbu komponentlar nutq hamjamiyati va nutq hamjamiyati tashqarisida ham ahamiyatli. Eng zaruriysi til amaliyotlari hisoblanadi. Chunki ular bo'lmaganda mavjud model va malaka ham bo'lmaydi. Qayd etishim lozimki, oilamda hech kim rus tilida gapirmaganligi sababli, men uni o'rganish imkoniyatidan foydalana olmadim. Agarda rus tilini o'rganish amaliyoti, imkoniyati mavjud bo'lganda men albatta bu tilni o'zlashtirgan bo'lar edim. Bir tilli muhitda tarbiyalangan bola ikki tillilik uchun xos ijobiy imkoniyatlardan mahrum bo'ladi. Til bilish til qo'llash uchun zarur chegarani o'rnatish bilan birga yashirin tilni boshqarishda ishonchli, kuchli vositalar bilan ta'minlaydi. Qolgan

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

ikkita komponent ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ulardan foydalanish va foydalanuvchilar haqidagi tasavvurlarimga asoslanib tanlashim mumkin bo'lgan til turlariga bo'lgan qarashlarim boshqaruv qarorlarimni hisobga olishda yordam beradi:

Menejment ko'plab til xilma-xilliklarini, tanlovlarini hisobga oladi. U avtomatik ravishda muvaffaqiyatli shakllanmaydi. Bu o'z navbatida menejerlarni taqozo qiladi.

Til amaliyotlari va mafkuralari yaratgan bosimlar muallifsiz bo'lishi mumkin. Buni quyidagi qarashlar bilan izohlashga harakat qilamiz. Ingliz tilining tarqalishi demografik va iqtisodiy bosimning natijasimi yoki imperialistik siyosatchining rejalashtirilgan faoliyatimi argumentlarini ko'rib chiqaylik. Odatda menejerni aniqlash lozim bo'lgandagina menejment degan pozitsiya yuzaga chiqadi. Yoki boshqarilishi kerak bo'lgan o'rinlarda boshqaruvchiga ehtiyoj seziladi. Biz kimdir rivojlanishdan foyda ko'rganligi sababli vaziyatni keltirib chiqargan bo'lishi kerak argumentini oqlamaymiz. Bizningcha ingliz tilining keng tarqalishi demografik, iqtisodiy va boshqa omillarning o'sishi bilan bog'liq.

Spolskiy o'z tadqiqotida shakllantirgan model, til amaliyoti, til mafkuralari va nutq hamjamiyatida til boshqaruvidan kelib chiqqan ichki kuchlar asosida til tanlashni nazarda tutadi. Ammo nutq hamjamiyatidan tashqarida sezilarli ta'sir etuvchi kuchlar mavjud.

Birinchidan har qanday shaxs o'z jamiyatining bir necha darajalari, tarmoqlari, sohalarining ishtirokchisi hisoblanadi. Ya'ni shaxs turli sohalarda turli rollarga ega. Jumladan men bir vaqtning o'zida ota, qo'shni, jamoatchi, ish beruvchi va fuqaro hisoblanaman. Bu mening turli sohalardagi til amaliyotlari va mafkuralari bilan tanish ekanligimni anglatadi. Men uchun bir nutq hamjamiyatidagi nutqiy harakatlarim boshqa bir nutq hamjamiyatidagi kommunikativ faoliyatimga asos bo'lishi mumkin. Jumladan Rossiya hududida ishlashga borgan o'zbek migrantlari yillar davomida bu o'lkada faoliyat olib bordilar va moliyaviy boyliklar bilan bir qatorda qiymati moddiy narsalardan ulkan bo'lgan til boyligini o'zlashtirib qaytdilar. Aslida ularning katta qismi rus tilini muayyan tajriba asosida o'zlashtirib, keyin ishlash uchun bormaganlar. Ularning katta qismi muhit bilan, til vaziyati bilan va faoliyat bilan bog'liq holda rus tilini o'zlashtirdilar. Yahudiylar jamoasidan tashqarida ishlagan yahudiy-fransuz tilida so'zlashuvchi erkaklar ham yahudiylar jamoasidan tashqarida ishladilar va ularga qimmatbaho qobiliyat sifatida zarur bo'lgan o'rta oliy nemis tilini olib kelishdi, bu esa Yahudiy tilining rivojlanishiga olib keldi [Weinreich Max, 1980].

Ikkinchidan, til boshqaruvi etnik tilni qayta tiklash harakatiga, maktab til siyosati, uy va jamoat xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatganda, til amaliyotini quyi sohalarga yuklash harakatlarini namoyon qiladi. Ushbu ko'p darajali tahlil quyi darajadagi amaliyotlar, mafkuralar va boshqaruvni yengib o'tishi kerak bo'lgan markazlashtirilgan til boshqaruvining ba'zi muammolarini tushuntirishga yordam beradi. Muhim nutq hamjamiyatlarini o'rganishda biz nutq hamjamiyatiga ta'sir qiluvchi ichki kuchlarni qayd etish bilan bir qatorda, tashqi bosimlarni ham ko'rib chiqamiz.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Til menejmenti bu muayyan davlat yoki guruhning o'z hududida til masalalarini tartibga solish yuzasidan olib boradigan maqsadli faoliyati hisoblanadi.

Davlat tili menejmenti nuqtai-nazaridan yondashadigan bo'lsak, til menejmenti muayyan davlat, hukumat yoki hukumat rahbarlarining mamlakat hududida davlat tilini o'rnatish, tartibga solish, rivojlantirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlari yig'indisi hisoblanib, bu jarayon o'lkada yashovchi boshqa millatlar tillariga hurmatni saqlagan holda davlat tilini targ'ib qilishga qaratiladi. Shuni ham alohida ta'kidlashimiz lozimki, til boshqaruvi muayyan maqsadga qaratilishi ham mumkin. Ammo bunda e'tibor qaratilayotgan tildan tashqari ushbu til amal qiluvchi hududlardagi boshqa tillarning normalari nazardan chetda qoldirilishi mumkin.

Tadqiqotlarda keltirilgan ta'riflarda til menejmentining muayyan tomonlari yoritilgan bo'lib, ko'p hollarda ushbu atamaning izohida yoritilayotgan mavzu yoki yondosh mavzuning ta'siri namoyon bo'ladi. Aslida til menejerezatsiyasining darajalari, bosqichlari va me'yorlari mavjud. Jumladan til boshqaruvi darajalari oila, tashkilot va muassasalar, sohalar, davlat, global va boshqa darajalarda bo'lishi mumkin. Til boshqaruvi bosqichlari sifatida quyi, o'rta va yuqori bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Til menejmentining yuqori bosqichida davlat miqyosidagi til boshqaruvi e'tiborga olinsa, o'rta bosqichda davlat va xalq o'rtasida til masalalari yuzasidan ko'prik bo'luvchi vakolatli muassasalarning til boshqaruvidagi faoliyati nazarda tutiladi. Quyi boshqaruvda esa jamiyatdagi til foydalanuvchilarining til boshqaruvidagi o'rni hisobga olinadi. Til menejmentining me'yorlari esa, til boshqaruvini olib borayotgan hukumat, muassasa, guruh tomonidan qabul qilinadigan qarorlarda ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jernudd Bjorn H. and Jin V. Neustupny. Language planning: for whom? Comments presented at the International Colloquium on Language Planning in Ottawa (Canada), May. – 1986.
2. Weinreich Max, History of the Yiddish language (trans. Joshua A. Fishman and Shlomo Noble), Chicago: University of Chicago Press. 1980.
3. Ибрагимов С.И. Орфография узбекского языка. Орфография гюркскмх лмтературнь1\ язъыкоа СССР. – М.: Наука, 1973. – с. 222.

**BADIIY MATNLARDA FE'L SO'Z TURKUMIGA DOIR FRAZEOLGIK
BIRLIKLAR POLISEMIYASI**

RAXIMOVA Sulurxon

TTAUf "O'zbek tili va adabiyoti, tillar" kafedrası katta o'qituvchisi
sulurrahimova@gmail.com

Annotatsiya: maqolada badiiy matnlar asosida polisemiya o'zbek tilining leksik tuzilishidan tashqari, uning boy frazeologik tizimiga ham xos bo'lib, bu tilning rivojlanganligi, frazeologik birliklar, asosan, fe'l so'z turkumi bilan ifodalanishi, iboraning semantik jihatdan bir so'zga teng ekanligi inobatga olinsa, kontekst bilan bog'liq holda polisemantik vazifani keng miqyosda bajara olishi, nasriy asarlar tahliliga, ayrim ilmiy-nazariy manbalarga tayangan holda frazeologik birliklar deyarli leksemalar darajasida polisemantik bo'lishi aniq misollarda dalillangan.

Kalit so'zlar: badiiy matn, frazeologiya, polisemiya, fe'l so'z turkumidagi so'zlar, iboralar ma'nodoshligi va ko'p ma'noliligi, nasriy matn, ko'chma ma'no

Annotation: the article considers that, in addition to the lexical structure of the Uzbek language, polysemy on the basis of artistic texts is characteristic of its rich phraseological system, the development of this language, phraseological units, mainly expressed by the verb word category, taking into account that the phrase is semantically equivalent to one word, can perform a polysemantic task on a large scale in connection with the context.

Keywords: artistic text, phraseology, polysemy, words in the verb phrase category, phrase meaningfulness and ambiguity, prose text, portable meaning

So'zlarning polisemiya ham, fe'l polisemiya ham tilning voqelikning xilma-xilligiga nisbatan chegaralangan tizim ekanligidan kelib chiqadi. Frazeologiya sohasida polisemiya o'ziga xos xususiyatlarga ega. Fe'l ma'nosi alohida so'zlardagidek aniq emas, chunki fe'l tarkibidagi so'zlar ko'pincha real ma'nosini yo'qotadi. Frazeologik birlikning ma'nosi kamroq farqlanadi, bu esa fe'lning semantik strukturasi bilan bevosita bog'liq: frazeologik birlikning semantik va grammatik tuzilishining murakkabligi undan turli ma'nolarda foydalanish imkoniyatining kamligida aks etadi.

Shunday qilib, fe'l polisemiya frazeologik birlikning bir xil moddiy qobig'i bilan semantik jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lgan ikki va undan ortiq ma'nolarning yaratilishidir.

Frazeologik ma'no fe'l polisemiya masalasini hal qilishning asosiy jihatidir. Frazeologiya o'ziga xos xususiyati, tarkibiy tuzilishining tushunilishiga qarab bu kategoriya turlicha talqin qilinadi. Frazeologik ma'no xususiyatlarini o'rganishni frazeologik birliklarning o'zini ta'riflashdan boshlash o'rinlidir. A.V.Kuninning fikriga ko'ra, frazeologik birliklar leksemalarning to'liq yoki qisman reinterpretatsiyalangan ma'noli barqaror birliklaridir [Kunin, 72:180]. Fe'lning eng ko'p tarqalgan xususiyatlari "til barqarorligi, semantik

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

butunlik va ayiruvchanlik" deb ataladi. Tildagi fe'lni aniqlashning hal qiluvchi omili uning obrazlilik bo'lib, tilning rivojlanish tendentsiyalaridan biri – ekspressivlikka moyilligiga mos keladi.

A.V.Kunin frazeologik tushunchasi doirasida "frazeologik ma'no – bu semantik jihatdan murakkab, alohida shakllangan til birliklari bilan ifodalanadigan ma'lumotlarning o'zgarishidir, bu so'zlarning o'zgaruvchan birikmalarining strukturaviy va semantik modellarini yaratish bo'yicha shakllanmaydi", degan edi[Kunin, 72:182].

Jahon tilshunosligida ham frazeologik polisemiyaning o'ziga xosligi konnotativ aspekt har doim bilvosita nominatsiya aktida ishtirok etishi bilan bog'liq. Konnotatsiya tarixan o'zgaruvchan kategoriya sifatida to'rtta tarkibiy qism: baholovchi, ifodalovchi, emotiv va funksional-stilistik o'zgarishlarda o'z aksini topadi.

Bu borada V.A.Kuninda frazeologik kontekst nazariyasining rivojlanishida muhim nuqta fe'lga xos bo'lgan strukturaviy va semantik xususiyatlar tufayli til birliklari sifatida artikulyativlik har doim ham fe'l mazmunini ochib berish uchun yetarli indikativ kuchga ega emas. Va shuning uchun Kunin FBni "nutqda semantik jihatdan amalga oshirilgan fe'lga nisbatan moslik, korrelyatsiya yoki bog'liqlik asosida ajratib ko'rsatilgan aktualizator"[Kunin, 72:93] deb belgilaydi.

Shunday qilib, frazeologik birlik – bu ikki yoki undan ortiq so'zlardan tashkil topgan turg'un ibora bo'lib, ularning ma'nosi butun ma'nolarning yig'indisiga teng emas, balki o'ziga xos idiomatik xarakterga ega bo'ladi. Bu o'rinda iboralar ifodalayotgan ma'nolarning o'zaro munosabati nihoyatda muhim. Ularning omonim yoki sinonimik munosabati tushunarli, ammo ko'pma'nolilik masalasi maxsus o'rganilishi zarur. Polisemantik frazeologizmlar jahon tilshunosligida nisbatan keng o'rganilgan, shuningdek, o'zbek tilshunosligida ham frazeologik birliklar turli aspektlarda tekshirib ko'rilgan, jumladan polisemiya masalasi ham.

Tadqiqotchi Sh.Rahmatullayev – ikki yoki undan ortiq leksik negizdan tarkib topgan, tuzilishi jihatidan birikmaga, gapga teng, mazmunan so'zga muqobil, yaxlitligicha ustama ko'chma ma'no anglatadigan lug'aviy birliklarni frazeologik ob'ekt deb e'tirof etadi [Rahmatullayev, 76:43]. B.Yo'ldoshev, A.Mamatov kabi tilshunoslar frazeologizmlarni keng tushunib, birikmali, turg'un, obrazli ifodalarni frazeologizmlar sifatida tadqiq qiladilar[Yo'ldoshev, 2000: 27].

Frazeologik birliklarning so'zlar polisemiyasiga munosabati hali monografik tadqiqot predmeti bo'lmagan. Bundan tashqari, frazeologik noaniqlikning kognitiv jihatlari ham ochib berilmagan.

R.Sayfullayeva va boshqalar hammuallifligidagi "Hozirgi o'zbek adabiy tili" asarida frazeologiya masalasiga o'zga xos tarzda yondashilgan. Ya'ni, frazeologiya ning o'rganish predmeti frazeologizmning tabiati va substantional xususiyatlari hamda ularning nutqda amal qilish qonuniyatidir, degan fikrga kelinadi. Shuningdek, frazeologizmning semantik strukturasi haqida so'z yuritilib, frazeologizm ikki yoqlama lisoniy birlik bo'lib, shakl va mazmunning dialektik birligidan iboratligi, frazeologizmning shakliy tomonini so'z (leksema emas)

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

tashkil qilishi, ularning mazmuniy tomoni frazeologik ma'no ekanligi, frazeologik ma'no o'ta murakkab tabiatli, leksemada bo'lgani kabi ayrimi denotativ tabiatli bo'lsa, boshqalari grammatik ma'noga egaligi ta'kidlanadi.

Masalaning muhim jihatiga keldik, yani **polisemantik iboralar** masalasida o'zbek tilshunosligida keyingi yillarda bildirilgan fikrlar ham e'tiborga molik. Jumladan, B.Mengliyev va R.Sayfullayeva o'z tadqiqotlarida frazeologizm tarkibidagi ayrim so'zning ko'chma ma'noda, boshqalarining o'z ma'nosida qo'llanilishi natijasida ham polisemantiklik vujudga kelishini ta'kidlaydi. Masalan, *aqlini yemoq*, *ko'zini bo'yamoq*, *ko'zi ko'ziga tushdi*, *og'zi qulog'ida* frazeologizmlarida *aql*, *ko'z*, *og'iz* so'zlari o'z ma'nosida, *yemoq*, *bo'yamoq*, *tushmoq*, *qulog'ida* so'zlari esa ko'chma ma'noda [Sayfullayeva, 2006:33].

Olimlar frazeologizm, asosan, bir ma'nolidir, ammo polisemantiklik frazeologizmida ham uchrab turadi, deb alohida ta'kidlaydilar va quyidagi misollar orqali bu fikrni asoslaydilar. Masalan, *aqli yetmoq* frazeologizmi "idrok qilmoq", "ishonch hosil qilmoq" ma'nosiga, *bo'yniga qo'ymoq* iborasi 3 ta – "aybni birovga to'nkamoq", "isbotlab e'tirof qildirmoq", "biror ishni bajarishni birovning zimmasiga yuklamoq" ma'nolariga, *qo'lga olmoq* iborasi esa 4 ta – "o'z ixtiyoriga o'tkazmoq", "qo'qqisidan hujum qilib bosib olmoq", "qamash maqsadida tutmoq", "biror yo'l bilan o'z xohishiga bo'ysunadigan qilmoq" ma'nolariga ega [Mamatov, 2000:40] ekanligi ta'kidlanadi. Darhaqiqat, bu holat biz tanlagan mavzu maxsus o'rganilmaganini yana bir bor asoslaydi. Shuningdek, frazeologik polisemiya barcha ma'no ko'chma bo'lganligi bois, ularni bosh va hosila ma'nolarga ajratish qiyinligi, frazeologizm dagi darajalanish, giponimiya, funktsionimiya, ierarxionimiya kabi semantik munosabatlar ham o'z tadqiqotini kutib turibdi.

Ko'p ma'nolilik tilning muhim imkoniyatlaridan biridir. Bu jihat boshqa lisoniy birliklar qatori frazemalarga ham xosdir. Frazemalar kontekstda turli ma'nolarni ifodalab kelishi mumkin. Buni quyida keltirilgan misollar va ularning tahlili orqali izohlaymiz. O'tkir Hoshimov o'zining "Nur borki, soya bor" romanida bir iborani turlicha va turli iboralarni bitta ma'no ifodalashga xizmat qildirgan.

Iboralardagi ko'pma'nolilik va ma'nodoshlikni ham aniq farqlash lozim. Masalan, *ko'zida o't yondi*, *ko'zida olov yondi*, *ko'zida cho'g'yondi*, *ko'zlarida o't chaqnadi*, *ko'zida o't porladi*, *ko'zidan uchqun chaqnadi* va boshqalar bitta ma'noni ifodalashga xizmat qiladi.

Frazeologik polisemiya quyidagi jadvalda aks etgan ibora va ularning kontekstdagi ifodasida namoyon bo'lmoqda. Mazkur yondashuv frazeologik polisemiyaning lisoniy shakllanishini o'rganish zarurati borligini ko'rsatadi:

№	Ibora nomi	Ma'nosi	Kontekstda
1.	Bosh chayqamoq	Ruxsat bermaslik	Keyin pastki labini tishlagancha, bosh chayqadi-da , "darrov yoting", deb imo qildi (263-bet).
2.	Bosh chayqamoq	E'tiroz bildirmoq	– Yo'q! – kotiba keskin bosh chayqadi . – Bitta o'zingizni chaqiryaptilar (346-bet).

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

3.	Bosh chayqamoq	Inkor qilmoq	– Asarning o'zi qanaqa, durustmi? – Yo'q! – Zuhra ohista bosh chayqadi – Mayda gap (273-bet).
4.	Bosh chayqamoq	Achinmoq, ta'kidlamoq	O'shanda Sulaymon Rustamovich iztirob bilan bosh chayqagan edi ; – Hozir xaridorlar yomon bo'p ketgan! – dedi bosh chayqab (369-bet)

Frazeologik polisemiya – frazemalardagi ko'p ma'nolilik hodisasi. **Ko'zga ko'rinmoq.** 1) “tanilmoq”, ko'zga ko'rinmoq 2) “o'ziga diqqat-e'tiborni jalb qiladigan bo'lmoq” kabi. Misollar: 1) *U kombinatning ko'zga ko'ringan ip yigiruvchisi edi* (Said Ahmad). 2) *Mana endi birgina tikilgani, ko'zlarining oqu qorasi – Maynasi bo'yga yetib, ko'zga ko'rinib qoldi* (Sh.Toshmatov).

Lekin polisemiya faqat tilning leksik strukturasiga emas, balki uning rivojlangan frazeologik sistemasiga ham xosdir.

Agar polisemiya turli tillarda ko'pchilik so'zlar uchun umumiy bo'lsa, shu tilda so'zlashuvchi odamlar bir-birlarini tushuna olmaydilar. Vaziyat va kontekst, yani so'z yoki frazeologiya ishlatilgan og'zaki muloqot muhiti har doim polisemiyaning chetlab o'tadi va so'z yoki ibora aniq ma'noga ega bo'ladi. So'z yoki ibora qanchalik polisemantik bo'lmasin, odatda matnda, nutq oqimida yoki dialogda aniq ma'no oladi. Frazeologiya sohasidagi polisemiya o'ldirishlar doirasida so'z yuritadigan bo'lsak, frazeologiya muammosi, shuningdek, frazeologik polisemiya so'z turkumlari orasida fe'llarda ko'proq kuzatilishi badiiy matnlar asosidagi misollar tahlilida ham o'z isbotini topdi deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кунин А.В. Фразеология современного английского языка: опыт систематизированного описания. – М.: Международные отно., 1972. – С. 188.
2. Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko'rki. – Toshkent, 1970, – B. 56.
3. Yo'ldoshev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari: Filol. fan. dokt. diss. avtoref. Toshkent, 1993;
4. Mamatov A. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari. Filol. fanl. dokt. diss. avtoref. – Toshkent, 2000.
5. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2006. – B. 124.

O'ZBEK TILI TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI SEMANTIK TEGGLASH XUSUSIDA

ISLOMOV Ikrom

Toshkent DO'TAU amaliy filologiya kafedrasi dotsenti

filologiya fanlari doktori (DSc)

ikrom75islom@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek tili geografiyaga oid terminlarini o'zbek tili korpusida joylashtirishda semantik teglash masalasiga doir vazifalar tahlilga tortilgan. Xususan, geografiyaga oid tushunchalarni ifodalovchi terminlarning leksikografik talqini va tavsifiga asoslanib, lozim o'rinlarda, o'zbek tilining izohli lug'atida aks ettirilmagan maxsus belgilarni semantik teg tarkibida qayd qilishning usullari xususida ham fikr yuritilgan, semantik teglash namunalari tavsiya qilingan.

Kalit so'zlar: termin, geografik termin, til korpusi, semantik teg, pometa, leksikografik tavsif, annotatsiya, konstanta teg, operator teg.

Abstract: In this article, tasks related to the issue of semantic tagging in the placement of Uzbek geographical terms in the Uzbek language corpus are analyzed. In particular, based on the lexicographical interpretation and description of the terms expressing concepts related to geography, in the appropriate places, the methods of recording the special characters not reflected in the explanatory dictionary of the Uzbek language in the semantic tag were considered, and examples of semantic tagging were recommended.

Key words: term, geographical term, language corpus, semantic tag, pometa, lexicographic description, annotation, constant tag, operator tag.

Ma'lumki, o'zbek tili korpusi uchun lug'aviy birliklarning semantik ma'nosi haqida axborot beruvchi o'zbek tili semantik ma'lumotlar bazasi tayyorlanishiga katta ehtiyojning mavjudligi maxsus leksika birligi bo'lgan terminologik birliklar yuzasidan ham alohida, maxsus tadqiqotlar olib borishni taqozo qiladi. Bu borada katta ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish murakkab va ayni paytda mas'uliyatli vazifadir. Shuningdek, o'zbek tili birliklarining semantik ma'lumotlar bazasi bir necha blokdan iborat bo'lishi har bir semantik maydon va so'z, terminning turli semantik xususiyatlari uchun alohida tadqiqot predmeti bo'lishini ta'kidlash zarur.

Keyingi yillarda o'zbek leksikologiyasi va semasiologiyasida lug'aviy birliklar semantik masalalarining tadqiqi milliy korpus uchun o'zbek tili birliklarini semantik teglash, uning nazariy asoslarni ishlab chiqishga doir muhim lingvistik vazifalarning amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, o'zbek tilining sohaviy leksikasi yuzasidan bajarilgan dissertatsiya va monografiyalar ham semantik teg(annotatsiya)lashning lingvistik asoslarini yaratishda muhim nazariy manba vazifasini bajaradi.

O'zbek korpus lingvistikasi doirasidagi ayrim tadqiqotlarda so'z ma'nosi, ya'ni semantik teglash bilan bog'liq masalalarga yo'l-yo'lakay fikr bildirilgan

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

bo'lsa, ba'zi tadqiqotlarning maxsus shu masalaga bag'ishlanganligini kuzatishimiz mumkin. Tadqiqotchi Sh.Hamroyeva "O'zbek tili mualliflik kopusini tuzishning lingvistik asoslari" nomli dissertatsiyasida [Hamroyeva, 2018] semantik teglash haqida umumiy ma'lumot bergan bo'lsa, D.Axmedova tadqiqotida o'zbek tili atov birliklarini semantik teglash masalasi [Axmedova, 2020] maxsus tadqiq qilingan, o'zbek tili atov birliklarining ma'lumotlar bazasini ishlab chiqishning ayrim muammolari ham o'rganilgan.

Tadqiqotlarda semantik annotatsiya, ya'ni teg tushunchasi quyidagicha tavsiflanadi: "Semantik razmetka – til korpuslaridagi so'z yoki birikmaning ma'lum bir semantik kategoriyaga mansubligini bildiruvchi, ma'noni maxsuslashtiruvchi belgi, izohlar majmui. Korpusning semantik teglari so'z ma'no(lar)i spetsifikasi, so'zning omonimlik, sinonimlik bilan bog'liq izohlar majmuini tuzish, so'zni kategoriyalash, uning mavzuviiy guruh, LSG, semantik maydonga mansubligini belgilash, derivatsion xarakteristikasi, atash ma'nosi kabi belgilarni qamrab oladi"[Axmedova, 2020:49]. Albatta, bu ta'rif o'zbek tili atov birliklari uchun umumiylik kasb etsa-da, terminologik birliklarning semantik razmetkasida xususiy o'ziga xosliklar mavjud.

D.Axmedovaning umumiy semantik teglashda qo'llash lozim deb sanagan semantik maydon, to'da, guruhlar geografik terminlarni annotatsiya(teg)lashda qo'llanishi mumkin. Xususan, ularni operator va konstanta teg sifatida ajratish muhim. Quyidagilar geografik terminlarni ajratib olish uchun asosiy yo'lko'rsatkich vazifasini bajaradi: "Ko'p ma'noli so'zlarni semantik teglashda ularning umumiste'mol va terminologik ma'nolari farqlanishi kerak: interfeysda avval so'zning umumiste'mol ma'nosi, keyin terminologik ma'nosi ko'rinishi foydalanuvchiga qulaylik yaratadi"[Axmedova, 2020:103].

Tilshunoslikka oid darslik va monografiyalarda hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasi bir necha leksik-mavzuviiy guruhga ajratiladi [O'zbek tili leksikologiyasi, 1981]. Bu LMGlarni operator teglar sifatida tanlash mumkin, chunki ular alohida semantik xususiyatni bildiradi. Konstanta teg esa nisbatan turg'un: u, odatda, semantik maydon yoki makrosistema nomidan kelib chiqadi.

Quyida geografik semaga ega lug'aviy birliklarni teglash uchun zarur bo'ladigan konstanta va operator teglar sirasini keltiramiz: (1-jadval)

1-жадвал

	Konstanta teg	Operator/klassifikator teg
	Tabiiy geografik obyekt, joy ifodalovchi so'z	Tabiatning tabiiy obyektlari nomi.
	Yo'nalish, tomon, o'rin ifodalovchi so'z	Uy-joy, o'rin tushunchasi bilan bog'liq so'z
		Turarjoy, qurilish va binokorlikka oid so'z
		Kishilar tomonidan yaratilgan (sun'iy) makon va joy nomi
	Tabiiy narsa, predmet nomi	Yer osti boyliklari, ma'dan nomi

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Biz geografik terminlar uchun konstanta va operator teglar sirasini semantik maydon, leksik-semantik guruh va to'da nomlaridan kelib chiqqan holda shakllantiramiz.

Ma'lumki, terminologik xususiyatga ega birliklar semantik jihatdan iyerarxik guruhiga qarab ajratiladi. Bunday tasnif korpus lingvistikasida taksonomiya deb ham yuritiladi. Shundan kelib chiqib, o'zbek tili izohli lug'atida geografik termin sifatida izohlangan birliklarni ham guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq. Quyida geografik terminlarning teglanishi va guruhlanishi masalasiga to'xtalamiz.

O'zbek tili geografik terminlar tizimini aniqlashda asosiy manba "O'zbek tilining izohli lug'ati" sanaladi. Bunda terminlar fan sohasiga oidlikni bildiruvchi pometa(leksikografik izoh)lar bilan belgilanadi. Bu lug'atda geografik terminlarga *geogr.* pometasi qo'yilgan. Masalan, ATROF leksemasining sememalarini kuzatamiz.

ATROF [*a. – tomonlar, chekka joylar*] 1 Tevarakdagi fazo, joy, yer; hamma taraf. 2 Tevarakdagi yaqin joy, yaqin oradagi yerlar. 3 Biror narsaning gir aylanasi, tevaragi yoki cheti, zihi. 4 *ko'chma* Tevarakdagi muhit, kishilar. 5 3-sh. j. k. va o'.-p. k. affikslari bilan ko'makchi vazifasida qo'llanadi (*q. atrofiga, atrofida*).[O'TIL, 2006:115]

Izohlardan ko'rinyaptiki, *atrof* so'zi ko'pma'noli: uning birinchi ma'nosi terminologik mazmun ifodalaydi. Demak, maxsus leksikografik pometa qo'yilmagan bo'lsa-da, ushbu so'zni geografik terminlar bazasi(GTB)ga kiritish mumkin. Agar *atrof* so'zida bo'lganidek, ko'pma'noli so'zlardan bitta ma'nosi terminologik xususiyat kasb etsa, izohli lug'atda bo'lmasa ham, ko'p GTBda geografik atama ekanligini bildiruvchi belgi bilan belgilanadi. Demak, bu so'zning barcha izohlari, etimologiyasi ma'lumotlar bazasiga kiritiladi; birinchi ma'no oldiga *geogr.* belgisi qo'yiladi. Ma'lumotlar bazasida quyidagi ko'rinishda bo'ladi: (2-jadval)

2-жадвал

	so'z	geografi k pometa	Etimol ogiya si	Seman tik teg	izoh-1	izoh-2	izoh-3
	atrof	geogr. izoh 1		O'rin/jo y	1Tevarakdagi fazo, joy, yer; hamma taraf.	2 Tevarakda gi yaqin joy, yaqin oradagi yerlar.	3 Biror narsa ning gir aylanasi, tevaragi yoki cheti, zihi

Ba'zan omonim so'zlardan biri geografik terminga xos mazmun ifodalaydi. Bunday holatda aynan o'sha leksema GTBga kiritiladi va omonimlarga xos bo'lgan rim raqami belgisi ham qo'yiladi.

"O'TIL"dagi bir ma'noli so'zlarning ko'pchiligi terminologik xususiyatga ega: ular maxsus leksikografik pometa bilan belgilanmagan. Ular GTBga kiritilib, semantik tavsifi hamda etimologiyasi keltiriladi, xolos. GTB tuzuvchisi tomonidan atamaning qaysi turkumga tegishliligi belgilanadi. Masalan: **ARXIPELAG** [*yun.*

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

arche – ibtido; bosh + pelagos – dengiz] Bir-biriga yaqin turgan dengiz orollari guruhi, orollar to'dasi [O'TIL, 2006:102].

Atamalar haqidagi ta'riflarda ularning bir ma'noli bo'lishi aytiladi [Hojiyev, 2004:104]. Ammo izohli lug'atda shunday leksemalar berilganki, ular ko'p ma'noli so'z sifatida belgilangan hamda ikkala semasi ham terminologik xususiyatga ega. Masalan:

Hatto uchta ma'nosi atama sifatida berilgan so'zlar ham berilgan. Masalan: IZOBARA [izo. + *yun. baros* – og'irlik] 1 *geogr.* Geografik xaritada bir xil atmosferaviy bosimga ega bo'lgan joylarni birlashtiruvchi chiziq. 2 *fiz.* Issiqlik jarayonlarini aks ettiruvchi diagrammalarda teng yoki doimiy bosim chizig'i. 3 *fiz., kim.* Nuklonlari soni bir xil, lekin proton va neytronlari soni xar xil bo'lgan – elektr zaryadlari jihatidan farqlanadigan atom yadrolari [O'TIL, 2006:181].

Demak, izobara atamasi uchta fan: geografiya, fizika, kimyo fanlariga oid termin sanaladi. Bunday holatlarda GTBda so'zning har bir semasi alohida ustunga joylashtiriladi, boshqa fanga oid termin ekanligi izoh ichida beriladi, geografik termin ekanligi maxsus ko'rsatiladi.

Nazariy manba hamda lingvistik korpuslar xususiyatlarini o'rganishimiz asosida korpus semantik razmetkasi uchun lingvistik ta'minot sifatida quyidagilarni ajratish lozim degan xulosaga keldik:

So'zlik.

Semantik lug'at yoki semantik ma'lumotlar ombori.

Semantik razmetkaning lingvistik modellari.

Semantik teglar to'plami.

Ko'pma'nolilik va omonimlikni farqlash filtri.

Shundan kelib chiqqan holda, geografik terminlar semantik tahlili uchun quyidagi ma'lumotlar tizimini ishlab chiqish lozim deb hisoblaymiz:

Geografik terminlar ro'yxati – so'zlik.

Geografik terminlar ma'lumotlar bazasi.

Geografik terminlar semantik teglari tizimi.

Demak, semantik razmetka tizimi umumiy qoidalar bilan birga har bir til uchun xususiy xarakter kasb etadi. Bu esa umumtil leksikasidagi har bir terminologik tizim birliklarni semantik teglash yuzasidan maxsus tadqiqotlarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Ushbu yo'nalishda amalga oshiriladigan tadqiqot natijalari esa amaliy tilshunoslikning rivoji uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахмедова Д. Атов бирликларини ўзбек тили корпуслари учун лексик-семантик теглашнинг лингвистик асос ва моделлари: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. – Бухоро, 2020. – 146 б.

2. Ўзбек тили лексикологияси (Муаллифлар жамоаси). – Тошкент: Фан, 1981.

O‘zbek tili milliy va ta’limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

3. Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. – Қарши, 2018. – 168 б.

4. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2002. – Б. 104.

**O'ZBEK SHEVALARI KORPUKLARI UCHUN DIALEKTIZM
IBORALARNI TALQIN QILISHNING AYRIM MASALALARI**

ISLOMOVA Shoira

*Toshkent DO'TAU tayanch doktoranti,
shoiraislomova@gmail.com*

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek shevalari va ularni milliy korpuslarda aks ettirish bilan bog'liq amaliy masalalar doirasidagi vazifalar, lingvistik tahlillar amalga oshirilgan. Xususan, o'zbek qipchoq shevalari leksikasiga mansub iboralarning semantik, grammatik xususiyatlari, adabiy til birliklariga munosabati masalasi talqin qilinib, milliy korpus va o'zbek shevalari korpusi uchun ularning tadqiqi masalalari tahlil qilingan, ular yuzasidan tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: adabiy til, sheva, milliy korpus, shevalar korpusi, qipchoq shevasi, shevaga oid iboralar, semantik tarkib.

Abstract: In this article, tasks and linguistic analyzes are carried out within the framework of practical issues related to Uzbek dialects and their reflection in national corpora. In particular, the semantic and grammatical features of the expressions belonging to the lexicon of the Uzbek Kipchak dialects, the issue of their relation to the literary language units are interpreted, the issues of their research for the national corpus and the corpus of the Uzbek dialects are analyzed, and recommendations are given.

Key words: literary language, dialect, national corpus, corpus of dialects, Kipchak dialect, dialect expressions, semantic content.

Bugungi tilshunoslik, amaliy tilshunoslik xarakterini axborot texnologiyalari va kompyuterlarga asoslangan tadqiqotlarsiz tasavvur qilish, belgilash va baholash mushkul. Xususan, amaliy tilshunoslikning rivoji, ahamiyati masalasida elektron lug'atlar, til korpuslari, dialektal korpuslar bilan bevosita bog'liq bo'lmoqda. Bu esa har bir tilshunoslik doirasida til, xususan, dialektal korpuslar masalasiga jiddiy yondashishni ham taqozo qiladi. Shuningdek, jahon tilshunosligida raqamli axborot texnologiyalari, internet tarmog'i orqali milliy til hodisalarini tadqiq qilish, tillarni o'zlashtirishga bilan bog'liq nazariy-amaliy masalalar mahalliy til, xususan, shevalar korpusi doirasida ham talqin qilinishi dolzarblik kasb etmoqda. Bu esa mahalliy tilga asoslangan milliy korpuslarda shevalar bazasini tayyorlash, alohida sheva korpuslarini yaratish vazifalarining tezkor sur'atda amalga oshirilishini ham talab qiladi. Shunga monand mahalliy tilni, uning shevalarini amaliy tilshunoslik aspektida tadqiq qilish, shevalarning yashovchanligini ta'minlash, milliy til korpuslari vositasida mahalliy til va shevalarni o'rganish, shevalar korpusining amaliy ahamiyatini ta'minlash, sheva materiallarini to'plash, korpuslarda joylashtirish kabi vazifalarning amalga oshirilishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, jahon tilshunosligi doirasida mahalliy tillarning o'ziga xosligini aks ettirish, sun'iy intellekt yordamida saqlash, tadqiq qilish, sheva materiallari va matnlarini elektron shaklda saqlash orqali shevalarning yashovchanligini uzaytirish

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

va ta'minlash, har bir mahalliy tilning shevalar korpusini yaratish, ulardan amaliyotda samarali foydalanish kabilar muhim vazifalar sifatida qayd qilinib kelinmoqda. Mahalliy til shevalariga oid materiallarni to'plash, tartibga solish, dialektal korpuslarni yaratish borasida dunyo korpusshunosligida qator jiddiy va samarasi yuqori tadqiqotlar amalga oshirilayotganligini ham alohida ta'kidlash lozim. O'zbek shevalari korpusini yaratish, uning amaliy faoliyatdagi o'rni va ahamiyatini ta'minlash borasida endigina muayyan ishlar amalga oshirila boshlandi. Bu borada katta tajribaning yo'qligi, shevalar korpusini yaratish vazifalarining keng va murakkabliklari shevalar bo'yicha amalga oshiriladigan tadqiqotlarning zarurati va ahamiyatini ham ko'rsatib turadi. Shevalar korpusi dunyo tilshunosligi tajribasida ikki turga ajratiladi: 1) o'zga til korpuslari shakliyl xususiyatlariga taqlidan yaratilgan dialektal korpuslar; 2) ma'lum bir hududning shevasi asosida yaratilgan dialektal korpuslar. Mazkur guruhlarining har biriga mansub ko'plab sheva korpuslari mavjud bo'lib, ularning tilshunoslikdan boshqa sohalar tadqiqida ham alohida o'rni va ahamiyatini qayd qilish joiz.

O'zbek korpuslingvistikasi sohasi o'zbek shevalar korpusi va uning leksik bazasini yaratish, o'zbek shevashunosligi masalalarini amaliy tilshunoslik aspektida o'rganish, sheva korpusini yaratishning lingvistik va dasturiy asoslarini belgilash va ishlab chiqish kabi dolzarb vazifalarning amalga oshirilishidan manfaatdor hisoblanadi. O'zbek shevalari korpusini shakllantirish shevalarning xorijiy tillarga tarjima dasturlari va lug'atlar, elektron darsliklar yaratish bilan bog'liq ilmiy-amaliy ishlanmalar, tavsiyalar tayyorlashning muhim omili sifatida xizmat qilishi muqarrar. Bu vaziyatda o'zbek tilining shevalari leksikasi va lug'aviy birliklari, xususan, iborolari yuzasidan ham ilmiy izlanishlarni amalga oshirish, ularning o'zaro hamda adabiy til birliklari bilan munosabatlariga oydinlik kiritish, semantik, grammatik jihatdan tahlil qilish, tasniflash, korpuslar uchun semantik teglash kabi vazifalarni bajarish ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. O'zbek tili tarkibida qipchoq shevasi va uning leksikasi alohida o'rin egallaydi. Qipchoq shevalariga oid iboralar ham o'ziga xos leksik-grammatik xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi.

Ma'lumki, korpusshunoslik tajribasiga ko'ra, til yoki sheva korpuslarini tuzish nisbatan murakkab faoliyat sifatida qaraladi. Tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, ushbu faoliyat alohida ikki bosqichli ishning amalga oshirilishi bilan bevosita bog'liq. "Birinchii qism – shevalar bankini yaratish, ya'ni shevashunos olimlar tomonidan hozirga qadar olib borilgan dala, qishloq va aholi yashash punktlarida olib borilgan ekspeditsiya materiallari. Bular: oliy ta'lim muassasasida o'qiyotgan talabalar tomonidan dialektal amaliyotlar natijasida yig'ilgan dala qo'lyozmalari, audio va videoyozuvlar, fotoapparatlarda tushirilgan suratlar banki; tadqiqotchi olimlar tomonidan ularning dialektal sayohatlari natijasida yig'ilgan dala qo'lyozmalari, audio va videoyozuvlar, fotoapparatlarda tushirilgan suratlar banki; shevashunos olimlarning yig'ilgan dala qo'lyozmalari, audio va videoyozuvlar, fotoapparatlarda tushirilgan suratlar orqali shevalar xususida kompyuterda tayyorlangan shaxsiy xulosalari yoritilgan ma'lumotlar banki; dialektologiya yo'nalishi doirasida nashrdan chiqqan o'quv darsliklari,

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

o'quv qo'llanmalari, majmualari, dialektologik xaritalarlarga oid olib borilgan hududiy fonetik, leksik, grammatik so'rovnomalar hamda shevashunos olimlarlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar yoritilgan ilmiy to'plamlar banklari yig'ilgan yagona bazani ko'rib chiqish. Ikkinchi qism. Yuqorida qayd etilgan audio va videofayllar uchun yagona yunikodlarga ega bo'lgan transkriptlarni ishlab chiqish. Buning uchun shevashunos tadqiqotchining ishlash maydonini (1-matn yoki 2-matn shaklida) tayyorlash kerak. Shevashunos tadqiqotchining ishlash maydonida matnlar yig'uvchi va axborot beruvchi matnlarga ajratilishi, ma'lum belgilarni ko'rsatish uchun probel qo'yish, chunonchi, so'z va so'zshakllarni ikkita alohida so'z sifatida qabul qilish: uyni, uyga, uyda, uydi yoki buvi-moma-sheshe va hokazo. Ishning aynan shu qismi ancha murakkab bo'lib, tadqiqotchidan ko'p kuch va vaqt talab etadi. [Xolova, 2022: 42].

Shevalar korpusi uchun shakllantiriladigan dialektizm iboralar bazasida ularga ham lingvistik, ham texnik jihatdan ishlov berish talab qilinadi. Sheva korpuslari bazasini shakllantirishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratilishi lozim hisoblanadi: leksikologik baza; dialektologik xaritalar bazasi; matnlar bazasi [Sirazitdinov, 2008:212-213]. Bu holatda leksikologik baza sheva leksikalariga, dialektologik baza dialektal lug'atlarga asoslanishi tabiiy.

O'zbek dialektologiyasida shevaga oid so'zlarning tadqiqi ikkiga ajratiladi [Rahimov, 1985:55]: adabiy tilda muqobiliga ega dialektizmlar va adabiy tilda muqobiliga ega bo'lmagan dialektizmlar tarzida. Bundan ko'rinadiki, sheva korpusi uchun yaratiladigan ma'lumotlar bazasida ikki xil tabiatli dialektizmlar o'rin egallashi tabiiy. Bu holat esa har bir dialektizm iboralarni ham jiddiy tahlil va tasnif qilish, tavsiflashni taqozo qiladi.

Sheva korpusining muhim amaliy ahamiyati uning qidiruv tizimiga xos imkoniyatlari bilan baholanadi. Korpusning leksik bazasi qidiruv imkoniyati doirasida quyidagilarni amalga oshirish mumkin: adabiy tildagi muqobili, transkripsiyasi, ma'nosi, turkumlik belgilari, leksikografik tavsifi, ma'nodoshi, shakldoshi, zid ma'noli jufti, tarixiy-etimologik qatlamga mansubligi, ko'p ma'noliligi, morfemik tarkibi kabilar.

Shevalar korpusi doirasida ularning ahamiyatli jihatlarining qayd qilinishi ham e'tiborga molik. Bu borada maxsus tadqiqotni amalga oshirgan tadqiqotchi M.Xolovanning ta'kidlashicha, "shevalar bazasida ma'lumotlarning lingvistik taqdimoti bir necha bosqichli tarzda shakllantirilgani milliy tilimizning dunyoga olib chiqish hamda tahlil va tadqiq jarayoni uchun katta baza bo'lib xizmat qiladi. Shevalar bazasida shevaga doir so'zning qidiruvi uch xil: adabiy, transliteratsion va transkripsion shaklda berilishi tadqiqotdagi birinchi qulaylik bo'lsa, so'zning kontekst tarkibidagi istalgan qismdan filtrlash orqali topilishi ikkinchi qulaylik hisoblanadi" [Xolova, 2022:89].

Yuqorida qayd qilinganlarga asoslanib, aytish mumkinki, sheva korpusini yaratish, uning lingvistik bazasini shakllantirish, uning tarkibida har bir sheva va ularga mansub til birliklarini aks ettirish uchun har bir lug'aviy birlik, xususan, iboralar yuzasidan lingvistik tadqiqotlarni keng va batafsil tarzda amalga oshirish zarur va dolzarb sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sirazitdinov Z.A., Buskunbaeva L.A., Karimova R.N. Dialectological Base of the Machine Fund of the Bashkir Language as a Tool for Research Bashkir Dialect Continuum.\\ Russian Federation Bulletin of the Kalmyk Institute for Humanities of the Russian Academy of Sciences Has been issued since. – 2008. Vol. 23, Is. 1, – P. 212-219.
2. Раҳимов С. Сурхондарё вилояти ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1985. – 146 б.
3. Холова М. Ўзбек миллий шевалари корпусини тузишнинг лингвистик асослари (Бойсун тумани “ж”ловчи шевалари мисолида): Филол. фан. бўйича фалс. докт. дисс. – Термиз, 2022. – 154 б.

MIRZAZODA Durdonaxon

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda suyish terminiga tarif berilgan va maydon nazariyasi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: termin, funksional-semantik tilshunoslik, suyish, semantik maydon, guruh.

Abstract. In this thesis, the definition of the term "love" is given and the field theory is discussed

Key words: functional-semantic linguistics, love, field, group.

Hozirgi kunda tillarni funksional-semantik maydon asosida qiyosiy o'rganish eng dolzarb masalalardan biri sanaladi. Ongda mavjud bo'lgan ma'no maydonlari muayyan ma'no asosida birlashgan leksik-semantik, funksional-semantik, assotsiativ kabi turlarga ajraladi, ushbu guruhlarining har biri alohidalik va o'ziga xos butunlik sifatida o'z nomiga ega. Shunday butunliklardan biri *suyish* maydonidir. *Suyish* maydoni o'zbek tilshunosligida maxsus tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan emas. Hozirgi kunga qadar suyish ma'nosini ifodalovchi ayrim morfemik birliklar otlarning kichraytirish shakli doirasida o'rganib kelingan (G'.Abdurahmonov, U.Tursunov, X.Doniyorov). Shuningdek, maydon nazariyasi asosidagi ilmiy ishlarda boshqa maydonlar tadqiqi jarayonida bildirilgan fikrlar mavjud (X.B.Samigova). Sevish, ya'ni suyish tuyg'usi – insoniyatga xos muqaddas tuyg'ulardan biri. O'zbek tilining izohli lug'atida [O'TILda] suyish so'ziga quyidagicha izoh berilgan:

“**SUYMOQ** s.t. 1.Yaxshi ko'rmoq, sevmoq. 2.Erkalamoq, erkalatmoq” [O'zbek tilining izohli lug'ati, 3-j.2020: 584]

Ko'rinib turibdiki, [suymoq], ya'ni [suyish] so'zining birinchi lug'aviy ma'nosi – [yaxshi ko'rmoq]. Yaxshi ko'rmoq – sevmoqdir. Sevmoq so'ziga esa O'TILda quyidagicha izoh berilgan:

“**SEVMOQ** 1. Ishq-muhabbat tuyg'usi bilan munosabatda bo'lmoq; ko'nil qo'ymoq, yaxshi ko'rmo. Shu topdagina u Muqaddamni sevganini, qattiq sevganini tushundi.

2. Mehr-muhabbat, sadoqat ko'rsatmoq. Vatanni sevmoq. Onani sevmoq.

3.Yoqtimoq, yaxshi ko'rmoq. Musiqani sevmoq”. [O'TIL, 3-j , 471]

Insonlar ongida [sevmoq] tushunchagi [sevgi] tushunchasi bilan mazmunan bog'langan tushuncha sanaladi. Aslida insoniyat ongidagi sevish, ya'ni sevmoq tushunchasi va suyish ma'no maydoni sevgi tushunchasi va tuyg'usi mavjudligi sababli shakllangan. Agar sevgi tuyg'usi yoki tushunchasi mavjud bo'lmaganida, suyish ma'no maydoni ham mavjud bo'lmas edi. [Sevgi] so'zigi O'TILda quyidagicha izoh berilgan:

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

“**SEVGI** 1.Qarama-qarshi jinsdagi odamlarning (er-xotin , yigit va qizning) bir-biriga nisbatan chuqur intim, chin qalbdan va vafodorona iliq munosabat tuyg‘usi; ishq, muhabbat. Sevgi pulga sotilmas, ko‘ngil pulga topilmas. Maqol.

2. Biror yaqin kimsa yoki narsaga nisbatan mehr-sadoqat, mehr-muhabbat tuyg‘usi. Vaqtim chog‘etgan – Vatan sevgisi! Ko‘ksim tog‘ etgan – Vatan sevgisi! Y.Mirzo.” [O‘TIL, 3-j. 470.]

Suyish tuyg‘usi asosida sevgi tuyg‘usi yotadi, shuyish tushunchasi asosida sevgi tushunchasi yotadi. Suyish ma’no maydoni – ongda mavjud bo‘lgan vaqt–zamon, makon, narsa, voqea-hodisa, shaxs, tuyg‘u, rang-tus, o‘lchov, harakat, hurmat kabi ma’no maydonlaridan biridir. Ushbu ma’no maydonlari hajmiy ko‘lami, miqyosi, umumiylik darajasi, boshqa maydonlarni o‘z tarkibiga kiritish olishi yoki boshqalarining tarkibiga kira olishi nuqtayi nazaridan quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Supermaydon.
2. Megamaydonlar .
3. Makromaydonlar .
4. Mikromaydonlar .

“**SUPER** - [lot. Super – yuqorida, ustida] Baynalmilal o‘zlashma qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, “**oliy sifatli, yuqori darajali**”, “**bosh, asosiy**” degan ma’nolarni bildiradi” [O‘TIL, 3-j. 2020: 588]. Ushbu so‘zning “**bosh, asosiy**” ma’nolarini nazarda tutgan holda **supermaydon** terminini ishlatdik.

MEGA yunoncha **megas** so‘zidan olingan bo‘lib, “**katta, ulkan**” degan ma’nolarni ifodalaydi .Yevropa tillaridan o‘zlashgan qo‘shma so‘zlarning birinchi qismida keladi. Masalan, “**MEGAPOLIS** [yun. megas – katta+ polis – shahar] Yonma-yon joylashgan bir qancha shahar va aholi yashaydigan maskanlarning o‘sib rivojlanishi va qo‘shilib ketishi natijasida hosil bo‘lgan **ulkan shahar**” [O‘TIL, 2-j. 2020: 577]. Bu o‘rinda ushbu so‘zning “**katta, ulkan**” ma’nolari asosida **megamaydon** terminini ishlatdik.

“**MAKRO** - [yun. makros – uzun, katta] O‘zlashma baynalmilal qo‘shma so‘zlarning birinchi qismi: a) “**katta**”, “**ulkan**”, “**katta o‘lchamli**”; b)“**katta buyum va miqdorlarni o‘rganish yoki o‘lchash bilan bog‘liq**” ma’nolarini bildiradi” [O‘TIL, 2-j, 2020: 531]. Biz ushbu so‘zning “**katta**”, “**ulkan**”, “**katta o‘lchamli**” ma’nolari asosida **makromaydon** termini qo‘llanildi.

“**MIKRO** - [yun. mikros – **kichik, kichkina**] 1. Baynalmilal o‘zlashma so‘zlarning birinchi qismi bo‘lib, “**kichik, juda mayda**”, “eng kichik birliklarni o‘rganish yoki o‘lchash bilan bog‘liq” kabi ma’nolarni bildiradi (mas., mikroorganizm)” [O‘TIL, 2-j. 2020: 590] Biz ushbu so‘zning “**kichik**”, “**kichkina**”, “**juda kichik**” ma’nolari asosida **mikromaydon** terminidan foydalandik.

Yuqoridagi ma’no maydonlari ongda, ya’ni til xotirasida mavjud bo‘lgan ma’no maydoni tizimining (sistemasining, butunligining) bo‘laklari sanaladi. Chunki dialektik falsafa nuqtayi nazaridan olamdagi barcha mavjudlik butun va bo‘lak kategoriyasiga bo‘ysunadi [Tulenov, G‘afurov, 1991: 151–152] [Iskandarova, 2007: 32]. Butunlik moddiy olamdagi narsa va hodisalarning eng

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

umumiy xossasi sanaladi. Har qanday mavjudlikning bo'lagini olmaylik, u o'ziga xos butunlikdir, shu bilan birga o'zidan katta bo'lgan butunning bo'lagidir. [Tulenov, 1991: 151]. "Butun turli-tumanlikning birligi sifatida namoyon bo'ladi" [Tulenov, 1991: 152]. Ushbu turli tumanliklar muayyan belgi asosida bir umumiylikka (butunga) birlashgan bo'ladi [Iskandarova, 2007: 32]. Bu belgi butun tarkibidagi barcha bo'laklar uchun birday xos bo'ladi. Mazkur belgi birlashtiruvchilik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun integral belgi sanaladi. Butun tarkibidagi turli-tumanlikni ko'rsatib turuvchi belgi esa differensial belgi sanaladi. Demak, har qanday butunlik birlashtiruvchi (integral) va farqlovchi (differensial) belgilar munosabatlariga asoslangan bo'laklarning yig'indisidan iborat bo'ladi. Shu asosda, umumiy ma'no maydoni butunlik sifatida qanday sath doirasida shakllanishi va yuzaga chiqishi hamda tashkil etuvchilar o'rtasidagi munosabatlar turiga ko'ra leksik-semantik ma'no maydoni [LSM], funksional-semantik ma'no maydoni [FSM], assotsiativ ma'no maydoni [ASMM] kabi turlarga bo'linadi. Butun tarkibidagi bo'laklarning ichki bo'linuvchanlik va irearxik munosabatlariga ko'ra esa supermaydon, megamaydon, makromaydon, mikromaydon kabi turlarga bo'linadi. Shuningdek ushbu maydonlar ham o'z ichida turli guruhlariga bo'linadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tilining izohli lug'ati, 3-j. / Mas'ul muharrir A.Madvaliyev. – T.: O'zbekiston nashriyot DUK, 2020. – 584 b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati, 2-j. / Mas'ul muharrir A.Madvaliyev. – T.: O'zbekiston nashriyoti DUK, 2020. – 590 b.
3. Tulenov J., G'afurov Z. Falsafa. – Toshkent: O'qituvchi, 1991.
4. Iskandarova Sh. Til sistemasiga maydon asosida yondashuv. – T.: Fan, 2007. – 32.

**O'ZBEK TILIDAGI SHAXSIY YOZISHMALARDAGI HUDUDIIY
XOSLANGAN BIRLIKLARNI ANIQLASH METODIKASI**

TO'RAYEVA Dildora

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)*

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda hududiy xoslangan birliklarni aniqlash metodikasi haqida fikr yuritilgan. Areal va lingvistikaning tilshunoslikdagi o'rni va lingvistik ekspertizadagi ahamiyati xususida mulohaza olib borilgan.

Kalit so'zlar: arealogiya, metodika, lingvistik tahlil, shaxsiy yozishma, daliliy ma'lumot, dialektologiya, noadabiy unsur.

Annotation: this article reflects on the methodology for identifying territorial-specific units in personal correspondence in the Uzbek language. There has been a reflection on the role of Areal and Linguistics in linguistics and its importance in linguistic expertise.

Keywords: arealogy, methodology, linguistic analysis, personal correspondence, evidential information, dialectology.

Tilshunoslikda leksik, fonetik, grammatik, sintaktik birliklarning hududiy xoslanishi masalasi bilan dialektologiya fanining areal lingvistika sohasi shug'ullanadi. Areologiyaning maxsus tadqiq usullaridan biri lisoniy-jug'rofiy metodi bo'lib, bu A.Jo'rayev, Q.Muhammadjonov, Y.Ibrohimov, N.Murodova, I.Darveshov kabi olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan [Джурпеев, 1991:218; Мухаммеджанов, 1988: 44; Иброҳимов, 2000: 366]. Ushbu metodga ko'ra, nutqda aks etadigan birliklarning adabiy tildan chetga chiqish holatlari ilmiy-amaliy tahlil qilinadi. Areologiya, huquq va tilshunoslik sohalarining integratsiyalashuvi natijasida sud-huquq tizimida qator muammoli vaziyatlarga yechim topish mumkin. Bunda anonim yozishmalar muallifini hududiy nuqtayi nazaridan aniqlash imkonini beruvchi metodlar shakllandi.

Lingvistik ekspertiza AQShda har tomonlama taraqqiy etgan. Anonim xatlar muallifini hududiy xususiyatiga ko'ra aniqlash masalasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ularda institut talabalaridan tezkor insho olingan va matndagi xatolarni hududlar bo'yicha tipiklashtirib maxsus korpus yaratilgan [Perkins, 2012; MacDonald, 2016:103; Koppel, 2005:624] Bu sud lingvistik ekspertiza sohasidagi muammoli masalalarning yechimiga sabab bo'ldi. Shuningdek, anonim xat muallifini aniqlash uchun umumiy va xususiy korpus zarur. Avvalo, yozishmadagi noadabiy unsurlar guruhlanadi va kodlashtirilib noma'lum muallifning nutqiy xatolari asosida korpus yaratiladi. So'ng butun respublika bo'ylab hududlararo noadabiy unsurlar tipiklashtirilgan korpusi asosida anonim yozishma individual korpusi bilan o'zaro qiyoslanadi. Shundan keyingina taxminiy xulosaga kelinadi.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Shuningdek, amerikalik olim V.Milom o'zining tadqiqotida 10 ta til misolida har bir til egasi ingliz tilini qay darajada qo'llay olishini lingvistik tahlil qilgan. Bunda o'zaro bir oilaga mansub tillarni misol tariqasida olgan. Til egalarining ingliz tilida gapirish davomidagi nutqiy o'ziga xos xususiyatlarini aniqlagan. Ushbu nutqiy xatoliklarni kodlashtirib korpus yaratgan. U har bir tilning 12 ta xususiyatini ajratgan. Ikki til o'rtasidagi ma'lumotni yetkaza bilish katalogini tashkil etgan va ramzlar katalogi tuzib shu orqali muallifni aniqlashning qator usullarini taklif etgan. Tadqiqotchi V.Milom sifat va miqdor usulidan foydalangan va bunda ko'proq sifatga, mazmun nisbiyligiga urg'u bergan. Uning fikricha, miqdor unchalik ham ahamiyatli emas. Olimaning ushbu tadqiqotidan maqsad noma'lum muallifning ijtimoiy kelib chiqishini aniqlashdir. Shunda ispan, nemis, arab va fransuzlar kabi til egalari ingliz tilida qay darajada gaplashishlari va bunda qanday xatolarga yo'l qo'yishlarini aniqlagan. Buning uchun quyidagi xatolarni ajratish usulidan foydalangan:



Yuqoridagi klassifikatsiya anonim yozishmaning mukammal lingvistik tahlili uchun asos vazifasini bajaradi. Avvalo, anonim yozishmaning tarkibiy til birliklari jadvaldagidek guruhlanadi, har bir noadabiy unsur kodlanib, soʻng maxsus korpus yaratiladi.

Shuningdek, xat muallifining xatoliklari, odatda, ularning qanday tilda ekanligiga qarab klassifikatsiya qilinadi. Masalan, soʻz tanlashdagi xatolik, jargon soʻzlardan foydalanish, soʻzni ortiqcha koʻp qo'llash, soʻzni noadabiy unsur sifatida qo'llash kabilarga tayanib sinflarga ajratiladi [Kochmar, 2011; Warshawsky, 1974; Malmasi, 2014:180; Murad, 2015: 481]. Shunga koʻra, ushbu olimlar nutqiy xatoliklarni 8 ta guruhga bo'ladi:

1. Tartibi.
2. Tanlovi.
3. Munosabati.
4. Ifodalanishi.
5. Miqdori.
6. Ta'siri.
7. Rozilik alomati.
8. Egalik.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Bunda, avvalo, yozishma tashqi tomondan tahlil qilinadi. Ushbu fakt haqiqatan ham gumonlanuvchiga tegishlimi, yoki biron tomonidan yozdirilganmi, ushbu maktubda da'vat, murojaat kabi psixologik ta'sirlar aks etganmi, yoki yo'qmi, yozuvchining yozayotgan fikriga munosabati kabi tomonlari tahlil qilinadi. So'ng yozishmadagi birliklarning to'g'ri yoki noto'g'ri tanlanganligi, miqdori, ifoda xususiyati kabilar sinchikovlik bilan o'rganiladi.

O'zbekiston hududi bo'ylab 12 ta viloyatga oid sheva mavjud va bu o'z navbatida, tarkibiy shevalarga ham bo'linadi. Sheva vakillarining nutqi bir hudud doirasida ham farqlanishi mumkin. Shuning uchun ham tilshunoslikda gapdan tortib tovushgacha lingvistik jihatdan qilingan tahlil matnshunoslik, psixologiya kabi sohalar qatori huquq tizimiga ham birdek aloqador. O'zbek tilshunosligida so'zlarning qo'shimcha ma'no va mazmun ifoda etishida lug'aviy shakllarning o'rni va ahamiyati katta. Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar, garchi asosga yangi ma'no kasb etmasa ham, ular so'z va gaplarga qo'shimcha modal ma'no berib turadi. Masalan, *o'qidingmi? Sen-a!* (-mi va -a so'roq taajjub mazmuni), *qizg'ish, kattaroq* (belgining miqdori), *yuztacha, minglab* (narsa-predmetning son-sanog'i), *bolalar, uydagi* (ko'plik va o'rin-joy ma'nosi)ni ifodalaydi. Leksemalararo adabiy me'yordan chekinish jarayoni bo'lgani singari grammatik shakllarda ham noadabiy unsurlar mavjud. Bu, asosan, chegaralangan leksemalarga xos bo'lib, ular o'zaro o'xshash va farqli jihatlariga ega. Uning lingvistik tahlili sud-huquq tizimi uchun juda zarur. Morfologik jihatdan ot, sifat, son, ravish, fe'l o'ziga xos noadabiy lug'aviy unsurlarga ega. Yordamchi so'z turkumlaridan esa faqat affiks yuklamalargina lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar sirasiga kiradi. Anonim shaxsiy yozishmalarning butun va qism tarzidagi lingvistik tahlilida matnning umumiy mazmunidan tortib, tinish belgisigacha inobatga olinadi. Zero, har bir kichik element ham dalil vazifasini bajarishi mumkin.

Fodalanilgan adabiyotlar

1. Джураев А. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент, 1991. – С. 218.
2. Light R., Warshawsky D. Preliminary Error Analysis: Russians Using English. Unpublished. 1974.
3. Мухаммеджанов К. Ареальное исследование узбекских говоров Южного Казахстана: Автореф. дисс. д-ра филол. наук. – Ташкент, 1988. – С. 44.
4. Иброҳимов Й. Жанубий Оролбўйи ўзбек шевалари тадқиқи: Филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 2000. – В. 366.
5. Муродова Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингвоареал таққини. – Тошкент, 2006. – В. 309.
6. Perkins R. Linguistic Identifiers of L1 Persian speakers writing in English. NLID for Authorship Analysis. Unpublished doctoral dissertation. Aston University, Birmingham, U.K, 2012.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

7. MacDonald P. "We All Make Mistakes!". Analysing an Error-coded Corpus of Spanish University Students' Written English, in Complutense Journal of English Studies, № 24, 2016. – pp. 103-129.

8. Koppel M., Schler J., Zigdon K. Determining an author's native language by mining a text for errors. In Proceedings of the eleventh ACM SIGKDD international conference on Knowledge discovery in data mining - KDD '05. 2005. – 624-628 pp. – New York: ACM Press. doi:10.1145/1081870.1081947.

9. Malmasi S. and Dras M. Multilingual native language identification. Natural Language Engineering, 23(2), 2015. – 163-215 pp. doi:10.1017/S1351324915000406.

10. Kochmar E. Identification of a writer's native language by error analysis. (Master's thesis). University of Cambridge, UK, 2011.

**YURISPRUDENSIYAGA OID LUG'ATLARDA XALQARO
TERMINLARNI MILLIYLASHTIRISH MASALASI**

SOBIROVA E'zoza

GulDU doktoranti, PhD

ezozasabirova118@gmail.com

Annotatsiya: terminologik lug'atlar har qanday bilim sohasini egallashda alifbo vazifasini bajaradi. Ayniqsa mutaxassis sifatida shakllanish sohaga oid terminlarni bilish bilan chambarchas bog'liq. Ushbu maqolada yurisprudensiya sohasi oliy ta'lim muassasalarida sohaga doir lug'atlarda berilgan internatsional terminlar tahlil qilindi. Tilning sofligini saqlash yo'lidagi muhim choralardan biri sifatida terminlarni milliylashtirish masalasining ahamiyati ko'rib chiqildi. Huquqshunoslik yo'nalishi talabalari uchun yaratilgan lug'atlar va ularda berilgan baynalmilal terminlar asosida terminlarni milliylashtirish bo'yicha ilmiy-nazariy fikr-mulohazalar va amaliy tavsiyalar berildi. Muayyan internatsional terminologik birliklarning o'zbekcha muqobili keltirildi. Baynalmilal terminlarning umumiy xususiyatlari, termin anglatadigan tushunchani ifodalay olish darajasi yoritildi. Bunday terminlarning tilga qabul qilinishi jarayonida ahamiyatga ega lingvistik qonuniyatlar tahlil qilindi. Shu asosda milliy tilning termin anglatadigan tushunchani nomlay olish jihati baholandi, bu jarayondagi umumiy tamoyillar aniqlandi. Huquqshunoslik sohasiga oid terminologik lug'atlarda berilgan xalqaro va milliy terminlar qiyoslandi va ular genetik, derivatsion jihatdan statistik tahlil qilindi. Tahlil natijalari asosida ularning terminologik tushunchani nomlay olishiga oid xulosalar shakllantirildi. Shuningdek, yurisprudensiya yo'nalishi talabalari uchun yaratiladigan lug'atlarning tarkibiy tuzilishi haqida umumiy xulosalar shakllantirilgan. Ushbu tipdagi lug'atlar boshqa soha lug'atlari bilan solishtirildi va huquqshunoslikka doir lug'atlarni takomillashtirish yuzasidan muayyan takliflar berildi. Terminologik lug'atlarda, shuningdek, tilning umumiy izohli lug'atlarida beriladigan huquqshunoslik terminlarining izohlanishi, xususan, izohda milliy va baynalmilal so'zlardan foydalanish masalalasi ham tahlil qilindi. Yurisprudensiya sohasida qo'llanuvchi internatsional birliklarning milliy til so'zlari bilan sinonimiyasi masalasi tahlil qilindi. Terminni milliylashtirish masalasining huquq sohasi talabalari uchun sohaga oid bilimlarni egallash jarayonidagi afzalliklari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: baynalmilal terminlar, milliy til xususiyatlari, terminlarning milliylashtirilishi, interpretatsiya, analog, terminografik birlik, sohaga doir lug'atlar.

Abstract: terminological dictionaries play the role of the alphabet in the acquisition of any field of knowledge. In particular, the process of becoming an expert is closely linked to the knowledge of terms related to the field. This article analyzes the international terms given in the dictionaries of the field of jurisprudence in higher education institutions. The importance of nationalization of terms was considered as one of the important measures to preserve the purity of

language. Scientific-theoretical opinions and practical recommendations on the nationalization of terms were given on the basis of dictionaries created for law students and the international terms given in them. The Uzbek alternative of certain international terminological units are given. The general features of international terms, the degree to which a term can express a concept are highlighted. Linguistic legitimacy that is important in the process of adopting such terms have been analyzed. On this basis, the aspect of naming the term meaning of the national language is assessed, and the general principles of the process were identified. International and national terms given in the terminological dictionaries of the field of law are compared and they were genetically, statistically analyzed in terms of derivation. Based on the results of the analysis, conclusions were drawn that they could name a terminological concept. There are also general conclusions about the structure of dictionaries created for students of jurisprudence. Dictionaries of this type are compared with dictionaries of other fields, and specific suggestions were made to improve the dictionaries for law students. Terminological dictionaries, as well as the interpretation of legal terms in general dictionaries of the language, in particular, the use of national and international words in the commentary were also analyzed. The issue of synonymy of international units used in the field of jurisprudence with national language words is analyzed. The advantages of the issue of nationalization of the term in the process of acquiring knowledge in the field for law students are illustrated.

Keywords: international terms, features of national language, nationalization of terms, interpretation, analog, terminological unit, dictionaries on the field.

Jahonda ilmiy bilish jarayonining chuqurlashuvi tilshunoslikda terminologiyaning mustaqil yo'nalish sifatida taraqqiy etishiga turtki bo'ldi, bu esa lug'atlarning yaratilishi, milliy terminologiya va terminografiyani rivojlantirish masalalari bo'yicha tadqiqotlar qamrovini kengaytirdi. Hozirgi kunda terminologiya muloqot jarayonida axborot manbai, turli ixtisosliklarni o'zlashtirish, ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirish vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Bu esa mazkur sohadagi ilmiy izlanishlarga bo'lgan ehtiyojni yanada oshiradi. Shuningdek, sohaga oid terminlarni tartibga solish, ularning izohli lug'atlarda berilishini mukammallashtirish fanning dolzarb vazifalaridan.

Dunyo tilshunosligida terminologiya har bir fan tarmog'ining qon tomiri sifatida jadal rivojlandi. Terminosistemaning tizimli shakllanishida terminografik tadqiqotlar katta ahamiyat kasb etishini davr ko'rsatmoqda. Muayyan tilning terminologik tizimlarini, shuningdek, tilning umumiy boyligini ko'rsatib beruvchi izohli lug'atlar har qanday tilshunoslik uchun bu boradagi eng yirik amaliy tadqiqotlar sanaladi.

O'zbek tilshunosligida bu masalada salmoqli yutuqlar qo'lga kiritilgan. Ammo til ijtimoiy hayot bilan bog'liq tarzda taraqqiy etib borishini hisobga olsak, lug'atlar yaratish ishining takomillashtirilishi, lug'at bazasining boyitilib, yangilanib borishi dolzarbligicha qolaveradi. Zotan, "har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

sadoqatni, ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak” ekan, sohaviy bilimlarni egallashning asosiy manbasi – terminografiyaga oid tadqiqotlarga ehtiyoj ortib boraveradi. Shu jihatdan muayyan soha terminlarining leksikografik xususiyatlariga maxsus bag'ishlangan ishlarning kamligi ham ushbu masalalarga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Huquqiy terminlar o'zbek tilshunoslari diqqat markazida bo'lib kelgan. M.Qosimova [Qosimova, 1985] hamda G.G'ulomovning nomzodlik [G'ulomova, 2005], SH.Ko'chimovning nomzodlik [Ko'chimov, 1995] va doktorlik [Ko'chimov, 2004] dissertatsiyalari shular jumlasidan. M.X.Qosimova o'zbek tilidagi huquqiy terminlarning sistem-struktur xususiyatlarini o'rgangan bo'lsa, G.G'ulomova o'zbek yuridik terminologiyasini davr nuqtai nazaridan o'rgangan, Sh.N.Ko'chimov qonun tilining xususiyatlarini, huquqiy normalarni ifodalashning ilmiy-nazariy jihatlarini tadqiq etgan. Ushbu tadqiqotlarda huquqshunoslik terminlari atroflicha o'rganilgan bo'lishiga qaramay, hali o'zining to'liq yechimini topmagan qator muammolar mavjud. Xususan, o'zbek tilshunosligida aynan huquqiy terminlar, ularning izohi va leksikografik talqini bo'yicha tadqiqotlar mavjud emas. Shuningdek, huquqshunoslik sohasiga kadr yetkazib beruvchi oliy ta'lim muassasalaridagi bo'lg'usi yuristlar uchun o'quv lug'atlari yoki sohaviy lug'atlarning lug'at tarkibi o'rganilmaganini ta'kidlash joiz. Qolaversa, ushbu lug'atlardan o'rin oladigan huquqiy terminlarning genetik jihatdan statistikasiga asosan milliy terminlarning umumiy huquqiy terminologiyada kam miqdorda ekanini ko'rish mumkin.

Barcha tillarning rivojlanish qonuniyatiga ko'ra tilda mavjud leksika savdosotiq, diplomatik aloqalar orqali boshqa tillardan o'zlashish hisobiga boyib boradi. Shuningdek, "...respublikamiz hayotining barcha sohalarida yuz berayotgan katta o'zgarishlar, rivojlangan juda ko'p mamlakatlar bilan aloqalarning tobora kuchayib borayotganligi qisqa vaqt mobaynida o'zbek tili, xususan, uning leksikasi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi" [O'zbek tilining izohli lug'ati, 2006: 7]. Olinma so'zlarning faollik darajasi ortishi tufayli o'z qatlam so'zlar chet tilidan o'zlashgan so'zlarga o'z o'rnini bo'shatib berishi tabiiy hodisa. Bu jarayon terminologiyada ham o'z aksini topadi. Zero, terminlar tizimining xalqaro mezonlarga moslashtirilishi hodisasi terminologiyadagi milliy so'zshakllardan ko'ra umume'tirof etilgan baynalmilal birliklarning qo'llanish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Huquq sohasida mavjud ba'zi tushunchalar milliy ma'naviyat yoki tarbiyaga oid tushunchalardan farq qiladi: milliy qadriyat va tarbiya tizimiga oid tushunchalarning xususiylik jihati ustun bo'lgani holda, huquqshunoslik terminlarining ko'plab tillarda bir xil shaklda qo'llanishi ehtimoli katta.

Inson – eng oliy qadriyat, uning huquqlarini himoya qilish jarayoni demokratiya tamoyillariga ko'ra xalqaro tan olingan tizim asosida amalga oshiriladi. Ya'ni dunyoning istalgan burchagida huquqiy jarayonlarda ishtirok etuvchi shaxslar (prokuror, sudya, ayblanuvchi, huquqbuzar kabi.) va ularning xatti-harakatiga oid (veto, aparteid, kassatsiya kabi.) tushunchalar umumiyligi shu tushunchalarni ifodalovchi terminlarning ham juda ko'p tillarda bir xil bo'lishiga

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

sabab bo'ladi. Shu jihatdan olib qaralganda, huquqiy terminologiyada olinma so'zlarning salmog'i katta bo'lishi tabiiy. Ammo bu milliy tilda mavjud so'zlarning huquqiy tushunchalarni ifodalay olish qobiliyatini past darajada baholashga sabab bo'la olmaydi. Chunki huquqiy terminologiyaning birliklari, asosan, mamlakat madaniyati, siyosati va mafkurasi bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi [Sviridova, 2009: 20-28] (tarafkashlik, astoydil pushaymon bo'lish kabi).

O'zbek tilining katta hajmli huquqiy terminologiyasida asosiy va umumiy deb qaralgan – o'zbek tilining izohli lug'atiga kiritilgan huq. pometal terminlarning etimologik xususiyati bo'yicha tasnifi quyidagicha:

- sof o'zbekcha;
- arabiy;
- forsiy;
- rus tilidan yoxud rus tili orqali o'zlashgan (internatsional);
- fransuz tilidan o'zlashgan;
- nemis tilidan o'zlashgan.

Quyida 5 jildli O'TILda mavjud huquqiy terminlarning yuqoridagi tasnif bo'yicha tahlilini ko'rib o'tamiz:

Sof o'zbekcha terminlar: *bitim, bosqinchilik, boshpana, ish, kechirim, kuch, ko'rsatma, oldi-sotdi, oqlovchi, so'z, so'roq, so'roqsiz, tenglik, tergameq, tergov, tergov qilmoq, tergovsiz, tergovchi, tintuv, tuzuk, qaroqchilik, qidiruv, qo'rqitish.*

Arab tilidan olingan (asosi arabcha) so'zlarning termin sifatida berilishi: *ajrim, ayb, aybdor, ayblamoq, ayblanuvchi, aybloq, aybloqchi, aybnoma, dalil, da'vo, jabrlanuvchi, javobgar, javobgarlik, jinoiy, jinoyat, ijro, iste'fo, maslahatchi (xalq maslahatchisi), meros, xolis, shuurli, shuursiz, shuursizlik, qonun, himoya, hukm, huquq, huquqiy.*

Fors tilidan olingan (asosi forsha) so'zlarning termin sifatida berilishi: *badarg'a, bezorilik, guvoh, guvohlik, poraxo'rlik, tovon.*

Fransuz tilidan olingan so'zlarning termin sifatida berilishi: *arbitraj, bikameralizm, prolongatsiya, replika, ultimatum.*

Nemis tilidan olingan so'zlarning termin sifatida berilishi: *arest, neytralitet.*

Lotin tilidan olingan so'zlarning termin sifatida berilishi: *akkreditatsiya, akkreditiv, akt, alibi, bimetalizm, bonus, veto, de-fakto, de-yure, immunitet, kassatsiya, kvalifikatsiya, legitim, legitimatsiya, memorandum, persona (persona grata, persona non-grata), protest, rehabilitatsiya, rekvizitlar, retsidiv, sanksiya, ekskumatsiya, ekstritoriallik.*

Yunon tilidan olingan so'zlarning termin sifatida berilishi: *analogiya, bipatrid.*

Bundan tashqari, o'zbek tilida til boyishining ichki imkoniyatlari asosida yoki turli tildan o'zlashgan so'zlarning kombinatsiyasidan yoxud ularni juftlash yordamida hosil bo'lgan terminlar ham mavjud: arab+fors: da'vogar, javobgar, aybnoma; arab+fors+o'zbek: javobgarlik; arab+lotin: jinoiy-protsessual; arab+o'zbek: huquqbuzar; qadimgi rus+o'zbek: sudlanganlik, sudlanuvchi; -lik

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

affiksi yordamida o'zbekchalashtirilgan terminlar ham shular jumlasidan (eksterritoriallik).

Ingliz tilidan yangi terminlarning faol o'zlashtirilishi tufayli XX asrning so'nggi o'n yilligida muhim o'zgarishlarga uchragan turli tizimlar (shuningdek, unga kiritilgan terminlar)dan farqli ravishda huquqshunoslik sohasi va uning atamaları tubdan o'zgartirilmagan [Danilenko, 1977: 17].

Ta'kidlash joizki, fransuz, nemis, lotin, yunonchadan olingan so'zlardan deyarli barchasining o'zbek tilida termin sifatida qo'llanishi rus tili orqali ro'y bergan. Mazkur terminlarning talaffuz va imlo masalalari ham aynan rus tili orqali o'zlashtirilgan.

2 tomli O'TILda mavjud huquqiy terminlarning tahlili quyidagi natijalarni berdi.

Sof o'zbekcha terminlar: *boshpana, yoqlamoq, ish, kuch, oqlovchi, so'z, so'roq, so'roqsiz, terqamoq, tergov, tergovsiz, tergovchi, tuzuk, egri, qoralamoq, qoralovchi.*

Arab tilidan olingan (asosi arabcha) so'zlarning termin sifatida berilishi: *ajrim, aybdor, ayblamoq, ayblanuvchi, aybloq, aybloqchi, dalil, da'vo, jabrlanuvchi, javobgar, jinoiy, jinoiy-protsessual (arab+rus) jinoyat, ijro, maslahatchi (xalq maslahatchisi), shuurli, shuursiz, shuursizlik, himoya, hukm, huquq, huquqiy.*

Fors tilidan olingan (asosi forsha) so'zlarning termin sifatida berilishi: *badarg'a, guvoh, guvohlik.*

Rus tilidan olingan so'zlarning termin sifatida berilishi: *alibi, arbitraj, arest, immunitet, kassatsiya, kvalifikatsiya, kollegiya, regress, retsdiv, sanksiya, sudlanganlik, sudlanuvchi, eksterritoriallik.*

Ko'rish mumkinki, ikki tomli va besh jildli o'zbek tilining izohli lug'atlarida huquqiy (yur. va huq. pometal) terminlarning genetik xususiyatlari talqinida farqlar mavjud. Xususan, besh jildli O'TILda huquqiy terminlarning qaysi tildan olinganligi haqida aniqroq tasavvur olish mumkin. Unda sof o'zbek tilidan olingan so'zlarning termin sifatida qo'llanish holati huq. pometal terminlar umumiy miqdorining 24 %ini tashkil etadi. Arab tilidan o'zlashgan so'zlarning termin sifatida berilishi 30 %, lotin tilidan o'zlashgan so'zlarning termin sifatida izohli lug'atda pometalanishi 23 %dan iborat. Fors, fransuz va nemis tillaridan olingan terminologik birliklar esa mos ravishda ushbu 5 jildli O'TILDagi huquqiy terminlarning 6 %, 5 % va 2 %ini tashkil etadi.

Xuddi shu tahlil 2 tomli O'TILda quyidagicha: arab tilidan o'zlashgan terminlar 41 %, sof o'zbekcha so'zlar 30 %, undan keyingi o'rinda 24 % rus tili va u orqali o'zlashgan terminlar va kam miqdorda 6 % fors tilidan o'zlashgan terminlardan iborat.

2 tomli O'TILda sof o'zbekcha terminlar 30 % ni tashkil etgan bo'lsa, 5 jildli izohli lug'atda 24 foizni tashkil etadi. Ta'kidlash joizki, o'zbek tilidagi so'zlarning termin sifatida qo'llanishi keyingi O'TILda biroz salmoqli (umumiy miqdorga nisbatan kamroq natijani qayd etsa ham): bitim, bosqinchilik, kechirim kabi so'zlar termin sifatida keltirilgan.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Har ikkala O'TILda ham genetik jihatdan arab tiliga mansub birliklar yetakchilik qiladi. Bu so'zlarning ko'p qismi umumturkiylik xususiyatiga ega ekanligini inkor etmagan holda sof o'zbekcha so'zlarning salmog'ini oshirish xalqimizning o'z tilidan kengroq va soha tili sifatida foydalanish qamrovini oshirishiga xizmat qilishini ta'kidlash lozim. Albatta, O'TIL keng xronologik doirada o'zbek tilining butun so'z boyligini emas, balki hozirgi zamon o'zbek adabiy tilining keng iste'moldagi so'z boyligini to'plash va tavsiflashni o'ziga maqsad qilib qo'yadi [O'zbek tilining izohli lug'ati, 2006: 6].

Bugungi kunda genetik jihatdan sof o'zbek tiliga oid birliklarning termin sifatida qo'llanish holati navbatdagi izohli lug'at uchun manba bo'lishiga ishonamiz. Zero, terminga aylanib ulgurayotgan tarafkashlik, garov, qarindosh-urug'chilik, so'kish, haqorat qilmoq kabi birliklar lug'atlarda aks etib, qonunchilik amaliyotida qo'llanib, huquqiy jarayonlarga faol kirib borganda tilimizning keng imkoniyatlarini namoyon qilgan bo'lamiz.

O'TILda mavjud huquqiy terminlar ichida milliy va baynalmilal terminlarning lug'aviy sinonimiyasini alohida olingan terminlar doirasida (bosqinchilik – banditizm), shuningdek, birikma terminlar doirasida ham (ishonch bildirish – akkreditatsiya) kuzatish mumkin. Ayrim hollarda baynalmilal terminlarni birikma termin sifatida o'zlashtirish, shuningdek, ularni parallel qo'llash terminologik sinonimiyaning aralash turini keltirib chiqaradi. O'zbek tilining huquqiy terminologik tizimida baynalmilal terminlarning tarjima qilinmasdan, aynan qo'llanishi ko'p o'rinlarda o'zini oqlaydi. Ammo tilda aniq muqobillari mavjud va huquq sohasida aynan o'sha tushunchani ifodalagan birlikning terminologik birlik sifatida qabul qilinishiga baynalmilal variantning qo'llanishi xalaqit bergan holatlarda e'tirozlar paydo bo'lishi tabiiy. Manbalarda keltirilishicha, boy yozma leksikaga ega tillarda baynalmilal terminlarning mavjud muqobillaridan va tilning ichki leksik imkoniyatidan to'la foydalanish, shuningdek, terminlarni tarjima qilish eng maqbul yo'l ekanligi ta'kidlanadi. Ammo o'z o'rnida aytish kerakki, o'zlashma terminlarning afzalliklari terminologiyaga oid bir qator ishlarda qayd etilgan. “Xorijiy til terminlari afzalligining eng yorqin va oddiy isboti ularning internatsionallik xususiyati. Boshqa bir dalil ham mavjudki, buni ham ta'kidlash o'rinli: xorijiy til terminlarining muayyan til sistemasida ajralib turishi, til ichida bog'lanmaganligi, polisemantiklik xususiyati ehtimolining yo'qligi ushbu terminlarning afzalligini yana bir bor ko'rsatadi. Milliy tilda mavjud so'zning termin bo'lib shakllanishi uchun vaqt kerak, xorijiy so'z esa termin sifatida tayyor birlik sanaladi” [Kutina, 1976: 19-30]. Ushbu fikrni inkor etmagan holda ta'kidlash kerakki, o'z va o'zlashma qatlam terminologik birliklari muayyan tushunchani ifodalashda aniqlikka ega bo'lsa, bu sinonimik birliklarni qo'llashda cheklashlar belgilash shart emas. Agar milliy terminning tushuncha anglatishda murakkabliklarga egaligi, chalkashliklar kelib chiqishi kuzatilsa, o'zlashma birlik soha asosiy termini deb hisoblanishi maqsadga muvofiq. Shu o'rinda N.Mahmudovning “...o'zbek tilining o'z xolis yasaliş imkonlaridan foydalanib ish ko'rilsa, tilimizning tabiiy takomilini ta'minlamoq mumkin bo'ladi” [Mahmudov, 2012: 77] degan fikriga

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

tayanadigan bo'lsak, "ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni iste'molga kiritish, zamonaviy atamalarning o'zbekona muqobillarini yaratish va bir xilda qo'llanishini ta'minlash" kun tartibida turgan dolzarb vazifa ekanligini ta'kidlagan holda quyidagi ba'zi huquqiy terminologik birliklarning milliylashtirilishi bo'yicha tavsiyamizni keltirib o'tamiz:

kodeks – tuzuk; akkreditiv yorliq – vakolat yorlig'i; korrupsiya – poraxo'rlik; diskriminatsiya – ayirmachilik; ekspert – bilarkishi/mutaxassis; arest – tutib turma/ozodlikni cheklash; kvorum – yetarlilik hisobi/vakolatli qatnashchilar; registratsiya – ro'yxatga olish/dan olish; agentlik – tamsil; agentlik – tamsilchi; kompensatsiya – qoplab berish; sessiya – o'tirim; de-fakto – amalda; de-yure – rasman/qonunan; appelyatsiya – norozilik shikoyat; pensiya – yoshga doir maosh; ratifikatsiya – tan olish; migratsiya – ko'chish; migrant – ko'chuvchi; integratsiya – birlashtirish; ishchanlik obro'si – mehnat obro'si; validlik – yaroqlilik.

Demak, huquqshunoslikka doir terminlar lug'atini tuzishda baynalmilal terminlarni turkiylashtirish masalasida quyidagilarni tavsiya qilish mumkin:

- o'zbek tilining izohli lug'atida mavjud birlik orqali sinonimiyani hosil qiladigan baynalmilal birlikning o'zbekcha varianti olinadi (migrant – ko'chuvchi)

- baynalmilal terminning o'zbek tilidagi muqobil sinonimi terminlik xususiyatlarini o'zida jamlay olmasa (sinonim va polisemantiklik xususiyati neytrallikdan yuqori bo'lsa), turkiy xalqlarning huquqiy terminologiyasida mavjud birliklarni ko'rib chiqish. Katta ehtimol bilan o'zbek tilining lug'at boyligida mavjud birlik terminlik pozitsiyasida bo'lishi mumkinligi hisobga olinadi (sessiya – o'tirim)

- tarixiylik prinsipiga amal qilgan holda, baynalmilal termin anglatuvchi tushuncha (yoki shu tushuncha analogi)ning tarixiy qo'llanilishi holatiga murojaat etiladi (kodeks – tuzuk).

Xulosa shuki, huquqqa doir bilimlar jamiyat hayotini tartibga solishning muhim omillaridan biri ekanini hisobga olganda, bu soha kadrlarining yetuk mutaxassis bo'lib yetishishida bo'lg'usi yuristlarning ta'lim jarayonida foydalanadigan lug'atlarida milliy til xususiyatlaridan kelib chiqib terminlarni kiritish, internatsional birliklarni milliylashtirish hamda lug'atda aks ettirish kata ahamiyatga ega. Biz yuqorida yuritgan fikr-mulohaza hamda tavsiyalar nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахмедов Ф. Бектемиров Х. Русча-ўзбекча юридик атамалар луғати. – Тошкент: Адолат, 2002. – 327б.
2. Фуломова Г.Ё. Ўзбек юридик терминологиясининг истиқлол даври тараққиёти: Филология фанлари номзоди ... диссертация: – Тошкент. 2005.
3. Даниленко В. П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. – М., 1977.

О‘zbek tili milliy va ta’limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

4. Касимова М.Х. Структурно-системные особенности юридической терминологии узбекского языка: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Ташкент, 1985.
5. Кутина Л. Термин в терминологических словарях (к антитезе: энциклопедическое-филологическое) // Проблематика определений терминов в словарях разных типов. – Л.: Наука, 1976. – С. 19–30.
6. Кўчимов Ш.Н. Ўзбекистон Республикаси қонунларининг тили. Филол. фанлари номзоди дис. автореф. – Тошкент, 1995.
7. Кўчимов Ш.Н. Ҳуқуқий нормаларни ўзбек тилида ифодалашнинг илмий-назарий муаммолари (лингво-юридик таҳлил): Филол. фанлари доктори дис. автореф. – Тошкент, 2004.
8. Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2012.
9. Саидов А. Саркисянц Г. Юридик тил ва ҳуқуқшунос нутқи. – Тошкент: Адолат, 1994.
10. Саидов А. Султонов С. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси ва инсон ҳуқуқлари. – Тошкент: Адолат, 1998. –178б.
11. Саидов А.Х. Давлат тили ва ўзбек атамашунослиги муаммолари. Ўзбек тилида халқаро ҳуқуқ атамалари (илмий мунозара материаллари). – Тошкент, 1998. 7-10б.
12. Свиридова Е. Н. За точность и единство терминологии в юриспруденции // Проблемы права, 2009. – №11. – С. 20–28.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-5-жилдлар. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

Annotatsiya: ushbu maqolada arxaizm hodisasi, uning lingvistik talqini, leksikografik tavsifi, semantik tasnifi bilan aloqador masalalar tahlilga tortilgan. Xususan, arxaizm, leksema arxaizm, semema arxaizm, istorizm, tarixiy so'z tushunchalari doirasidagi lingvistik xususiyatlar, munosabatlardagi umumiylik va alohidaliklar tavsiflangan. Shuningdek, arxaizmning turlari, tasnifi, ularning yuzaga kelish sabab va omillari, uslubiy xususiyatlari yuzasidan fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: arxaizm, istorizm, tarixiy so'z, leksema, semema, eskirgan so'z, qo'llanish davri chegaralangan so'z, betaraf leksika, eskirgan leksika, yangi leksika.

Abstract: in this article, issues related to the phenomenon of archaism, its linguistic interpretation, lexicographic description, semantic classification are drawn into the analysis. In particular, archaism, lexeme archaism, semema archaism, istorism, linguistic features within the framework of historical word concepts, commonalities and particularities in relations have been described. Also, feedback on the types, classification of archaism, causes and factors of their occurrence, methodological features were carried out.

Key words: archaism, istorism, historical word, lexeme, semema, obsolete word, period of use delimited word, neutral lexicon, obsolete lexicon, new lexicon.

Har qanday tilning lug'aviy tarkibi doimiy o'zgarishda bo'ladi. Shuning uchun til leksik tizimi va uning birliklari muntazam ravishda tadqiq qilinishni taqozo qiladi. Tadqiqotlarda so'zlar turli asosga ko'ra tasniflanadi. Xususan, qo'llanish darajasiga ko'ra: umumiy iste'mol va chegaralangan leksika; qo'llanish davriga ko'ra: eskirgan so'z, zamonaviy so'z va neologizm; qo'llanish doirasiga ko'ra: dialektizm, professionalizm, jargon kabi turlarga bo'linadi. "Lug'aviy birlikning borliqqa munosabatini o'rganish leksikologiyani muhim aspektidan biri. Bunda ularning kishi hayotiga, amal qilayotgan davrga munosabati ochiladi. Masalan, yaqin o'tmishda [savdogar] so'zida salbiy ottenka bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ijobiy bo'yoqli so'z sifatida keng iste'molda" [Sayfullayeva va b., 2009: 78].

Leksik tizimda lug'aviy birliklar bilan bog'liq eskirish hodisasi lug'aviy birliklarning semasi ham aloqadorlik kasb etadi. "Ma'nodoshlik qatoridagi leksemlarning ifoda semasi turli-tuman. Ulardan ayrimlari quyidagilar: 1) ijobiy yoki salbiy baho yoxud munosabat sema; 2) leksemaning qo'llanish davrini ko'rsatuvchi sema: "eskirgan", "yangi", "o'ta yangi", "arxaik", "tarixiy". 3) leksemaning qo'llanilish doirasini ko'rsatuvchi sema: "shevaga xos", "so'zlashuvga xos", "kitobiy", "ko'tarinkilik" va h." [Sayfullayeva va b., 2009:

104]. Bizningcha, leksemaning qo'llanish davrini ko'rsatuvchi semalar sirasida qayd qilingan *eskirgan*, *arxaik*, *tarixiy* semalarni *arxaik* va *tarixiy* sema tarzida ajratish yetarli, *eskirgan* degan sema *arxaik* va *tarixiy* semalar uchun giperonimlik mavqeida bo'ladi.

Davr taraqqiyoti, ijtimoiy hayotdagi o'zgarish tilning barcha sohalarida u yoki bu darajada o'zgarish bo'lishiga olib keladi. Bunday o'zgarish tilning leksik sathida ancha sezilarli kechadi. Tilshunosligimizdagi ayrim manbalarga ko'ra, bunda to'rt holat kuzatiladi. "Birinchidan, ayrim so'zlarning eskirib, iste'moldan chiqib ketishi kuzatilsa, ikkinchidan, allaqachonlar iste'moldan chiqib ketgan so'zlar qayta "jonlanadi", "tiriladi", uchinchidan, yangi-yangi so'zlar paydo bo'ladi, to'rtinchidan, nafaol so'zlar faollashadi, iste'mol doirasi kengayadi, ma'noviy tabiatida o'zgarish yuz beradi." [Sayfullayeva va b., 2009: 112) Shunga ko'ra, o'zbek tili leksikasini tarixiylik nuqtayi nazaridan *betaraf leksika*, *eskirgan leksika*, *yangi leksika* tarzida tasniflash va tadqiq qilish tavsiya qilinadi.

Lug'aviy birliklarning atash ma'nosi bilan bog'liq talqinlarda esa quyidagi munosabat ham aks etgan: "Leksik ma'no tilning taraqqiyoti davomida ham sifat, ham miqdor jihatidan o'zgaradi. Shu asosda leksik ma'nolarni hozirgi leksik ma'no va avvalgi leksik ma'no deb ikkiga guruhlash mumkin. Tilning o'tmish taraqqiyot bosqichiga mansub, hozirgi lug'at boyligi tarkibida qatnashmaydigan leksik ma'no avvalgi leksik ma'no deyiladi. Avvalgi leksik ma'no ikki xil: 1) eski leksik ma'no, 2) etimologik leksik ma'no" [Rahmatullayev, 2006: 59]. Bu o'rinda *avvalgi leksik ma'no* termini asosida *eskirganlik* semasining nazarda tutilayotganligi ortiqcha izohni talab qilmaydi.

Tilshunos Sh.Rahmatullayev leksemaning ma'nosi bilan bog'liq eskirish hodisasi talqini doirasida quyidagilarni qayd qilib o'tadi: "Ba'zi hollarda leksemaning to'ng'ich bosh ma'nosi aslida hosila ma'no bo'lib chiqadi. Bunday leksemaning avvalgi leksik ma'nosi unutilib, etimologik ma'noga yoki eski ma'noga aylangan bo'ladi. Shunga ko'ra, hozir to'ng'ich bosh ma'no holatida hosila ma'no keladi. Masalan, *tila*- fe'lining dastlabgi ma'nosi *til* leksemasining "nutq", "nutq a'zosi" ma'nosi bilan bog'lanadi ("ayt"). Ammo *tila* fe'lining bu ma'nosi hozir unutilgan." [Rahmatullayev, 2006: 60] Ko'rinadiki, eskirish leksemaning ma'nolaridan biri asosida ham kuzatiladi.

Tilning lug'aviy birliklari asosan nominativ ma'no anglatadi, ba'zan nominativ ma'no unutilishi ham mumkin. Masalan, "*tom* ma'noda, *tom* ma'nosi bilan kabi bog'lanishlardagi *tom* leksemasining nominativ ma'nosi juda nursizlanib qolgan. Nominativ ma'nosi unutilgan, yo'qolgan leksema juda tor leksik kontekstli bo'lib, doim ma'lum bir leksema qurshovida ishlatiladi. Natijada bu leksemaning leksik ma'nosi shu kontekst doirasidagina izohlanadigan bo'lib qoladi: *tom* leksemasi faqat *ma'no* leksemasi bilangina bog'lanib keladi va "to'la", "to'liq" kabi ma'noni anglatadi.

Leksemalardagi nominativ ma'noning so'nishi, eskirishi asosan tarixiy qatlamga o'tgan leksemalarda kuzatiladi: "*basir* (arabcha, ma'nosi: "ko'ruvchi": *Basir bo'lgur* – ayollarning "teskari" qarg'ishlaridan); *baxsh* (tojikcha, ma'nosi:

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

“atash”: *baxsh et*); *bahra* (arabcha, ma'nosi: “hissa”, “nasiba”, “foйда”: *bahra ol*); *yit* (*yo 'qolib-yitib ket*); *sun* (*bo 'ysun < bo 'yin sun*) kabi. [Rahmatullayev, 2006: 62]

Tilning lug'at tarkibi muntazam o'zgarishda bo'ladi. Shu bois zamoniylik jihatidan har xil birliklar yonma-yon yashab turadi. Lug'at boyligida zamonaviy qatlam va zamondosh qatlamni farqlash muhim. Zamonaviy qatlam doirasida bugungi til faoliyati va amaliyotida faol leksemalar qayd qilinishi maqsadga muvofiq, chunki ularda eskilik va yangilik bo'yog'iga mavjud bo'lmaydi. Ushbu qatlamda qayd qilinish lug'aviy birlikning alohida shaxs nutqidagi o'rniga, nutqda ishlatilish miqdoriga emas, balki umumtil, umumnutqdagi mavqeyiga asoslanadi.

Zamonaviy qatlam doirasida qayd qiluvchi leksema shu til egalarining barcha a'zolariga tanish bo'lishi, barchaning nutqida ishlatilishi ham muhim shart emas. Masalan, umumnutqda terminlar faol qo'llanilmasa-da, ular zamonaviy qatlam doirasida qayd qilinadi. Eng muhimi, zamonaviy qatlamga kiritiladigan leksema yangilik va eskilik bo'yog'iga ega bo'lmasligidir. “Yangilik yoki eskilik bo'yog'i bor leksemalar lug'at boyligining zamondosh qatlamini tashkil qiladi. Bunday qatlam tilning har bir taraqqiyot bosqichida mavjud bo'ladi, chunki lug'at boyligi doim o'sib-o'zgarib turadi. Shu sababli lug'at boyligida zamondosh qatlam ham yashaydi. Zamondosh qatlamda o'zaro biri ikkinchisining aksi bo'lgan hodisalar mavjud: yangilik bo'yog'i bor leksemalar va eskilik bo'yog'i bor leksemalar” [Rahmatullayev, 2009: 87].

Ma'lumki, tilshunoslikda eskilik ma'no bo'yog'i, belgisi mavjud til birligi *arxaizm* termini bilan nomlanadi (yunoncha *arshaios* – “qadimgi”). Leksemalar tizimidagi arxaizmlik *leksik arxizm* deb yuritiladi. Leksik yoki lug'aviy arxaizm o'z mohiyatiga ko'ra ikki turga ajratiladi:

a) leksema yaxlitligicha arxaizm bo'ladi. Buni *arxaizm-leksema* deb nomlash kuzatiladi: *sas*, *yitmoq*, *zamlar* kabilar.

b) ko'p ma'noli leksemaning sememalaridan biri eskirganlik belgisiga ega bo'ladi. Eskirishning bu holati *arxaizm-semema* termini bilan ataladi: *tikmoq* (o'simlik urug'ini ekmoq ma'nosida).

Yuqorida qayd qilingan leksik arxaizmning har ikki turi ham, ko'rinadiki, leksemaning atash (lug'aviy) ma'nosiga asoslanadi. Shunga ko'ra, arxaizm-leksema bir ma'noli leksemaning batamom eskirishi natijasida, arxaizm-semema esa ko'p ma'noli leksemaning sememalaridan birining eskirishi natijasida yuzaga kelishini inobatga olish hamda shu asosda ularni nomlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qayd qilingan arxaizmning har ikki turi ham tilning, jamiyatning o'zgarishlari, taraqqiyoti bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Tilning taraqqiyot bosqichlari va tarixiy davriga e'tibor qilinsa, arxaizm-sememaga nisbatan arxaizm-leksema miqdori ko'pchilikni tashkil qiladi. Arxaik (eskirgan) birliklarning o'ziga xosligi arxaizmlar hozirgi tilning lug'atida mavjudligi, boshqa lug'aviy birliklardan eskilik bo'yog'iga egaligi bilan ham belgilanadi.

Til birligining eskirishi masalasida hozir ishlatishdan umuman chiqib ketgan, til taraqqiyotining o'tmish bosqichiga mansub bo'lgan leksik birliklarni bugungi kun nuqtayi nazaridan baholash ham o'ziga xos yondashuvni taqozo qiladi.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Bunday eskirganlik, tarixiylik bo'yog'i yoki belgisiga ega birliklar o'tmishning leksik birliklari bo'lib, ularning arxaizm yoki arxaizm emasligi til taraqqiyotining o'sha bosqichiga nisbatan baholanadi. Masalan, *ulus* (xalq), *oqcha* (pul), *qusur* (kamchilik, nuqson) kabi leksemalar, *nuqta* leksemasining "o'rin", "tomon" ma'nosi, *et* leksemasining "go'sht" ma'nosi – tilimiz tarixiy leksikasi, o'tmish lug'atiga mansub hisoblanadi. Bunday leksik birliklar tilning tarixiy leksikasiga oid manba, asar va lug'atlarda ham o'z aksini topgan bo'ladi. Bu singari leksemalar tarixiy davr koloriti, tarix voqeligini haqqoniy hosil qilish maqsadida ham zamonaviy asarlar matnida ham faol qo'llanilishiga guvoh bo'lamiz.

Ba'zi manbalarda hozirgi o'zbek tilida yozilgan hamda davrimizni tasvirlaydigan asarlarda o'tmish lug'aviy birliklarning ishlatilmasligi, bunday holatni oqlab bo'lmaslik ham ta'kidlanadi.

Nutqda ba'zan hozirgi o'zbek tilida ham, o'zbek tilining tarixida ham mavjud bo'lmagan so'z yoki birikmalarni ishlatish holatlari uchraydi. Bunday so'zlar o'zga, ya'ni xorijiy til lug'atidan olib ishlatilishi natijasida kuzatiladi. Jumladan, *zufuf* leksemasi (asli arabcha *zifofun* – "nikoh to'yi" ma'nosidagi leksema), *tulup* leksemasi rus tilidan olingan bo'lib *po'stin* ma'nosida ishlatilishini kuzatish mumkin. Bu kabi hodisaga nisbatan tarixiy yoki eskirgan so'z yoki semema tushunchasini qo'llash maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

Arxaizm leksemaning yuzaga kelish sababi va omilini belgilash, baholash birmuncha murakkablik kasb etadi. Arxaizm lug'aviy birlikning biror belgi-xususiyatining eskirishi, o'z o'rnini boshqa leksik birlikka bo'shatishi natijasida yuzaga keladi, bu jarayon yoki holat turli-tuman sabab va ta'sirlar vositasida paydo bo'ladi. Biroq ana shu eskirish yoki boshqa so'zga o'z o'rnini bo'shatib berishi muayyan sabab va omil asosida ro'y berishini aniqlash tilshunoslik uchun muhim masala sanaladi. "Arxaizm umuman sinonimiyaga asoslanadi, shunga ko'ra arxaizmning paydo bo'lishini izohlashda sinonimik munosabatdagi leksik birliklarning holatiga, taraqqiyotiga suyanish lozim. Bunda asosan quyidagi sabablar ko'rsatiladi:

1) sinonimlar nutqda bir xil ishlatilmasligi tufayli ulardan ba'zilari arxaizmga aylanadi: avvallari ko'p yoki boshqalari bilan teng ishlatilgan leksik birlik o'z sinonim(lar)iga qaraganda nutqda oz ishlatilib, arxaik tus oladi. Masalan, *yordam*, *ko'mak* sinonimlaridan *ko'mak* leksemasi arxaizmga aylangan.

2) polisemem leksemaning o'z sinonimi bor sememasi, bir tomondan, shunday sinonimning mavjudligi ta'sirida, ikkinchi tomondan, shu polisemem leksemaning boshqa sememasi ta'sirida o'z o'rnini bo'shata boradi. Natijada bunday sememaning ham, sinonimning ham tildagi mavqei o'zgaradi. Masalan, *boq* leksemasida "tarbiyala", "parvarish qil" sememasi ustun bo'la borishi bilan bu leksemaning "ko'z tashlamoq" sememasi arxaizmga aylanmoqda ("ko'z tashlamoq" ma'nosi hozir asosan *qaramoq* leksemasi bilan anglatiladi)." [Rahmatullayev, 2009: 90-91].

Biroq yuqorida qayd qilingan holatlar arxaizmning paydo bo'lish sabab va omilini to'la ochib berolmaydi. Shuning uchun til birliklari bilan bog'liq arxaiklashish, eskirish hodisalarini tadqiq qilish, arxaizmlarning paydo bo'lish

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

sabab va omillarini aniqlash alohida lingvistik tadqiqotlarni taqozo qiladi. Chunki arxaizmning yuzaga kelishi tildagi leksemalarga xos semantik taraqqiyot, ma'no o'zgarishlar bilan bevosita va bilvosita bog'liq. Demak, bu hodisa va jarayonni til taraqqiyotining faqat hozirgi bosqichi bilan chegaralangan holda o'rganish xolis baholashni ta'minlay olmaydi; shuningdek, arxaizm bilan bog'liq holat, xususiyat, ma'no, har bir jarayon har bir leksemaga alohida yondashishni talab qiladi.

Darhaqiqat, til birliklariga xos arxaizmlarning yuzaga kelishi, uning sabab va omillari, semantik, leksik-grammatik xususiyatlari alohida masala bo'lsa, arxaik birliklarning nutqda qo'llanishi, tilda uslubiy vosita sifatida barqaror o'rin egallashi, uslubiy xususiyatlari boshqacha tekshirish va baholashni taqozo qiladi. Arxaizmlar quyidagi maqsadlarda foydalanilishi qayd qilinadi:

1) nutqqa ko'tarinki, nazokatli ruh berish uchun. Bunday vazifa bilan arxaizm asosan she'rlarda ishlatiladi.

Siz ko'kning q o p q a s i n qoqqan soatda

Quyosh ko'z uqalab uyg'anar edi.

(G'. G'ulom);

Ka'ba q o p q a sida turgan, ey posbon,

Avval onalarning ochgin yo'llarin... (A.Oripov)

2) nutqqa hazil-mutoyiba, kinoya, masxara ruhini berish uchun. Arxaizmdan bunday foydalanish avvalgisiga nisbatan oz uchraydi. Masalan, quyidagi matnda arxaizm achchiq kinoya ifodalash maqsadi bilan ishlatilgan: *Bular ketgandan keyin Said Jalolxon g'ayratiga chidolmay sh a m sh i r sug'urdi va havoda o'ynatib, askarga f a r m o n b e r d i* (Abdulla Qahhor, "Bashorat").

Arxaizmning kinoya, masxaralash ruhini hosil etish uchun ishlatilgani matndan ochiq sezilmasa, uni ohang yordamida, yozuvda esa qo'shtirnoqlar vositasida maxsus ifodalash zaruriyati tug'iladi. Masalan, quyidagi matnda bunday leksema qo'shtirnoqlarga olingan: *Yag'rin tashlab, jilmayib o'tar ekan, Biz aminning "ehson"iga minnatdor* (G'afur G'ulom, "Ikki vasiqa"). Ayrim ijodkorlar nutqida eskirgan so'zlarga ko'p miqdorda murojaat qilinadi. Bu holatni asar yoki matnning janr xususiyatlari bilan emas, balki muallifning o'ziga xos uslubi nuqtayi nazaridan baholash lozim.

Shu o'rinda arxaizmning neologizm bilan munosabatiga ham e'tibor qaratib o'tish joiz. Ma'lumki, neologizm o'ta nisbiy tushuncha, u ham o'ziga xos lingvistik hodisa. Til taraqqiyotining har bir bosqichi o'z neologizmiga ega bo'ladi, bu haqda boshqacha gap bo'lishi ham mumkin emas. Til sathida, lug'at boyligida eskirish va yangilanish muqarrar mavjudlik kasb etadi, bu ikki hodisa, ikki qutbda, ikki xil hodisa bo'lsa-da, o'zaro antonimlik munosabatini hosil qilsa-da, assotsiatsialanadi. Ma'lum bir davr uchun neologizm bo'lgan birlik keying, ikkinchi bosqichda ham neologizm bo'lishi shart emas, bu mantiqan ham o'zini oqlamaydi. Masalan, o'tgan asrning 30-yillari davri nuqtayi nazaridan *shpal*, *seyalka*, *telefon* kabi leksemalar neologizm deb baholansa, hozirgi o'zbek tili nuqtayi nazaridan neologizmligini yo'qotgan birlik sanaladi. Shuningdek, o'tgan asrning 20-yillari nuqtayi nazaridan neologizm deb qaralgan *aeroplan*, *yo'qsil* kabi leksemalar esa arxaizm birlikka aylangani barchaga ma'lum. Shunday qilib,

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

neologism va arxaizm kabilar bitta tizimning o'xshash va ayni paytda o'zaro farqli alohida hodisalari sanaladi. Bugungi kun tilimiz nuqtayi nazaridan fikrning rostligini, realligini ifodalovchi modal birliklar sirasidagi *filhaqiqat* so'zini eskirgan deb hisoblash mumkin: *darhaqiqat*, *haqiqatan*, *haqiqatda*, *filhaqiqat* (eskirgan). Shuningdek, *nazaran* (nisbatan), *nufuz* (ta'sir) kabilar – arxaizm kitobiy leksemalardir.

Manbalarda arxaizm asosan tilning o'z taraqqiyot qonunlari bilan izohlanuvchi hodisa sifatida qayd qilinadi, bunda arxaiklashish yoki arxaizmning tavsifi lingvistik omilga asoslanishi ta'kidlanadi. Ayni shu hodisa bilan yondosh bo'lgan istorizm esa jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, madaniy taraqqiyoti tarixiga asosida tavsiflanadi, izohlanadi. Istorizmning paydo bo'lish omili nolisoniy bo'lib, uning paydo bo'lishini izohlash nisbatan oson. Bizningcha, har ikki holatda ham ekstralingvistik omil ta'siri, o'rni mavjud.

Tilshunoslik terminlari lug'atida arxaizm va istorizm (tarixiy so'z) tushunchalariga quyidagicha izoh beriladi: "ARXAIZM (yun. *agshaios* – qadimgi). Ma'lum davr uchun eskirgan, iste'moldan chiqqan boshlagan til birligi (so'z, frazeologizm va b.). Mas., *surur* (sevinch), *hayon* (foyda) va b." [Xojiev, 2004: 17]. "TARIXIY SO'Z. O'tmishga oid voqea-hodisalarni ifodalaydigan, bu voqea-hodisalarni nomlash maqsadida hozirgi tilda ishlatiladigan so'z: *quloq* (*quloq qilmoq*), *bo'nak* va b." [Xojiev, 2004: 103]

Leksikografik izohlardan ko'rinadiki, ikki alohida hodisa va tushunchalar o'ziga xos belgi-xususiyatlari bilan alohidalik kasb etadi.

Arxaizm va istorizm o'rtasida umumiylik bilan birga har biriga xos bo'lgan o'ziga xos leksik-semantik, uslubiy belgi-xususiyatlar xos. Shuning uchun ularni alohida hodisalar sifatida qayd qilgan holda alohida aspekt va yondashuv asosida tadqiq qilish maqsadga muvofiq sanaladi.

Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibidagi leksemalarning eskirishi, arxaiklashuvi bilan bog'liq hodisalarni tadqiq qilish alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Arxaizm leksemalarni semantik jihatdan leksik arxaizm, semema arxaizm kabilarga ajratish, ularning lingvistik xususiyatlarini baholash hamda genetik-etimologik qatlamga munosabatiga ko'ra o'z qatlamga oid arxaizm; o'zlashgan qatlamga oid arxaizm tarzida tasniflash, leksik tarkibning real, obyektiv holati yuzasidan tegishli xulosalarni taqdim qilish mazkur masala tadqiqi bilan bog'liq dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – 464 b.
2. Sayfullayeva R. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2009. – 396 b.
3. Xojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – 164 б.

ARXAIKLASHISH HODISASINING TERMINOLOGIYADA AKS
ETISHI MASALASI

YAXSHIYEVA E'tibor

ToshDO 'TAU tayanch doktoranti

etiboryaxshiyeva@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada til birliklari tizimidagi arxaiklashish hodisasining terminologiyada namoyon bo'lishiga oid kuzatish va tahlillar amalga oshirilgan. Xususan, o'zbek pedagogikasi sohasiga oid terminologik birliklar tizimida kuzatilgan leksik arxaizm va sememik arxaizmlarning leksik-semantik xususiyatlari, leksikografik talqinlari yuzasidan fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: arxaizm, arxaik birlik, termin, arxaiklashish, arxaizm termin, terminologik arxaizm, leksika, leksikografiya.

Abstract: in this article, observations and analyzes of the phenomenon of archaization in the system of language units are carried out in terminology. In particular, comments were made on the lexical-semantic features and lexicographical interpretations of lexical archaism and semiotic archaism observed in the system of terminological units related to the field of Uzbek pedagogy.

Key words: archaism, archaic unit, term, archaization, term archaism, terminological archaism, lexicon, lexicography

Til ijtimoiy hodisa sifatida uzluksiz harakatda, muntazam rivojlanishda bo'ladi. Albatta, bu holat tilning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqadi. Til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur, til va shaxs o'rtasidagi ikki tomonlama aloqadorlik ularning bir-biriga ta'sirini belgilaydi – jamiyat hayotida sodir bo'lib turadigan ijtimoiy-siyosiy o'zgarish va jarayonlar, ilm-fan va texnika taraqqiyot, iqtisodiy va madaniy sohalaridagi islohotlar tilning lug'at tarkibida yangi so'z va terminlarning paydo bo'lishi, shu bilan birga, muayyan lug'aviy birliklarning shakl va mazmun tomondan eskirib, tarixiy kategoriyaga aylanishi omili bo'lib xizmat qiladi. Ayni ijtimoiy-lisoniy holat va jarayonlar tilning leksik tizimida eskirish hodisasi bilan bog'liq istorizm, arxaizm va neologizm kabi leksik birliklarning yuzaga kelishiga turtki bo'lib xizmat qiladi. [Jamolxonov, 2005: 204]

Yaqin o'n yilliklar davri jamiyatimizning barcha sohalarida jiddiy o'zgarishlar, yangilanishlar, islohotlar davri bo'ldi. "Iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy sohadagi evrilishlar natijasi o'laroq tilimizda "yangi" eskirgan qatlam, neologizm va, qolaversa, qayta tiklangan va yangi konseptual, lisoniy qiymat kasb etgan lug'aviy birliklar, atamalar vujudga keldiki, bu ularning tadqiq etilishini dolzarb qilib, tilshunosligimiz, jumladan, uning leksikologiya, lug'atshunoslik sohalarida oldiga yangi-yangi vazifalarni qo'ydi"[Tojiyeva, 2021: 13]. Shunga ko'ra, aytish mumkinki, o'zbek tilining lug'at boyligi yuzasidan amalga oshiriladigan leksik-semasiologik, terminologik tadqiqotlarning uzluksizligi taqozo qilinadi.

Shuning uchun "Hozirgi tez o'zgarayotgan globallashuv davrida o'zbek tili va adabiyotining o'ziga xos betakror xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, uning bugungi

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

holati va istiqboli bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganish, bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligini kuchaytirish"[O'zR Prezidenti farmoni, 2016] vazifalari yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ana shu vazifalar doirasida tilning maxsus leksik tizimi bo'lgan terminologiya yuzasidan chuqur ilmiy tadqiqotlarning bajarilishi ham o'ziga xos ilmiy-amaliy natija va xulosalar chiqarish imkoniyatini taqdim qilishi shubhasiz. Terminologik tizimda ham umumiste'mol leksika tarkibida sodir bo'ladigan o'zgarish, leksik hodisalar kuzatiladi. Xususan, lug'aviy birliklarga xos bo'lgan ma'noviy o'zgarishlar, eskirish va yangilanishlar soha birliklari bo'lgan terminologik birliklar tarkibida ham namoyon bo'lishi mumkin.

O'zbek tili terminologiyasi ham o'ziga xos rivojlanish va taraqqiyot yo'li va omillariga ega sanaladi. Dunyoda mavjud yetti mingga yaqin til orasidan "ilmiy terminologiyaning rivojlanishi faqat 60 ta tilda kuzatiladi va uch yuzdan ortiq kasbiy fan sohalarini qamrab oladi [Abduraxmanova, 2020: 709]. Ayni holat o'zbek terminologiyasi rivojlanishiga ham daxldorlik kasb etadi. O'zbek tilining maxsus leksikasi tarkibida ham yuzdan ortiq soha terminologiyasini qayd qilish mumkin. Bular sirasida ta'lim-tarbiya jarayoni, sohasiga tegishli pedagogika terminologiyasi ham leksik-semantik jihatdan o'ziga xos murakkab terminologik tizimlardan biri sanaladi. Tilning leksik tizimida yuzaga keladigan eskirish, yangilanish bilan bog'liq o'zgarishlar, leksik hodisalar, qayd qilinganidek, terminologik tizimda ham kuzatiladi. Tilshunoslar ta'kidlaganidek, "Lisoniy tizimda arxaizm va neologizmlarning yonma-yonlashishi hech kimga sir emas. Vaholanki, arxaizmlar o'tmish qoldiqlari, neologizmlar esa kelajak kurtaklaridir. Tilning doimiy o'zgarishda ekani tilimiz leksikasida keskin ko'zga tashlanadi" [Abuzalova, 2018: 33]. Bu holat tilning terminologik tizimida ham qayd qilinadi.

O'zbek tili leksikasidagi yangi o'zlashmalar tadqiqini amalga oshirgan tadqiqotda ham shu masalaga aloqador fikr-mulohazalar e'tiborga molik: "O'zbek tili izohli lug'ati"dagi o'zlashmalarning old qatorida arabcha so'zlarning joy olishi kishini ajablantirmaydi. Negaki, ta'lim-tarbiya jarayoni, odob-axloq meyorlari, diniy-irfoniy adabiyot tushunchalarini ifodalashda arabcha so'z, istilohlardan ko'proq foydalaniladi. O'rta asrlarda o'lkamizda arab tili faqat islom dini ta'siridagina yoyilgani yo'q. Mazkur til, o'z navbatida, rasmiy-idoraviy, fan tili hamda ijodkorlar uchun badiiy adabiyot tili rolini ham bajargan. Bularning barchasi bu til so'zlarini hozirgi o'zbek tilining bir qismi sifatida qabul qilinishi uchun poydevor vazifasini bajargan. [Shukurov, 2022: 31]

Tilda doimiy jarayon sifatida amal qiladigan terminizatsiya va determinizatsiya hodisasi tilshunoslarning doimiy diqqat-e'tiborida bo'lib kelyapti [Klimenko, 2009: 100]. Darhaqiqat, terminga dinamik hodisa sifatida qarash, undagi muayyan o'zgarishlarni hisobga olib borish lug'at tuzuvchilarning diqqat-e'tiboridagi masala bo'lishi lozim.

Ma'lumki, eski turkiy tilda fors-tojik va arab so'zlari qo'llana boshlagan, eski o'zbek tilida bunday o'zlashmalar ancha ko'paygan: *gul*, *gavhar*, *guruch*, *go'r* (fors-tojik so'zlari), *mad rasa*, *oila*, *fikr*, *firoq*, *hosil* (arabcha so'zlar). Hozirgi o'zbek adabiy tilida bunday o'zlashma so'zlarning ayrimlari eskirgan (masalan,

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

muvalldulhamuza, handasa, tarh kabilar), ularning o'rnida bir qator ruscha o'zlashma termin va atamalar paydo bo'lgan (*kislorod, geometriya, avtobus, tramvay* va b.); 2) qadimgi turkiy tildagi ayrim so'zlarning eski o'zbek tilida tojikcha sinonimlari paydo bo'lgan: *chechak* (turkiy) – *gul* (tojikcha), *yog'och*, *yig'och* (turkiy) – *daraxt* (tojikcha), *oltin* (turkiy) – *tilla* (tojikcha) kabi. [Jamolxonov, 2005: 12-13]. Bundan ma'lum bo'ladiki, terminlar tizimida ham arxaik va neologizmlar bilan bog'liq holatlar mavjud.

Shu o'rinda leksik istorizm va arxaizmlar bilan bog'liq lingvistik tavsiflarga e'tibor qaratib o'tish joiz bo'ladi. Istorizmlar, odatda, uzoq tarixiy jarayonlar davomida yuz beradigan eskirishning mahsuli boladi, ammo ular, ba'zan qisqa vaqtda paydo bo'lishlari ham mumkin: yaqin o'tmishda (1991-yilgacha) o'zbek tilining faol so'zlari bo'lgan ayrim leksemalarning (*partkom, raykom, gorkom, obkom, kolxoz, sovxoz* kabilarning) hozirgi kunda eskirib, istorizmlar qatoriga qo'shilgani buning dalilidir. Leksik arxaizmlar – hozirgi paytda mavjud bo'lgan voqelikning eskirgan nomi yoki, aksincha, hozirgi tilda mavjud bo'lgan leksemaning eskirgan ma'nosi (sememasi). Demak, eskirish jarayoni leksemaga yaxlit holda yoki uning bir qismiga (ma'nolaridan biriga) aloqador bo'ladi, shunga ko'ra leksik arxaizm ikki turga bo'linadi. [Jamolxonov, 2005: 205]. Ayni shu holatni terminologik tizimga ham aloqadorlik kasb etadi. Xususan, pedagogik terminologiyada ham arxaiklashish hodisasini kuzatishga harakat qilamiz.

O'zbek tili pedagogik terminologiyasi ham boshqa soha terminologiyalari kabi o'ziga xos taraqqiyot bosqichlari davomida leksik-semantik o'zgarishlarga ega tizim sanaladi. Jamiyat hayotidagi, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar, o'zgarishlar pedagogika terminologiyasida ham o'z aksini topgan. Ta'lim jarayonidagi o'qitishning yangi texnologiyalari, metod va shakllari yangi tushuncha va terminlarning yuzaga kelishiga omil bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, ta'lim va tarbiya sohasida yangilik va o'zgarishlarning yuzaga kelishi natijasida ayrim tushuncha va terminlarning arxaiklashishi sodir bo'ladi. Bu kabi o'zgarishlar ayrim terminlarning leksikografik izohlarida ham kuzatiladi.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da pedagogikaga oid tushunchalarni ifodalovchi bir qator leksema, terminlarning maqolasidagi izoh oldidan eskirganlikni anglatuvchi maxsus belgi (esk.)ni uchratamiz. Jumladan, “**SABOQ** [a. – tortishuv, musobaqa] 1 Dars, mashg'ulot, bilim, fan. Saboq bermoq. Saboq olmoq. 2 esk. Darsda (o'quvchilarga) beriladigan vazifa, topshiriq. 3 ko'chma Ibrat, o'rnak, namuna bo'ladigan, hayot tajribasini oshiradigan ish, harakat, voqea-hodisa.”; “**SABOQDOSH** esk. Birga o'qigan, saboq olgan kishi; maktabdosh.” [O'TIL, 2007: 411]. Leksikografik talqinlardan ma'lum bo'ladiki, ta'lim-tarbiya jarayoni tushunchalarini ifodalovchi *saboq, saboqdosh* leksema-terminlarida arxaiklashish bilan bog'liq holat mavjud. Ulardan ko'p ma'noli birlik bo'lgan *saboq* leksema-terminining ikkinchi ma'nosi arxaiklashgan, ayni shu termin asosida hosil bo'lgan *saboqdosh* leksema-termini esa bir ma'noli, ushbu birlik butunlay eskirgan sanaladi. Ya'ni *saboq* leksema-terminiga nisbatan *sememik arxaizm, saboqdosh* termini esa *terminologik arxaizm* maqomida qayd qilinishi lozim. Chunki, *saboq* lug'aviy birligining bitta ma'nosi eskirganlik belgisiga ega

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

bo'lsa, *saboqdosh* leksemasi butunicha eskirgan. *Saboq* leksema-terminining eskirgan ikkinchi ma'nosi – “darsda (o'quvchilarga) beriladigan vazifa, topshiriq” o'z o'rnini “dars topshirig'i, vazifasi” ma'nosiga bo'shatib bergan bo'lsa, *saboqdosh* leksema-termini esa o'z sinonimi sifatida “sinfdosh” leksemasiga o'z o'rnini topshirgan eskirgan lug'aviy birlikdir.

Shuningdek, quyidagi pedagogika sohasiga oid leksema-terminlarda ham arxaiklashish bilan aloqador xususiyat kuzatiladi: *darsxona* (dars yoki mashg'ulotlar o'tiladigan xona; auditoriya), *dejur* (1 esk. ayn. navbatchi), *dovot* (esk. ayn. siyohdon), *doklad* (esk. 1 q. ma'ruza), *dorilmuallimin*, *dorulmuallimin* (esk. O'qituvchilar tayyorlash bilim yurti, pedagogika instituti), *pero* (esk. Siyoh, tush va sh.k. bilan yozish uchun ruchka uchiga o'rnatib ishlatiladigan yozuvchizuv asbobi), *vojatliy* (esk. 1 Pioner otryadi, bolalar uyi, komsomol kabilarda otryad, drujinaning rahbari), *kurator* (1 q. rahbar (sinf rahbari), *programma* (q. Dastur. 5 Muayyan o'quv fani bo'yicha olib boriladigan ta'lim (o'qish-o'qitish ishlari)ning qisqacha izchil bayoni; o'quvchi o'zlashtirishi shart bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui) kabilar.

Ushbu leksema-terminlarni ham ikki guruhga ajratish lozim bo'ladi: 1) terminologik arxaizm (*darsxona*, *dorulmuallimin*, *dovot*, *pero*) va 2) sememik arxaizm (*dejur*, *doklad*, *vojatliy*, *kurator*, *programma*). Arxaiklashgan birliklar sifatida qayd qilingan leksema-terminlar hozirgi o'zbek tili nuqtani nazaridan eskirgan birliklar hisoblanadi, ularning arxaiklashishi ijtimoiy-madaniy hayotdagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, o'zbek jamiyati va tilining milliy xususiyatlariga e'tibor qaratilishi va jamiyat hayotining o'zgarishi, integratsiya ta'sirida o'z o'rnini boshqa birliklarga bo'shatib berishi tarzida belgilanishi maqsadga muvofiq.

Pedagogika sohasiga oid terminologiyadagi bu kabi o'zgarish, hodisalar lisoniy-nolisoniy omillar bilan bevosita bog'liq. Ularning terminologik tizimdagi o'zni va vazifasining tadqiqi muhim ilmiy-amaliy natijalarni qayd qilishda, pedagogika sohasiga oid terminlarning leksik-semasiologik, leksikografik tadqiqi til korpusi, terminlar korpusi ma'lumotlar bazasi uchun material taqdim qiladi, terminologik tizimning taraqqiyot bosqichlaridagi turli hodisalarni baholashda katta imkoniyatlarni yaratadi. Shuningdek, har bir terminologik tizimdagi arxaiklashish va yangilanishlarni muntazam tadqiq qilib borish milliy va soha terminologiyasini tartibga solishda ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Talqin, 2005. – 272 b.
2. Абдурахманова М. Юнон-лотин тилига асосланган тиббий атамаларнинг лингвистик тадқиқи // Сўз санъати. 3-маҳсул сон. – Тошкент: 2020.
3. Абузалова М. Субстанциал морфология, валентлик ва синтактик курилма: Филол. фан. докт. (DSc) ... дисс. – Самарқанд: 2018. – 248 б.

O‘zbek tili milliy va ta’limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

4. Клименко Н.Ф. Термінування і детермінування в процесах інтелектуалізації сучасної української мови // *Studia Linguistica*. –2009. – Випуск 3. – С. 100.

5. Тожиева Г. Ўзбек тилини “тил ва маънавият муштараклиги” тамойили асосида тадқиқ қилиш масалалари: Филол. фан. д-ри (DSc) дисс. – Қарши: 2021. – 232 б.

6. Шукуров О. Ўзбек тили замонавий ўзлашмаларининг эволюцияси, трансформацияси ва лексикографик талқини масалалари (мустақиллик даври): Филол. фан. докт. дисс. – Қарши, 2022. – 255 б.

7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 13 майдаги ПФ-4797-сонли “Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги Фармони. // www.lex.uz

8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилд. 1-3-жилдлар. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008.

4. SHO'BA. TIL TA'LIMIDA KORPUSLARDAN FOYDALANISH
ISTIQBOLLARI

MILLIY KORPUSDAN TEST TOPSHIRIQLARINI TUZISHDA
FOYDALANISHNING AHAMIYATI

ABDIRAIMOV Shohruh

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti(DSc),
ped.f.f.d.(PhD). www.samshab@mail.ru*

Annotatsiya: ushbu tezisdagi korpuslarning ta'lim jarayonida qo'llanish ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Xususan, ona tili ta'limida korpuslardan foydalanish imkoniyatlari, sifatli test topshiriqlarini tuzishdagi o'rni haqida so'z borgan. Shuningdek, testologiyada korpuslardan foydalanish tartibi va ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: korpus, testologiya, test, distraktor, namuna, autentik matn.

Abstract: this thesis discusses the importance of using corpora in the educational process. In particular, they talked about the possibilities of using corpora in mother tongue education, their role in creating quality test tasks. Also, the procedure and importance of using corpora in testology is revealed.

Key words: corpus, testology, test, distractor, sample, authentic text.

Fan-texnika taraqqiyoti kundan kunga jadallashib bormoqda, yangidan yangi imkoniyatlarni yaratib, ilmda ham, ta'limda ham, umuman, ijtimoiy hayotda ham qulayliklarni paydo qilmoqda. Qachonlardir insoniyat yillab, nina bilan quduq qazigandek, ming qiyinchiliklar bilan amalga oshirgan ishlarini hozirda super kompyuterlar sanoqli soniyalarda bajarmoqda. Bu esa bir soniya taraqqiyotdan, rivojlanishdan to'xtagan soha ortda qolib ketishini ko'rsatadi. Shuning uchun yangi davr amalga oshiriladigan ishlarni muhim, nomuhimga ajratishni, fan-texnika yutuqlaridan foydalanib, vazifalarni tartib bilan bajarishni taqozo etmoqda. Shuningdek, inson qo'l mehnati bilan amalga oshirgan ishlaridagi kamchiliklarni namoyon etmoqda. Ularni to'g'ri amalga oshirish mexanizmlarini taqdim qilmoqda. Bu holat tilshunosligimiz uchun ham begona emas.

So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida ham amaliy tilshunoslik sohalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, keyingi besh yillikda professor B.Mengliyev boshchiligida o'zbek amaliy tilshunosligiga tamal toshi qo'yildi. Xususan, lingvistik ekspertiza, korpus lingvistikasi, zamonaviy leksikografiyada tizimli ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda, amaliy natijalar qo'lga kiritilmoqda. Jumladan, professor B.Mengliyev rahbarligida Sh.Xamroyeva, Sh.Gulyamova, A.Eshmo'minov kabi olimlar tomonidan korpus lingvistikasining turli sohalarida: o'zbek tilining morfologik analizatori, semantik analizatori, sintaktik analizatori va tezauruslarini yaratish, umuman, milliy korpusni ishlab chiqish borasida salmoqli ishlari amalga oshirildi.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Korpus haqida jahon tilshunosligida Linda Taylor va Fiona Barker tadqiqotida quyidagicha izoh beradi: “Korpus” kompyuter ma'lumotlari bazasida saqlangan, turli xil lingvistik tahlillarga asoslangan katta matnlar to'plami” [Taylor, 2008: 253].

O'zbek tilshunoslaridan professor B.Mengliyev “korpus” atamasiga shunday ta'rif beradi: “Til korpusi qidiruv dasturlariga bo'ysundirilgan ma'lum tilga oid bo'lgan matnlar majmuasi bo'lib, u o'n milliondan tortib, yuz milliongacha, hatto milliardlab so'z qo'llanishlarini o'z ichiga oladi” [Mengliyev, 2020: 54]. Boshqa bir olim N.Abduraxmonova esa quyidagicha izohlaydi: “korpus” matnlar jamlanmasi bo'lib, u mashina o'qiy oladigan formatda matnlarni lingvistik analiz qilish, tabiiy tilni qayta ishlashga mo'ljallangan bo'ladi” [Abduraxmonova, 2021: 284]. “Korpus” tushunchasiga nisbatan batafsil izohni V.Zaxarov boshchiligidagi tuzilgan “Korpus lingvistikasi” o'quv qo'llanmasida berilgan: “Korpus – ma'lum maqsadda yig'ilgan matnlar majmuasini tashkil etuvchi til birliklari yig'indisi, tabiiy tildagi elektron shaklda saqlanadigan yozma yoki og'zaki kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga dasturiy ta'minot asosida joylashtirilgan onlayn yoki offline tizimda ishlaydigan matnlar jamlanmasi. Lingvistik tadqiqot va amaliy topshiriqlar yechimi uchun til korpuslari zamonaviy tilshunoslikning inkor etib bo'lmas ish quroli. U oddiy elektron kutubxonadan farqlanadi [Zaxarov, 2021: 34]. Demak, korpus matnlarning umumiy elektron to'plami emas, balki tabiiy tilga qayta ishlov berish, lingvistik tahlil qilish natijalarini taqdim etish imkonini beruvchi elektron majmua. Korpus lingvistik va lingvodidaktik tadqiqotlar uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi. Jumladan, “korpus bo'yicha qidiruv foydalanuvchiga quyidagi natijani beradi:

- 1) belgilangan so'zning turli kontekstdagi barcha shakldagi ko'rinishi;
- 2) tilning lug'at tarkibidagi o'rni va variantlari;
- 3) belgilangan so'z bilan birikish imkoniyatiga ega so'zlar ro'yxati;
- 4) u yoki bu yozuvchining ayni so'zdan foydalanish chastotasi yoki statistikasi;
- 5) so'zning o'z va ko'chma ma'nosi;
- 6) leksik qo'llanishining yashirin modeli (imkoniyati);
- 7) til taraqqiyotining turli davrida qo'llanish holati” [Zaxarov, 2021: 35].

Yuqoridagilardan ayon bo'ladiki, korpuslar faqat ilmiy tadqiqotlar uchun xizmat qilish bilan cheklanib qolmaydi, balki til ta'limida ham ahamiyatli hisoblanadi. Bu haqida olim Sh.Xamroyeva fikrlarini quyidagicha keltiradi: “O'qituvchi uchun korpus tengsiz xazina, undan har bir o'quv mashg'uloti uchun serqirra va mazmunli o'quv materiallari tayyorlash mumkin. Yuqorida aytib o'tganimizdek, korpusda xilma-xil matnlar jamlangan, undan o'qituvchi istalgan shaklda foydalana oladi [Xamroyeva, 2020:10]. Ayon bo'ladiki, korpuslardan o'quv materiallarini shakllantirishda, o'quvchilarga korpus yordamida bajarish mumkin bo'lgan uy vazifalarini tuzishda, umuman didaktik maqsadda unumli foydalanish mumkin. Shuningdek, faqat ta'lim berishda emas, balki ta'lim natijalarini baholashda ham foydalanish mumkin. Bu haqida birinchilardan bo'lib, ingliz olimi J.Alderson o'z qarashlarini bayon qiladi. U topshiriqlar ishlab chiqish,

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

test tuzish, test natijalarini baholash bilan bog'liq jarayonlarda korpuslardan foydalanish samarali ekanligini ta'kidlagan [Alderson, 1996]. Shuningdek, bu haqida avvalgi tadqiqotlarimizda quyidagicha to'xtalgan edik: "Til sinovlarida yozma ishlarni baholash jarayonida maxsus dasturiy ta'minot yaratiladi va milliy korpus bazalari bilan bog'lanadi. Natijada kompyuterga o'rnatilgan bu dastur o'quvchilarning yozma ishlarini avtomatik tarzda tekshiradi va belgilangan mezonlar asosida baholaydi. Ya'ni yozma ishning imloviy, punktuatsion, leksik va grammatik xatolarini erkin aniqlay oladi, shuningdek, ularning ko'chirilganlik darajasini ham baholaydi. Bu esa sinovlar jarayonida o'quvchilar bilimini xolis va tez baholashga imkon beradi" [Abdiraimov, 2021: 228]. Kuzatish va tajribalarimiz natijasida yana shu aniq bo'ldiki, og'zaki va yozma ish natijalarini baholashdagina emas, balki sinovda foydalaniladigan sifatli test materiallarini tayyorlashda korpusdan unumli foydalanish mumkin. Jumladan, korpus – o'quvchining imloviy, ishoraviy, leksik va grammatik savodxonligini tekshirishda foydalaniladigan yopiq testlar tuzishda to'g'ri javob va distraktorlarini shakllantirish uchun xilma-xil misollar topishda asqatadi.

Bunda test tuzuvchi quyidagi ishlarni ketma-ket bajarishi maqsadga muvofiq:

1. *Test topshirig'i savolini tuzish.*
2. *Test topshirig'ining to'g'ri javobni shakllantirish.*
3. *Distraktor sifatida foydalanish uchun korpusdan misollar topish.*

Quyida xuddi shu jarayonni korpus yordamida amalga oshirib ko'ramiz.

Test topshirig'i savolini tuzish. O'quvchilarning lug'at boyligini tekshirish uchun (*Lug'at boyligini tekshiradigan savollar, albatta, kontekst asosida bo'lishi kerak.*), avvalo test savolini shakllantirib olamiz.

Savol:

"Xarakteri tez odam atrofdagilarni xunob qiladi". Mazkur gapda ajratib ko'rsatilgan so'z bilan o'zaro ma'nodoshlik hosil qila oladigan birlik ishtirok etgan javobni aniqlang.

- A)
- B)
- C)
- D)

Test topshirig'ining to'g'ri javobni shakllantirish. Bunda test savoliga mos bo'lgan javob variantini korpusdan foydalanib, topamiz.

Avvalo, korpusning lug'at qismidan qidirib ko'ramiz(1-rasm).

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

tez

So'z tarkibi: {tez}

So'z bo'g'inlari: tez

Antonim(lar): asta, ohista [f-t], sekin, sust [f-t]

Sinonim(lar): oson [f-t], darrov [f-t]

Omonimlari: mavjud emas.


Paronimi: mavjud emas.

Milliy bo'yoqdor so'z: mavjud emas.

- ☐ Izoh(lar)i
- ☒ Omonim(lar)i
- ☒ Sinonim(lar)i
- ☒ Antonim(lar)i
- ☒ Paronimi
- ☐ Qomus
- ☐ Iboral(lar)
- ☐ Darajalanish qatori
- ☐ Uslubiy xoslanishi
- ☒ Milliy bo'yoqdor so'zlar

1-rasm: Milliy korpusning lug'at qismi.

Ko'rinadiki, test savolida “tez” so'zining nutqiy sinonimi so'ralgani bois, korpusning lug'at qismida qayd etilmagan. Shu tufayli korpusdan uning nutqiy sinonimini topamiz.(2-rasm)



2-rasm: Milliy korpusning qidiruv tizimi.

To'g'ri javob:

– U juda jizzaki yigit edi.

Distraktor sifatida foydalanish uchun korpusdan misollar topish. Xuddi yuqoridagi tartibda uning sinonimlariga misollar topamiz.

1. U jadal yurib qaytdi.

2. Abdurahmon kishi qo'yganda darrov rozi bo'la qoldi.

3. Bu borada izlanishlar yaqin kunlarda oxiriga yetadi.

Shundan so'ng, test topshirig'ini to'liq shakllantiramiz.

“Xarakteri **tez** odam atrofdagilarni xunob qiladi”. Mazkur gapda ajratib ko'rsatilgan so'z bilan o'zaro ma'nodoshlik hosil qila oladigan birlik ishtirok etgan javobni aniqlang.

A) Abdurahmon kishi qo'yganda darrov rozi bo'la qoldi.

B) Bu borada izlanishlar yaqin kunlarda oxiriga yetadi.

C) U jadal yurib qaytdi.

D) U juda jizzaki yigit edi.

Demak, o'zbek tilining milliy korpusi, nafaqat lingvistik, lingvodidaktik tadqiqotlar uchun ahamiyatli, balki til ta'limini samarali va sifatli tashkil etishda muhim vazifalarni bajara oladi. Xususan, testologiyada – o'quvchilarning til

O‘zbek tili milliy va ta’limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

bilimini tekshirish maqsadida test topshiriqlarini tuzishda muhim yordamchi vazifasini o‘taydi. Korpusdan foydalanib tuzilgan testlar sifatli va autentik bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdiraimov Sh. Baholash va milliy korpus. “O‘zbek milliy va ta’limiy korpuslarini yaratishning nazariy hamda amaliy masalalari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2021, № 01). – B. 226-228.
2. Abduraxmonova N. Kompyuter lingvistikasi. Darslik. – T.: “Nodirabegim”. 2021. – B. 394.
3. Alderson, J.C.: 1996, “Do corpora have a role in language assessment?”, in J.A. Thomas and M.H. Short (eds.), Using Corpora for Language Research, Longman, London.
4. Lynda Taylor and Fiona Barker. Using Corpora for Language Assessment. Encyclopedia of language and education. 2008 Springer Science+Business Media, LLC. Volume 7: Language testing and Assessment. P. 241-257.
5. Mengliyev B., Tilshunoslikning amaliy masalalari. Monografiya. – T.: Globeedit. 2020. – B. 90.
6. Xamrayeva Sh., O‘zbek tili morfologik analizatorining lingvistik ta’minoti. Monografiya. – T.: Globeedit. 2020. – 243 b.
7. Zaxarov Viktor Pavlovich, Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna. Korpus lingvistikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan, 2021. – B. 185.
8. <http://uzschoolcorpara.uz/uz/Search?c=1&q=tez>[2023.30.04].

**O'ZBEK TILI TA'LIMIY KORPUSIDA OMONIM VA KO'P MA'NOLI
SO'ZLAR SEMANTIKASINING O'ZLASHTIRILISHIGA DOIR**

SHIRINOVA Yekaterena.

*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'limi kafedrası katta o'qituvchisi.
e-mail: moxi5690@mail.ru; yekaterina@navoiy-uni.uz.*

ISKANDAROVA Gulbahor

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'limi kafedrası katta o'qituvchisi.
e-mail: iskandarovagulbahor@navoiy-uni.uz;
gulbahoriskandarova2@gmail.com.*

Annotatsiya: Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida "...har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim" [Mirziyoyev, 2017: 25] degan fikrni ilgari surgan edilar. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zaruriyat bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Ta'limni sifatli va samarali amalga oshirish uchun muhtaram Prezidentimiz tomonidan bir necha Dasturiy konsepsiyalar ishlab chiqildi. Mazkur dasturni to'liq amalga oshirish, qo'yilgan vazifalarga erishish ana shu bo'g'inlarning holati va rivojlanish darajasiga, ularning o'zaro uzviyligiga boqliqdir. Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda davlat tili, ya'ni o'zbek tilini o'rgatishga doir barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Umumta'lim maktablarining ikkinchi sinfidan boshlab to'qqizinchi sinflarigacha haftasiga ikki soatdan davlat tilini o'rganish uchun vaqt ajratiladi. Bu davrda o'quvchilar o'zbek tilida o'qish, yozish, muloqot qilish va fikrini ifodalashni o'rganadilar. Bunda, albatta, o'zbek tilida o'qish va o'rganish uchun so'z ma'nolari mohiyatini tushunish, so'z mazmunini turli kommunikativ vaziyatlarda o'zlashtirish hamda undan savodli darajada foydalana olish ko'nikmasini rivojlantirishga e'tibor qaratilishi zarur.

Kalit so'zlar: omonim so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar, semantika, o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish.

Annotation: President Shavkat Mirziyoyev in his solemn speech on the thirtieth anniversary of the granting of the status of the state language to the Uzbek language "...each of us had put forward the idea that the emphasis on the language of the state should be on independence, that we consider reverence and devotion to the language of the state to be reverence and devotion to the motherland, that such a view should become the rule of our lives" [Mirziyoyev, 2017: 25]. The future of each society is determined by the extent to which the educational system is

developed, which is an integral part of it and a vital necessity. In schools where education is conducted in other languages, all conditions for teaching the state language, that is, Uzbek, have been created. From the second to the ninth grades of secondary schools, two hours a week are allocated for the study of the state language. During this period, students learn to read, write, communicate and express their opinion in Uzbek. In this, of course, it is necessary to focus on understanding the essence of word meanings for reading and learning in the Uzbek language, mastering the content of the word in various communicative situations, and developing the skills to be able to use it at a literate level.

Key words: homonymous words, ambiguous words, semantics, teaching Uzbek as a foreign language.

Bugungi kunda O'zbekiston turli sohalarda yutuqlarga erishib, dunyo hamjamiyati o'rtasida alohida namoyon bo'lib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekistonga jahon nigohini qaratishi, chet el fuqarolarining yurtimizda sayohat qilishlariga yoki ta'lim sohasiga qiziqish bilan qarashiga sabab bo'lishi mumkin. Hozirgi kunda ko'plab chet el fuqarolari davlat ichida yoki tashqarisida tilimizni o'rganishga kirishganini kuzatish mumkin. Jahonning bir qancha mamlakatlari nufuzli oliygohlarida o'zbek tili kafedralarining ochilayotganligi barcha uchun birdek quvonarli holdir.

Shunday ekan, o'zbek tilini erkin muloqot qila oladigan, o'z fikrini ham og'zaki, ham yozma shaklda bimalol ifodalay oladigan, atrofdagilar bilan qiynalmasdan fikr almasha oladigan darajada egallashi uchun til o'rganish muhiti: joy va o'qituvchi, qo'llanma va metodlar omillariga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu esa, o'z navbatida, o'zbek tilining milliy ta'limiy korpusida omonim va polisemantik so'zlar semantik ta'limotiga yanada izchil yondashishni taqazo etadi [Shirinova, 2021: 27].

O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganuvchilar uchun shu tilda nutqni idrok etish – bu nutq bayonotlarining tashqi shakli orqasida joylashgan ma'noni olish jarayoni [Kebaytuli, Iskandarova, 2016: 20]. Nutqni tashkil etishning grammatik shaklini idrok etish va tushunish uning qurilishining lingvistik qonuniyatlarini bilishni talab qiladi. Idrok darajasi nutq signallarini qayta ishlash ketma-ketligi ham, nutq xabarlarini qurishning darajadagi xususiyati ham o'zbek tilining milliy korpusida aks ettiriladi. So'zni idrok etishning kechikishi, qabul qiluvchining ongida bir vaqtning o'zida ikkita “logogen” faollashishi bilan bog'liq, ulardan biri uning ma'nosi bilan, ikkinchisi grafika bilan aloqador. Bu insonning mazmunli idrok etishga bo'lgan doimiy istagini tasdiqlaydi.

Ko'p ma'noli yoki omonim so'zlarni tushunishda uning bir nechta ma'nolari so'z o'ziga xos kontekstual ma'noga ega bo'lgunga qadar bir-biri bilan raqobatlashadi [Mirtojiyev, 1975: 48]. Shu munosabat bilan biz kontekstni og'zaki yoki yozma nutqning semantik to'liqligiga ega deb aniqlaymiz, bu uning tarkibiga kiritilgan alohida korpuslar — so'zlar, iboralar yoki matn parchalarining ma'nosini aniqlashga imkon beradi. Masalan, “*bosh*” yoki “*ko'z*” so'zlarini ilk o'rgangan xorijlik “*bosh* – inson tanasidagi bosh, birinchi a'zo”, “*ko'z* – insonning yuz

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

qismida joylashgan ko'rish uchun xizmat qiladigan a'zo" sifatida biladi. Keyinchalik, matndagi mazmunga monand holda bu so'zlarning ikkinchi va boshqa ma'nolarini o'zlashtirishi kuzatiladi. O'zbek tili ta'limiy korpusida har bir omonim yoki polisemantik so'zlar izohi va misollar bilan keltiriladi. Bu xorijliklarning muayyan so'z ma'nosini ham kontekstual, ham pragmatik nuqtayi nazardan amaliy o'zlashtirishiga yordam beradi.

So'zlarni o'zga tilda idrok etishning yana bir xususiyati ularning bir xil semantik makondagi boshqa so'zlar bilan o'zaro bog'liqligidir: *"yog'li non"* assotsiativ jihatdan tinglovchilarda *"sariyog' surtilgan non"* mazmuniga teng kelsa, *"yog'li ish"* birikmasini tushunish ular uchun qiyinchilik tug'diradi. Sababi – *"yog'li"* ma'nosini ular ko'chma ma'noda ifodalanganligini tushunmaydilar. Ular faqat *"yog'"* so'zining tarjimasini – *fat, oil* deb biladilar.

Psixolingvistikada XX asrning 60-yillarida tadqiqotchi L.A.Chistovich [Chistovich, 1965: 48] tomonidan taklif etilgan idrok modeli mavjud. U insonni tanib olish jarayonini anglatadi. Nutq tovushlari xotirada ularning xususiyatlariga ko'ra xususiyatlar to'plami sifatida yoziladi: unlilar ur'gu darajasini bildiruvchi belgilar bilan yoziladi. So'z ma'nosini idrok etgandan so'ng, so'zning shartli chegarasi belgilanadi va odam idrok xotirasidan mos so'zni topadi. Agar qaror qabul qilinsa, so'zga kiritilgan segmentning chegaralari belgilanadi va keyingi ma'no tanlovlarining lug'ati qisqartiriladi. Odatda, asab tizimida spektrning ma'lum bir qismida maksimal energiya bilan shovqin, itarish (portlash), pauza, ma'lum xususiyatlarga ega formant o'tish va boshqalar kabi hodisalarni aniqlash uchun maxsus sxemalar (bloklar) hosil bo'lgan deb taxmin qilinadi. Nutq signalini idrok etishda ushbu sxemalar akustik hodisalarni bildiruvchi belgilarni ishlab chiqadi.

Umuman olganda, so'z ma'nolari o'zlashtirilishining hajmi cheklanganligi sababli, tushunarliklik maksimal bo'lgan iboraning maqbul davomiyligi mavjudligini kutish kerak. Buzilish sharoitida iboraning uzoq davom etishi bilan, joriy ko'rish va belgini o'rnatish uchun vaqt yetishmasligi bilan bog'liq bo'shliqlar kuzatilishi kerak. Shunday qilib, agar ibora uzun bo'lsa, unda so'zning tasviri yo'qoladi va keyin iboraning tan olinmagan qismi to'g'risida qaror faqat *"taxmin bilan"*, ba'zi lingvistik ehtimolliklar asosida so'z belgilari bilan cheklanmasdan va katta ehtimollik bilan qabul qilinishi mumkin.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, alohida segmentlarni idrok etishda kontekst muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun so'z va ibora to'g'risida qaror qabul qilish fonema va so'z haqida qaror qabul qilishdan ko'ra yuqori darajada va tubdan farq qiladi. So'nggi paytlarda nutqni tushunish jarayonlarini o'rganish doirasida aqliy leksikon muammosi insonning so'zlar, ularning ma'nolari va o'zaro bog'liqligi haqidagi bilimlari to'plami sifatida katta e'tiborni jalb qilmoqda. Aqliy leksikon so'zlarning fonologik, imlo va semantik xususiyatlarini aks ettiruvchi qoidalarga muvofiq tuzilgan deb taxmin qilinadi. Aqliy leksikonda so'zni topish nafaqat ushbu ichki xususiyatlarga, balki so'zning chastotasi va kontekstning ta'siri kabi tashqi xususiyatlarga ham bog'liq.

O‘zbek tili milliy va ta’limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Umuman olganda, zamonaviy psixologiya va psixolingvistika nutqni idrok etishning birligi, mexanizmlari va tuzilishi to‘g‘risida aniq tasavvurni hali ishlab chiqmagan. Ko‘pgina tajribalarda mos kelmaydigan natijalar olinadi, bu muammoning o‘zi murakkabligi, shu bilan birga yetarli tadqiqot usullarini ishlab chiqishdagi qiyinchiliklar bilan izohlanishi mumkin. Shu bilan birga omonim va polisemantik so‘z ma’nolarining o‘zbeklar va xorijliklar tomonidan istifoda etilishi o‘zbek tili ta’limiy korpusining mukammal darajada shakllantirilishi uchun asos bo‘lishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz (I jild) – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. 592 b.
2. Mirtojiyev M. O‘zbek tilida polisemiya. – Toshkent, 1975. 134 b.
3. Kebaytuli G., Iskandarova G. O‘zbek tili. – Beijing: China Minzu University Press, 2016. 317 p.
https://www.researchgate.net/publication/369825987_20161108_131621
4. Чистович Л.А. и др. Речь: артикуляция и восприятие. – Москва, 1965. 185 с.
5. Shirinova Y. O‘zbek tili milliy korpusini yaratish zarurati // “Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar” Respublika I ilmiy-amaliy konferensiyasi. № 1 – Toshkent, 2021. – B. 27-29.
https://www.researchgate.net/publication/351947270_O'ZBEK_TILINING_MILLI_Y_KORPUSINI_YARATISH_ZARURATI

SOBIROV Muhsinali

*Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti
mustaqil tadqiqotchisi*

Annotatsiya: ushbu tezis o'quv lug'atchiligi va ularni korpus tizimida yoritish masalalariga bag'ishlangan. Unda o'quv lug'atlarining yangi tur va avlodlarini yaratish g'oyasi ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: korpus, ta'lim, bilim, o'quv lug'ati, o'quv lug'atining yangi avlodi, amalda qo'llash, foydalilik darajasi

Abstract: this thesis is devoted to the issues of learner's dictionaries and their coverage in the corpus system. The idea of creating new types and generations of learner's dictionaries was put forward.

Key words: corpus, education, knowledge, educational vocabulary, new generation of learner's dictionaries, use in practice, level of usefulness

O'zbek tilining 5 jildli izohli lug'atida ta'lim so'ziga quyidagicha izoh berilgan: "TA'LIM [a]1 Bilim berish, malaka va ko'nikma hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. 2 Ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari bo'yicha egallanadigan, olinadigan ma'lumot va ko'nikmalar majmui; bilim" [O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild, 2020:27-28]. Bilim so'zi esa quyidagicha izohlangan: "BILIM 1 Obyektiv borliq haqidagi yoki muayyan (ilmiy, madaniy, ma'rifiy, ma'naviy, harbiy va b.) sohalarga oid ilmiy, amaliy ma'lumotlar, tushunchalar masjmui; ilm" [O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild, 2020:260]. Ilm so'zi haqida esa ushbu manbada quyidagicha izoh mavjud: "ILM [a]1 O'qish-o'rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim; ko'nikma, ma'lumot" [O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild, 2020:195]. Ko'nikma so'ziga esa mazkur lug'atda quyidagicha izoh bayon qilingan: "KO'NIKMA Biror ishda orttirilgan mahorat, malaka" [O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild, 2020:461]. Malaka so'ziga umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun 2019-yil chop etilgan ona tili darsligida quyidagicha izoh berilgan: "bilim va kasbni, ishni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan tajriba; mahorat"[M.Qodirov, H.Ne'matov, 2019:6].

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, ta'lim asosini bilim berish, ko'nikma va malaka hosil etish tushunchalari tashkil etadi. Bu mezon til ta'limiga ham taalluqlidir. Aslida til ta'limi anchalar keng hajmli tushuncha. Chunki bu jarayon ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim shaklidan oliy ta'limgacha bo'lgan murakkab bosqichni o'z ichiga oladi.

Til ta'limida "Nimani o'qitish kerak ?", "Nimani o'rgatish kerak ?", "Qanday o'qitish kerak ? ", "Qanday o'rgatish kerak ?" degan savollarga javob topish hozirgi kunga qadar dolzarb bo'lib qolmoqda. "Ta'lim mazmuni masalasi insoniyat tarixida eng qadimiy va ayni vaqtda eng dolzarb masalalardan biri sanaladi. Bu tabiiy hol, albatta. Chunki odamlar tarixiy taraqqiyotning barcha

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

davrlarida "Nimani o'qitish kerak?" degan savolga hamisha javob izlab kelganlar va izlamoqdalar" [A.G'ulomov, H.Ne'matov, 1995:4].

Til ta'limi jarayonida, xususan, ona tili ta'limi masalasida mustaqillikka erishganimizdan so'ng o'ta jiddiy ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, ona tilidan o'qitilishi va o'rgatilishi zarur bo'lgan bilimlarni tanlashning bosh mezon olimlarimiz tomonidan ilmiy asoslangan holda ko'rsatib berildi. Unga ko'ra zaruriy bilimlarni tanlashdagi bosh mezon quyidagi formulaga ega: [bosh mezon=foydalilik+amalda qo'llana olish darajasi]. Shuningdek, ona tilidan foydali bilimlar tizimi deb savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, o'quvchilarni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash va rivojlantirishni ta'minlaydigan bilimlar tushunilishi alohida ta'kidlab o'tildi [A.G'ulomov, H.Ne'matov, 1995:6] hamda ushbu fikrlar huquqiy-me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topdi [Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi, 1999:47, 56-57; Ona tilidan takomillashtirilgan Davlat ta'lim standarti Til va adabiyot ta'limi, 2005, № 4:11].

Ona tili o'qitilishi masalasiga doir yuqoridagi fikrlar O'zbek tilininig ta'limiy korpusi faoliyatiga bevosita daxldordir. Chunki mazkur korpus zaruriy bilimlarni tanlashda o'z-o'zidan asosiy e'tiborni ushbu bilimlarninig foydalilik va amalda qo'llanila olish darajasiga qaratadi. Shunday ekan, O'zbek tilininig ta'limiy korpusi oldida o'ta muhim masalalarni milliy til tabiatidan kelib chiqqan holda hal etish va sifatli bajarish mas'uliyati turibdi. Zero, korpus tomonidan taqdim etilayotgan bilim natijasida ta'lim oluvchilar ongida amaliy ko'nikmaning shakllanishi va malakaning hosil bo'lishi ko'zlangan maqsadga erishish omili sanaladi.

O'zbek tilining ta'limiy korpusi oldida turgan muhim masalalardan biri o'quv izohli lug'atlarning ona tilimiz tabiatiga xos va mos bo'lgan mutlaqo yangi avlodini yaratish va o'z o'quvchilariga havola etishdir. Chunonchi, "O'zbek tili metonimiyalarining o'quv izohli lug'ati", "O'zbek tili metaforalarining o'quv izohli lug'ati", "O'zbek tili sinekdoxalarining o'quv izohli lug'ati", "O'zbek tili vazifadosh so'zlarining o'quv izohli lug'ati", "O'zbek tili kinoya ma'noli so'zlarining o'quv izohli lug'ati", "O'zbek tili o'xshatishlarining o'quv izohli lug'ati", "O'zbek tili tasviriy ifodalarining o'quv izohli lug'ati", "O'zbek tili faol so'zlarining o'quv izohli lug'ati", "O'zbek tili nafaol so'zlarining o'quv izohli lug'ati", "O'zbek tili tub so'zlarining o'quv izohli lug'ati", "O'zbek tili yasama so'zlarining o'quv izohli lug'ati", "O'zbek tili yordamchi so'zlarining o'quv izohli lug'ati", "O'zbek tiliga arab tilida kirib kelgan so'zlar o'quv izohli lug'ati", "O'zbek tiliga fors-tojik tilidan kirib kelgan so'zlar o'quv izohli lug'ati", "O'zbek tiliga ingliz tilidan kirib kelgan so'zlar o'quv izohli lug'ati", "O'zbek tili so'z yasovchi qo'shimchalarining o'quv izohli lug'ati", "O'zbek tili shakl yasovchi qo'shimchalarininig o'quv izohli lug'ati", "O'zbek tili lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalarining o'quv izohli lug'ati", "O'zbek tili sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalarining o'quv izohli lug'ati", "O'zbek tilida hurmat ma'no maydonini hosil etuvchi birliklar o'quv izohli lug'ati", "O'zbek tilida ko'plik ma'no

O‘zbek tili milliy va ta’limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

maydonini hosil etuvchi birliklar o‘quv izohli lug‘ati”, “Iqtisodiy terminlar o‘quv izohli lug‘ati”, “Fizik terminlar o‘quv izohli lug‘ati”, “Ekologik atamalar o‘quv izohli lug‘ati”, “Siyosiy atamalar o‘quv izohli lug‘ati” kabi o‘quv izohli lug‘atlarninig zamonaviy avlodlarini yaratish shular jumlasidandir. Shuningdek, muayyan asar yoki muayyan ijodkor merosi yuzasidan o‘quv izohli lug‘atlar yaratish ishlarini amalga oshirish va korpusga joylashtirish o‘quvchilarning madaniy-ma’rifiy savodxonligini yuksaltirishda muhim omil vazifasini o‘taydi. Masalan, “G‘.G‘ulomning “Shum bola” qissasida qo‘llanilgan nafaol so‘zlarning o‘quv izohli lug‘ati”, “Abdulla Oripov adabiy merosida qo‘llanilgan tushunilishi qiyin so‘zlar o‘quv izohli lug‘ati” kabi lug‘atlarni yaratish va korpus vositasida havola etish o‘zining ta’limiy va ma’naviy-madaniy jihatlari bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jild. / Mas’ul muharrir Madvaliyev A. – T.: O‘zbekiston nashriyoti davlat unitar korxonasi , 2020.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.1-jild. / Mas’ul muharrir Madvaliyev A. – T.: O‘zbekiston nashriyoti davlat unitar korxonasi ,2020.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. / Mas’ul muharrir Madvaliyev A. – T.: O‘zbekiston nashriyoti davlat unitar korxonasi ,2020.
4. M.Qodirov, H.Ne’matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. To‘rtinchi nashri. – T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019.
5. A.G‘ulomov, H.Ne’matov. Ona tili ta’limi mazmuni. – T.: O‘qituvchi , 1995.
6. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1999.
7. Ona tilidan takomillashtirilgan Davlat ta’lim standarti. Ona tilidan takomillashtirilgan o‘quv dasturi // Til va adabiyot ta’limi, 2005, № 4.

ONA TILI TA'LIMIDA TIL KORPUSIDAN FOYDALANISHNING
AHAMIYATI

BOBODO'STOV Yusuf

ToshDO'TAU OAT fakulteti 3-kurs talabasi

bobodostov.yusuf@bk.ru

Annotatsiya: ushbu tezisdagi o'zbek tili milliy korpusi va o'zbek tili ta'limiy korpusi, ularning o'ziga xos xususiyatlari va ulardan foydalanish, shuningdek, til korpuslaridan katta elektron manba o'laroq faqat tatqiqotlar uchun emas, ona tili ta'limida, bevosita dars jarayonlarida foydalanishning ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: korpus, til korpusi, ta'limiy korpus, leksikologiya, matn, so'z, antonimlar, paronimlar, omonimlar, sinonimlar.

Abstract: in this thesis, the national corpus of the Uzbek language and the educational corpus of the Uzbek language, their specific features and their use, as well as language corpora as a large electronic resource, not only for research, but in mother tongue education, directly the importance of use in teaching processes is discussed.

Keywords: corpus, language corpus, educational corpus, lexicology, text, word, antonyms, paronyms, homonyms, synonyms

Ma'lumki, hozirgi raqamlashgan dunyoda barcha sohalar "tirik" qolishi uchun yangi texnologiyalardan foydalanishiga, joiz bo'lsa unga moslashishiga to'g'ri kelmoqda. Shu jumladan, tilshunoslik va til ta'limi ham. Buning uchun butun dunyoda tabiiy tilni qayta ishlab, uning butun boshli elektron bazasini yaratish eng muqobil yo'l deb topildi va bu ko'pgina mamlakatlar tajribasidan muvaffaqiyatli o'tdi. Albatta, o'zbek tilshunosligida ham bu borada sezilarli ishlar qilindi deb bimalol ayta olamiz. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida "Elektron ta'lim" milliy tizimini yaratish investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2012-yil 16-aprelda e'lon qilingan PQ – 1740-son qarori ta'lim sohasida axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va undan foydalanish, jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishga zamin yaratadi [Xolmonova, 2020: 5]. Xususan, yaqin besh yillik ichida "O'zbek tili korpusi" yaratildi. Bundan tashqari, korpus lingvistikasining shakllanishi 2018-yillarda nazariy tadqiqotlar bilan boshlanib, 2021-yilda "O'zbek tilining ta'limiy korpusi" yaratilishi bilan rivojlandi [Abjalova, 2022: 12]. Quvonarli jihati, nazariy tadqiqotlar natijasida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy jamoasi tomonidan "O'zbek tilining ta'limiy korpusi" yaratildi va O'zbek tili Milliy korpusiga tamal toshi qo'yildi [Abjalova, 2021: 12].

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Shuningdek, yana bir muhim jihat borki, yaratilgan lingvistik bazalar ulardan qanchalik foydalanish bilan ahamiyatlidir. Xususan, olima Manzura Abjalova korpus lingvistikasidan foydalanish omillari sifatida quyidagilarni keltirib o'tadi:

1) "Bir marta yaratilgan va tayyorlangan matnlar majmuasi (ma'lumotlar to'plami) turli tadqiqotchilar tomonidan turli maqsadlarda qayta-qayta foydalanilishi mumkin;

2) Korpusda har xil uslubdagi materiallar bo'lgani bois nutqiy uslubga xos tadqiqotlarni pragmatik jihatdan o'rganish imkoni yuqori bo'ladi" [Abjalova, 2022:7].

Filolog olimlar V.Zaxarov, B.Mengliyev, Sh.Xamroyevalarning hammuallifligida nashrdan chiqqan "Korpus Lingvistikasi: korpus tuzish va undan foydalanish" o'quv qo'llanmasida esa quyidagicha fikrlarni ham uchratishimiz mumkin: "Ta'kidlash joizki, til korpuslari, eng avvalo, tilshunos uchun kerak. Zero, korpusiz bugungi kunning nazariy hamda amaliy filologiyasini tasavvur etish qiyin. Tilshunoslikka oid tadqiqotlar hamisha dalillar asosida ish ko'rishni, muayyan tadqiq mavzusi doirasida faktlar yig'ishni, to'plangan materiallarni sistemaga solishni taqozo etadi" [Zaxarov, 2021: 7]. Ammo yaratilgan til korpuslari faqatgina tadqiqotlar uchun xizmat qilish bilan cheklanib qolmaydi. Undan boshqa maqsadlarda, binobarin ta'lim jarayonida bevosita foydalanish mumkin. Bu borada NamDu magistranti Nazira Sobirova fikrlarini o'z maqolasida quyidagicha izohlaydi: "Foydalanuvchi o'zining qiziqishlariga qarab xohlasin badiiy, xohlasin ilmiy, xohlasin rasmiy yoki publitsistik uslubdagi matnlarga murojaat qila oladi. Bu til o'rganishda, ayniqsa, judayam katta naf keltiradi. Maktab ta'limida dars jarayonida o'quvchilarga bilimlarini mustahkamlashda topshiriqlarni tezkorlik bilan berishda pedagoglarga anchayin qo'l keladi. Korpus qamrovi juda keng, salmoqdorlik darajasi yuqori bo'lgan tizimlashtirilgan kutubxonadir. Foydalanishga qulay, vaqtni ancha tejaydi. Elektron qidiruv tizimi jihatidan boshqa dasturlardan farq qiladi. Korpus bo'yicha qidiruv foydalanuvchiga belgilangan so'zning turli kontekstdagi barcha shakldagi ko'rinishini topib beradi. Lug'atda qaysi o'rinda ekanligini, uning variantlarini aniq ko'rsatadi. Qidirilayotgan so'zning birikish imkoniyatiga ega bo'lgan so'zlar qatorini, denotativ hamda konnotativ ma'nolarini belgilay oladi" [Sobirova, 2022: 3].

Yana bir manbada esa quyidagi fikrlarni uchratish mumkin:

"O'qituvchi uchun korpus tengsiz xazina, undan har bir o'quv mashg'uloti uchun serqirra va mazmunli o'quv materiali tayyorlash mumkin. Yuqorida aytib o'tganimizdek, korpusda xilma-xil matnlar jamlangan, undan o'qituvchi istalgan shaklda foydalana oladi. Masalan, o'qituvchi topshiriqni tayyorlash uchun badiiy adabiyot parchasidan (yoki noadabiy matndan: sport, aftobiografiya yoki shunchaki ma'lum ijodkor ijodi bilan chegaralanmoqchi) foydalanmoqchi. Unda "Mening korpusim" ilovasi orqali o'ziga kerakli matnni ajratib olish imkoni mavjud" [Xamroyeva, 2020:10].

Rostdan ham, ushbu fikrlar haqiqatdan yiroq emas. O'qituvchilar til korpusi yordamida tuganmas bilim zahirasi ega bo'ladilar va ular bundan **bilvosita** yoki **bevosita** foydalanishlari mumkin. Ya'ni o'qituvchi tizimdan bevosita sinfning

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari


o'zida foydanish imkoniyatiga ham ega. Bundan farqli o'laroq tezkor va xilma-xil topshiriqlar tuzish uchun ham foydalana oladi. Ammo shunga qaramay til korpusidan sinfdan foydalanish metodikasi hozircha ishlab chiqilgani yo'q. Shunday bo'lsa-da, quyida leksikalogiya bo'limini o'qitishda til korpusi qanday qulayliklar yaratishi mumkinligi ko'rib o'tamiz.

Bilamizki, leksikalogiya bo'limi tilshunoslikning so'z bilan bog'liq bo'limi hisoblanadi va u so'zlarning atash ma'nolarini o'rganadi. Bu jarayon so'zning barcha xususiyatlari: ma'nosi, sinonimiyasi, antonimiyasi, paranomiyasi va hokazolarni qamrab oladi. O'qituvchilar esa bu borada til korpusidan istalgancha ma'lumot topishlari mumkin. Buni quyida bir necha so'z misolida ko'ramiz.

Dastlabki amal bevosita so'zning ma'nolariga bog'liq. Buning uchun korpusning "Lug'atlar" qismiga kirib o'rganish maqsad qilingan so'z yoziladi. Misol tariqasida "gul" so'zini olamiz.

Bu amal qidiruvchiga "gul" so'zi haqida deyarli hamma ma'lumotni, jumladan,

- uning ma'nosi;
- qaysi ma'nolarda qo'llanishi;
- antonimlari;
- omonimlari;
- sinonimlari;
- morfemik xususiyati;
- talaffuzi;
- so'z qatnashgan iboralar;
- darajalanish xususiyatlari kabilarni havola etadi. (1 va 2-rasmlar)



1-rasm: Leksemaning lingvistik xususiyatlari

Antonim(lar)i: mavjud emas.

Sinonim(lar)i: [chechak](#)

Omonim(lar): (2 ta) [To'liq ko'rish](#)

1. **gul I** [Ot](#)
qizamiq natijasida badanda paydo bo'ladigan toshma

2. **gul II** [Ot](#)
o'simlikning gulbarg, changdon va gulkosadan iborat qismi; naqsh, bezak

Paronimi: mavjud emas.

Qomus: mavjud emas.

Ibora: (1 ta) [To'liq ko'rish](#)

1. **Olam guliston:** hamma narsa ko'ngildagidek, hech qanday e'tirozga o'rin yo'q

2-rasm: Leksemaning izohlari

Keyingi amal orqali esa izlanayotgan soʻzning bevosita kontekstda, yaʼni matn ishida kelish holatlarini koʻrish mumkin. Bu amal qidirilayotgan soʻz ishtirokida korpusda bor barcha matnlarni topishda yordam beradi. Biror matnni tanlash orqali esa oʻsha matnning toʻliq variantini koʻrish va izlanayotgan soʻz matn tarkibida qaysi holatlarda qanday maʼnolarda ishlatilayotganini bilish mumkin. Har bir matn ostida esa uning qaysi asar parchasi ekanligi yoki matn olingan manba ilova qilingan. (3 va 4-rasmlar)

O'zbek tili milliy korpusi

Bosh sahifa Ta'limiy korpus **Izlash** Lug'atlar Kirish

Korpus: O'zbek tilining ta'limiy korpusi

So'z yoki so'z birikmasi: Katta

☐ Parametrlar ☐ CQL **Uslubiy xoslanishi:** uslubiy betaraf. [Bigramma](#)

Izlash

103392 ta yozuvdan 20 tasi ko'rsatilmoqda!


... va barkamol bo'lib voyaga yetishida Vatan tuyg'usi **katta** ahamiyatga ega.Xalqimiz, Vatanimiz sizning sog'lom...

... bo'lgani, zamonlar o'tishi bilan rivojlanib, **katta** shaharga, ba'zan qudratli davlatga aylanib...

... ma'nodoshlari hisoblanadi. Vatanda yashash eng **katta** baxt. Vatandan judolik, vatangadolik ulkan...

... esa 2005-yili barpo etilgan. Ona o'z farzandiga **katta** umid va ishonch bilan termilib, uning mustaqil...

3-rasm: Leksemaning kontekstlarda kelishi.



4-rasm: Leksemaning matn tarkibida kelishi.

“Til korpusidan o‘qituvchi, talaba, maktab o‘quvchisi ham ancha unumli foydalana olishi mumkin. Chunki faqat korpus orqali juda osonlik bilan kam ishlatiladigan so‘z, ibora va birikmani topish, qo‘llanishi va yozilishi (orfografiyasi)ni o‘rganish mumkin. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, til korpusida til grammatikasi va darslik muallifi tasvirlaganidek emas, balki jamiyatda qanday yashasa, shunday aks etadi. Bu esa o‘quvchini o‘zini o‘rab turgan muhit — umumxalq tili va adabiy tilni o‘rganishda eng sarmahsul vosita bo‘lib xizmat qiladi” [Xamroyeva, 2018: 11]. Darhaqiqat, til korpuslaridan ona tili ta’limini tashkil etishda, shuningdek, o‘quvchilarning bilimlarini baholash jarayonida foydalanish mumkin. Bu haqida metodist olim Sh.Abdiraimov maqolasida shunday deb keltiradi: “Ona tilini bilish darajasini aniqlash sinovlarida ham milliy til korpuslaridan foydalanish mumkin. O‘quvchilarning yozma va og‘zaki sinovlardagi javoblarini baholashda, o‘qib tushunish va eshitib tushunish malakalarini tekshirish uchun foydalaniladigan autentik matnlar topishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi” [Abdiraimov, 2021: 227].

Tabiiyki, yana bir haqli savol vujudga keladi. Har bir mavzuga oid darsliklarda yetarlicha misollar va matnlar berilgan bo‘lsa, korpus yordamidan foydalanishga qanday ehtiyoj bor? Bu savolga quyidagicha javob berish mumkin. Kurpusdan foydalanish darslar va mashqlar takrorining oldini oladi. Har bir o‘quvchi yangi, tasodifiy, real so‘z yoki matn bilan ishlay oladi. Shuningdek o‘qituvchi tezkor mashqlar shakllantirish uchun korpusdan foydalanish orqali vaqtini tejab qoladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, til korpuslari nafaqat tilga oid tatqiqotlar uchun, balki, til ta’limida ham ahamiyatli sanaladi. Uning yordamida tilning barcha sathlarini osongina tatqil qilish va o‘qitish mumkin bo‘ladi. Yana shuni aytish o‘rinliki, til korpuslaridan bevosita sinfda foydalanish anchayin samari bo‘lgani holda, til korpuslaridan sinfda foydalanish metodikasini ishlab chiqish o‘zbek lingvodidaktikasining oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdiraimov Sh. Baholash va milliy korpus. “O‘zbek milliy va ta’limiy korpuslarini yaratishning nazariy hamda amaliy masalalari” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2021, № 01). – B. 226 – 228.
2. Abjalova M. Korpus lingvistikasi. Toshkent: Bookmany print, 2022. – B. 105.
3. Abjalova M. O‘zbek tili ontologiyasi: yaratish texnologiyasi va konsepsiyasi [Matn]: monografiya. Toshkent, 2021. – B. 176.
4. Sobirova N. Korpus lingvistikasi va parallel korpuslar tavsifi. – Academic Research in Educational Sciences, 2022. – B. 9.
5. Xamrayeva Sh. Korpus lingvistikasi atamalarining qizqacha izohli lug‘ati. Toshkent: GlobeEdit is a trademark of International Book Market Service Ltd., member of OmniScriptum Publishing Group, 2020. – B. 93.
6. Xolmonova Z. Kompyuter lingvistikasi. Toshkent: Asian book house, 2020. – B. 198.
7. Zaharov V., Mengliyev B., Xamrayeva Sh. Kompyuter lingvistikasi: korpus uzish va undan foydalanish. Toshkent: GlobeEdit, 2021. – B. 167.
8. O‘zbek tilining ta’limiy korpusi (uzschoolcorpara.uz) 2023.15.04.

ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILAR LEKSIK MINIMUMINI
ANIQLASHNING AHAMIYATI

HAMDAMOVA Gulruh

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU

Ona tili va adabiyoti ta'lim fakulteti 2-kurs talabasi

hamdamova.g@mail.ru

Annotatsiya: ushbu tezisda maktab o'quvchilarining leksik minimumini aniqlash zarurati, ularning lug'at boyligini oshirish usullari haqida so'z boradi. Shuningdek, tadqiqotda kuzatish, tahlil qilish, umumlashtirish metodlari foydalanilgan. O'quvchilarning lug'at bilan ishlashi, ularning leksikonini boyitish hamda leksik minimumni aniqlashning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: lug'at, nutq, minimum, og'zaki nutq, leksikon, metod, sinonim, atama, izohlash.

Abstract: this thesis talks about the need to determine the lexical minimum of schoolchildren, methods of increasing their vocabulary. Also, observation, analysis, generalization methods were used in the research. The importance of working with the dictionary of students, enriching their lexicon and determining the lexical minimum is revealed.

Key words: dictionary, speech, minimum, oral speech, lexicon, method, synonym, term, explanation.

Nutq inson hayotining muhim qismi va insonni jamiyatga bog'lab turuvchi asosiy vositalardan biri hamdir. So'zlash va eshitib tushunish malakalari og'zaki nutq bilan bog'liq bo'lsa, yozish va o'qib tushunish yozma nutq bilan bog'liq tarzda amalga oshadi. Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, mazmunga mos so'z va so'z birikmalarining ma'lum izchillikda joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lug'ati qanchalik boy va rivojlangan bo'lsa, uning nutqi ham shunchalik ravon va sarmazmun bo'ladi, o'z fikrini aniq va ifodali bayon etishga keng imkoniyat yaratiladi. Lug'atlar muayyan hodisa yoki narsa-buyum haqida axborot beradi. Har bir insonning o'z lug'at leksikoni mavjud bo'ladi va u shu leksik birliklar yordamida jamiyat bilan aloqa qiladi. Bugungi kunda tilni o'rganish uchun qancha so'zni bilish va qo'llay olish kerak, degan savol yuzaga kelmoqda. Bu ko'plab ilmiy tadqiqotlarga asos bo'lib xizmat qildi. "Insonlarning lug'at maydoni qancha?", "U qaysi yoshda rivojlanadi?" kabi savollar leksik minimum tushunchasini ilm fanga kirib kelishiga sabab bo'ldi. Leksik minimumga izoh beradigan bo'lsak, u insonning eng kam so'z bilish darajasidir.

Bugungi kunda ko'plab ota-onalar farzandlarini chet tillarini yaxshi o'zlashtirishlari uchun bolani hali maktab yoshiga yetmasdan avval til to'garaklariga berishadi. Natijada bola hali o'z tilida o'qish, yozishni bilmay turib chet tilini o'rgana boshlaydi. Chet tiliga iqtisoslashtirilgan maktablarda 10-11 yoshli bolalar ingliz va rus tillarida o'z fikrlarini bimalol bayon eta olishadi. Ammo o'zbek tilida

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

nutq ifodalshga qiynalishadi hamda chet tilidagi so'zlarni qo'shgan holatda so'zlashadi. Bunday o'quvchilarning chet tili leksik minimumi ancha rivojlangan bo'lsa ham, o'zbek tilini bilish lug'at darajasi ancha past bo'ladi.

Endi maktabga chiqqan 7 yoshli bolaning leksikoni boy bo'lmaydi. Chunki bu yoshdagi bolalar sinonim so'zlarning ma'nolarini to'liq tushunishmaydi, ibora va paronimlar haqida tasavvurga ega bo'lishmaydi. Ilmiy birikma, fraza va argolarni bolalar tushunishi uchun ularni sodda so'z yoki hodisalar orqali o'qituvchi tomonidan izohlab berishi kerak. Bolalarning dastlabki o'rganadigan so'zlari ularning ota-onasi, tana azolari, atrof muhit haqidagi kundalik ishlatiladigan so'zlardir. Bolalar dastlab o'z atrofidagi insonlar, belgi-hodisalar narsalar haqida axborotni qabul qila boshlaydi. Bolaning yoshi ulg'aygani sari, atrof muhit va narsalarga bo'lgan qiziqishi ortib boradi. Natijada bola leksikonida yangi so'zlar paydo bo'la boshlaydi. Yuqori sinf o'quvchilarining darsliklarida eskirgan, o'zlashma va ilmiy atamalarning izohlari alohida berilgan bo'ladi. Ammo boshlang'ich sinf darsliklarida bu holat deyarli kuzatilmaydi.

Maktab ta'limida lug'at ustida ishlash metodikasi to'rt asosiy yo'nalishni ko'zda tutadi [Yunusova, 2021:34]:

1. O'quvchilar lug'atini boyitish, ya'ni yangi so'zlarni, shuningdek, bolalar lug'atida bo'lgan ayrim so'zlarning yangi ma'nolarini o'zlashtirish. Ona tilining lug'at boyligini bilib olish uchun o'quvchi o'z lug'atiga har kuni 8-10 ta yangi so'zni qo'shishi, ya'ni shu so'zlar ma'nosini o'zlashtirishi lozim.

2. O'quvchilar lug'atiga aniqlik kiritish. Bunga quyidagilar kiradi:

- 1) o'quvchi puxta o'zlashtirmagan so'zlarning ma'nosini to'liq o'zlashtirish, ya'ni shu so'zlarni matnga kiritish, ma'nosini yaqin so'zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo'llari bilan ularning ma'nosiga aniqlik kiritish;

- 2) so'zning kinoyali ma'nosini, ko'p ma'noli so'zlarni o'zlashtirish;

- 3) so'zlarning sinonimlarini, sinonim so'zlarning ma'no qirralarini o'zlashtirish;

- 4) ayrim frazeologik birikmalarning ma'nosini o'zlashtirish.

3. Lug'atni faollashtirish, ya'ni o'quvchilar ma'nosini tushunadigan, ammo o'z nutq faoliyatida kam ishlatadigan nafaol lug'atidagi so'zlarni faol lug'atiga o'tkazish. Buning uchun shu so'zlar ishtirokida so'z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o'qiganlarini qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlarni o'quvchilar faol lug'atidan nafaol lug'atiga o'tkazish. Bunday so'zlarga bolalarning nutq muhiti ta'sirida o'zlashib qolgan adabiy til me'yorlariga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so'zlashuv tilida qo'llaniladigan sodda so'z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so'zlar kiradi.

Adabiy til me'yori degan tushunchani o'zlashtirgach, o'quvchilar yuqorida izohlangan so'zlar o'rniga adabiy tildagi so'zlardan foydalana boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so'zlar, so'zlashuv tilida ishlatiladigan sodda so'z va iboralar o'quvchilarning faol lug'atidan chiqib keta boshlaydi.

Birinchi sinf o'quvchilari yozish va o'qishni mukammal bilishmaydi. Shu sababli bu o'quvchilarning darsliklaridagi mavzular asosan suratlar orqali

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

yoritilgan bo'ladi. Suratlardagi ko'rinishlar bolalarga mavzuni tezda tushunishga va yangi so'zlarni yodida qolishiga sabab bo'ladi. Ammo darsliklardagi ba'zi o'rinlarga o'zgartirishlar kiritish kerak deb hisoblayman. Masalan, 1-sinflar uchun tuzilgan "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligida matn berilgan va "ajratilgan qisimlarni izohlang" topshirig'i berilgan. O'quvchiga yanada tushunarli bo'lishi uchun "qisimlarni izohlang" emas, balki "so'zlarni izohlang" tarzida o'zgartirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Ba'zi suratlar ostida berilgan "surat asosida matn yozing" topshirig'i o'rniga "fikringizni rasm asosida bayon qiling" topshirig'i berilsa, samaraliroq bo'ladi. Boisi 7-8 yoshli bola hamma so'zlarni to'liq yozolmaydi va fikrini bayon etishda qiynaladi. Og'zaki matn tuzish bolani erkin fikrlash bilan bir qatorda, og'zaki nutqini rivojlanishi hamda leksik minimumini oshishiga sabab bo'ladi.

Umuman, leksik minimumni aniqlash har bir yosh davrida o'zlashtiriladigan, muloqot jarayonida qo'llaniladigan so'zlar miqdorini tekshirish va shu orqali o'quvchilarning lug'at boyligini qay darajada ekanligini aniqlash hamda ularning lug'at leksikonida mavjud bo'lmagan yoki passiv leksikondagi so'zlarni faol faol leksikonga o'tkazish jarayoni uchun muhimdir. Shu boisdan bizning ta'lim tizimimizda ham minimal lug'at boyligini o'lchash va shu orqali o'quvchilar lug'at boyligidagi bo'shliqlarni to'ldirish lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yevropalik olimlar leksik minimumni aniqlashga doir bir nechta metodlar ishlab chiqishgan va shu asosida tadqiqotlar o'tkazib aniq natijalarga erishgan. Bizda ham har bir yosh davridagi leksik minimumni aniqlash lozim. Bu – maktab darsliklarini va bolaning mustaqil shug'ullanishi uchun tayyorlanadigan qo'llanmalarini tuzishda, bolalarga mos bo'lgan o'quv topshiriqlar yaratishda, bolalar adabiyotini rivojlanishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahimova D. O'quvchilarning lug'at boyligini oshirishda test topshiriqlaridan foydalanish metodi. BMI. – Toshkent. 2022. – B. 56.
2. Abdurahimov Sh. Ona tili ta'limida o'qib tushunish malakasini baholash. Monografiya. Toshkent. 2022. – B. 126.
3. Karima Q, Safo Matchonov, Xolida G', Sharofat Y. Lug'at ustida ishlash metodikasi. (<https://fayllar.org/karima-qosimova-safo-matchonov-xolida-gulomova-sharofat-yoldos.html?page=198>). 2023. 15.04.
4. Yunusova H. Umumtalim maktablarining boshlang'ich sinflarida darslarni tashkil etish texnologiyalari. 2021.

ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДОВ NLP В КОРПУСНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ:
ОСОБЕННОСТИ И ОГРАНИЧЕНИЯ

НИГМАТОВА Лолахон

DSc, доцент кафедры русского литературоведения

Бухарского государственного университета

nigmatovalolaxon@gmail.com

АВЕЗОВ Сухроб

преподаватель кафедры русского литературоведения

Бухарского государственного университета

1990senigama@gmail.com

Аннотация. Обработка естественного языка (NLP) – анализ человеческого языка компьютерными программами. NLP включает задачи от простых (разделение текста на слова) до сложных (преобразование речи в текст, аннотация синтаксическими характеристиками). NLP способствует развитию корпусной лингвистики и машинному обучению. Однако, NLP имеет слабые стороны и потенциальные ограничения. Важно осознавать возможности и недостатки инструментов NLP для корректного использования. В статье рассматриваются NLP-процессы (токенизация, лемматизация, маркировка частей речи, анализ составляющих и анализ зависимостей) для повышения грамотности в области NLP.

Ключевые слова: NLP, корпусное исследование, токенизация, лемматизация, аннотация частей речи, аннотация составляющих, аннотация зависимостей, обучающие данные, анализ языковых данных.

Abstract. Natural Language Processing (NLP) is the analysis of human language by computer programs. NLP includes tasks ranging from simple (e.g., splitting text into words) to complex (e.g., transforming speech into text, annotating syntactic features). NLP contributes to the development of corpus linguistics and machine learning. However, NLP has weaknesses and potential limitations. It is essential to recognize the capabilities and drawbacks of NLP tools for their proper use. The article discusses NLP processes (tokenization, lemmatization, part-of-speech tagging, constituency analysis, and dependency analysis) to increase literacy in the field of NLP.

Keywords: NLP, corpus research, tokenization, lemmatization, part-of-speech annotation, component annotation, dependency annotation, training data, language data analysis.

Область NLP довольно обширна и включает в себя множество процессов. В этой статье основное внимание уделяется пяти NLP-анализам, которые относительно часто используются в исследованиях корпусов, а

именно: токенизации, лемматизации, аннотации частей речи, аннотации составляющих и аннотации зависимостей. Хотя другие NLP-анализы, такие как семантика векторного пространства, также имеют возможности для исследований корпусов, в нашей работе акцент делается на лингвистической аннотации.

Анализы NLP опираются на закономерности в языковых данных, на которых они обучаются [Polio, 2018: 179]. Лингвистические особенности, которые явно кодируются и используются с небольшой двусмысленностью в языковом корпусе, будут автоматически аннотированы с гораздо большей точностью, чем те, которые менее явно кодируются и/или используются двусмысленно. Кроме того, степень, в которой использование определенной языковой особенности в обучающих данных представляет собой область использования целевого языка, повлияет на точность автоматической аннотации. По крайней мере, две характеристики обучающих данных будут влиять на репрезентативность, а именно размер корпуса и степень сравнимости регистра обучающего корпуса и целевого корпуса.

Таким образом, анализы NLP зависят от характеристик обучающих данных и репрезентативности этих данных относительно целевого корпуса. Размер и сходство регистров обучающего и целевого корпусов влияют на точность автоматической аннотации, и эти факторы могут быть существенными при рассмотрении анализа языковых данных учащихся. Важно учитывать эти различия и особенности при использовании NLP-инструментов для анализа корпусов и других языковых данных.

Токенизация заключается в разделении текста на словесные единицы. В узбекском и других языках, где словесные единицы разделяются пробелами, токенизация является относительно простой и высокоточной задачей, включающей два основных этапа. Во-первых, большинство (если не все) знаков препинания должны быть отделены от словесных единиц. Поскольку некоторые знаки препинания могут использоваться неоднозначно, токенизаторы могут использовать статистические/машинные модели обучения для точного разделения несловесных знаков препинания от слов. Во-вторых, слова необходимо разделить с использованием пробелов, а все несловесные элементы могут быть удалены в зависимости от целей исследователя. Для большинства текстов токенизацию можно выполнить с высокой степенью точности, хотя опечатки могут вызвать ошибки.

В языках, где словесные единицы не обязательно разделяются пробелами и имеют неоднозначные флексивные морфемы (например, корейский), токенизация слов может быть менее простой и стать источником ошибок в анализе корпусов [Авезов, 2023: 54].

Лемматизация включает группировку слов в их флексивных формах (например, «бежал») по их неизменным формам (например, «бежать»), чтобы их можно было анализировать как единую словоформу. Хотя лемматизация не требуется и не обязательно предпочтительна во всех ситуациях или для всех языков, она часто используется во многих

исследованиях языкового корпуса. Распространенный метод лемматизации текста заключается в использовании списка лемм, основанных на поверхностной форме [Khamidovna, 2023: 240].

Для необработанных текстов, опечатки и ошибки в написании слов снижают точность лемматизации, что, в свою очередь, может повлиять на последующие лингвистические анализы.

Аннотация частей речи предоставляет множество возможностей для исследователей корпусов. Как было отмечено в предыдущем разделе, аннотация частей речи может использоваться для разрешения омонимии, но она также может использоваться для проведения лексико-грамматических анализов языкового использования. Кроме того, аннотации частей речи служат основой для сложной синтаксической аннотации, такой как аннотация составляющих и зависимостей.

Существует несколько конкретных подходов к автоматической разметке частей речи, которые отличаются по используемым наборам признаков и статистическим/машинным алгоритмам обучения. Однако большинство разметчиков аннотации частей речи применяют одинаковый базовый подход. Во-первых, всем словам с однозначными метками частей речи в обучающих данных присваиваются соответствующие метки. Затем ряд контекстуальных особенностей, таких как метка аннотации частей речи предыдущего слова или слов, окончания целевого слова и предыдущего слова или слов, само целевое слово и т. д., используются в качестве предикторов в статистическом или машинном алгоритме обучения для предсказания частей речи слов с неоднозначными метками в обучающих данных или отсутствующих в обучающих данных. Разметчики могут достигать высокой точности аннотации как для хорошо отредактированных текстов на родном языке, соответствующих области(ям) использования языка обучающего корпуса, так и для многих типов текстов на втором языке.

Как и в случае с токенизацией и лемматизацией, опечатки и орфографические ошибки, а также специфические для языка проблемы могут вызвать ошибки в аннотации частей речи. Кроме того, поскольку разметка частей речи основана на закономерностях в последовательности слов, порядок слов и коллокационные ошибки в текстах учащихся могут повлиять на точность аннотации частей речи для слов, чья поверхностная форма может быть присвоена нескольким меткам.

Синтаксические парсеры – конститuenty создают синтаксические деревья конститuentов для предложений в тексте. Одно из популярных применений автоматической аннотации синтаксического разбора – расчет мер синтаксической сложности, таких как средняя длина Т-юнита [Lu, 2015: 20].

Синтаксические парсеры – конститuenty используют фразовые структурные правила, сгенерированные из обучающих корпусов, чтобы создать деревья синтаксических конститuentов на уровне предложений. Сначала тексты размечаются частями речи, затем эти метки используются

совместно с фразовыми структурными правилами для создания конкурирующих деревьев разбора на уровне предложений. Наконец, статистические/машинные алгоритмы обучения используются для выбора наиболее вероятного дерева разбора для предложения.

В данной статье рассмотрены пять ключевых аспектов анализа NLP, которые находят широкое применение в исследованиях корпусов, а именно: токенизация, лемматизация, аннотация частей речи, аннотация составляющих и аннотация зависимостей. Качество и точность аннотации в NLP-анализах во многом определяются характеристиками обучающих данных и их репрезентативностью относительно целевого корпуса.

Важно учитывать факторы, такие как размер корпуса и степень сравнимости регистра обучающего корпуса и целевого корпуса, поскольку они влияют на точность автоматической аннотации. Опечатки, орфографические ошибки и специфические для языка проблемы могут вызывать ошибки в аннотации частей речи, лемматизации и токенизации.

Синтаксические парсеры, основанные на аннотации составляющих и зависимостей, также зависят от точности аннотации частей речи и адекватности фразовых структурных правил, полученных из обучающих корпусов. Поэтому важно тщательно выбирать обучающие данные и учитывать особенности целевого корпуса при использовании NLP-инструментов для анализа языковых данных.

В целом, NLP-анализы являются мощным инструментом для исследования корпусов и других языковых данных, но необходимо учитывать ограничения и потенциальные источники ошибок, связанные с характеристиками обучающих данных и репрезентативностью этих данных относительно целевого корпуса. Осознание этих факторов и применение адекватных методов обучения и аннотации способствует повышению точности анализа и дает исследователям возможность делать более обоснованные выводы на основе своих корпусных исследований.

Использованной литературы

1. Green C. Enriching the academic wordlist and Secondary Vocabulary Lists with lexicogrammar: Toward a pattern grammar of academic vocabulary //System. – 2019. – Т. 87. – С. 102–158.
2. Polio C., Yoon H. J. The reliability and validity of automated tools for examining variation in syntactic complexity across genres //International Journal of Applied Linguistics. – 2018. – Т. 28. – №. 1. – С. 165-188.
3. Аvezов С., Юсупова А. Процесс обработки узбекского параллельного корпуса в условиях недостаточности данных //Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 49-58.
4. Khamidovna N. L. Expression of the Harmony of Language and Culture in World and Uzbek Lexicography //resmilitaris. – 2023. – Т. 13. – №. 1. – С. 233-244.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

5. Lu X., Ai H. Syntactic complexity in college-level English writing: Differences among writers with diverse L1 backgrounds //Journal of second language writing. – 2015. – T. 29. – C. 16-27.

AVTOMATIK TARJIMA YO'NALISHI: MUAMMOLAR VA
YECHIMLAR

HAMROYEVA Shahlo

ToshDO'TAU dotsenti f.f.f.d,

QODIROVA Madinabonu

ToshDO'TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada avtomatik tarjima sohasining yo'nalishlari, undagi muammolar, jahon tajribasida amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: statistikaga asoslangan tarjima (SMT), qoidalarga asoslangan mashina tarjima (RBMT), oraliq metatil (interlingua), transfer tizimlari, konvertatsiya, IBM model.

Annotation: The article describes the directions of the field of automatic translation, its problems, the work done in the world experience and their results.

Key words: statistics-based translation (SMT), rule-based machine translation (RBMT), interlingua, transfer systems, conversion, IBM model.

Avtomatik yoki mashina tarjimasi uchun birinchi dasturlar bundan qariyb yarim asr avval ishlab chiqilgan. Dastlabki dasturlar matnlarni so'zma-so'z tarjima qilishga mo'ljallangan. Bunda bir til lug'atiga oid birlikning boshqa tildagi ekvivalentini aniqlash asosiy vazifa sanaladi. Biroq avtomatik tarjima tarixi davomida bu usulning samarasiz ekanligi ma'lum bo'ldi. Chunonchi, manba tilidagi matnning ma'nosini chuqur tahlil etadigan dasturlarni yaratish zarurati paydo bo'ldi. Olimlar tomonidan ma'lum tilga oid bir qancha universalialarni yozib olish va ularga asosan matnni tahlil qilish mumkin deb qaraldi. Ularning asosiy maqsadi tarjima jarayonidan oldingi va keyingi tahrirlashni butunlay bekor qilish bo'lgan. Biroq jahon tajribasidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, hatto juda tor doirada ham buni amalga oshirish hozircha imkonsiz.

Hozirgi kunda bir qancha tadqiqot institutlari yoki bir nechta korporatsiyalar tomonidan oddiy avtomatik lug'atlar va laboratoriya eksperimentlariga asoslangan juda ko'plab tarjima dasturi loyihalari yaratilmoqda. Biroq tarjimaning sifati, hatto eng yaxshi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan yirik tizimlarda ham inson tarjimasi sifatidan ancha pastligicha qolmoqda. Tarjima dasturlari inson tarjimasiga biroz yordam berishi mumkin, xolos. Yana shuni ham ta'kidlash zarurki, natijalarni aks ettirish, ularni nashr etish uchun yetarli sifat darajasiga olib chiqish, ko'pincha ikkala tilni yaxshi biladigan mutaxassis tomonidan amalga oshirilgan tarjimadan ko'ra ko'proq vaqt talab etmoqda. Mashina tarjimonlari birmuncha tor sohalar, masalan, ob-havo ma'lumotlari kabilarni yaxshi tarjima qila oladi. Ular, shuningdek, rasmiy maqomdagi huquqiy hujjatlarni tarjima qilish uchun maqbul, ammo hujjatning xususiy jihatlari bo'lgan paragraflarda ham g'alizlik holatlari uchrab turadi.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Mashina tarjimasining matnlarni qay darajada tushunishini 60-yillarning eng yaxshi avtomatik tarjima tizimi amalga oshirgan quyidagi misol orqali oson tushuntirish mumkin. "Bibliya"dan olingan parcha: *The spirit is willing, but the flesh is weak* (Ruh – kuchli, ammo tana zaifdir). (Matt. 26:41). Buni dastur Aroq kuchli, ammo go'sht chirigan, deb tarjima qilgan. Bugungi kunda ham mazmundagi shu kabi xatoliklar to'la bartaraf etilgani yo'q.

Yana bir misol: Bu tarjima hozirgi kunda eng mashhur tijorat tarjima paketlaridan biri bo'lgan **Globalink** tomonidan amalga oshirilgan. Ispancha *el papel de Francia en la guerra* gapi to'g'ridan to'g'ri ingliz tiliga "Fransuzlarning urush gazetasi (*the paper of France in the war*) tarzida tarjima qilingan. Asl mazmun: *Fransiyaning urushdagi roli* edi. Bu kabi misollarni minglab keltirish mumkin.

Aslida, tarjima sohasi ikki asosiy tarmoqqa bo'linadi: bir tildan tarjima qilish va bir tilga tarjima qilish. Biror tildan tarjima qilish bosqichi tilga tarjima qilishdan ancha murakkab. Sun'iy intellekt ma'lum tildan matnlarni tushunib olishda muammolarga uchraydi, boshqa tildagi ekvivalentini topishda unchalik muammo yo'q. Zero, aqli texnologiyalar uchun matn yaratishdan ko'ra tayyor matnni tahlil va tahrir qilish murakkabroq vazifa sanaladi. Shu sababli ma'nosi tahlil qilinishi kerak bo'lgan tilning grammatikasi ustida ko'proq ishlash talab etiladi.

Mashina tarjimasidagi yana bir yechimi topilmay turgan muammo – so'zning bir qancha sinonimlari orasidan matn mazmuniga mosini tanlash vazifasi. Zotan, manba sifatida bir mazmunni ifodalovchi bir qancha so'zlar qatorini kiritishga to'g'ri keladi. Dastur biron bir muayyan holatda qaysi birini tanlashi kerak? Ushbu muammo hal qilish uchun juda qiyin bo'lganligini isbotladi. Ushbu masalani yechish uchun dasturga matnning chuqur lingvistik tahlili, atrofdagi so'zlarning ma'nosi, umuman matn va ba'zi bir qo'shimcha ma'lumotlar ham kerak bo'ladi.

Sinonimlikdan tashqari, tarjimada variantlilik muammosi ham mavjud. Masalan, *Men yangi kompyuter sotib oldim. U juda ajoyib*. Ushbu matnning ingliz tiliga tarjimasi quyidagicha: *I bought a new computer. He is stunning*. Bu yerda "U" olmoshi o'rniga ingliz tilida shaxslarda farqlanuvchi *he, she, it* olmoshlaridan qay birini qo'llashni texnologiya aniqlay olmaydi. Bu kabi muammoni hal etish uchun yana chuqur lingvistik tahlil, bilimlar zarur bo'ladi.

Tarjima sifatini yaxshilash uchun jahonda ko'plab tajribalar amalga oshirilmoqda. Shunday tadqiqot institutlaridan biri AQShning Janubiy Kaliforniya shtatidagi Axborotshunoslar instituti bo'lib, ular tarjima sifatini yaxshilashda statistik usullardan foydalanishni taklif qilishmoqda. Buning uchun bir tilga oid ulkan ma'lumotlar bazasi to'planadi. Bu ma'lumotlar kompyuter tomonidan statistik tahlil qilinadi va biror jumlaning tahlil qilish lozim bo'lsa texnika xotirasidan shunga o'xshash jumla izlab topiladi. Agar mavjud bo'lmasa, inson tarjimasi so'raladi. Inson tomonidan qilingan tarjima kompyuter xotirasiga kiritib qo'yiladi. Qarabsizki, texnologiya shunday qilib o'zida ulkan ma'lumotlar bazasini jamlaydi. Olimlar bunga bolaning biror tilni o'rganish jarayonini asos qilib olishadi. Ularning fikricha, bola ham kattalardan eshitgan gaplarini xotiraga joylash va eslab qolish orqali til qonuniyatlarini o'rganadi.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Tarjima – bu tomonlararo aloqani ta'minlaydigan vositadir. Shuning uchun kommunikativ vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari tarjimon uchun muhim. Tarjima jarayoniga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

1. Tarjima maqsadi.
2. Nutqning kommunikativ vazifasi.
3. Matnning lingvistik funksiyasi.[Кузнецов, 1956:44.]

Shunga qaramay, olimlarning urinish, tadqiqot va ishlanmalari keyinchalik barcha zamonaviy tabiiy tillarni qayta ishlash asosini yaratib berdi. Qidiruv mexanizmi, spam-filtr, tahrir-yordamchi kabi dasturlar jahon mamlakatlarining qirq yil davomida bir-biridan texnologiyalar borasida o'zib ketishga urinishlari sababli yaratildi.

Qirq yil davomida olimlar mashina tarjimasini sifatini oshirish uchun bir qancha usullarni taklif qildilar. Ulardan biri barcha tillar uchun umumiy bo'lgan oraliq til – interlingua yaratish g'oyasi edi. Unga ko'ra, biz asl jumlani dunyoning barcha tillari (interlingua) uchun umumiy bo'lgan oraliq mazmunga aylantiramiz. Qoidalarini bir xil bo'lgan va dunyoning barcha tillarini qamrab oladigan maxsus metatil tarjima jarayonini osonlashtirishga hissa qo'shadi. Keyin maxsus parserlar ushbu interlinguani kerakli tilga aylantiradi va xususiy tillar uchun alohida tarjima natijasi paydo bo'ladi.

Ko'pincha olimlar interlingua tilni transfer tizimlari bilan chalkashtirib yuboradi, chunki ularda ham konvertatsiya ro'y beradi. Ularning farqi shundaki, transfer tizimlarida konversiya qoidalarini ikkita maxsus til uchun, interlingvistik tizimlarda esa har bir til va interlingua o'rtasida yoziladi. Interlingvistik tizimga uchinchi tilni qo'shish orqali biz uchta til o'rtasida tarjima qilishimiz mumkin, lekin ularning hech biri interlingua bo'lmasligi mumkin.

Biroq real hayotda bu unchalik oson bo'lib chiqmadi. Universal interlingua yaratish juda qiyin ekanini ma'lum bo'ldi. Avtomatik tarjima jarayoniga buni tatbiq qilib bo'lmadi, lekin ular tufayli biz morfologik, sintaktik va hatto ba'zan semantik tahlil usullarini yarata oldik. O'sha davr olimlari bu yondashuvning samarasiz ekanligini tan oldilar. Ammo oraliq til haqidagi g'oya 30 yildan keyin yana qaytib keldi. Ba'zilar buni yaratish mumkinligiga ishona boshladilar. Barcha tillar uchun umumiy bo'lgan qoidalarga asoslangan mashina tarjima (Rule-Based Machine Translation) hozirgi kunda ob-havo hisobotlari tarjimasini kabi aniq joylarda bo'lmasa, boshqa o'rinlarda umuman samarasiz.

Agar olimlar ideal RBMTni yaratishga muvaffaq bo'lsalar, tilshunoslar unga barcha imlo qoidalarini muvofiqlashtira olsalar ham, undan keyingi muammo istisnolar muammosi bo'lib qolaveradi. Misol uchun, ingliz tilidagi noto'g'ri fe'llar, nemis tilidagi o'zgaruvchan prefikslar, rus tilidagi qo'shimchalar va hokazo.

1990-yil oxirida IBM tadqiqot markazi birinchi marta qoidalar bilan ishlamaydigan mashina tarjimasini taklif etdi. Unga ko'ra, biz ikkita tilda bitta jumlani olib, uni so'zlarga ajratamiz; har bir so'zni tarjimasiga moslashtirishga harakat qilamiz. Biz ushbu operatsiyani taxminan 500 million marta takrorlaymiz va mashina har xil matnlarda turli o'rinlarda kelgan *das Haus*

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

so'zini uy, bino, qurilish va hokazo deb tarjima qilganini hisoblaydi. Ehtimol, ularning ichidan eng ko'p uy sifatida ishlatilgan bo'lib chiqar. Shunda mashina bizga bu so'z tarjimasini uy deb beradi. E'tibor bering, biz hech qanday qoida yoki lug'atni o'rnatmaganmiz. Mashinaning o'zi hamma narsani topadi, u sof statistika va "odamlar shunday tarjima qiladilar, men shunday qilaman" mantig'iga asoslanadi. Shu tariqa statistik tarjima nazariyasi paydo bo'ldi.

Bunday tarjimonlarning aniqligi avvalgilariga qaraganda sezilarli darajada yuqori bo'lib chiqdi. Demak, qoida oddiy: qancha ko'p tarjima qilsak – tarjima shuncha yaxshilanadi.

Birinchi statistik tarjima tizimlari matnni so'zlarga bo'lish (tokenizatsiya) usuli bilan boshlandi. Bu eng primitiv usul edi. IBMda ixtiro qilingan bu birinchi statistik tarjima modeli **IBM Model 1** deb nomlangan. Keyinchalik birin-ketin IBM avlodlari yaratila boshladi.[Леонтьева, 2006:303]

Klassik statistik yondashuv usuli matnni so'zlarga bo'lish va statistikani hisoblashdir. Istisnalar yoki tartibni o'zgartirish holatlari bunda hisobga olinmagan.

Har bir so'zga statistik ma'lumotlarni to'plash uchun mashinaga har ikki tilda millionlab jumlar kerak bo'ladi. Shu sababli, Yevropa Parlamenti va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Kengashida saqlanuvchi barcha a'zo mamlakatlar tillaridagi yig'ilish qaydlari yuklab olish uchun ham ochiq.

Keyinroq **IBM-2 modeli** e'lon qilindi. U Model-1ning takomillashgan variant bo'lib gapdagi so'z tartibini ham hisobga oldi. Tillarda so'z tartibini hisobga olmaslik 1-modelning katta muammosi edi. Shuning uchun, 2-modelga olimlar oraliq bosqich - tarjimadan keyingi, so'zlarning zaruriy o'rinlariga qayta tartiblash bosqichini qo'shishga harakat qilishdi. Tarjima natijasi birmuncha yaxshilandi, biroq tarjimada muammolar to'la bartaraf etilmadi.

3-model: yetishmayotgan so'zlarni qo'shish funksiyasiga ega bo'ldi.

Ko'pincha tarjima qilishda asl matnda bo'lmagan birliklarni kiritish zaruratga aylanadi. Misol uchun, nemis tilida artikl qo'yish zarurati yoki ingliz tilida *do* fe'lini qo'shishga ehtiyoj tug'iladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun Model 3 statistik tizimiga ikkita oraliq bosqich qo'shildi.

4-model: so'zlarni almashtirish funksiyasi qo'shildi.

Model 2 tizimida jumladagi so'zlarning tartibi ham hisobga olingan bo'lsa-da, so'zlarning o'zaro almashinuviga e'tibor berilmagan edi. Shuning uchun, 4-modelda "nisbiy tartib" deb ataluvchi holat ham hisobga olingan. Agar tarjima paytida ikkita so'z doimiy ravishda bir-biri bilan bir tartibni saqlasa, model buni eslab qoladi.

Model 5: xatolar tuzatildi.

Ular yanada ilg'or usul – iboralar orqali tarjima bilan almashtirildi. Mashina so'zlarning barqaror birikmalarini tarjima qilishni o'rgandi, bu aniqlikni sezilarli darajada oshirdi. Bundan tashqari, iborama-ibora tarjima o'rganish uchun ikki tilli matnlarni topishda ko'proq erkinlik beradi. 2006-yildan boshlab barcha dasturlar ushbu yondashuvdan foydalanishni boshladi. Google Translate, Yandex, Bing va

O‘zbek tili milliy va ta’limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

boshqa yuqori sifatli onlayn tarjimonlar 2016-yilgacha aynan iboraga asoslangan holda ishlagan.

Agar eski qoidalarga asoslangan yondashuvning amalga oshirilish imkoniyati doimo taxminlarga asoslangan va deyarli samarasiz bo‘lgan bo‘lsa, statistik usullar tarjima sohasini bir muncha olg‘a siljitdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кузнецов П. С., Ляпунов А. А., Реформатский А. А. Основные проблемы машинного перевода // Вопр. языкознания. 1956. № 5. С. 40–44.
2. Леонтьева Н. Н. Автоматическое понимание текстов: системы, модели, ресурсы : учеб. пособие. М. : Академия, 2006. 303 с.
3. Дроздова К. А. Машинный перевод: история, классификация, методы. Журнал СЛОВО МОЛОДЫМ, Москва, 2015.
4. www.vas3kblog.com

**O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILINGAN ANDROID OPERATSION
TIZIMI MOBIL ILOVALARI TERMINLARINING QO'LLANILISHI VA
ULARNING FOYDALANISHDA YAROQLILIGI**

MAXAMMADOV Bobir

Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

maxammadovuz@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada android operatsion tizimi mobil ilovalari terminlarining o'zbek tiliga tarjimasi va amalga oshirilgan tarjimalar foydalanuvchilar uchun ommalashishi hamda qo'llash uchun yaroqli yoki yaroqli emas kabi savollarga javob beriladi.

Kalit so'zlar: parol, tab, yaqin atrofdagi odamlar, sayt, sinxronlash

Abstract: This article provides answers to questions regarding the translation of Android operating system mobile application terms into Uzbek and the practicality of using these translations for users, including whether they are useful or not.

Keywords: password, tab, people nearby, site, synchronization

Tilshunoslik fanining tarjima nazariyasi va amaliyotiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Boshqa tomondan tarjima tilshunoslik nazariyasidan ko'ra ancha ko'proq bilimlarni o'z ichiga oladi. Semantikaga qiziqish uyg'otishdan oldin tarjimonlar atamashunoslik bilan yaqindan shug'ullanganlar.

Tarjimonlar uchun tarjima jarayoni asosiy matndan to'g'ri terminni tanlay bilish hisoblangan. Terminologiya bo'yicha maxsus lug'atlar yaratilgan. Ko'pchilik tarjimonlarning ilmiy ishlari terminologiyaga bag'ishlangan[G'afurov, 2012: 20].

Mobil ilovalarning tarjimasi – bu axborot texnologiyalari hamda turli xil dastur tillariga kiruvchi atamalarni o'girish hisoblanadi. Termin tarjimasini o'rganish uchun dastlab terminologiya va tarjima o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlab olish kerak. Terminologiya atamasini alohida mustaqil fan sifatida ajralib chiqishini da'vo qilib chiqqan shaxs dastlab Felber bo'lgan[Felber, 1984: 31]. Bunday holatga Sager va Temmerman tomonidan bahslarga sabab bo'lgan. Shu tariqa terminologiya ham fanlararo ham fan doirasidagi tushunchaga aylandi, shuningdek, tilshunoslikning bir guruh bo'limlariga bog'landi, jumladan, leksikologiya, semantika, kognitiv lingvistika, sotsiolingvistika, falsafa. Marsel Telen o'zining maqolasida tarjimashunoslik va terminologiya o'rtasidagi bog'liqligini aniqlash bo'yicha bir nechta mulohazalarni keltirib o'tgan.

Mobil ilovalarda tarjima qilingan terminlarning aksariyati ingliz tilidagi birikmali terminlarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish, muqobilini topish, kalkalash orqali shakllantirilgan. Dasturlarning tillari ingliz tilidan o'zbek tiliga o'tkazilganini tahlil qilganimizda, bir holatni kuzatishimiz mumkin, ko'pchilik o'zbek tilidagi ko'pchilik atamalar ham arab, fors va rus tillaridan o'zlashganligini ko'rishimiz mumkin. Shu holatda ham tarjima qilingan atamalarning qo'llanilishi jihatdan tahlil qilinganida, bir qator holatlarga duch kelishimiz mumkin. Ingliz

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

tilidagi bitta so'z bilan ifodalangan atamalar o'zbek tiliga tarjima qilinganda birikmali tarzida berilgan. Masalan, *“people nearby”* - *“yaqin-atrofdagi odamlar”* atamasi o'zbek tiliga tarjima qilinganda so'zma-so'z tarjima qilingan bo'lib *“nearby”* atamasi birikmali tarzda berilgan. Qo'llanilishi jihatdan yaqin-atrof birikmasi yasama so'zli juft so'z hisoblanib, *“near-by”* so'zining lug'atlardagi berilishi *“yonma-yon”* tarzida ham uchraydi [Irisqulov, 2008: 325]. Mobil ilovadagi foydalanilish jarayonidan kelib chiqib ushbu atama so'zma-so'z tarjima qilingan. Bundan tashqari *“atrof”* so'ziga ham mos sinonimlar mavjud bo'lsada, masalan, *“tevarak”*, *“har taraf”*, *“gird”*, *“tegra”*, lekin bu holatda ular orasidagi dominant bo'lgan *“atrof”* so'zining qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Mobil ilovalarda foydalanilgan terminlar orasida to'rt komponentli atamalarni ham uchratishimiz mumkin. Masalan, *“saytni keizishda davom etish”* tarzida berilgan birikma “Google chrome” mobil ilovasida keltirilgan. Ingliz tilida berilishi esa *“continue browsing the site”* va bu holatda o'zbek tilida berilgan “kezish” so'zi mobil ilova uchun mos emas, chunki aslida *“continue browsing the site”* birikmasida berilgan barcha so'zlarning o'zbekcha muqobili va shu muqobillarning o'zbek tilida sinonimlari ham mavjud, lug'atlarda *“browse”* atamasining *“kezish”* emas, balki *“varaqlab chiqmoq”*, *“ko'rib chiqmoq”* ma'nolari berilgan. Bu holatda “kezish” atamasi aslida “ko'chalarni kezish”, “atrofni kezish” ma'nosida qo'llanilishi lozim. Xuddi, shu ta'rif A.Hojiyev tomonidan ham berilgan izohda *“kezmoq”* so'zi – *“tevarak-atrof”*, *“yurib tomosha qilmoq”*, *“aylanib ko'rmoq”*, *“sayr qilmoq”* ma'nolarida qo'llanilishi ko'rsatilgan[Hojiyev, 2001:107].

“Google chrome” mobil ilovasidagi *“Sinxronlangan ma'lumotlaringizni tekshiring”* ushbu birikmali atamasida kalka asosida tarjima qilingan so'z mavjud. Ingliz tilidagi *“synchronize”* atamasining muqobili lug'atlarda berilgan. *“Sinxronlash”* atamasini “bir-biriga moslamoq, to'g'rilamoq” kabi ma'nolarini barcha lug'atlarda ham uchratishimiz mumkin. Butun axborot tizimida ushbu termin ommalashib ketganligini hisobga olgan holda uni muqobilidan foydalanish orqali emas, balki aynan o'zini so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shish orqali o'zbek tiliga o'zlashtirib olishga harakat qilmoqdamiz. Bu esa albatta terminning foydalanish muddatini oshirishga xizmat qiladi.

“Google chrome” atamalari orasida *“new tab”* birikmasi berilgan, o'zbek tiliga tarjima qilinganda bu atama *“yangi varaq”* tarzida tarjima qilingan, lekin terminning birinchi qismidagi *“new”* atamasining muqobili bilan tarjima qilinganligi to'g'ri qo'llanilgan bo'lsa-da, lekin *“tab”* atamasining *“varaq”* tarzida tarjima qilingani biroz tushunmovchiliklarga sabab bo'ladi, chunki SH.Bo'tayev va A.Irisqulov tomonidan yaratilgan inglizcha-o'zbekcha lug'atida ushbu atamaga *“ilgak”*, *“etiketka”*, *“yorliq”*, *“chek”* kabi ma'nolari berilgan, yana bir S.Nazarov, F.Nazarova, N.Adizova, D.Poltayeva tomonidan tuzilgan inglizcha-o'zbekcha lug'atda ham yuqoridagidek tarjima qilingan. Rus tilida ushbu terminga *«новая вкладка»* tarzida tarjima berilgan. Rus tilida berilgan *“вкладка”* atamasini o'zbek tiliga *“qo'shimcha varaq”*, *“varaq”*, *“ilova”* tarzida tarjima qilingandagi xulosa shuki, mazkur birikmali termin rus tili orqali tarjima qilingan va ingliz

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

tilidan to'g'ridan-to'g'ri o'girilmagan. O'zbek tilining izohli lug'atida *“varaq”* so'ziga “daftar, kitob va sh.k” ni tashkil etuvchi old-orqa sahifadan iborat har bir qat, bo'lak” degan ta'rif berilgan. Demak, bu holatda biz *“yangi qat”*, *“yangi bo'lak”* degan tushunchalardan ham foydalanishimiz mumkin ekan, lekin mobil ilova tomonidan berilgan tarjima eng muqobillaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi holatga isbot tariqasida aytish mumkinki *“tab”* atamasi *“varaq”* tarzida tarjima qilingan bo'lsa, endi uning ichidagi ma'lumotlari yozilgan qismini *“page”* atamasining tarjimasi *“sahifa”* tarzida qo'llanilib kelgan. *“Find in page”* birikmali termini *“sahifa ichidan qidirish”* tarzida tarjima qilingan, bu holatda *“sahifaning ichi”* birikmasi metaforik xususiyat ega, lekin bu holatda *in* – predlogi tarjima qilmasa ham sahifadan qidirish tarzida ham qo'llanilishi mumkin.

“Google chrome” ilovasidagi terminlarni o'rganar ekanmiz, bevosita yana bir atamaga ko'zimiz tushadi. Ulardan biri o'zbek va rus tiliga kalka asosida tarjima qilingan *“parollar”* atamasi hisoblanadi. Ingliz tilida *“password”* rus tilida esa *“пароль”* tarzida tarjima berilgan. O'zbek tiliga esa bu atama rus tilidan kirib kelgan. Lug'atlarda uning ma'nosi turlicha izohlanadi. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati kitobida *“Harbiy xizmatda yoki yashirin tashkilotlarda o'z kishisin topish uchun aytiladigan maxfiy so'z”* deb parol atamasiga ta'rif berilgan. “Axborot-kommunikatsiyalar izohli lug'ati”da esa *“sir tutiladigan belgilar ketma-ketligi. Parol, uning egasi haqiqiyligini aniqlash jarayonida tekshiruv axboroti sifatida ishlatiladi”* tarzida ta'rif berilgan. O'zi aslida “parol” atamasining o'rniga muqobili sifatida *“mahfiy so'z”* deb qo'llasak bo'ladi, lekin ushbu atama ham tilda keng ommalashgani va aytilishi oson bo'lgani uchun muqobili uning o'rniga foydalanilmaydi. Aksincha, *“parol”* atamasiga turli qo'shimchalar qo'shish natijasida o'zbek tili lug'at boyligi boshqa tildan kirib kelgan atamalar bilan kengaytirib borilmoqda.

Mobil ilovalarda qo'llanilgan inglizcha terminlarning o'zbek tiliga tarjimasi bo'yicha shunday xulosaga kelish mumkinki, berilgan terminlarning barchasi ham mobil ilovada to'g'ri tarjima qilinmagan va qo'llanilishi jihatdan so'zlashuv uslubiga xos bo'lgan birikmalardan foydalanilgan. O'zbek tilining adabiy tilga xos so'zlaridan foydalanilmagan va shu sababli ham mobil ilovalarda qo'llanilgan o'zbek tilidagi tushunarsiz terminlar foydalanuvchilar uchun eslab qolish qiyinligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'afurov I, Mo'minov O, Qambarov N. – Tarjima nazariyasi // o'quv qo'llanma. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2012 – B.20.
2. Felber Helmut. Terminology. Manual. // Paris: International Information Centre for Terminology (Infoterm), 1984, P.31
3. Butayev Sh, Irisqulov A – Ingliz-uzbek, uzbek-ingliz lug'ati. – Toshkent 2008, B.325.
4. Hojiyev A, Nurmonov A., Zaynobiddinov S. va boshqalar – Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Sharq, 2001. – B.107.

5. <https://archive.org/details/izohlilugat5jild>

**SUBYEKTIV BAHO SHAKLLARINING USLUBIY QO'LLANILISHINI
KORPUSDA AKS ETTIRISH IMKONIYATLARI**

ELOVA Dilrabo

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD,

ToshDO'TAU katta o'qituvchisi

elova@navoiy-uni.uz // dilraboelova@gmail.com

JUMAQULOVA Nasiba

ToshDO'TAU Kompyuter lingvistikasi

mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Grammatik vositalarni stilistik jihatdan o'rganish sof grammatik o'rganishdan farq qiladi. Sof grammatik tahlilda ma'lum shakl yoki kategoriyaning alohida olgan holda fikr yuritish imkoni bo'lsa, stilistik jihatdan yondashuvda buning imkoni yo'q. Unda ma'lum shakl, albatta, o'z qurshovida kontekst bilan birga olinishi kerak. Chunki stilistika uchun ahamiyatli bo'lgan konnotativ ma'no kontekst bilan bog'liq ravishda hosil bo'ladi. Bu jihatdan ma'lum darajada ingrent ekspressivlikka ega bo'lgan subyektiv baho formalari ham mustasno emas. Shu nuqtayi nazardan ushbu maqolada o'zbek tilidagi subyektiv baho shakllarining uslubiy qo'llanilishi, modal ma'nolari, o'zbek tili korpuslarida ularning uslubiy xosligini farqlash funksiyasi, uslubiy axborot beruvchi teglar tizimini shakllantirish masalasi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: modellashtirish, uslubiy xoslanish, subyektiv baho, lug'aviy shakl yasovchi, uslubiy teglashtirish

Abstract. Stylistic learning of grammatical methods differs from pure grammatical learning. In grammatical analysis, it is possible to think about a certain form or category separately, but it is not possible in the stylistic approach. In it, a certain form must be taken together with the surrounding context. Because the connotative meaning that is important for stylistics is formed in connection with the context. In this regard, the forms of subjective assessment with a certain level of inherent expressiveness are not excluded. From this point of view, this article discusses the methodological application of subjective assessment forms in the Uzbek language, their modal meanings, the function of distinguishing their methodological characteristics in the corpus of the Uzbek language, and the issue of forming a system of methodologically informative tags.

Keywords: modeling, stylistic specification, subjective assessment, lexical form builder, stylistic marking

Til korpuslarida lingvistik birliklarning qaysi uslubga tegishliligi, tilning qaysi funksional uslubini ifodalanishini ko'rsatuvchi annotasiyalarning mavjudligi o'zbek tilini o'rganish va uning stilistik xususiyatini tadqiq qilish imkoniyatini oshiradi. Matn tiliga uning uslubi (akademik, ilmiy-ommabop, rasmiy-idoraviy, neytral, vulgar, individual-muallif tili, dialektal va h.), auditoriyaning yoshi va bilim darajasi kabi omillar ta'sir etadi. Shu sababli uslubiyat va nutq

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

madaniyatining nazariy asoslari, muammolarini aniqlamasdan turib, tilning uslubiy o'ziga xosligi, jozibasi, nutq madaniyatini til korpuslarida aks ettirish mumkin emas.

O'zbek tilshunosligida nutq uslublari tasnifi borasidagi qarashlar asosida o'zbek tili milliy korpusida uslubiy xoslanganlik haqidagi annotasiyalarni shakllantirish, qidiruvda uslubiy belgilarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Uslubiy xoslanganlikni bildiruvchi teglar lisoniy birliklarining semantik xususiyati bilan bog'liq bo'lib, tabiiy tilni qayta ishlashda bunday teglar tizimini ishlab chiqish hamda lingvistik bazasini shakllantirish muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Keyinchalik o'zbek tili korpuslarida matnlarni avtomatik tahlilini amalga oshirishda asos vazifasini o'taydi. Shu maqsadda, quyida o'zbek tilidagi subyektiv baho shakllarining uslubiyatini lingvistik modellashtirish jarayoni tahlil qilinadi.

Hozirgi o'zbek tilida *-gina (-kina, -qina)*, *-cha, -choq, -chak, -loq, -jon, -xon, -oy, -voy* tipidagi affiks va affiksoidlar so'zlovchining obyektiv borliqqa, o'z nutqiga bo'lgan modal munosabatini bildirib keluvchi subyektiv baho shakllaridir [Қиличев Э. 1992:21]. Bu shakllar *sevish, erkalash, kuchaytirish, kamsitish* kabi konnotativ ma'nolarni ifodalaydi. Subyektiv baho shakllaridagi turli qo'shimcha ma'nolar badiiy asarlarda personajlarning o'ziga xos xususiyatlarini: ulardagi *dilkashlik, muloyimlik, yoqimlilikni ochishda, baholashda* muhim uslubiy ahamiyatga ega. Kichraytish-erkalash shakllari ham nutq jarayonida ishlatiladi. Shuning uchun ham ularning ma'nolari nutqning umumiy mazmuniga bog'liq bo'ladi.

Subyektiv baho shakllaridagi sinonimiya, polisemiya, ularning turli nutq uslublari xosligi bu vositalarning uslubiy vazifasini belgilaydi [Қиличев Э. 1992:21]. *-cha* morfemasi *funksional nutq uslublari*ning barchasida bir xilda ishlatiladi. *-cha* formasida obyektiv; kichiklik ma'nosidan tashqari, subyektiv baho ma'nosi ham ifodalanadi. Masalan: qozoncha, taqsimcha, daftarcha, bolacha, yigitcha, xotinchacha kabi holatlarda *-cha* qo'shimchasi kichraytish hamda emotsional ma'no ifodalay oladi: *kechga qolding, tulkicham, kech keldimi echkicham? (ertak)*

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, *-cha* qo'shimchasining uslubiy xoslanishini quyidagicha tenglash mumkin:

-cha	Uslubiy xoslangan	S ₁	B ₁	P ₁	P ₁	I ₁
------	-------------------	----------------	----------------	----------------	----------------	----------------

Atoqli otlarga, lavozim, kasb-hunar nomlarini bildiruvchi turdosh otlarga *-cha* morfemasi qo'shilganda esa so'zlovchining salbiy emotsiyasi bo'rttiriladi:

– *Shunday emasmi, Fayzicha? – deb so'radi boy. (S.A.)*

Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, bu holatni quyidagicha modellashtirish mumkin: *[atoqli ot + -cha] = salbiy bo'yoqdor so'z.*

[shaxs otlari + -cha] = salbiy bo'yoqdor so'z.

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Shuningdek, **-cha** shakli egalik affikslari bilan yonma-yon kelib, o'rni bilan kesatish, piching, hazil ma'nolarini ham bildiradi: *oyimchamiz, xotinchangiz* kabi. Bu holatni quyidagicha modellashtirish mumkin:

[-cha + egalik shakli] = kesatish, piching, hazil = so'zlashuv uslubi. Ma'lumotlar bazasidagi ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

-cha +	egalik shakllari (-im, -ing, -i, imi, -ingiz, -lari)	Uslubiy xoslangan	kesatish, piching, hazil	S ₁
-----------	---	----------------------	--------------------------	----------------

-cha morfemasi subyektiv baho ifodalashda ba'zan boshqa baho shakllari bilan sinonim bo'la oladi: *qizcha – qizaloq, toycha – toychoq, kelincha – kelinchak* kabi.

-gina (-kina, -qina) shakllari nutqda ayirish, chegaralash ma'nosini ifodalovchi yuklama hamda erkalash ma'nosini ifodalovchi subyektiv baho shakli sifatida ishlatiladi. **-gina** modal shakl yasovchi bo'lib kelganda otlarga egalik va kelishik qo'shimchalaridan oldin qo'shiladi va urg'u oladi. Xuddi shu xususiyat unga modal munosabatni kuchaytirish imkoniyatini beradi. Bu qo'shimchaning kuchaytirish ma'nosini ifodalashi qaysi so'z turkumiga birikib kelishi va matnga ham bog'liq.

-gina (-kina, -qina) affikslari otlarga qo'shilib kelganda so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan turlicha munosabatini kuchaytiradi : *bo'yginangdan o'rgilay; Oyijon, oyi-ya, boshginam og'riydi-ya! (qo'shiqdan)*

Ushbu holat, asosan, badiiy va so'zlashuv uslubiga xoslanganligi sababli ularni ma'lumotlar bazasida shunday teg bilan izohlaymiz:

-gina (-kina, -qina)	Uslubiy xoslangan	S ₁	B ₁
-----------------------------	-------------------	----------------	----------------

Tilimizda ayrim so'zlar o'z mustaqil ma'nosini yo'qotib, kichraytish-erkalash ma'nosini ifodalovchi affiksoidlarga aylanib qolgan. Bunday affiksoidlardan *-jon, -xon, -oy, -niso, -sho, -boy -(voy), -bek, -toy, -bonu, -gul* kabilar so'zlashuv nutqida, ayniqsa, badiiy uslubda keng qo'llanadi. Bu affiksoidlar *sevish, erkalash, hurmat, hazil* kabi modal ma'nolarni ifodalaydi. Bu tip affiksoidlardagi qo'shimcha emotsional-ekspressiv ma'no bir-biriga yaqin bo'lganligi uchun o'zaro sinonimik qator tashkil etadi: *Dilbarjon – Dilbarxon – Dilbaroy, Salimboy – Salimbek – Salimsho* kabi [Қиличев Э. 1992:22] . Bunday sinonimik qo'llanish nutq rang-barangligini ta'minlaydi. Yuqoridagi ma'lumotlarga tayangan holda ushbu qo'shimchalarning uslubiy xoslanishini quyidagicha teggaymiz:

-jon -xon -oy -niso -sho -boy -(voy) -bek -toy -bonu -gul	Uslubiy xoslangan	So'zlashuv uslubi	S ₁	Badiiy uslub	B ₁
--	-------------------	-------------------	----------------	--------------	----------------

Erkalash ottenkali subyektiv baho shakllaridan ayrimlari faqat kishilarga atab qo'yilgan nomlarga, qavm-qarindoshlik bildiruvchi so'zlarga qo'shiladi va bu affikslar, asosan, *erkalash*, *sevish hissini* ifodalaydi. *-boy*, *-bek*, *-sho*, *-mirza*, *-qul* kabilar erkaklar ismiga; *-oy*, *-gul*, *-bonu*, *-beka*, *-bibi*, *-niso* kabilar xotin-qizlar ismiga qo'shiladi. Keltirilgan har ikkala tip affiksoidlarning ba'zilar o'zaro ichki sinonimik qator tashkil etadi: Matlabxon /jon / oy / niso; Ergashjon /boy / bek/ qul. Bu kabi ma'lumotlarning uslubiy xoslanishini yuqorida ko'rsatdik. Ularning erkalash, sevish hissini ifodalashi haqida qo'shimcha ma'lumot kiritish bilan annotatsiyani kengaytiramiz.

Ayrim erkalash ottenkali affiksoidlar nutqda kam qo'llanmoqda (*-qul*, *-niso*, *-bekach*, *-bonu*). Shu bilan bir qatorda o'zbek tilida, ayniqsa, yoshlar nutqida ba'zan erkalashning ruscha shakllari uchraydi: Nazarchik (Nazar), Layloshka (Loylo), Sayish (Saida) kabi. Ayrim ruscha shakllar o'zbekcha erkalash shakllari bilan sinonim tarzida ham ishlatilmoqda.

Dedilar bir yig'inda, kerakmas hech xon demoq,

Xayrixonning o'rniga Xayrichkasi yaxshiroq. (V. Abdullaev)

E. Qilichev subyektiv baho shakllari ifodalagan konnotativ ma'nolarning o'zi birikib kelgan negizlar anglatgan leksik ma'noga uyg'un bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi [Қиличев Э. 1985:36]. Aks holda, uslubiy nuqson vujudga keladi. Jumladan, kichik so'zi semantikasida belgi miqdori kamligi anglashiladi. Shuning uchun ham unga kichraytish ma'noli **-cha** affiksi qo'shilmaydi (kichikcha deyilmaydi). Balki erkalash ma'noli **-kina** affiksi qo'shiladi (kichkina). Katta so'ziga ham kichraytish affiksi **-cha** qo'shilmaydi (kattacha deyilmaydi). Chunki bu so'zdagi belgi-miqdor darajasi ortiqqligi bunga yo'l qo'ymaydi. Bu hodisa qolgan barcha subyektiv baho shakllariga ham taalluqli. Til bir xil elementning takrorini yoqtirmasa-da, so'zlovchi yoki yozuvchi ma'lum uslubiy maqsad uchun so'z yoki so'z shakllarini qavat-qavat ishlataveradi. Qavatlanish leksik (ulug' ayyom kunlari; tuz-namak bo'ldik; bosh-oyoq sarpo qildi), morfologik (ko'rpachacha, qizaloqcha, bo'taloqcha) ko'rinishlariga ega. Subyektiv baho shakllarini qavatlantirib qo'llash orqali nutq ta'sirchanligi oshiriladi, tasvirlanayotgan voqea-hodisaga, salbiy yoki ijobiy munosabat ta'kidlanadi [Қиличев Э. 1992:23].

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Ko'rinadiki, takror qo'llangan subyektiv baho shakllari uslubiy vazifa bajaradi. Bunday holat **-cha+-cha yoki -loq+-cha** tarzida modellashtirilsa, qaysidir shakl bilan o'xshash bo'lib qolish ehtimoli mavjud. Shu sababli bunday so'zlarning barchasini ro'yxat qilib, istisnalar bazasiga kiritish maqsadga muvofiq.

Subyektiv baho shakllaridagi pleonazm shu shakllarga xos kichraytish va erkalash ma'nolarining bir-biri bilan uzviy bog'langanligidan kelib chiqadi. Bunday takrorlangan affiksning birinchi qismi ko'pincha kichraytish ma'nosini bildirsa, ikkinchi qismi erkalash ottenkasiga ega bo'ladi. Subyektiv baho shakllariga xos bo'lgan yuqorida qayd etilgan konnotativ ma'nolar badiiy tasvirda nutqning ifodali bo'lishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham yozuvchilar o'z asarida bunday qo'shimchali so'zlardan unumli foydalanadi. Otning funksional shakllari orasida o'xshatish shakli hamda juft va takror shakllari alohida uslubiy belgilari bilan ajralib turadi [Кўнфоров Р. 1989].

O'xshatish shakli **-dek (-day)** affiksi yordamida yasaladi va narsa yoki shaxsni belgi jihatdan **-dek** qo'shimchali so'z bildirgan narsaga, shaxsga o'xshatadi, o'xshashligini bildiradi: *sherdek kuchli, asalday shirin* kabi. O'xshatish shaklli so'zlar badiiy nutqqa xos bo'lib, sifatlash usulida ko'p ishlatiladi. Bu ma'lumotlardan kelib chiqib, o'xshatish shakllarini quyidagicha teglash maqsadga muvofiq:

-dek / -day	Uslubiy xoslangan	Badiiy uslub	B ₁
-------------	-------------------	--------------	----------------

Uslubiy qo'llanishiga ko'ra o'zining siqiqqligi bilan ajralib turuvchi *sintetik shaklli sifat darajalari she'riyatda qo'llansa, analitik shaklli sifatlar publisistik, ilmiy nutq uslublarida* ishlatiladi. Sifatlardagi modal shakllar ham ayrim uslubiy xususiyatlarga ega. Modal ma'no beruvchi qo'shimchalar o'zi birikib kelayotgan sifat ma'nosini tubdan o'zgartirmaydi, balki unga qo'shimcha emotsional-ta'sirchan bo'yoqlar: *sevish, achinish, erkalash, kinoya* kabilarni qo'shadi. Masalan,

Oh Gulsanamim, O'rtoqjonim, mehribonginam. (O.) Men o'z qo'lim bilan shiringina palov qilib beraman. (O.)

-gina (-kina, -qina) affikslari sifat o'zaklariga qo'shilgandagina, *yoqimtoylik, kichiklik* ma'nolarini ifodalash bilan birga salbiy belgi munosabatlarini ham ifodalab kelishi mumkin: *u qiz xunukkina-ku; Xayr, o'g'rigina bolam, kelib tur. (G'. G'.)*

Ushbu ma'lumotlar sifatlarning bunday uslubiy xoslanishini ma'lumotlar bazasida shakllantirish bilan ko'rsatib bo'lmasligini anglatib turibdi. Bunday holatda modellashtirish yo'ldan borish mumkin:

[sifat + **-gina (-kina, -qina)** = *publisistik, badiiy nutq*]

Bundan ma'lum bo'ladi, ayrim uslubiy xoslanishlar modellashtirish va ikki bosqichli algoritm bilan aniqlanadi:

birinchi bosqichda so'z o'zagi va grammatik shaklning pozitsiyasi modellashtiriladi;

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

ikkinchi bosqichda shu model asosidagi algoritm bilan uslubiy xoslanishi aniqlanadi.

Subyektiv baho shakllarini uslubiy xoslanishiga ko'ra teglashtirishda o'zbek tilishunosligidagi nutq uslubiyati borasidagi nazariy qarashlarga asoslanildi. Morfologik shakllar, asosan, barcha uslublarda bir xil qo'llansada, ularning ayrimlari turli funksional stillarda o'z variantlariga ega ekanligini kuzatishimiz mumkin. Ba'zilar ma'lum nutq uslubida ko'p qo'llaniladi va shu uslubga xos ham hisoblanadi. Yoki birgina shakl turli xil stilistik vazifalarni ifodalashda qo'llanadi. Bunday vaqtlarda u shaklning semantikasida ham o'zgarish yuz beradi. Bu esa morfologik shakl va kategoriyalarni ham stilistikaning asosiy masalasi bo'lgan funksional uslublar nuqtayi nazaridan tasniflash va o'zbek til korpuslarida ifodalash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси (грамматика). Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 160 б.
2. Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 104 б.
3. Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. Монография. – Тошкент: Фан, 1989.
4. Roger Garside, Geoffrey Leech. Corpus Annotation: Linguistic Information from Computer Text Corpora. Longman, 1997.

MUNDARIJA

Sirojiddinov Sh. Tabrik so'zi	5
Isajon Sulton. Milliy korpus – o'zbek tilini rivojlantirishga innovatsion yondashuv.....	6

Jamoliddinova O. Tabrik so'zi	7
--	---

1. SHO'BA. O'ZBEK TILINING MILLIY KORPUSI: NATIJALAR, MUAMMOLAR, VAZIFALAR

Mengliyev B. O'zbek tili korpusshunosligining dolzarb masalalari	8
Axmedova D. O'zbek tili korpuslari semantik kengaytmasida "bosh" leksemasining semantik izohlaridan foydalanish xususida	10
Elov B., Xamroyeva Sh., Xusainova Z. O'zbek tilidagi turli tuzilishli so'zlarni lemmalash usullari	14
Abdullayeva O. O'zbek tilida til korpuslarini tuzishning o'ziga xos xususiyatlari	21
Hayitova A. Alisher navoiyning "badoye' ul-vasat" korpusi haqida	26
Xidirov O. O'zbek tili korpusi uchun sintaktik tahlil dasturini yaratish nazariyalari	29
Xolova M. Jahon dialektal korpuslariga bir nazar	33
Tojiyeva G. Niyazov S. Milliy korpusda ma'naviyat kategoriyasi birliklarini teglash masalalari	38
Khursanov N. Correspondences, analogies and differences of corpora	41

2. SHO'BA. O'ZBEK TILINING TA'LIMIY KORPUSINI YARATISH MASALALARI

Xusainova Z. O'zbek tili ta'limiy korpusida lemmalash algoritmlari	46
Rahmatova Z. Ochilova F. O'zbek tilining ta'limiy korpusi bazasini takomillashtirishda maktabgacha yoshdagi bolalar lug'atlarining o'rni	54
Менглиева С. О необходимости описании и толковании терминов э-бизнеса в языковых корпусах	59

3. SHO'BA. AMALIY FILOLOGIYA YO'NALISHLARI ISTIQBOLLARI

Abduvaliyeva A. Iqtisodiyotga oid terminlar o'quv-izohli lug'atini yaratish xususida	62
Abdurayimova D. Ijtimoiy tarmoqdagi yozishmalarda shaxs psixologiyasi va nutq munosabatini tadqiq qilish ahamiyati	66
Bo'riyev I. O'zbek tili iboralarida polisemiya hodisasi	71
Nurboboyeva M. Yangi avlod sinonimlar elektron o'quv lug'atini tuzishning lingvistik tomoni	77
Hamroyeva Sh. Alimbekova M. Jadid namoyondalari asarlarining til xususiyati	81
Shirinova M. Telenutq – medianutqning bir ko'rinishi sifatida	88
Turdimurodov S. Frazologik evfemik birliklarda graduonimik munosabatlarning ifodalanishi	92
Xonnazarov E. Kelasi zamon grammatik shakllarining annotatsiyasi va ularni lingvistik modellashtirish masalasi	97

O'zbek tili milliy va ta'limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

Yunusov N. Zamonaviy tilshunoslikda sifatlar tasnifining asoslari: tub(asliy) va nisbiy sifatlar	102
Maxmudova Z. The lexicographic interpretation of the verb (in the example of "yig'lamoq")	106
Maxmudova Z. Umumiy semali holat fe'llari tahlili	109
Maxmudova F. Language and media	112
Bafoyeva N. Badiiy tarjimada adekvatlik tushunchasi	115
Avezova N. O'zbek tilidagi inson a'zolari harakatini ifodalovchi leksemalarning ingliz tilidagi matnlarda berilishi	118
Eshboyev Q. So'zlararo darajalanish lug'atining korpusdagi o'rni	123
Zaripov R. Ravshanova N. Til menejmentida til hamjamiyati, nutq hamjamiyati va domen tushunchalari	127
Norqo'Ziye J. O'zbek tili xrononimlarining leksikografik tadqiqi: muammo va yechimlar	132
Hamroyeva Sh. Tog'Ayeva D. So'z yasovchi qo'shimchalarni modellash tirish	138
Zaripov R. Til siyosati komponentlari	141
Murtazayev A. Normativ-huquqiy hujjat matni lingvistik ekspertizasida imlo qoidalariga moslik masalasi	143
Zaripov R. Ravshanova N. Til menejmenti komponentlari, darajalari, bosqichlari va me'yorlari	152
Raximova S. Badiiy matnlarda fe'l so'z turkumiga doir frazeologik birliklar polisemiyasi	156
Islomov I. O'zbek tili terminologik birliklarini semantik tenglash xususida .	160
Islomova Sh. O'zbek shevalari korpuslari uchun dialektizm iboralarni talqin qilishning ayrim masalalari	165
Mirzazoda D. Suyish termini va maydon nazariyasi	169
To'rayeva D. O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalardagi hududiy xoslangan birliklarni aniqlash metodikasi	172
SOBIROVA E. Yurisprudensiyaga oid lug'atlarda xalqaro terminlarni milliylashtirish masalasi	176
Usmonova U. Leksik arxaizm va uning semantizatsiyasi	184
Yaxshiyeva E. Arxaiklashish hodisasining terminologiyada aks etishi masalasi	190

4. SHO'BA. TIL TA'LIMIDA KORPUSLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Abdiraimov Sh. Milliy korpusdan test topshiriqlarini tuzishda foydalanishning ahamiyati	195
Shirinova Y. Iskandarova G. O'zbek tili ta'limiy korpusida omonim va ko'p ma'noli so'zlar semantikasining o'zlashtirilishiga doir	200
Sobirov M. O'quv lug'atchiligi va til ta'limi korpusi masalalari	204
Bobodo'stov Yu. Ona tili ta'limida til korpusidan foydalanishning ahamiyati	207
Hamdamova G. Ona tili ta'limida o'quvchilar leksik minimumini	

O‘zbek tili milliy va ta’limiy korpusining nazariy va amaliy masalalari

aniqlashning ahamiyati 213

5. SHO‘BA. TABIIY TILGA AVTOMATIK ISHLOV BERISH MUAMMOLARI

Нигматова Л. Аvezов С. Применение методов nlp в корпусных исследованиях: особенности и ограничения 216

Hamroyeva Sh. Qodirova M. Avtomatik tarjima yo‘nalishi: muammolar va yechimlar 221

Maxammadov B. O‘zbek tiliga tarjima qilingan android operatsion tizimi mobil ilovalari terminlarining qo‘llanilishi va ularning foydalanishda yaroqliligi 226

Elova D. Jumaqulova N. Subyektiv baho shakllarining uslubiy qo‘llanilishini korpusda aks ettirish imkoniyatlari 230

Mundarija 236